

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

SHUXRAT YOVQOCHEV

**JAHON SIYOSATIDA
ISLOM OMILI**

Toshkent – 2024

Yovqochev Shuxrat Akmalevich
Jahon siyosatida islom omili
Uchinchi nashr

Taqrizchilar:
siyosiy fanlar doktori, professor **Jumayev R.**
siyosiy fanlar nomzodi, dotsent **Bahadirov M.**

Mazkur qo‘llanma oliy ta‘lim tizimdagi magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan. Uning asosiy maqsadlaridan biri magistrantlarni yetuk mutaxassis, Vatanga sadoqat, milliy va diniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash hisoblanadi. O‘quv qo‘llanma musulmon mamlakatlari xalqlarining jahon siyosatida va xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni va ahamiyatiga, Xalqaro maydonda musulmon mamlakatlar tashqi siyosati va xalqaro islom tashkilotlarga bag‘ishlangan. Qo‘llanmada islomning dunyo mintaqalaridagi holatiga, uning an‘anaviy jamiyatlarning ichki siyosati va xalqaro sohadagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga katta e‘tibor berilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrug‘iga asosan
nashrga tavsiya etilgan.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024.

MUNDARIJA

KIRISH	4
1. JAHON SIYOSATIDA ISLOM OMILINI O‘RGANISHNING ILMIY-TADQIQOT ASOSLARI	6
1.1. Xalqaro munosabatlarning zamonaviy tizimi va musulmon olami	6
1.2. Jahon siyosatida islomning o‘rni va roli.....	21
1.3. Islomiy radikalizm va zamonaviy dunyoda terrorizm muammosi	30
1.4. Islom mamlakatlari asrlar davomida (siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlar).....	49
2. ARAB-MUSULMON DAVLATLARIDA ISLOM OMILI	64
2.1. Arab dunyosining siyosiy taraqqiyotida islom (Misr, Jazoir va Tunis misolida).....	64
2.2. Arab davlatlarining tashqi siyosati: asosiy yo‘nalishlarining shakllanishida islom omili	73
2.3. Misrning zamonaviy siyosiy tuzumida islom omili.....	89
2.4. “Birodar-musulmonlar” tashkilotining Misrning tashqi va ichki siyosatiga ta’siri	105
2.5. Arab-musulmon olamida demokratiya masalasi.....	120

3. XOZIRGI ZAMON OSIYO, YEVROPA VA AMERIKADA ISLOMNING JAMIATDA

TUTGAN O‘RNI 132

3.1. Markaziy Osiyo davlatlarida islom omili.....132

3.2. 3.2. Zamonaviy Eron ijtimoiy-siyosiy hayotida islomning o‘rni.....143

3.3. Hozirgi zamon Rossiyada islom omili 153

3.4 Yevropada va islom dini 164

3.5. Amerikada islom dini 172

4. ISLOMDA ZAMONAVIY MEGATREND

VA TAHDIDLAR 179

4.1. Xalqaro islom tashkilotlari va ularning jahon siyosatida tutgan o‘rni 179

4.2. Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi: afsona va haqiqat.....186

4.3. ISHID: haqiqat va iddao.....197

4.4. **GLOSSARIY**.....210

KIRISH

Hozirgi kunda dunyo hamjamiyati murakkab bosqichdan o'tmoqda. Eski dunyo tartibotining buzilishi va yangisining vujudga kelishi nihoyatda keskin holatda kechmoqda. Bir qutbli dunyo tartibotidan ko'p qutbli dunyo tartibotiga o'tish davri kechirilmoqda.

Bu davr, dunyoning bir nechta nuqtalarida urush va keskin ziddiyatlar bilan belgilanib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining eng muhim maqsadlaridan biri dunyoning rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib o'rinni egallashdir. Mamlakatimiz tomonidan turli iqtisodiy va siyosiy sohalarda erishilgan yutuqlar davlat rahbari va hukumat tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosatining yaqqol misolidir. O'zbekiston tinchliksevarlik siyosatini olib borib, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmasligini va har qanday xalqaro harbiy bloklarga qo'shilmasligini e'lon qilgan.

Bularning barchasi, o'z navbatda, dunyoda yuz berayotgan chuqur siyosiy-ijtimoiy bo'hronlar sharoitda, yurtimiz va xalqimizga katta mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi.

Bunday tarixiy bir damlarda, jahonda yuz berayotgan siyosiy, huquqiy va iqtisodiy voqealarni to'g'ri tahlil etish hamda ularga xolisona baho berish nihoyatda muhimdir.

Shuning uchun dunyoda deyarli har qadamda, juda ham muhim bo'lgan hodisalar va jarayonlar sodir bo'layotgan bir davrda, har bir ziyoli inson, mutaxassis, shu bilan birga, siyosat va uning turli mamlakatlardagi ko'rinishlari kabi turli xil jabhalarda o'zining qarashlarini qat'iy belgilab olishi zarur. Shu bilan bir qatorda, islomning xalqaro hayotdagi va jahon zamonaviy siyosatidagi o'rni tobora murakkablashib bormoqda.

Xalqaro munosabatlarning bosqichma-bosqich rivojida XX asrda vujudga kelgan va jadal rivojlangan Afro-Osiyo islom harakatining hukumat va nohukumat doirasidagi harakatlari o'ziga xos o'rin tutadi. Xalqaro darajadagi faolligi, hozirda bir necha o'nlab davlatni qamrashdan tashqari ochiqdan ochiq global jahon siyosatidagi asosini tashkil etib turuvchi komponent bo'lishga da'vogarlik qilayotgani hech kimga sir emas. Indoneziya siyosatining asosiga

e'tibor bersak, zamonaviy islom haqida umumiy tasavvur hosil qilishimiz mumkin.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar, Osiyo, Afrika, Yevropa va Shimoliy Amerika kabi davlatlarda istiqomat qiluvchi deyarli yer yuzi aholisining 1/6 qismini tashkil etuvchi islom tarafdorlarining siyosiy faolligi o'sishi bilan xarakterlanadi.

O'tgan asr 80-yillarining mashhur shiorlaridan "Islom bilan yakdillikda oldin qadam tashlaylik" shiori yigirma yildan ortiq vaqt davomida o'zining nafaqat jahon hodisalari silsilasida, balki, yeng asosiysi, u ko'z o'ngimizda dunyo siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Bu kabi ko'p qatlamli va ko'p qirrali jarayon, birgina hammaga ma'lum va mashhur to'laqonli o'rganilmagan, ko'plab tarkibiy qismlarga ega bo'lgan, islom terrorizmi tomonidan o'sib borayotgan xavfdan tashqari komponentlarga ega. Dunyo miqyosida, islomga ayrim hollarning ta'siri ortib borishi kompleks xarakterga ega va uning tadqiq etilishi jahon siyosati asosiy tarkibiy qismini to'laqonli tasavvur etish imkonini beradi.

Bu maxsus fanni o'rganish asnosida, o'rganuvchilarga dunyoning siyosiy va diniy jarayonlarida sodir bo'layotgan hamda ijtimoiy tomonlarida mavjud bo'lgan masalalarni to'g'ri tushunish va to'g'ri baholash imkonini beradi.

1. JAHON SIYOSATIDA ISLOM OMILINI O'RGANISHNING ILMIY-TADQIQOT ASOSLARI

1.1. XALQARO MUNOSABATLARNING ZAMONAVIY TIZIMI VA MUSULMON OLAMI

Darsning o'quv maqsadi: Magistratura talabalariga jahon siyosatida, xalqaro siyosiy jarayonlarda davlatlarning ichki va tashqi siyosatida islom omilining ta'siri hamda xalqaro munosabatlarda musulmon davlatlarining ahamiyati, islom harakatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida batafsil ma'lumot berish va ularda bular to'g'risida to'liq tushuncha xosil etish.

Tayanch iboralar: Hozirgi zamon xalqaro munosabatlar, islom nazariyasi, radikal islomchilik g'oyasi, musulmon mamlakatlari, islom omili, islomchilar harakati.

Reja:

- 1.Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi.
- 2.Islomning xalqaro munosabatlardagi roli.
- 3.Xalqaro munosabatlarda musulmon davlatlarining ahamiyati
- 4.Musulmon davlatlarining zamonaviy jahon jarayonlarida tutgan o'rni.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi asosan, dunyoviy harakterga ega. Shu bilan birga, u yoki bu xalqlarning diniy qarashlari mamlakat ichki siyosiy hayotidagi ta'siridan tashqari, davlatlarning o'zaro munosabatlari rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Ko'plab dalillar XX asr so'ngi o'n yilliklarida turli mamlakatlarda aholining dinga e'tiqod qilishining ortishi va diniy harakatlarning faollashuvini ko'rsatadi.

Hammasidan ham ko'proq asosiy bahs mavzusi, dunyo aholisining e'tiqod qilishi bo'yicha (xristianlikdan keyin) ikkinchi o'rindagi 1,5 mlrd. yaqin inson 127 davlatda e'tiqod qiluvchilarga ega islom dinidir.

Turli xil tarixiy sabablar ta'siri natijasida, islom mamlakatlari (odatda, islom konferensiyasi tashkilotiga a'zo davlatlar kiradi) birinchi

jahon urushidan so'ng, zamonaviy xalqaro munosabatlarning asosiy konturi shakllanish jarayoni boshlanishidan chetda qolgan.

Musulmon davlatlridan, bu jarayonlarda qandaydir bir maqomga da'vogarlik qilishi mumkin bo'lgan, yagona imperiya, bu ham bo'lsa, birinchi jahon urushigacha mavjud bo'lgan Usmonli turklar imperiyasidir.

Ko'pchilik tadqiqotchilar, shu qatorda yevropa olimlarining fikriga ko'ra, yangi davrdagi islomning siyosat maydonidan siqib chiqarilishi, mustamlakachi hukumatlarning oldindan maqsadli harakatlari, shu bilan birga, arab siyosiy madaniyatining ta'siri bilan izohlanadi.

Taniqli islom tadqiqotchilaridan P.J.Vatikiotis fikricha, so'nggi 150 yil ichida islom din va qonun sifatida, davlat ishlari, iqtisodi va xalqaro munosabatlarini yuritishda eng kichik qissagacha siqib chiqarila bordi.

Birinchi va ikkinchi jahon urushlari davri va undan keyingi yillarda, mustamlakachilikka qarshi harakatlarda, ma'lum bir rol o'ynagan bo'lsa ham, to 70-yillarigacha g'arbda (xususan, o'zimizda ham) islom diniga, musulmon davlatlarining tashqi siyosatidan chiqib ketayotgan omil sifatida qaralgan edi.

Taniqli britaniyalik arabshunos olim Montgomeri Uott 1962-yilda Buyuk Britaniyada nashr etgan "Islom falsafasi va nazariyasi" tadqiqot ishida, islomning musulmon jamiyatida o'rni tushub borayotganini va islomda magnitizmga ega bo'lgan, uni katta olomon va shu bilan birga, siyosiy elitalar qo'llab-quvvatlashi natijasi bilan islomni qayta oyoqqa turushi jarayonini oldinga siljita oluvchi shaxs chiqishiga shubha bilan qaraydi.

Islomning xalqaro munosabatlardagi o'rni mahalliy tahlilchilar tomonidan ham turlicha baxolanadi. Musulmon davlatlari olimlari ishtirok etgan Islom va xalqaro munosabatlarga bag'ishlangan konferensiyada (Buyuk Britaniya, 1963) islomning musulmon davlatlarining xalqaro maydonda ta'siri pasayib borayotganligi to'g'risida bahs va munozaralar o'tkazishdi.

Konferensiya ishtirokchilaridan biri Fuad as-Sayod xulosa qilib, "Islom betaraf va nobetaraf musulmon davlatlari va siyosatchilarning

qaror qabul qilish jarayoni, ularning harakatlari motivatsiyasiga sezilarli ta'sir o'tkazmayotganini ta'kidadi.

Vaqt shuni ko'rsatdiki, g'arbda va sharqda ham, islomning musulmon mamlakatlari va uning katta sonli aholisiga ta'sirini to'g'ri baholay olmagan, uning salohiyati, mobil va integratsiyalashuvchi imkoniyatlariga past baho berganini isbotladi.

80-yillarga kelib, jurnalistlar, siyosatchilar va olimlarning yondoshuvlari butunlay o'zgarib ulgurgandi. Islom dini qayta tiklanish bosqichini boshidan o'tkazayotgani va barcha musulmon davlatlarda tobora muhim ahamiyat kasb eta boshlaganligi va uning xalqaro maydonda, ustunlikka ta'siri ommaviy ahamiyatga aylanib bo'lgandi.

Ko'plab nashrlarda bu kabi jarayon 1978-1979 yillardagi Erondagi Islom revolyusiyasi g'alabasining ta'siri, kabi noto'g'ri farazlar bilan izohlandi.

Aslida esa, islomning roli ortishi ("islom uyg'onishi" musulmon olamida urf bo'lgan nom) islom olami mamlakatlari siyosiy hayotida 60 yillar o'rtalaridan boshlab, Eron revolyusiyasidan ancha oldin tamal toshi qo'yib ulgurilganini dastlab sovet (undan so'ng Rossiya) olimlari bir qator mahalliy va mintaqaviy va xalqaro masshtabda quyidagi omillar bilan izohlashdi.

- Musulmon davlatlarning siyosiy elitalari o'zlariga andoza qilgan g'arb va Sovet rivojlanish modellarining inqirozi alomatlarining ko'zga yaqqol tashlanishi.

- Bu inqiroz 60-yillar so'ngida g'arbiy Yevropada 1968 yilgi "Praga bahori" va undan keyin, sovet qo'shinlarining Chexoslovakiyaga olib kirilishi kabi revolyusiyalarda, musulmon davlatlari jamiyatning modernizatsiya qilish yevropa yoki sovet andozalari inqirozida namoyon bo'lishi.

- Arab mamlakatlarining 1967-yil iyun oyidagi Isroil bilan urushda mag'lubiyati milliy (dunyoviy) mafkuralarning nufuzini tushurgan hodisa, shuningdek nasroniylik va baosizmning musulmon mamlakatlarining aholisi katta qismi, islomga dolzarb masalalarining yechimlarini izlab murojaat eta boshladi.

- Musulmon olamida milliy asosda davlatlarni birlashtirish (Arab birligi, mag'rib davlatlari integratsiyasi kabi va hokazo)

loyihalarining Yevropa integrasiyon jarayonlari oldida muvaffaqiyatsiz yakun topishi.

- Saudiya Arabistoni, Quvvayt, Liviya va boshqa islomiy davlatlar islomning yoyilishida “Islom insonparvarligi” asosida, islomiy harakatlarga faol yordam uchun yo‘naltirilgan moliyaviy va siyosiy rag‘batining ortishi.

Bundan tashqari, Erondagi islom shiori bilan ko‘tarilgan revolyusiya g‘alabasi bilan hukumat musulmon liderlar qo‘liga o‘tishi va davlat qurishda islom modeliga asoslanishi, yangi AQSHga qarshi Eron tizimining shakllanishi va tashqi siyosatda “Islom xalqaro tartibi” bilan amalga oshirishni e‘lon qilishi, boshqa islom davlatlaridagi keng masshtabdagi aholi qatlamiga, xususan, yoshlar orasida o‘z ta‘sirini o‘tkazdi.

G‘arbda “fundamental” yoki “integrik” harakatlar deb nom olgan butun musulmon olami va undan tashqari hududlarda vujudga kelgan harakatlar keskin faollashdi. Bunga, musulmon davlatlaridagi, hozirgi paytlarda Livandagi Hizbulloh tashkiloti, Jazoirdagi “Islom qutqaruv fronti”, Misrdagi “Al-Jamoa al-Islamiya” yorqin misol bo‘ladi. Bularni “siyosiy islom” tipiga kiritib, ularning ishtirokchilarini odatda “islomiylar” (“Islamists”) deb atashadi.

Islomni siyosiy ahamiyat kasb etishi, musulmon olamini turli qismlarida turli vaqtda sodir bo‘lishi, har bir alohida mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy sabablariga ko‘ra yuz berdi.

Birinchilardan bo‘lib (1950-60 yillardayoq) bu jarayonni Misr, Suriya, Iroq kabi chuqur ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarni boshidan o‘tkazayotgan davlatlar tan oldi. Keyinroq (1970-yillar oxiri 80 yillar boshida) navbat Pokiston, Eron, Marokkash va ba‘zi boshqa mamlakatlarda yuz berdi.

1980-yillar oxiriga kelib, islomning siyosiy tus olish radikal harakteri kuzatilmagan musulmon mamlakatlari deyarli qolmagan edi.

Davlat hukumatini tanqid qilish bilan birga, u bilan murosaga kelishishga tayyor, hukumat tizimlarida (parlamentda xatto boshqaruv apparatida) ishtirok etuvchi mo‘tadil, ekstrimistikdan tortib, islom niqobi ostida va terror usullarini qo‘llovchi turli-tuman islomiy harakatlar mavjud bo‘ldi.

Islomiy tashkilotlar qatoriga o'zida tinch va qonuniy ishlash metodlarini qo'llovchi, shu bilan bir qatorda zarur hollarda terrorga murojaat etuvchi, o'z faoliyatini maxfiy saylovchi strukturalar mavjud edi. Misol uchun, Misrdagi Al-Jamoat al-Islamiya va Al-Jihad radikalterror guruhi Misrdagi "Birodar-musulmonlar" tashkilotida ajralib chiqqan tuzulmaviy bo'limlar deb hisoblanardi. Shuning uchun, islomiy harakatlar osonlikcha qonuniydan noqonuniyga aylanishi, tinchdan qurolli metodlarga o'tishi mumkin.

Islomiy harakati mafkurasi o'ziga XIX-asr va XX-asr boshlarida salafiylar (Jamol ad-Din al-Afgoniy, Muhammad Abdo, Rashid Rida, Abduramon al-Kavakibi) hamda, zamonaviy islom ulamolar (Xasan al Banna, Sayid Qutb, Muhammad al-G'azzoliy, Mustafo as-Sibaiy, Abu al-Alaa al-Mavdudiy, Taki ud-Din an-Nabixoniy, Imom Humayniy va boshqalar) g'oyalarini singdirganlar.

Sunniylar va shialar radikal guruhlar orasida ular intilayotgan davlat tuzilishi va islom boqiy davlat boshqaruvi to'g'risida turli xil tushunchalar mavjud edi.

Shialar umuman monarxiyani rad etadilar. Ular nazdida davlat boshqaruvi imom qo'lida bo'lishi kerak. Shialar yana dunyoda bir kun kelib, ommaviy adolat qaror topishini va insonlar yakka Imom Maxdi jamoati osti birlashadi, deb e'tiqod qiladilar.

Sunniylar fikrida esa, ideal davlat tizimi Payg'ambar Muhammad va to'rt "adolatli xalifalar" ("xulafai rashidin") davrida bo'lgan deyishadi. Sunniylarda xalifalik nazariyasi musulmon olamining davlat tizim shakli sifatida muhim joy egalaydi.

Dunyo tuzilishi islom konsepsiyasi butun jahon aholisini ikki turga bo'ladi, birinchisi "ummat musulmon" jamiyati va boshqa barcha insonlar, "Dor ul-Islom" (Islom olami)ga davlat islom tamoyillari bo'yicha boshqariladigan mamlakatlar kiradi. Islom olamini himoya qilish har bir musulmon uchun farz (muqaddas burch) hisoblanadi. "Dar ul-Xarb"(urush olami) Islomga har qanday tahdid keltirib chiqargan, yohud musulmonga urush e'lon qilgan davlatlar hioblansa, "Dar ul-Sulh" (tinchlik bo'yicha shartnoma olami) boshqaruvchilar o'zaro kelishib olgan davlatlar hisoblanadi.

Musulmon va nomusulmon olami o'zaro kelishuvi shartlaridan biri bu yakka xudolikdir. Islom butunligicha xalqaro jamiyatni mavjud

bo'lishini ham yaqqol qabul qiladi. Lekin bu hamjamiyatga islomning ta'sirini birinchi o'ringa qo'yishadi, chunki islomning yoyilishi islom davlatlari uchun diniy farz va majburiyat hisoblanadi. Shundan keyin, islomni qurol bilan singdirish harakatlari tarzida o'z aksini topdi.

Radikal islom harakati mafkurasining asoschilaridan biri Abu alAlaa al-Mavdudi o'zining dastlabki izlanishlarida islom va milliylikning maqsadlari butunlay qarama-qarshi ekanligini, islomning bosh maqsadi yagona butun jahonni qamrab oluvchi, unda irqar yohud millatlar o'rtasida tabaqalanish umuman yo'q bo'lgan, islom davlatini tuzish kabi chaqiriqlarni, milliylikka asoslangan tizim aslo qabul qila olmaydi, chunki u milliy davlat urush uchun ter to'kadi.

Mavdudining milliylik konsepsiyasi umuman, barcha qonunqoidalarga zid. Chunki u, barcha insonlar o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga olib keladi, deb isbotlagan.

Islom esa buning aksi bo'lib, butun sayyorani inson yashaydigan joy sifatida, shu bilan birga, u insonlar o'rtasidagi sun'iy barcha to'silarni yakson yetadi. Shuning uchun, Mavdudiy Hindistondagi "Hindiston Milliy Kongressi" va musulmon millatchilari britaniyaliklarga qarshi-kurashda, musulmonlarni milliy ozodlik harakatlarida ishtirok etmaslikka chaqirgan, chunki buning natijasida ular (hindiston musulmonlar) xristiyan boshqaruvidan chiqib, hind xudolik boshqaruvi ostida bo'lishlarini ta'kidlagan.

Pokiston davlati tuzilgandan so'ng, Mavdudiy va uning partiyasi islomiy davlat qurush uchun ommaviy harakat boshlashdi. 1960yillarda Mavdudiy musulmon davlatlari blokini tuzishga chaqirdi. U musulmon davlatlarini chegaraviy hududini tan olgan holda, musulmon davlatlari o'rtasidagi ruhiy hamjihatlikka, tashqi va ichki muammolarni yakdillikda yechishga chaqirdi.

Islom shialari nazdida, g'arb xudosizlar jamiyati deb qaraldi. Ko'pchilik ananaviy, islomiy hisoblangan davlatlarda, xususan Rossiya, ham, bugungi kunda (urush olami) sifatida gavgdalanadi. Bu davlatlar hukumati xudosizlar qo'lida hisoblanadi. Bu kabi hodisalarning tarixiy ko'rinishi Jazoir va Misrda, Eron esa "islom diyori sifatida" namoyon bo'ladi.

G'arbning nisbatan radikal doiralari islomni asosiy dushmanlaridan hisoblaganini, bu musulmonlarning taraqqiyotiga va

geosiyosiy, ruhiy yakson etilishiga mahkum qildi. Shuning uchun, har bir musulmon o'zini jahon miqyosida, o'z yurtining tahdiriga befarq bo'lmagan siyosatchi nuqtayi nazari bilan yondashishi shart.

Bugungi kundagi islom siyosiy harakatlarining asosiy yo'nalishi, bu muxolifatdir. Islomiy muxolifat o'zini "uchunchi kuch" sifatda gavdalanib, bu so'zning asli ma'nosi, o'zi mustaqil faollik ko'rsatishi kerakligini Imom Xumayniy Eron revolyusiyasidan keyin ta'kidlaganidek, y "Biz G'arb ham emas, Sharq ham emas" degan ma'noni eslatib turush kerak, deb tushunishadi.

O'zlarining amaliy foaliyatlarida islomchilar o'zlariga Sudandagi Al-Mahdi revolyusion harakati, Liviyadagi Sanusiylar, Jazoiridagi Abdul Qodir, Marokashdagi Rif Islom Respublikasidan, birinchi falastin urushida va Suvaysh kanali hududida inglizlarga qarshi urushda Birodar-musulmonlar ishtiroki va Erondagi islom revolyusiyalaridan ruhlanish va quvvat olishadi.

Aytish joizki, islom harakatlari ham, mafkurada ham, siyosiy amaliyotda jiddiy o'zgarishlarga duch kelishi mumkin. Misol uchun, Birodar-musulmonlar tashkiloti 1920-30 yillar oxirida ma'naviy ma'rifiy harakatidan 1940-50 yillarda harbiylashgan terroristik tashkilotiga aylangan.

So'ngi paytlarda "Hizbulloh" tashkiloti Livan parlamentiga a'zolarini kiritib, Iordaniyaning Isroil bilan tinchlik shartnomalarini imzolanishda sukut saqlab, rozilik bildirish bilan o'z siyosatini o'zgartirdi. Lekin aksariyat hollarda asosan qurol-yaroq ko'p to'plangan va nizoli vaziyat mavjud bo'lgan hududlarda, islom radikalizmi oskonlik bilan siyosiy ekstremizm va terrorizmga o'tib oladi.

Shunday qilib, islomiylar boshqa din vakillaridan farqli o'laroq ko'pchilik musulmon davlatlari siyosiy rejimlariga oppazision yondashadilar, ularning fikricha, rasmiy islom boshqaruv elitalari qo'lidagi qurol sifatida nomoyon bo'layapti, deb hisoblaydilar.

Boshqacha qilib aytganda, islomizm diniy harakatdan ko'ra ko'proq siyosiy harakatlar tusini olgan va ularning namoyondalari hech qanday din qonun-qoidalarini o'zgartirish, yangilash kabi fikrlardan yiroqdir. Ularning asosiy talabi davlat qurilishidagi islomga mos kelmaydigan mavjud amaliy siyosat rejimidagi bosh mafkurani inkor

etib, dinning jamiyat hayoti o‘rnidagi roli va o‘rnini o‘zgartirishni talab etadi. Ular butun kuchlarini jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlarni qamrab olgan barcha tuzumlarni tubdan isloh qilish nafaqat musulmon davlatlarida, balki butun jahon miqyosida amalga oshirishni o‘zlariga maqsad qilib olgan.

Gap hozir islomiy dunyo tartibini o‘rnatish haqida ketmoqda. Shunday qilib, Misr Birodar-musulmonlar sobiq yetakchisi Mustafo Mashhur ba‘zi ma’lumotlarga ko‘ra o‘zining intervyularidan birida tashkilotning maqsadi “Ya’ni 30 yil ichida butun jahon islom davlatini tuzish” deb aytgan. Hamma islomiy tashkilotlar ham g‘arbga qarshi siyosat yo‘lini tutmaydi. xar holda amaliy jihatdan. Ular ichida g‘arb maxsus xizmatlari bilan aloqasi mavjud, ayrimlari esa xatto harbiy kuchli davlatlardan yordam olishadi. Ma’lumki, misol uchun 1940-50 yillarda Angliya va Amerika davlatlarining Misr Birodar-musulmonlar tashkiloti bilan aloqasi mavjudligini va boshqa islomchilik harakatlari shu qatorda radikal tusli harakatlar (masalan Jazoirdagi Islom Qutqaruv Frontini) tomonidan qo‘llab-quvvatlagani ayrim holatda (masalan Afg‘onistondagi Tolibon harakatiga) yordam ko‘rsatib, o‘zlari uchun foydali mehnatga buzg‘unchi kuchlarni yo‘naltirish uchun yordam ko‘rsatgan. Biroq aksariyat islom ekstremistik tashkilotlari G‘arb va g‘arb tuzumidagi musulmon davlatlari salbiy munosabat bilan sifatlanadi. Misol uchun, Sudanda Milliy islom fronti, Livandagi Hizbulloh va Jundulloh (“Alloh jangchilari”) tashkilotlari, Misr AlJamo’a ul-Islamiya va boshqalar Misr, Saudiya Arabistoni ya’ni Sharq mamlakatlaridagi g‘arbparastlik ruhidagi tuzumini ketkazishga harakat qilayotganlarini ta’kidlaydilar. Ularda shunday, faqatgina islom g‘arb tomonidan ruhlantirilgan arab millatchiligi va boshqa singdirilgan mafkuralar puchga chiqishidan so‘nggi bo‘shliqni faqatgina islom to‘ldirishi mumkin degan ishonch xukm suradi. Islomiylar uchun mavjud dunyo boshqaruviga salbiy munosabat uchinchi dunyo mamlakatlari va musulmonlarga nisbatan cheklov va kamsitishlarga salbiy munosabat ko‘rsatish xususiyati xos. Islom harakatlariga xos xususiyat ularning ko‘pchiligi o‘z faoliyatini o‘zlari mavjud bo‘lgan hududdagina cheklanib qolmay, faoliyatlarini qo‘shni davlatlar hududlari shuningdek, o‘z filiallarini musulmon davlatlaridan tashqari musulmon bo‘lmagan davlatlarda ham faoliyat olib borishi xalqaro

xususiyatni kasb etadi. Odatda, ular o'zlarining mamlakatlari chegarasidan tashqaridagi islom tashkilotlari bilan faol hamkorlik qiladi. Masalan, Sudan milliy islom fronti Jazoiridagi Islom qutqaruv fronti va uning harbiy qanoti bo'lmish islom qutqaruv armiyasi bilan aloqa qilib turadi. Misr al-Jamoa al-Islamiya esa Tunisdagi "an-Naxda" partiyasi bilan hamkorlik qiladi. Jazoir Islom Qutqaruv Fronti o'z o'rnida Tunis radikal islomiylarga yordam ko'rsatsa, Amerika islomiylari esa, Janubiy Afrika respublikasi islomchilari bilan hamkorlik qiladi. Odatda, islom harakatlari tashkilotlari chet-elda shu bilan birga davlat strukturalari ko'maklaridan foydalanishadi. U yoki bu islomiy harakatlarning paydo bo'lishi aksar holatda qaysidir manfaatdor davlat tomonidan uyushtiriladi. Masalan, Livandagi «Amal» va «Hammas» tashkilotlari Suriya va Eron qo'llab-quvvatlashi asnosida paydo bo'lib rivojlangan.

G'arb davlatlarida ayniqsa AQSHda islomning qayta jonlanishi Yaqin Sharqdagi siyosiy barqarorlikga tahdid sifatidagi omil deb tushuniladi. Erondagi islom revolyusiyasi va uning "Xalqaro islom inqilobi"ni yoyish da'vati Saudiya aholisining sharqiy hududidagi shia aholisiga taxlika soldi va Makkadagi muqaddas masjidni qurolli islomiylar tomonidan qo'lga olinishi, 1980-yillar boshida Baxrayn va Quvaytdagi xorijiy elchixonalariga bosqinlar, davlat to'ntarishiga urinishlar, 1981-yilda Anvar Sadatning o'ldirilishi, shiyallarning radikallik kayfiyati ortishi va 1983-yilda Livandagi Amerika va Fransiya kazarmalariga hujumi – bular hammasi global miqyosdagi islom inqilob tahdidi qo'rquvini va yanada g'arb dunoyosida tarixiy ildizlarga ega bo'lgan islomofobiyaning ortishiga sabab bo'ldi.

Aynan shu hodisalardan keyin g'arb ommaviy axborot vositalarida keng qamrovli islom tahdidi tushunchasi keza boshladi. Bu kabi tashviqot ruhidagi olib borilgan ilmiy ishlar mualliflarning islom harakatlari tomonidan uyushtirilgan xalqaro yirik hodisalar rivoji taxlilini va xristian va islom madhaniyatlari to'qnashuvi yaqinlashib kelayotgani haqida baxslar sahifalarida aks etgan.

G'arb va ayniqsa AQSHda islomni radikal islomizm deb tushunish Erondagi islom inqilobi, Amerikani terrorizm bahonasida 1986-yilda Liviya yerlarini bombardimon qilishi undan ikki yil oldin esa huddi shunday hodisa Bayrutda bo'lgan hodisalar bilan bog'liq.

Amerikaliklar islom fundamentalizmini 1945-yildan so‘ng Sharq va G‘arb qarama-qarshiligi kabi omil sifatida qarashadi. Ular uchun islom fundamentalizm xavfi kommunizm xavfi bilan teng qaraladi. G‘arb OAV “fundamentalizm nizolar va islom xalqaro havfsizlik kuchlariga noqulaylik tug‘diradi” degan g‘oyani singdiradi. G‘arbiy Yevropaning qator davlatlari islom fundamentalistlarini aktiv faoliyatini o‘z yerlariga ko‘chishidan havfsirashini ta’kidlashadi. Italiya va Fransiya Shimoliy Afrikadan kelayotgan ommaviy migrtatsiyadan havfsiramoqda. Chunki u yerda aholining o‘rish darajasi G‘arbiy Yevropadan ko‘ra ko‘proq va katta qismi ishsiz. Ayniqsa 25 yoshgacha guruhlar bu davlatlarni islom fundamentalistlar faoliyati o‘chog‘iga aylantirishi mumkin. Ayrim taxminlarga ko‘ra 90-yillar oxirida g‘arbiy yevropada 25 million musulmolar qonuniy migrantlar sifatida mahalliy aholi ishlashni hohlamagan ishlarda ishlab u yerda yashaydilar. Ko‘plab mamlakatlarda musulmonlar kattalik jihatidan ikkinchi o‘rindagi diniy hamjamiyat sifatida yahudiylar o‘rnini egalladi; Ular son jihatidan Fransiyada protestantlar va Berlindagi katoliklar sonidan ortadi. Bu barcha asossiz xavfsirashlar boy Shimoliy Amerika va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining havfsirashi va xavfsirashlarining barchasi asoslidir. Bunga dalil sifatida Parij va Bryusseldagi portlashlar, Germaniyadagi terrorchilik harakatlari va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Islomiy harakatlar va tashkilotlarning faoliyatlari nafaqat mamlakatdagi yoki qo‘shni davlatlardagi siyosiy vaziyatlarga buguningdek, butun bir mintaqaga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin. Afg‘onistondagi tolibonlarning harbiy muvaffaqiyati Tojikiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida aks-sado bo‘lib jarangladi. Jazoirdagi islomiylar va hukumat o‘rtasidagi o‘zaro kurashlarning cho‘zilib ketishi Marokash, Tunis, Misr, Iordaniya, Turkiya kabi davlatlarga va shu bilan birga Yevropaga neft va gazning yetkazib berilishiga salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Yaqin Sharq mintaqasidagi Amerikaning dominantlik juda katta ahamiyatga yega bo‘lgan juda muhim tizimi so‘rov ostida qolishi mumkin. Yaqin Sharqdagi vaziyatni barqarorlashtirish jarayoni xavfga qo‘yish asnosida Livan janubida va Isroilning o‘zida, shuningdek, Isroil tomonidan bosib olingan arab hududlarida amalga oshirilgan islomiy harakatlar ortida ma’lum siyosiy kuchlar turadi. Islomiy harakatlarni musulmon olamidan chetdagi hodisa sifatida qarash mumkin emas.

Islomning musulmon jamiyatidagi zamonaviy siyosiy hayotida bu fenomenni tadqiq etgan Salim Mansur modernizatsiya muammolarini hal etuvchi xalqning rivojlanishini yangi bosqichini boshlanganligidan dalolat beradi deb isotblaydi. Islomning uygʻonishi xalqaro arenalarda va barcha musulmon mamlakatlarda keng diniy ijtimoiy harakat sifatida davom yetmoda. Islomiylar musulmon jamiyatlarini turli xil qatlamlarida faoliyat koʻrsatmoqda: Bolalar bogʻchalari, maktablar, universitetlar, yoshlar oromgohlarida OAVda iqtisodiyotda, ijtimoiy xizmatlar sohalarida faoliyat olib borishadi. Musulmon talabalar hamjamiyati har bir musulmon davlatlari va koʻplab nomusulmon mamlakatlarida mavjud boʻlib, ularda AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya va Germaniyada tahsil oluvchi yoshlar tashkil etadi. Islomiylar dunyoviy boʻlmagan balki, islomiy qadriyatlarga yoʻnaltirilgan yangi avlod yetakchilarini, mutaxassislarini harbiy xizmatchilarini yetishtirib chiqaradi. Bu yangi avlod vakillarini Misr, Sudan Tunis, Iordaniya, Eron, Quvayt, Saudiya Arabistoni va Pokiston davlatlarida uchratish mumkin. Yoshlar harakati islomiy tashkilotlarning asosiy kuchi hisoblanadi. Islomiy yoʻnaltirilgan insonlarni jamiyatning oʻrta va past tabaqalarida oliy maʼlumotli va savodsiz, mutaxassislar va oddiy ishchilar, yoshlar va qariyalar, erkak va ayollar va bolalar orasida uchratish mumkin. Islom mafkurasi va harakati musulmon mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy hayotining ajralmas qismiga aylanib bordi.

1991 yillardagi Fors koʻrfazi inqirozi va sovet davlati u bilan birga sotsializmning qulashidan keyin islom harakatlari nisbatan kattaroq masshtabdagi musulmon olamidan ancha yiroqdagi hududlarda oʻzining yangi rivojlanish bosqichiga oʻtdi va u islomiylar siyosiy jarayonlarida postsotsialistik (sobiq Yugoslaviya, Tojikiston, Oʻzbekiston, Checheniston) dunyoning nizolariga faol aralashuvida va oʻzi oʻrnashib olgan mamlakatlarda hokimiyat uchun agressiv kurashida aks yetdi.

Islomiylar barcha musulmon davlatlari koʻp konfessiyaliligi mavjud davlat strukturalari allaqachon milliy tus olganligi kabi savollarga aniq javob bera olishmaydi va nihoyat ular zamonaviy dunyo voqeligiga moslashib ulgurgan musulmon mamlakatlarini inkor etishadi. Shuning uchun ular hokimiyat tepasiga kelgan joylarda (Eron,

Sudan) yoki hech bo'lmaganda vaqtincha hokimiyat tuzumlarida ijtimoiy qarshiliklarni ortirishga harakat qiladi va yangi muammolarni keltirib chiqarish yoki eski konfessiyalararo nizolarni qo'zg'ashga harakat qilishadi.

Islomiy harakatlarda xorezmatik liderlarning tanqisligi ularning zaif tomoni bo'lib, ularni kuchsizlantirish va asta-sekin yoq bo'lishga olib keladi. Islomiy tashkilotlar orasida yakdillikning bo'lmagani bu harakatlarning duch keladigan qiyin yechimli muammolardan hisoblandi. Rossiyalik olim G.Mirskiy global miqyosdagi yagona markazlashtirilgan harakatning mavjud emasligini ta'kidlab o'tgan.

Bundan tashqari, islomiy tashkilotlar o'rtasida jiddiy qaramaqarshilik mavjud bo'lib, hatto muxolifat kuchlarga aylanganlari ham mavjud doimiy ravishda u yoki bu davlatda gegemonlikni qo'lga kiritish uchun kurash, moliyaviy manbalarni qo'lga kiritish odatda bu kabi to'qnashuvlar qurolli tus oladi. Livandagi Amal va Hizbulloh o'rtasidagi kurashlar bunga misol bo'la oladi. Bular hammasi oddiy aholidan tortib to radikal islomchilar harakati ijtimoiy bazasi va rasmiy hokimiyat uchun kurashini jiddiy muhokama qiladi. Shuning uchun ko'pchilik islomchilik harakatlari o'z imkoniyatlarini birlashtirish va shu bilan bir qatorda xalqaro nodavlat islom tashkil qilish va yana oldindan mavjud bo'lgan bu kabi strukturalarni ustida nazoratini qo'lga kiritishga harakat qiladi. Bundan tashqari ular o'zlarining shiorlarini amalga oshirish maqsadida o'zlari turgan hukumatni egallashga harakat qiladilar. Shular bilan birga ularga tirgak bo'lishi mumkin bo'lgan davlatlarni qidirish bilan band bo'ladi va aksariyat hollarda buni uddasidan ham chiqishadilar. Bunda ularning Eron Islom Respublikasi ruhlantiruvchi namuna sifatida xizmat qiladi. Jamiyatning har jihatdan islomiylashuvi va islomchilar harakatini, hatto oldin dunyoviy va din siyosatdan ajratilgan musulmon mamlakatlarning ichki tashqi siyosati boshqaruv doiralarining obro'lariga katta ta'sir o'tkazib bormoqda. Bu davlatlarning siyosiy elitalari javob reaksiyalari, bu kabi jarayonlarga turli bolgan vaqtivaqti bilan bir biriga qarama-qarshi bo'lgan islomchlarning siyosiy kurashda foydalanishdan tortib islomchilik faol a'zolarini ta'qib etishigacha. Jazoir, Bangladej, Misr, Yaman Arab Respublikasi konsitutsiyalariga asosiy davlat qonun hujjati shariyat qonunlari hisoblangan o'zgartirishlar kiritadi. Jazoirda uzoq muddat

yagona partiyaviylik mavjud bo'lib, 1988-yilda diniy partiyalarga siyosiy xayotda ishtirok etishga ruxsat berilgan.

Ko'pgina musulmon davlatlarining yetakchilari islom retorikasini va ramzlardan o'zlarining islomga xayrixoxliklarini bildirish maqsadida islom insitutlari ya'ni (maktab, universitet, masjidlariga katta qo'llab quvvaktlash ishlarini va nomoz, ro'za va xaj kabi ibodatlarga e'tiborliroq bilan yondashuvi faol ravishda foydalanib borildi. Misr marhum prezidenti A.Sadat ommaviy axbotrot vositalariga o'zini "dindor prezident", Iordaniya Qirol Husayin o'zini kelib chiqishini Payg'ambarning qabilalariga bog'lagan. Saddam Husayin o'zining islom faollarini qatil etishiga qaramasdan va shuningdek, Iroq shialarining yetakchisi Muhammad B.Sadir o'zini Payg'ambarga qarindoshligini "ochgan". Saudiya Arabistoni Qirol muxtaram qirol xazratlari unvonini kamtarona, lekin diniy ahamiyat kasib etuvchi "Ikki muqaddas qadamjoy himoyachisi" deb e'lon qilgan. Tunis sobiq prezidenti Zayn Obiddin bin Ali va Pokiston sobiq Bosh vaziri Benazir Bxutto xizmat mansabiga kirishi bilan Makkaga xaj safarini amalga oshirganlar. Islomiylar ta'siri ostida musulmon olamida sekin asta spirtli ichimliklar sotuvini taqiqllovchi qoidalar o'rnatilmoqda, yana diniy loyxalarni radio va televizor orqali ko'payishi, ko'rsatuvlar xajmi sezilarli darajda oshishi kuzatilmoqda. Muayyan o'zgarishlarni musulmon mamlakatlarining musulmon mamlakatlari bayramlarida ayniqsa, rasmiy yozishmalar va protokol tadbirlarida kuzatsa bo'ladi. Bu yana musulmon mamlakatlarining elchilari nomusulmon davlatlari vakillari bilan aloqalarida o'zlarini tutishida, shu bilan bir qatorda xalqaro konfrensiyalar mobaynida nomoz uchun tanafus e'lon qilinishi rasmiy uchrashuvlarda spirtli ichimliklarni tayinlanishi va musulmonlari so'z boshida mehribon va rahimli Olloh nomi bilan boshlashi urfga kirdi. Musulmon davlatlarning yetakchilari musulmon davlatlariga o'zining tashqi siyosatida ahamiyat bera boshlashi musulmon davlatlarining munosabatlarini muvofiqlashtirish sezilarli darajada oshdi. Masalan Birlashgan Millatlar Tashkiloti islom hamjamiyati olg'a surgan tashabbuslarini ijobiy qabul qilinib, musulmon davlatlari xalqaro va davlatlararo tashkilotlar avvalambor Islom Hamkorligi Tashkiloti (IXT) faolroq ishlay boshladi.

Turli davlat va nodavlat tuzimlari ostida islom xalqaro munosabatlar nazariyasi, xalqaro tartib va xavfsizlik, global va mintaqaviy muammolariga islomiy yondoshuv, islomiy hamjihatlik va yakdillik, islom birlashgan millatlar tashkilotini tuzish g'oyasidir.

Islom hamkorligi tashkiloti "islom iqtisodi"ni tartibga solish bo'yicha tashabbus ko'rsatdi, shuningdek "islom umumiy bozor" g'oyalari va modelarini ishlab chiqmoqda. Bundan tashqari Islom taraqqiyot banki (ITB), Islom Xalqaro Ma'lumotlar Agentligi, Islom Savdo-Sanoat Palatasi va boshqa bir qancha tashkilotlar tuzildi.

Shu bilan birga, islom qadriyatlari barcha musulmon davlatlarining tashqi siyosatida birinchi o'rinda turadi desak, mubolag'a qilgan bo'lamiz. Masalan, sobiq Misr prezidenti Husni Muborak tashqi siyosatning muhim omillarini sanashda, birinchi o'ringa Misr manfaatlarini qo'ygan, ikkinchi o'ringa arab davlatlari manfaatlari, uchinchi o'ringa boshqa musulmon davlatlari manfaatlarini qo'ygan. Shunga o'xshash fikrlarni boshqa musulmon davlatlariga ham aytsak bo'ladi. Ehtimol faqatgina Saudiya Arabistoni tashqi siyosatida, Fors ko'rfazi davlatlari, Livan, Eron, Pokiston, Marokkash va ba'zi musulmon davlatlarida Islom mustaqil burch sifatida ko'rinsada, ammo sanalgan davlatlarda islom tashqi siyosatda bo'lishiga qaramay o'z yo'nalishiga ega. Buni ko'rsatish uchun tashqi siyosatida islom fundamentalistlikda ayblanuvchi davlatlarga: Saudiya Arabistoni, Eron va Pokiston davlatlariga to'xtalsak bo'ladi.

Agar Saudiya haqida gapiradigan bo'lsak, islomni tashqi siyosatga ta'siri uni boshqalarga qarab turli davrlarda turlicha bo'lgan bo'lib, bu xalqaro ahvolga ham bog'liq bo'lgan. Davlat asoschisi Abdul Aziz (ibn Saud) turklarga va boshqa dushmanlarga qarshi kurashda Buyuk Britaniyadan yordam olishga harakat qilgan. U uchun eng quvonchli voqea sifatida davlatini Sovet Ittifoqi tan olishi bo'lgan. O'zini tashqi siyosatidagi yetukligi sifatida, 1926-yilda Makkadagi "Musulmon Olami Kongressini" tashkil qilgan bo'lsada, 1927-yilda imzolangan anglo-saudiya bitimini hisoblagan. Abdul Azizning diniy motivlari Falastin masalasida yaqqol ko'rinadi.

Diniy yondoshuvlar uning vorisi Saud davrida ancha kuzatiladi. Masalan, u Saudiya Arabistonini "islomni muxofaza qiluvchi" mavqei uchun harakat qiladi. 1962-yilda Saudiya tashabbusi bilan 43 islom

davlatlarining vakillari – “islom dushmanlarining islomning yakdilligi va birodarligiga to‘sqinlik qiladigan fitnalariga qarshi kurashadigan” xalqaro nodavlat tashkilot Islom Davlatlari Ligasini tashkil etish fikriga kelishadi. Bu liganing faoliyati amalda Saudiya Arabistonining siyosatini aks etadi.

Qirol Feysal Xalid va Faxd Saudiya Arabistoni tashqi siyosatida birinchi islom hamjamiyati, ikkinchisi esa arab birligi ekanligini ta’kidlashgan. Saudiya Arabistoni islom va arab mamlakatlari yagona yetakchisi sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlash uchun juda katta mablag‘lar sarf etgan. 1969 yilda Feysal barcha musulmon mamlakatlarning ittifoqini tuzish tashabbusi bilan chiqdi. Bu g‘oya 1969 yili Rabotda katta darajada qo‘llab-quvvatlanishiga erishildi, unda 25 ta davlat qatnashgan edi. 1972 yil esa Islom Konferensiya Tashkilotibirinchi islom olamining zamonaviy tarixida islom davlatlarining xalqaro va davlatlararo tashkiloti tashkil etildi. 1973 yil urushdan so‘ng Saudiya Arabistoni neft embargosini qo‘llab Arab-Isroil muommosiga Islom –Isroil ko‘rinishini berishga urinib ko‘rdi.

Saudiyaning tashqi siyosatining an’anaviy tarzda o‘zining siyosatini realizim va pragmatizimga asoslanganligini alohida ta’kidlashadi. Bunga dalil sifatida saudiya-amerika barqaror munosabatlari va yana Saudiya Arabistonining Fors ko‘rfazidagi muammolarga o‘z munosabatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shunga qaramasdan, Saudiya boshqaruvchilaridan ko‘pchiligi Saudiya Arabistoni islom uchun ishalshi kerakligi majburligiga ishonib, ayrim davlatlarda musulmon aholilariga va islom institutlariga katta miqdorda pul mablag‘lari davlat hukumat darajasidagi yordamdan tashqari nodavlat Saudiya institutlari moliyalashtiradi. Ulardan asosiysi Arab Islom Ligasi bo‘lib, uni byudjeti Saudiya tomonidan moliyalashtiriladi. Eng ko‘p diniy tusni Eron Islom Respublikasining tashqi siyosatida namoyon bo‘ladi. Humayniy tomonidan islomni tushintirib Eron hukumatini tashqi siyosiy qarorlarni qabul qilishning g‘oyaviy asosi hisoblanadi.

Seminar savollari:

1. Zamonaviy xalqaro munisobatlarning oziga xos jihatlari
2. Islomning xalqaro munosobotlarda orni va ahamiyati

3. Musulmon davlatlarning XMda orni

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Zamonaviy xalqaro munosobotlar tizimi
2. Hozirgi zamon jahon siyosatida islom momila
3. Xalqaro munosobotlarda islom davlatlarning tutgan orni

Tavsiya etilgan adabiyot: 1. Ёвқочев Ш. Сиёсат ва дин: ўқув қўлланма. –Т.:ТИУ, 2010.

2. Ёвқочев Ш.А. Политизация ислама и проблема религиозного экстремизма в современном мире.–Т.:ТошДШИ, 2003.
3. Ислам и экстремизм на Ближнем Востоке. – М.: Институт изучения Израиля и Ближнего Востока, 2001.
4. Eickelman D.E., Piscatori J. Muslim politics. – Princeton: Princeton University Press, 1998.
5. Esposito J.L. Islam and politics. – N.Y.: Syracuse University Press, 1987.
6. Esposito J.L. The Islamic threat: Myth or reality? – N.Y.: Oxford University Press, 1992.
7. Nelly Lahoud, A.H. Johns. Islam in World Politics. –N-Y.Taylor & Francis, 2005
8. Nelly Lahoud, A.H. Johns. Islam in World Politics. Routledge, 2012. -208 p.

1.2. JAHON SIYOSATIDA ISLOMNING O‘RNI VA ROLI

Dars o‘quv maqsadi: Magistratura talabalariga islom dunyosini xususiyatlarini va uning ta’sirini kuchayishini va hozirgi xalqaro siyosatda islomning roli hamda jahon siyosatiga ta’sirini batafsil yoritib berish va tushuntirish.

Tayanch iboralar: Zamonaviy dunyo jarayonlari, islom fundamentalizmi, islom davlatlari, musulmon migratsiyasi, ekstremistik guruhlar.

Reja:

1. Hozirgi zamon xalqaro siyosatda islom omili.

2. Musulmon mamlakatlarda demografik o'rish sabablari va uning jahon siyosatiga ta'siri.

3. "Islom fundamentalizmi", uning asoslari, nazariy asosi, siyosiy oqimlari.

Zamonaviy dunyoda islom omili iqtisodiy, siyosiy va xalqaro munosabatlarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu dunyoning yirik hukmron davlatlar geosiyosiy manfaatlariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ko'pchilik g'arb siyosatchilari islomni musulmon olamiga, zamonaviy xalqaro hayot va kelajak dunyo boshqaruviga juda ham ta'sirli kuch sifatida qarashmoqda.

Islom omilining bu kabi ahamiyati ortishi bir necha sabablar bilan izohlanadi. Ulardan birinchilari islom olamining strategik ahamiyati va uning hajmi ekanligini ayniqsa ta'kidlash lozim. Bugungi kunga kelib, Osiyo, Afrika aholisini aksariyati musulmon diniga e'tiqod qiluvchi 50 dan ortiq davlat barcha qit'alarda 120 dan ortiq davlatda ularning jamoatlari mavjud ulardan ko'pchiligi ijtimoiy faollikni namoyon qilishadi. Ularning aksariyati ko'p sonli bo'lib, yuqori ijtimoiy-siyosiy faollikni namoyon qiladilar. Shuningdek, Yevropa va Shimoliy Amerikada musulmon migratsiyasining ortishi kuzatilmoqda. Tobora va keskin holatlarda musulmon mamlakatlari aholisining soni jadal va doimiy ortib bormoqda. 1990-yilda jahonda bu davlatlarda 974,5 million aholi yashagan bo'lsa, 2000-yilga demografik bashoratlarga ko'ra, ular aholisi 1263 milliardga yetishi kuzatiladi. Har yili bu davlatlar aholisi 2,6% ga ko'paymoqda. Butun jahonda 1,7 %ga oshgan bo'lsa, sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa 0.9 foizni tashkil etib, uni kamayganini ko'rsatadi.

Islom olami davriy takrorlanib turuvchi demografik portlash o'choqlaridan hisoblanadi. Ko'p sonli tug'ilish musulmon qadriyatlari bilan qo'llab-quvvatlangan islom ahkomlariga qarshi bo'lib qolmaslik uchun oilani rejalashtirish va tug'ilishni cheklashga qaratilgan xatti-harakatlar kuzatilmaydi.

Musulmon davlatlardagi g'arb iqtisodiyoti va harbiy sohalar uchun zarur bo'lgan mineral xom ashyo zahiralarining katta qismi joylashganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Neft xomashyolarining

Yaqin Sharq va O'rta Sharqdan yetkazib berishga talab yana uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Bugungi kunda, ko'plab islom davlatlari o'ziga ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirish va amalga tatbiq qilishga harakatlari avjiga chiqqan. Ayniqsa bu harbiy sohalarga tegishli. Jadal suratlarda mustaqil o'zining texnik kadrlarini shakllantirish yo'lga qo'yilgan.

Islom davlatlarida harbiy sohani oshishi ko'zga tashlanadi. Bu zamonaviy qurol-yaroqlarni sotib olish, o'z harbiy strukturasi xorijiy mutaxassislar yordamida takomillashtirish kabi omillar bilan izohlanadi. Umuman olganda islom davlatlari milliy harbiy sanoatni rivojlantirishga katta ahamiya bermoqda. Ulardan ba'zilari raketa quroliga ega bo'ldi. Shuningdek, har xil qirg'inbarot qurolarga ega bo'lish tendensiyasi kuzatilmoqda. O'z navbatida shuni ta'kidlab o'tishimiz mumkinki, Pokiston o'z yadro quroliga ega.

Oxirgi paytlarda islom davlatlarining xalqaro siyosatga ta'siri kuchaydi. Bu bir qancha davlatlar (Pokiston, Eron, Saudiya Arabistoni, Misr, Indoneziya va boshqa) tashqi siyosiy ambisiyasida alohida ko'rinadi. Har doim ham aniq va yetarli darajaga ega bo'lmasada, islom davlatlari xalqaro arenada birgalikda harakat qilishga urinmoqda. Bu maqsadda ular 1969 yil "Islom Konferensiyasi Tashkiloti"ni tashkil etdi. Boshqa tamondan esa bu shuni anglatar ediki, islom davlatlarining dunyoda faol ishtirok etishi, "ShimolJanub" chizig'i bo'yicha islom-xristian qarama-qarshiligini keltirib chiqarishda salbiy rol o'ynamoqda.

Neftga boy ba'zi islom davlatlari nafaqat o'z davlatining iqtisodiy va ilmiy-tehnika sohalarini rivojlantirishga balki, o'z hududidan tashqaridagi islom g'oyalarini tarqatuvchi har xil ko'rinishdagi islom harakatlariga moliyaviy, vositaviy ko'mak bermoqda.

Ko'pgina ekspertlarning fikricha, islom dunyosining kuchli tarafi shundaki, u g'arbons madhaniyat, ahloq va qadriyatlarni kam qabul qiluvchi yoki umuman rad qilishidadir. Bu islom aholisining katta qismiga qonundek o'rnashib qolgan.

Shu bilan birga bugungi kunda ba'zi holatlar islom faktorining o'sishiga to'sqinlik qilmoqda. Islom dunyosining iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'sishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarga nisbatan umumiy rivojlanganlik darajasi hamon pastligicha qolmoqda. Aksariyat islom mamlakatlarining Yalpi Ichki Mahsulot (YIM) aholi

sonining o'sishiga nisbatan ancha past. 1990-yillarda mazkur mamlakatlarning aholi soni dunyoning 18.5% bo'lib, YIMi esa atigi 4.4% tashkil etgan. Shu sabali uzoq vaqt davomida ular asosan G'arbning homashyo makoni sifatida baholanib kelayotir.

Ilmiy-texnik rivojlanish darajasiga keladigan bo'lsak, islom dunyosi endigina tashqaridan kelgan yangiliklarni o'zlashtirib kelmoqda. Aholi orasidagi savodxonlikning pastligi ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Deyarli hech bir musulmon davlati xalqning savodsizligini yo'qotish masalasini kun tartibidan olib tashlamagan.

Musulmon davlatlari va islomiy harakatlar uchun yakdillikning yetishmasligi eng asosiy xususiyatlaridan biridir. Xatto ba'zilar orasida ziddiyatlar ham mavjuddir. Umuman olganda islom dunyosi "badavlat" ozchilikka, ya'ni neft eksport qiluvchi davlatlar, va "kambag'al" ko'pchilikka bo'lingan. Dunyo bo'ylab targ'ibot qilinayotgan "islom hamkorligi" tushunchasi ham alohida davlatlarga nisbatan amalga oshiriladi (masalan, Bosniya, Kosovo, Chechnya) va aksariyat hollarda quruq gaplardan nariga o'tilmaydi. Mazkur sharoitda, yaqin kelajakda islom dunyosining birligiga erishishning imkoni yo'qdek tuyulmoqda.

Musulmon davlatlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy jihatdan qoloqligining asosiy sababi, (xususan, Saudiya Arabistonining ham) ularning chet davlatlar tomonidan ko'rsatiladigan harbiy va ilmiy sohalardagi yordamiga qaramligidadir. Xususan mudofaa masalasida ham.

Shubhasiz Islom mafkurasi dunyoning barcha musulmonlarini birlashtiruvchi umumiy kuchga egadir. Ammo, unga rioya etish esa bir hil emas, ya'ni unda turli hil ijtimoiy qatlamlarning manfaatlari o'z aksini topgandir. Bugungi kunda islom dunyosi nihoyatda murakkab bo'lgan qutblanish jarayonini boshidan kechirmoqda. Mazkur holatda turli hil islomdagi turli hil oqimlar, firqalar, harakatlar, terroristik tashkilotlar yuzaga kelmoqda.

So'nggi yillarda islom fundamentalizmi va ekstremizmining ta'sir doirasi kengayishining asosiy sababi sifatida aholining mafkuraviy yo'nalishining o'zgarganligi, ya'ni sotsializmning o'zini oqlamaganligi va aholining katta qismining kapitalistik dunyoni bosqichinlar sifatida qabul qilishi, hamda shu bilan birga narkomaniyaning ko'payishi, buzuvchi hayotning odat tusiga kirishi, oilaviy munosabatlarning

buzulishi; davlatlarda demokratik tamoyillarga asoslangan boshqa kuchli mafkuralarning yoʻqligi; iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning muvaffaqiyatsizligi natijasida tabaqalanishning kuchayib ketganligi; Gʻarb mamlakatlarining oʻz iqtisodiy va madhаний modellari bilan islom mamlakatlarining hayotiga kirib kelishining aholi orasida gʻazabning uygʻotganligidir.

Islom radikalizmining kuchayishiga olib kelgan saballarning yana biri bu isroil-arab munosabatlarida mavjud boʻlgan ziddiyatning ortib borishi, Iroq va Liviyada doimiy ravishda turli xil toʻqnashuvlarning (chegaraviy, hududiy, millatlararo, konfessiyalararo va b.q.) mavjudligi va ularda arab davlatlarining ishtirok etishidir.

Murakkab ichki siyosiy vaziyat holatida, hayotning ijtimoiysiyosiy sohalarida hal etilmagan muammolarning mavjudligi, davlatlarning tashqi siyosati ham mavhumligida oddiy xalq oʻz oʻrnini aniqla olmagan holda kelajakka boʻlgan ishonchning yoʻqligi islom aqidasiining “oltin davr”i kelishiga boʻlgan qiziqishning ortib borishiga olib kelmoqda. Aslida, jamiyatning ogʻir ahvolda foydalangan holda, ularga yana bir diniy gʻoyalar singdirilmoqda. Yaʼni siyosiy hokimiyat Olloh “vakillari” qoʻlida boʻlishi kerak degan fikr.

Shuni ham alohida taʼkidlab oʻtish joizki, islom fundamentalizmi hayotning barcha sohalarini nazorat qilishga daʼvogarlik qilmoqda: iqtisodiy va ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, yuridik, maʼnaviyat va maʼrifat, fikrlash, insonlararo munosabatlarni va boshqalarni. Mazkur holat bevosita islom dinining xususiyatlaridan kelib chiqadi, yaʼni din davlatningsiyosiy muhitini, iqtisodiy holatini shakllantrishda bevosita ishtirok etadi. Asrlar davomida din insonlar ongiga kuchli taʼsiri etib kelgan va natijada aholining dindorlik koʻrsatkichi nihoyatda yuqori darajaga yetkan. Islomchilar jamiyatning juda keng qatlamida oʻz oʻrniga ega boʻlib, bugungi kunda islom dunyosi mamlakatlarda jamiyatning barcha jabhalarida oʻz oʻrini va taʼsiriga egadir.

Islom fundamentalizmi oʻz xususiyatlari bilan musulmon radikalalarining ham gʻoyavsi, ham siyosiy amaliyoti hisoblanib, u hech bir kelishuvlarni tan olmagan holda dinning “sofligi uchun” barcha usullar bilan kurashadi, hatto “dinsizlar”ga qarshi kuch ham ishlatishdan qaytmaydi. Fundamentalistlar oʻziga xos islom davlatini barpo etish maqsadida oʻz gʻoya va tamoyillarini jamiyat hayotiga

singdirish intiladi va mazkur davlatda shariat qoidolari barcha sohalarni tartibga keltiruvchi mexanizm sifati talqin etiladi. Islom fundamentalistlarida fuqarolik dunyoviy jamiyatga nisbatan sabr-toqat xissi mavjud emas, va ularga ko'ra din va siyosiy hokimiyat ayri holda bo'lishi mumkin emas, islom esa butun dunyoga qarshi turadi. Qaerda yirik ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz mavjud bo'lsa, o'sha yerda islom fundamentalizmi eng agressiv va islom doiralari orasida konservativ g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Fundamentalistlar tomonidan davlatda mavjud bo'lgan turli iqtisodiy qiyinchiliklar hokimiyatga qarshi kurashish uchun qurol sifati foydalaniladi. Kurashning ochiq shakllari bo'lmish norozilik chiqishlari, miting va ish tashlashlardan tashqari fundamentalistlar aholining keng qatlamlari orasida davlatga qarshi turli noqonuniy uslublar bilan ham kurash olib boradilar.

Kuchsiz va ko'p millatli davlatlarda hokimiyat uchun turli guruhlarining kurashlari ham radikal va diniy fundamentalistlar uchun sharoit yaratadi. Odatda ular mazkur holatda nihoyatda unumli foydalanadi va siyosiy tizimning faol ishtirokchisiga aylanib, yetakchi kuch sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bunday holatda separatistik hamda millatchi guruhlar ham bir g'oya ostida birlashadi.

Islom fundamentalizmining farqli tarafi shundaki, u milliy-etnik chegaralarni tan olmaydi va global talablarni ilgari suradi. Aynan shunda "islom davlati" g'oyasining asosiy xususiyatlarini o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra xalifat qurilayotganda xalqlarning irq va tildagi farqlar inobatga olinmaydi, barcha yagona islom dini bayrog'i ostida birlashishi ko'zda tutilgan.

Fundamentalistlar o'zlarining xalqaro faoliyatida asosan panislamizm g'oyasiga tayanadilar, ya'ni odamlarning irqi, millati va tilidan qat'iy nazar, ularni bir din – islom dini birlashtiradi. Shu bilan birga, aksariyat zamonaviy islomiymlarning diqqat markazida diniy masalalar emas, balki iqtisod va siyosatdir. Mazkur doktrinaning mafkurachilari barcha musulmon davlatlarni qanday qilib birlashtirsa, jipslashtirsa bo'ladi degan savol ustida tinimsiz izlanishlar olib bormoqda.

Islom fundamentalizm o'z ichiga bir g'oya mansub turli hil xalqaro tashkilotlarni qamrab olgan, ammo ushbu tashkilotlarning kurashish usullari bir-biridan farq qiladi. Islomda kuch, ba'zida esa,

quoldan foydalanishga ham ijozat berilgan. Fundamentalistlarning harakatlari ularning jahon tan olgan yagona qonunlarni mensimaslik, davlat chegaralarini tan olmaslik, xatto huquq islom asoslariga zid kelishiga ishonish yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan shu sabab bilan ekstremistlarning odamlarni garovga olishi va o'ldirishi, chet el elchixonalariga hujum qilishi va xalqaro hujjatlarni pisand qilmasligini tushuntirish mumkin.

Islom fundamentalizmining faollashuv hududlari nihoyatda kengdir: Yaqin va o'rta Sharq, Shimoliy Afrika va boshqa qator mintaqalar. So'nggi paytlarda ko'p musulmon davlatlarda siyosiy hokimiyatga intiluvchi islomiy harakatlar va guruhlarining faoliyati kuchayib bormoqda, bu yo'lda ular turli usullardan, hatto qurol va kuch ishlatishdan ham foydalanmoqdalar. Davlat tizimidan ayri holda, ba'zan esa ularning ko'magi bilan faoliyat ko'rsatayotgan ekstrimistik guruhlar islom dunyosi mamlakatlari va ulardan tashqarida ham o'z tas'irini ko'rsatmoqda.

Ekstremistik guruhlarining asosiy maqsadi diniy fanatizmni avj oldirish va hayotning barcha sohalarida diniy aqidani hukmron g'oya sifatida o'natishdir. Maqsadlariga erishish yo'lida esa, ular barcha yo'l va usullardan foydalanishga tayyordir, xatto eng so'nggi chora – "muqaddas urush"ni ham e'lon qilishga ham. Tarixda bunga misollar juda ko'pdir. Hozircha tarqoq va o'zinig yagona tartibiga ega bo'lmagan ushbu guruhlar islom fundamentalizmi va panslamizmning asosiy urush quroliga aylanib qolgandir. Barcha islomiy ekstremistik guruhlar bir strategik reja bo'yicha faoliyat ko'rsatadilar: mavjud bo'lgan hukumatni joyidan qo'zg'atish, omma orasida hukumatga qarshi yirik harakatlarni tashkillashtirish, hukumatni ag'darish, islom hukumatini shakllantirish va o'rnatish (avvaliga boshqa kuchlar bilan birgalikda, keyin esa imkoniyat bo'ldi deguncha ulardan qutulish).

Ekstremistlar terroristik hurujlarni amalga oshirishga nihoyatda katta ahamiyat qaratishadi, chunki ular yordamida davlt to'ntarilishini amalga oshirish imkoniyati mavjuddir. Shu bilan birga, hurujning maqsadga qanchali muvoffiqligi, amalga oshirish vaqti, uning siyosiy oqibatlari inobatga olinmaydi. Bunda eng asosiysi vaziyatni izdan chiqarish, uni doimiy ravishda asabiy holatni ushab turush, va shu orqali hukumat to'ntarilishini amalga oshirishga zamin yaratishdir. Yaxshi

tayyorlangan terroristik huruj, fundamentalistlarning fikricha, davlat to'ntarilishiga ham unumli zamin yaratish mumkin ekan.

Terror davlatga qarshi kurashning asosiy metodlaridan biri sifatida foydalanilishi mumkin, hamda boshqa yordamchi maqsadlarda ham unumli qurol hisoblanadi. Nihoyat, u "tashqi dushman"ga qarshi kurashishda vosita sifatida ham qo'l keladi. Misol tarzida, 1995-yil Saudiya Arabistonida amerikalik askarlarga qarshi foydalanilgan.

Ba'zi hollarda Eronda bo'lgani kabi islomchilar ommaviy harakatlarning boshida turib, davlat to'ntarilishini amalga oshirishni uddalaganlar. Ekstremistlar o'z faoliyatida qurolli kuchlarga nihoyatda katta ahamiyat qaratadilar, sababi ularning hokimiyat tepasiga kela olishi yoki kela olmasligi aynan shularga bog'liqdir. Siriya, Misr, Jazoir va Liviyada davlat qurolli kuchlarning yordami hukumat tepasida qolgan, Eron va Sudanda esa, to'ntarish amalga oshgan.

Islomchilarning moliyalashtirish yo'llar hilma hildir. Avvalombor, bunda aholining ma'lum qismiga ularning g'oyalari xush kelishi va shu sababli qo'llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Terrorchilarning faoliyati juda qudratli moliyaviy tuzulmalar ham qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari turli xil xalqaro jamg'armalar, hayriya tashkilotlari ham moddiy madhad ko'rsatadi. Aksariyat guruhlar uchn asosiy moliyaviy ko'makning turi bu narkobiznesdir, shu sababi ular narkomafiya bilan chambarchas bog'liqdir. Qator holatlarda esa ekstremistlar davlat ko'magidan ham foydalanadi, xususan, maxsus xizmatlar orqali.

Bugungi kunda islom fundamentalistik tashkilotlari Yevropa va Amerikada o'z tarmoqlariga egadir. Turli hil tashkilotlar, iqtisodiy tuzilmalar niqobi ostida o'zlariga yangi tarafdorlarni topish ishlarini amalga oshirishadi.

Islom fundamentalizmiga qarshi kurashda jahon mamlakatlarining birlashishi va hamjihatligi katta ahamiyatga egadir. Ushbu kurashda eng samarador usul bu – kompleks chora-tadbirlarni (ta'ziq, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy) qo'llashdir. Boshqa bir tarafdin Jazoiridagi voqealar shuni ko'rsatdiki, demokratik jarayonlarning xaddan tashqari tez kechishi radik guruhlar uchun qulay sharoit yaratadi. Ular o'z manfaatlari yo'lida mavjud erkinlik imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Shu bilan birga, demokratik

tuzumlar avtoritar tuzumlardan ko'ra samaradorliroq va uzoqroq saqlanib qolishi mumkin. Ammo shu bilan bir qatorda har bir davlatning o'ziga xosligini inobatga olish kerak. Demokratik islohotlar esa, bosqichmabosqich amalga oshirilishi darkor.

G'arb ekspertlarining fikricha, islom fundamentalizmiga qarshi kurashda guruhlar orasidagi ziddiyatlardan unumli foydalanish lozim. Mazkur maqsadda islom fundamentalistlari orasidan nisbatan mo'tadillarini o'z tomonimizga og'dirishimiz va ular yordamida kuch ishlatishdan tiyilish kerakligini uqtirish kerak. Islom harakatlari orasida islaxotlar tarafdori bo'lgan namoyondalarga ham yordam ko'rsatish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, zamonaviy dunyoda islom omili ortib bormoqda va fundamentalistlar o'zining imkoniyatidan hali to'laqonli foydalagani yo'q. Bunday holatda islom terrorizmiga qarshi kurashni dinlararo ochiq urushga aylantirib yuborish kerak emas, chunki unga ko'plab mamlakatlar tortilib ketishi mumkin.

Seminar savollari:

1. Jahon siyosati va islom omili
2. Islom demografiyasi va uning hozirgi jahon siyosatiga ta'siri
3. Islom fundamentalizmi va uning asoslari

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Musulmon mamlakatlarning siyosiy revojida dinning orni
2. Hozirgi zamon jahon siyosiy jarayonlarida islomning ta'siri
3. Musulmon mamlakatlari va yangi jahon tartiboti

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. Sh.Yovqochev. Jahon siyosatida Islom omili. -T.:TDSHI, 2016.
2. Ёвқочев Ш. Сиёсат ва дин./Ўқув қўлланма. –Т.:ТИУ, 2011.
3. Ёвқочев Ш. ва бошқ. Марказий Осиё динлари тарихи. –Т., 2006.
4. Ёвқочев Ш.А. Политизация ислама и проблема религиозного экстремизма в современном мире. –Т., 2003.

5. Валияхметова Г.Н. Исламский фактор в мировой политике./ Курс лекций. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2013.
6. Ислам на постсоветском пространстве: взгляд изнутри. Под ред. Малашенко А.В. и Олкотт Марты Брилл. – М., 2001.
7. Исламский фактор в международных отношениях в Азии. (70 –первая половина 80 –х годов). Сборник статей. – М., 1987.
8. Киселев В.И. Палестинская проблема в международных отношениях: региональный аспект. – М., 1998.
9. Коровиков А.В. Исламский экстремизм в арабских странах. – М., 1990.
10. Красиков А.А. Религиозный фактор в европейской политике. – М, 2000.
11. Eickelman D.E., Piscatori J. Muslim politics. – Princeton: Princeton University Press, 1998.
12. Esposito J.L. Islam and politics. – N.Y.: Syracuse University Press, 1998.
13. Islam in foreign policy. – Cambridge –London –New York, 1983.
14. Islam and Politics in Modern Middle East. – London-Sydney, 1984.
15. Roy O. The Failure of political Islam. – L.: Taurus, 1994.

1.3. ISLOMIY RADIKALIZM VA ZAMONAVIY DUNYODA TERRORIZM MUAMMOSI

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarga siyosiylashgan islomning turli ichki oqimlari o‘rtasidagi farqli jihatlarni, uning asosiy g‘oyasi, maqsad va vazifalarini ochib berishdan iborat.

Tayanch so‘z va atamalar: Islom fundamentalizmi, islomizm, islohotchilik harakatlari, siyosiylashgan islom, salafizm, radikalizm, Islomiy radikalizm.

Reja:

1. Islom fundamentalizmi, radikalizm va ekstremizmi.
2. Diniy fanatizm, shahidlik va jihod.

3. Islomdagi zamonaviy radikal fundamentalizmning o'ziga xos jihatlari.
4. Islomdagi reformatorlik harakati.

1. Islom fundamentalizmi, radikalizm va ekstremizm. XX asrning uchinchi choragida «islom fundamentalizmi» muammosi jahonning siyosiy radikal dasturlariga ega bo'lgan diniy guruhlar soni ortgan hududlarida dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Islom tarqalgan hududlarda din siyosiylashuvining kuchayishi, mazkur hududlarda istiqomat qiluvchi aholi orasida milliy va konfessional o'zlikning shakllanishi, shuningdek ayrim diniy-siyosiy guruhlar tomonidan siyosiy maqsadlari yo'lida ekstremistik g'oyalarning keng yoyilishi sharoitida jahon hamjamiyatiga kuchli xavf tug'dirmoqda.

«Islom fundamentalizmi» atamasini qo'llagan holda, biz uning islom olamida kelib chiqishi va mazmuniga ko'ra turlicha bo'lgan g'oyaviy oqimlarning «siyosiy yarlig'i» sifatida qo'llanilishiga yo'l qo'ymaslikka e'tibor qaratishimiz lozim. Bundan tashqari, ilmiy doiralarda «Islom fundamentalizmi» atamasining yagona talqini mavjud emasligini ham e'tiborga olish muhim. Ba'zi tadqiqotchilar, uni tradisionalizm bilan bog'lasalar, boshqalari tradisionalizmni fundamentalizmga qarama-qarshi qo'yadilar.

Fundamentalizm – boshqa diniy tizimlarga ham xos bo'lgan holatdir. Xususan, rus sharqshunos olimi I.Alekseyev «fundamentalist sifatida so'zning leksik mazmunidan kelib chiqqan holda, u yoki bu g'oyaning izdoshlarini, uning fundamental asoslariga murojaat qiluvchi va uni xayotga tatbiq etuvchilarni atash joiz», deya ta'kidlaydi. A.Abdul Malikning fikricha, «fundamentalizm barcha yetuk sivilizatsiyalarning tahdid va inqirozlar sharoitida yuzaga keluvchi doimiy xususiyatidir». Fundamentalizm – konservativ diniy doiralarning sekulyarizm, ya'ni fan, madaniyat va jamiyat hayotining dindan holi bo'lishiga qarshi harakatini aks ettiruvchi tendensiyadir. Uning aksi sifatida modernizmni keltirish mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, «fundamentalizm» atamasining kelib chiqishi, Shimoliy Amerika protestantlarining «Muqaddas yozuvlardagi har bir detalning xatosizligi, Iso payg'ambarning tug'ilishi, uning jisman qayta jonlanishi va takrorlanmas holat ekani hamda gunohlardan poklanish

nazariyasiga sodiqlikni ilgari suruvchi» antimodernistik nashrlari bilan bog'liq. Mazkur nashrlar fundamentalistlar va modernistlar o'rtasidagi jiddiy bahslarga sabab bo'ldi. Diniy fundamentalistlar diniy aksioma va doktrinalarga asoslanib, diniy aqidalarga asoslanuvchi jahon tartibotini o'rnatish taklifini ilgari surmoqdalar.

«**Fundamentalizm**» atamasining arab tilidagi talqini *usuliya* bo'lib, u «ildiz va manblarga qaytish»ni anglatadi. Sunniyliy an'analarida «fundamentalizm» atamasiga etimologik relevant sanalgan *salafiya* atamasi qo'llaniladi. An'anaviy islom diskursidagi *as-salaf as-salihin* (mo'minlar ajdodi) mezoni Payg'ambar (*asxab*), uning shogird va izdoshlari (*tabi'un*) va so'nggilarning o'kuvchilari (*tabi'u tabi'in*)dan iborat bo'lgan safdosh musulmonlarning birinchi uch avlodini o'z ichiga olgan. Shu tariqa, diniy masalalarni hal etishda *axl as-salaf* tajribasiga tayanuvchilar *salafiylar* hisoblanadi. Shunday qilib, bugungi kunda «islom fundamentalizmi» deganda, *as-salaf assalihin* tajribasiga tayangan holda boshlang'ich islomni tiklash g'oyasi tushuniladi. Birlamchi manbalar (Qur'on va sunnat) hamda ilk musulmon jamoalari tajribasini e'tiborga olgan holda, ularni islom diniy-huquqiy tafakkurining bazaviy imperativi, salafiy sifatida esa, musulmonlarning o'z hayotida ongli ravishda diniy me'yorlarga amal qilishini tushunish mumkin. Shunday qilib, tarixiy-madaniy mazmundagi «fundamentalizm» («*salafiylik*») atamasi bugungi kunda shakllanayotgan tushunchaning muayyan ma'nodagi aksini anglatadi.

Rus tadqiqotchisi A.Malashenko fundamentalizmni «g'oya», nazariya, sifatida tasvirlab, islomizm (yohud siyosiy islom)ni fundamentalizmning amaliy timsoli, ya'ni faoliyati ekanini e'tirof etadi. G'oyaviy jihatdan olganda, bugungi kunda fundamentalik tashkilotlar islomni «poklash» talabi bilan chiqib, rasmiy din vakillarini dindan «og'ishda» ayblagan holda, Qur'on va shariatga asoslangan «ideal» musulmon jamoasini yaratishga intiladilar ¹. Shu tariqa, «islom fundamentalizmi»ni muayyan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy,

¹ Shariat – Qur'on va sunnat (muqaddas musulmon naqllari) asosida tuzilgan, davlat, meros, jinoiy hamda oila va nikoh normalariga asoslangan diniy va huquqiy me'yorlar majmui/ Юридическая энциклопедия под ред. М. Ю.Тихомирова. – Москва, 1997. –С.495.

madaniy-ma'rifiy va boshqa guruhlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hamda amalda «boshlang'ich islom» (Payg'ambar va to'rt xalifa davridagi) tamoyillariga asoslangan davlatchilikni qaror toptirishga da'vat etuvchi shiorlarni qo'llovchi islomning diniy-siyosiy oqimi sifatida ifodalash mumkin.

Ba'zan «harbiylashgan islom» sifatida noo'rin qo'llaniluvchi, hatto o'z davrida AQSH prezidenti J.Bush tomonidan «islamofashizm» sifatida tilga olingan va Amerikaning neokonservativ va boshqa OAVlarida shu mazmunda qo'llaniluvchi radikalizm va ekstremizm kuchli xavf tug'dirmoqda. Ekstremizmga shunchaki bo'yoq berilmay, balki muayyan siyosiy kuchlar undan foydalangan holda, G'arbda yangi «dushman obrazi»ni yaratish va shu asosda Yaqin Sharqdagi harbiy harakatlar va «antiterror urushlari»ni yuritishning amerikan usullarini oqlashga intiladilar. Jumladan, amerikalik ekspert Daniel Payps o'zining «islomizm – bu fashizm» va hokazo bayonotlari bilan mashhur.

Fundamentalistlar, chindan ham, aksariyat hollarda siyosiy xarakterdagi o'z maqsadlari yo'lida ekstremistik usullar va zo'ravonlikdan foydalanishga urinadilar. Ammo, «fundamentalizm» o'zaklarining ekstremizm, radikalizm va hattoki, nasistik mafkuralarga tenglashtirilishi noo'rin. Islom olamida ekstremizm kompromislarsiz siyosat va jamiyat hayotiga «sof islom»ni tatbiq etishga intiladi. Bu muayyan fundamentalistik kuchlarning ijtimoiy institutlar va jamiyatning siyosiy tizimini tubdan o'zgartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-siyosiy g'oyava harakatlari majmuidir. Shu boisdan ham, amerikalik tadqiqotchi Meri Xabek mazkur atamalarni mujmal tarzda «islom fundamentalizmi» yohud shunchaki «islomizm» sifatida qo'llash taklifini ilgari suradi. Uning fikricha, ilmiy va maxsus ada-

biyotlarda islomchilar sifatida islom dinini qayta tiklash, uning siyosiy ta'sirini oshirishning faol tarafdorlari tilga olingan. Biroq, islomizm na tashkiliy va na g'oyaviy jihatdan bir xilda harakat kasb etmaydi. Mazkur tushuncha ostida ko'p sonli guruhlarining o'z maqsadlari yo'lida turlicha maqsad va vositalarning ilgari surilishi tushuniladi. Misol tariqasida, M.Xabek xalqaro huquq normalari va siyosiy

demokratik jarayonlar doirasida faoliyat yuritayotgan turklarning hukmron «Adolat va Taraqqiyot Partiyasi»ni keltirib oʻtgan.

Siyosiy hokimiyatni qoʻlga kiritish maqsadida xalqaro huquq normalariga zid boʻlgan kurash vositalarini qoʻllovchi fundamentalistik harakat va guruhlariga quyidagilarni kiritish mumkin: Misrda – «al-Jamoa al-Islamiya», «Al-Jihad al-Islami»; Iordaniyada – «Alloh jangchilari»; Yamanda – «Al-Islah»; Saudiya Arabistonida – «Al-Fajar»; Pokistonda – «Tanzim ad-Daʼava va al-Irshad», «Harakat al-Ansar»; Afgʻonistonda – «Jamoʻa al-Afgon al-Mudjoxedin» va «Tolibon»; Turkiyada – «Boz qurt»; Shimoliy Kavkazda – «Islom jamoalari», «Imom Armiyasi» va boshqa salafiylik guruhlar¹.

Radikalizm, ekstremizm va terrorizm tushunchalari. Koʻplab gʻarb siyosatchilari va ommaviy axborot vositalari aksariyat hollarda diniy ekstremizmni islom bilan bogʻlaydilar. Gʻarbda boʻrttiriluvchi "islom tahdidi" kishilarni dahshatga solib, turli eʼtiqodlar oʻrtasida sunʼiy toʻsiqni yuzaga keltirmoqda. "Islom ovozi" "islom tahdidi" va "islom fundamentalizmi" bilan birgalikda koʻplab gʻarb siyosatchilari qoʻlidagi qarama-qarshi shiorlarga aylanmoqda.

Diniy bilimlarining sustligi bois, uzoq vaqt davomida yevropaliklar tasavvurida islomning buzib koʻrsatilgan qiyofasi shakllanmoqda. Islom dini xususida asosan xalq rivoyatlari, salb yurishi qatnashchilari boʻlmish risar va ziyoratchilar, musulmonlarning oʻzlari va ularning asarlari tarjimai asosida maʼlumot olingan. Mazkur maʼlumotlarning aksariyat qismi taxminiy faktlarga asoslangan, faktlar esa, buzib koʻrsatilgan. Yevropada islom bidʼatning yangi shakli va majusiylilikning bir koʻrinishi sifatida qabul qilingan.

Axborot tanqisligi va uning taxminiy faktlarga asoslanishi bilan bir qatorda, islomning umuminsoniy taraqqiyotda tutgan oʻrniga doir

obrazining buzib koʻrsatilishiga diniy ekstremizm va terrorizm kabi omillar sabab boʻlmoqda. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida:

¹ Qarang: Игнатенко А. Эпистемология исламского радикализма // Религия и глобализация на просторах Евразии. / Под редакцией А.Малашенко и С.Филатова. – М.: Московский центр Карнеги, 2005. – С. 176-222.

xavfsizlikka tahdid, baqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida batafsil to'xtalib o'tilgan¹.

G'arb ommaviy axborot vositalarida "islom fundamentalizmi", "islom ekstremizmi" va "islomizm" tushunchalari o'zaro o'xshash tushunchalar sifatida tilga olinadi. Birok, amalda islomdagi diniy fundamentalizm va ekstremizmni o'zaro tenglashtirib bo'lmaydi. "Fundamentalizm" atamasi o'z-o'zidan u yoki bu narsaning manbalariga qaytishni anglatadi. Xususan, islom fundamentalizmi Payg'ambar Muhammad davrida kiritilib, bugungi kunga kelib unut bo'lgan islom dini asoslariga qaytishni anglatadi. Akademik Yevgeniy Primakovning fikricha, islom fundamentalizmi so'nggi yuz yillikning oxirlarida «xalqaro xalqa vazifasini o'tab kelgan kelgan musulmon aholisiga ega bo'lgan ko'plab davlatlarning tezkor taraqqiyoti», ularning ta'sir doirasi ortishi hamda diniy tamoyillarga mos ravishda o'zaro birlashish ishtiyoqining ortishi natijasida yuzaga kelgan. Islom fundamentalizmining faollashuviga o'tmishdagi cheklovlar va qator davlatlarda islomga qarshi yuritilgan siyosat ham qisman ta'sir ko'rsatgan.

Diniy fundamentalizmning avj olishi obyektiv sabablar bilan bog'liq bo'lib, ular alohida tadqiqot olib borishni talab etadi. Mavjud holatni postsovet davrida Rossiyada keng tarqalgan xristianlik misolida ham ko'rish mumkin.

Urg'uning diniy etikadan siyosiy mafkuraga ko'chirilishi, fundamentalizmga xos bo'lgan jihatlardan birini anglatadi. Chunonchi, bu islom dinigagina xos emas. Masalan, yahidiylikda mazkur jarayon sionizmni shakllanishiga sabab bo'lgan.

Diniy fundamentalizm va ekstremizm u yoki bu alohida din, millat, davlat va xalqqa tegishli. U xalqaro va transmilliy ahamiyat kasb etmoqda. Ularning oqibatlarini yengish va unga qarshi samarali kurash olib borishda davlatning iqtisodiy, ilmiy, madaniy va diniy salohiyatini safarbar qilish, xalqaro miqyosda esa – jahon hamjamiyati sa'y-harakatlarini o'zaro umumlashtirish talab etiladi.

¹ Qarang: Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. –Т.: Ўзбекистон, 1997. – С. 34.

Zamonaviy islom ekstremizmi fundamentalizm yoki islomizmning yoʻnalishlaridan biri hamda zamonaviy islomning "islom fundamentalizmi" va "islom revayvalizmi"ga sinonim boʻlgan gʻoyaviy oqimlaridan biri hisoblanadi. Islomizm ijtimoiy taraqqiyotni islomning birlamchi aqida va meʼyorlariga muvofiq tarzda amalga oshirishga intilayotgan ommaviy siyosiy harakat mafkurasidir.

Islomizm bugungi kunda arab va musulmon olamida faoliyat yuritayotgan koʻp sonli zamonaviy siyosiy harakatlarning umumiy asosini tashkil etuvchi gʻoya vazifani bajarmoqda. Islomizmning siyosiy va madaniy oʻzaklari XIX asr oxirlarida arab olamida shakllangan. Ammo, u keng miqyosli fenomen sifatida soʻnggi oʻn yilliklarda shakllangan.

Zamonaviy islom ekstremizmi diniy va siyosiy xususiyat kasb etmoqda. Gʻarb tadqiqotchilarining fikricha, islom xristianlikdan farqli ravishda, siyosiylashgan din hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar siyosiylashgan islomni – islomning ijtimoiy-madaniy anʼanalarining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini eʼtirof etadilar.

Ekstremizm diniy shiorlar ortida ijtimoiy xavfli voqelikka aylanib bormoqda. U jamiyatning asosan savodi past va kam taʼminlangan qatlamiga taʼsir oʻtkazmoqda. Shu bois, ekstremizm maʼlum maʼnoda ichki ijtimoiy-iqtisodiy muammolar natijasiga aylanmoqda. Zamonaviy ekstremistik tashkilot va guruhlarining samarali faoliyatini siyosiy zoʻravonlikka kiritish mumkin. Tabiiyki, islom ekstremizmini fundamentalizm (islomizm)ning eng muhim radikal yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etish mumkin.

Bugungi kunda siyosiy zoʻravonlikning nisbatan keng tarqalgan va tez-tez qoʻllanuvchi shakllaridan biri terrorizmdir. XVIII asr oxirida paydo boʻlgan "terrorizm" ("Le Terrorisme") atamasi nafaqat terroristik hurujlarning amalga oshirilishi, balki muayyan siyosiy maqsadlarga erishish yoʻlida tizimli, tashkiliy va gʻoyaviy jihatdan asoslangan holda amalga oshiriluvchi hurujlarning taktika yoki strategiyasi belgilanishini ham anglatadi.

Terrorizmning muhim jihatlaridan biri "ommaviy oʻyin" yoki populizmdir. Siyosiy boʻyoqqa ega boʻlgan terrorizm har doim ham amaldagi tuzumni agʻdarishni koʻzlamaydi. Hurujlar davlatning ichki va tashqi siyosatini oʻzgartirish, iqtisodiyotni izdan chiqarish, aholining

muayyan qismini u yoki bu harakatlarni amalga oshirishga majburlash va ular ustidan hokimiyat o'rnatishga yo'naltirilgan cheklangan maqsadlarni ham ko'zlashi mumkin. Qo'poruvchilik harakatlarini amalga oshirish jarayonida ekstremistik tashkilot va guruhlarining ichki maqsadlari ham ilgari suriladi. Bunda hibsga olingan a'zolarini ozodlikka chiqarish, mablag' orttirish, tashkilot nufuzini oshirish va aholi orasida qo'rquv hissini keltirib chiqarish kabi vazifalar o'rta tashlanadi.

Islom ekstremizmiga xos jihatlar. Yaqin Sharqdagi diniy ekstremizmga asosiy ikki xususiyat xosdir. *Birinchidan* – jamiyat va hukumatning hudosizlikda ayblanishi, ya'ni "jamiyat va hukumat takfiri". Ekstremizmning g'oyaviy asoschilari, zamonaviy musulmon jamiyatlari musulmonlarga xos xususiyatlarni tark etgan holda, «johiliya», ya'ni islomgacha bo'lgan jaholatga yuz tutganliklarini ta'kidlaydilar.

Diniy ekstremistlar jamiyat va hukumatni hudosizlikda ayblash yo'li bilan o'z tartibini o'rnatish va shu asosda davlat funksiyalarini o'zlashtirishga intiladilar. Eng muhimi, ular hokimiyatni qo'lga kiritishga urinadilar. Shu maqsadda ko'plab vositalar, xususan, muammoni hal etishda kuch ishlatish vositasidan ham foydalaniladi. Ayrim diniy ekstremistik tashkilotlar mazkur tashkilotga a'zo bo'lmaganlarning barini g'ayrinlar sirasiga kiritadilar. Boshqalari esa, jamiyat gunohlarga botgan bo'lsada, u begunoh va uni qutqarish mumkinligini, shu bois, uni musulmon jamiyati sifatida tilga olish mumkinligini e'tirof etadilar.

Ikkinchidan – o'z harakatlari zamirida faol, qat'iy va agressiv choralarni qo'llash, xususan «islom qonunchiligi g'alabasi» yo'lida zo'ravonlikdan foydalanish zarurati ilgari surilib, ularning fikricha bularning bariga «sof musulmonlar» hokimiyatga kelgachgina amalga oshirish mumkin.

Ta'kidlash joizki, oddiy va diniy ekstremizm o'rtasida farqli jihatlar mavjud bo'lib, u ijrochilarning ma'naviy-emotsional holati bilan belgilanadi. Qo'poruvchilik harakatini amalga oshirayotgan diniy ekstremist o'zining omon qolishi (diniy nuqtayi nazardan)ga ishonch hosil qilgan holda, to'g'ri ish qilayotganiga amin bo'ladi. Oddiy terrorist esa, muayyan kuchlar qo'lidagi sovuq va rejali qurol vazifasini

o'taydi. Shundan kelib chiqqan holda, diniy ekstremist "muqaddas ish" yo'lida o'zini qurbon qilishga tayyor bo'lgan xavfli shaxsga aylanadi.

Ekstremizmning muhim jihatlaridan biri, undagi mazmun va hulosalarning jamiyatda mavjud me'yor va qadriyatlarga keskin qarama-qarshi ekanligi bilan xarakterlanadi. Mavjud nazariyaning jamiyat va uning muayyan qismi uchun nomuvofiq ekanligi, uni ekstremistik nazariya sifatida tan olish imkonini beradi.

Ekstremizmning muhim jihatlaridan biri, bu dunyoga nisbatan "oq-qora nazar" bo'lib, bunda barcha narsa yaxshi va yomon, ezgu va yovuzga bo'linadi, ya'ni biz bilan birga bo'lmaganlar bizga qarshidir shiori amal qiladi. Boshqa dinlarga nisbatan radikallik, murosasizlik va sabrsizlik, boshqa mafkuraning mavjudligini inkor etish kabilar aynan shu jihatlar bilan xarakterlanadi.

Islom ekstremizmi va uning keskin ko'rinishi – terrorizmning qiyofasi o'zgaruvchan va vaqtga nisbatan moslashuvchandir. So'nggi yillarda islom ekstremizmini davlat siyosati darajasiga ko'tarish, ayrim davlatlardagi davlat tuzilmalari tomonidan zo'ravonlik va terrorizm usullaridan foydalanish holatlari, shuningdek, ekstremistik tashkilotlarning xalqaro tarmog'i kengayishi va o'zaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi kabilar islom ekstremizmining yangi ko'rinishlari sifatida namoyon bo'la boshladi.

Shunday qilib, diniy ekstremizm tezkor sur'atlarda yoyilib, davlat chegaralaridan kechib o'tayotgan xavfli voqelikka aylanib bormoqda. U XX asr oxiri – XXI asr boshlarining g'oyaviy vabosiga aylandi. Mazkur "kasallik"ning yoyilishi, odatda, keskinlik o'choqlarining avj olishi va ularning internacionalizatsiyasiga sabab bo'ladi.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmning islom diniga qiyoslanishi turli diniy e'tiqodlar o'rtasida sun'iy to'siqni barpo etishga intilayotgan muayyan siyosiy doiralarning manfaatlariga xizmat qilmoqda.

3. Diniy fanatizm, shahidlik va jihad. Diniy ekstremistlarning shakllanishiga xizmat qiluvchi omillar orasida «shahid» (e'tiqodi yo'lida qurbon bo'lgan jafokash)ning albatta jannatiy bo'lishi bilan bog'liq ishonchga asoslangan diniy fanatizmning rivojlanishini ko'rish mumkin. Fanatizm musulmonlar ongiga boshqa din vakillariga qarshi dushmanlik munosabatini singdirmoqchi bo'lgan barcha diniy

radikallar tomonidan faol qo'llaniladi. Bundan tashqari, ular «Jihod» konsepsiyalaridan foydalanadilar. Diniy islom adabiyotlarida mazkur atama zamirida quyidagi shakllarda e'tiqod uchun kurash tushuniladi: «nafsga qarshi jihod» (shaxsiy nojo'ya hislatlarga qarshi kurash); «til jihodi» (hayrli ishlarni rag'batlantirish va yomonlarini taqiqlash); «qo'l jihodi» (jinoyatchilarga nisbatan tegishli jazo choralari qo'llash); «qilich jihodi» (dinsizlarga qarshi harbiy kurash). Islom uchun «buyuk» va «kichik jihod»ga an'anasi xos bo'lib, u Payg'ambar hadislaridan biriga dahldor: Badr jangidan (624 y.) qaytgach, u: «Biz kichik jihoddan buyugiga qaytdik», degan edi. Bu musulmonlar uchun harbiy jang («kichik jihod»), balki kishilarning o'zi bilan kurash olib borishi, ya'ni axloqiy komillik muhimligini («buyuk jihod») anglatadi.

Ammo, ekstremistlar o'z g'oyasi va faoliyatida jihatning aynan harbiy shaklidan foydalanadilar. Bunda ular Qur'onning ayrim oyatlari va musulmon mutafakkirlarining fikrlariga murojaat etadilar. Xususan, Maududiy yozganidek: «jihat» so'zi Alloh yo'lida Islomga qarshi dushmanlarga nisbatan olib boriluvchi urush uchun qo'llaniladi... Jihat musulmonlarning kundalik namoz va ro'zasi kabi majburiyat hisoblanadi. Bundan bo'yin tovlamoq, gunohdir». Mavjud g'oyalar diniy ekstremistlarning muhim g'oyaviy vositasi bo'lgan jihat shiori, ya'ni e'tiqod uchun kurashning asosini tashkil etadi.

Ko'plab tadqiqotchilar jihat tamoyili tarafdorlarini e'tiqod yo'lidagi harbiy kurash tarafdorlari yoki «dinsizlar»ga qarshi kurashda «islom fundamentalizmining eng radikal tarmog'i», ya'ni «jihatizm» a'zolari sifatida ko'radilar. «Jihatchilar» avvalo, «mavjud xalqaro tizimni zo'ravonlik asosida parchalashga hamda uning zamirida islom teokratik davlatini barpo etishga absolyut tayyor ekanligi» bilan xarakterlanadi. Mavjud holat, uning fikricha, «jihatizm»ning «barcha insoniyatning islomlashuvi falsafasi ketma-ketligini» ishlab chiqqan g'oyaviy asoschilaridan kelib chiquvchi tahdidni anglash hamda ularni bartaraf etishda asos bo'lib xizmat qilishi lozim.

Barcha islom fundamentalistik guruhlarini sof dindorlar (musulmonlar)ni «dinsizlar»ga qiyoslaydilar, ammo «jihatchilar» mazkur qarshilikni doimiy va absolyut ekanligini ta'kidlaydilar. «Jihatchilar» «dinsizlarni» islomning dushmanlari sifatida e'tirof etgan holda, uni bartaraf etishga intiladilar. Shu bois, «jihatchilar»ning o'zi

«dushman»ga qarshi kurashning haqqoniy ekaniga shubha qilmaydilar. Jumladan, ekstremistik qanot izdoshlari soxta salafiylikda nafaqat boshqa din vakillari, balki ilohiy ko'rsatmalarga amal qilmaydigan musulmonlarga qarshi kurashni targ'ib qiladilar. O'zini e'tiqod «pokligi» kurashchilari sifatida tanitgan holda, ular o'z ta'limotlarini qabul qilmagan barcha musulmonlarni «dinsizlar»ga qo'shgan holda, ularga qarshi muqaddas kurashga da'vat etadilar. Agar musulmonlarning katta qismi dinsizlarga qarshi kurash g'oyasini inkor etgan bo'lsa, «jihodchilar» uni o'z g'oyasi poydevoriga aylantirganlar.

Tadqiqotchilar Qur'onda mazkur ta'limotni qo'llab-quvvatlovchi ko'plab parchalarni uchratish mumkinligini e'tirof etadilar, biroq ularda rahm-shafqat, hamjihatlik va bardoshlilikka undovchi kuchli g'oyalar ham uchraydi. Biroq, «jihodizm»ning g'oyaviy asoschilari, odatda, Qur'onning mazkur oyatlariga murojaat etmay, balki o'z talqiniga tayanadilar. Ular Qur'on kishilik hayotiga doir (islom fundamentalistlari nuqtai nazariga ko'ra) barcha savollarga to'la javob bera olishini e'tirof etgan holda, mazkur javoblarning bir ma'noli ekanligini ta'kidlaydilar. Shunday qilib, «jihodizm» qarashlar rangbarangligi va tanqidchilar bilan tinch vositalar asosida kelishuvga erishishni inkor etadi. Barcha «yot» g'oya va qadiyatarning to'la inkor etilishi unga xos bo'lgan xususiyatdir.

Diniy ekstremistlar «global islom tartiboti»ni tuzish borasidagi asosiy to'siqlarni belgilashda yagona fikrga ega emaslar. Ularning bir qismi asosiy «yovuzlik» sifatida «xalqaro xalifalik»ni (Turkiya, Misr, Pokiston, Iordaniya va b.q.) barpo etish uchun kurash o'rniga G'arb bilan hamkorlikka intilayotgan sekulyar musulmon jamoalar va davlatlarining mavjudligini e'tirof etadilar. Boshqalar esa, avvalo, g'arb davlatlarini ularning musulmon davlatlaridagi «dunyoviy hukmdorlar» bilan munosbatlariga chek qo'yish maqsadida imkon qadar zaiflashuvini ta'minlash, so'ngra, o'z kuchlarini alohida davlatlardagi hokimiyatni qo'lga kiritish va jahonda o'z g'oyasini yoyish plasdarmiga aylantirish lozim deb hisoblaydilar.

M.Xabek ta'kidlaganidek, «Al-Qoida» kabi radikal fundamentalistik tashkilot kabi mazkur qarash vakillari G'arbga qarshi kurash abadiy «yaxshilik va yovuzlik kurashi» asoslanib, uning

ijrochilari ilohiyot irodasidir. Bunda, ular taqvodor musulmonlarnigina o'z tarafdorlari sifatida e'tirof etadilar.

Ko'plab fundamentalistik guruhlar, xususan salafiylik vakillari musulmon olamidagi o'z ta'sirini kengaytirishga alohida e'tibor qaratadilar. Ular tashviqot markazlari, bepul ta'lim muassasalari tashkil etib, teleradiomarkazlar quradilar, aholi orasida missionerlik faoliyatini kengaytiradilar hamda turli tillardagi diniy adabiyotlarni nashr etadilar. Biroq, Saudiya Arabistonida ham hukmron tuzumga qarshi bo'lgan va terrorga murojaat qiluvchi hukumatga qarshi diniy ekstremistik «yerto'lalar» mavjud. Mazkur radikal fundamentalistlar faolligi vaziyatdan kelib chiqqan holda faollashishi mumkin (masalan, Afg'onistondagi urush davrida, Fors ko'rfazi, Iroq, Livan, Falastindagi harbiy harakatlar jarayonida). Ayni paytda, Saudiya Arabistoni hukumati va ularni qo'llab-quvvatlovchi «tradisionalistik» salafiylik doiralari, ekstremistlarga qarshi samarali kompleks choralarni va g'oyaviy tadbirlarni amalga oshirmoqdalar.

4. Islomdagi zamonaviy radikal fundamentalizmning o'ziga xos jihatlaridan biri sifatida uning tarafdorlari tomondan tradisionalist va modernistlarga qarshi kurash olib borilishida ko'rish mumkin. Tradisionalistlar (an'anachilar) islomni ilk ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy institut vakillari davridagi kabi saqlab qolishga intiladilar. Ular din sohasidagi kabi, ijtimoiy hayotda ham u yoki bu o'zgarishlarga qarshi kurashadilar. An'anaviy dunyoqarash tarafdorlari rasmiy ruhoniylar vakillari sanalib, hukmron tizimni qo'llabquvvatlaydilar. Modernistlar esa, yangi tarixiy sharoitlarda o'z ta'limotlarining «raqobatbardoshligini» oshirish maqsadida islom me'yorlarini isloh qilib, uni zamonaviy taraqqiyot ehtiyojlariga moslashga, ayrim holatlarini esa inkor etishga intiladilar.

Biroq, islomdagi modernist va islohotchilarning faoliyati o'zaro farq qiladi. XVIII-XX asrlarda arab olamidagi jarayonlar tahlili asosida Jorjtaun Universitetining musulmon-xristianlik dialogi Markazi direktorii Djon Leonard Espozitoning fikricha, «Islom o'ziga xos boy va kelib chiqishining an'analari – **tajdid** va islohoti – **islah** uzoq tarixga borib taqaladi. Uzoq yillar davomida teologlar, huquqshunoslar, so'fiylik tasavvufchilari va xarizmatik targ'ibotchilar, shuningdek, ba'zi tashkilotlar tomonidan zaiflashuv va inqiroz davrida jamiyatni

yangilash hamda islom g'oyachilari va musulmon davlatlari hayotidagi real voqealiklar o'rtasidagi uzilishni to'ldirishga intiladilar. Mazkur islohotlar modeli sifatida islomga yoki uning asoslari – Qur'on, Muhammad payg'ambar ta'limotlari va islom taraqqiyotining boshlang'ich davridagi tashkiliy tamoyilarni keltirish mumkin.

4. Islomdagi reformatorlik harakati. Mazkur davrdagi reformatorlik harakatining barcha yetakchilari iqtisodiy inqiroz, ma'naviy qadriyatlar tushishi, harbiy mag'lubiyatlar va siyosiy beqarorlikning sabablari musulmon olamining o'zida yashiringani borasidagi fikrga kelganlar. Rus tadqiqotchisi A.Chelishev ta'kidlaganidek, «Sudandagi Mahdi (1848-85), Liviyadagi Senusi (1787-1859), Saudiya Arabistonidagi Vahhobiylar (1703-92), Nigeriyadagi Fulani (1754-1817), Bengaliyadagi Faraidiyya (1764-1840), Hindistondagi Ahmad Brelvi (1786-1831) va Indoneziyadagi Padri (1803-37) kabi harakatlar mazkur bo'yoqqa ega bo'lgan. Mazkur harakatlardan har birining turfa xilligi va o'ziga xos jihati sharoitida, ularning yetakchilari yagona to'xtamga, ya'ni yuzaga kelgan inqirozga musulmonlarning mahalliy noislomiy e'tiqod va ibodatlarining infiltratsiyasi va assimilyatsiyasi natijasida islomning sof maqsad va ko'rsatmalaridan bosh tortganlik sabab bo'lgani borasidagi fikrga kelganlar. “Nosog'lom jamiyatlarni davolash”ning yagona tashhisi – sof islomga qaytish degan fikr ham ilgari surilgan. Mazkur harakatlar faoliyatining aksariyat qismi e'tiqodi asoslari harbiylashgan yondashuvga asoslangan tashkilotlarni tuzishga yo'naltirilgan. Natijada, qudratli tiklanish harakatlari (revayvalizm) musulmon olami davlatlaridagi jiddiy ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalarga sabab bo'ldi, ular esa, XX siyosatiga katta ta'sir o'tkazdi.

Bir tarafdin, islom modernizmi ko'plab davlat musulmonlari orasida milliy g'ururni shakllantirib, ularning milliy mustaqillikka kurash yo'lidagi birikishga sabab bo'lgan. Mazkur ijobiy yondashuv qator davlatlarda progressiv ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishga xizmat qilgan.

Boshqa tomondan esa, musulmon davlatlarining tarixiy taraqqiyoti ko'rsatganidek, modernistlar tomonidan ilgari surilayotgan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot modeli g'arb andozasi asosida islohotlar yuritilgan va an'anaviy islom va g'arb institutlari sintezi konsepsiyasi hayotga tatbiq

etilgan davlatlar jamiyati ruxiga tobora kamroq ta'sir ko'rsata boshladi. Misr, Liviya, Sudan, Iroq va Jazoiridagi hukmron tizimning qulashi bilan bog'liq islohot natijalariga nisbatan ishonchsizlik oqibatida 1950-60-yillarda islom tiklanish harakatlarining g'oyaviy yonlashuvlarida o'zgarish kuzatilgan bo'lib, u arab va musulmonlarni yakdillikka chaqirgan hamda g'arb liberalizmi va nasionalizmini tanqid ostiga olgan. Bunda musulmon reformatorlari tomonidan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida xalifalik institutlari va panislamizm haqida ilgari surilgan g'oyalar kelgusida radikal islomning g'oyaviy asoschisi, «Al-Ixvan al-Muslimun» («Birodarmusulmonlar») tashkiloti asoschisi Hasan Al-Banna (1906-1949) va fundamentalizm g'oyasining Sayyid Qutb va Mustafo as-Sibai kabi boshqa yetakchilariga sezilarli ta'sir o'tkazdi.

Shunday qilib, islomni isloh qilishning liberal yo'nalishi o'z o'rnini «Birodar-musulmonlari» va 1941 yilda Hindistonda asos solingan «Jamoat-e islomi» («Islom jamiyati») Abu-l-'Ala Maududiy kabi radikal tashkilotlarga bo'shatib berdi. Ushbu tashkilotlar doirasida zamonaviy islom fundamentalizmi g'oyasi va zamonaviy siyosiy platformalarning shakllanishi yuz berdi. Xususan, Maududiy ijtimoiy va axloqiy tizim asosi va «siyosiy islom falsafasi»ning boshlang'ich nuqtasini birdamlik va Ollohning ustunligida ko'rar edi. Uning fikricha, islomning bosh tamoyili kishilarning individual va kollektiv tarzda o'z zimmasiga hukmronlik, qonunchilik va boshqalar ustidan hokimiyatning o'rnatilishi kabi huquqlarni qaror toptirishi lozim edi. Shuningdek, hech kimga uning shaxsiy huquqlariga asoslangan holda buyurish va amr qilish huquqi berilmasligi va hech kim mazkur buyruq va amrlarni bajarish majburiyatini o'z zimmasiga olmasligi darkor edi. Mazkur huquqlar faqat Ollohgacha berilgan, deb izohlangan¹.

Sayyid Qutb o'zining «sof islom» konsepsiyasida **johiliya** tushunchasini ilgari surgan holda, uni bosh mezonga aylantirgan. U arab tarixidagi islomgacha bo'lgan, «Olloh so'zi» noma'lum bo'lgan davrga oid tarixnavislikda qo'llaniladi. S.Qutbning fikricha, insoniyat izchil

¹ Qarang: Коран, 15:20; Маудуди, С.А.А. Политическая теория ислама. Основы ислама // Отечественные записки. – Москва, 2003. – №5.; Sayyid [Sayed] Abul A'la Maudidi. Political Theory of Islam.-Lahore: Islamic Publications Limited, 1976. – P.4 – 22.

tarzda yangi **johiliyaga** mahkum etilgan. U arab, g'arb va sotsialistik tizimlarni «varvarlik» va «soxta islom» tizimlari sifatida tilgan olgan. S.Qutb uchun jamiyatdagi yagona qonuniy hokimiyat – bu Alloh hokimiyatidir. Musulmonlar va ularning «dushmanlari» o'rtasidagi kurashni u g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy va harbiy qaramaqarshilikda ko'rgan. Islom, S.Qutbning fikricha, bu «inson erkinligi idealini amaliyotga tatbiq etish va tashkiliy harakat shaklini ifodalashga yo'naltirigan uslubir». Islomiy bo'lmagan jamiyat va hayot tarzi mazkur dinga tarafdorlarining shaxsiy ko'rsatmalar asosida faoliyat yuritishini ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Tabiiyki, islom uchun insoniyat erkinligi uchun to'sqinlik qiluvchi barcha ijtimoiy tizimlarga

yakun yasash muhimdir. Shu yo'l bilangina Tangri butun olamda to'la hukmronlik o'rnatishi mumkin». Uning konsepsiyasi yuzasidan «islom tartiboti»ni qurolli jihod yo'li bilangina o'rnatish mumkin.

Ushbu tashkilotlar tez orada musulmon olamida shuhrat qozonib, turli davlatlarda ko'p sonli bo'limlar shaklida keng tarqaldi. «Birodarmusulmonlar» Sudan, Suriya, Iordaniya, Fors ko'rfazi va Afrikaning arab davlatlarida keng shuhrat qozongan. «Jamoat-e islomi» Hindiston, Pokiston, Afg'oniston va Bangladeshda ommaviy asos kasb etdi.

John Espozitoning fikricha, mazkur tashkilot asoschilari «zamonaviy islom revayvalizmi arxitektori, jamiyatni isloh etish g'oya va usullari batafsil o'rganilib, Sudandan to Indoneziyagacha bo'lgan keng maydonda taqlid predmeti sifatida xizmat qiluvchi kishilar edi». Mazkur tashkilot rahnamolari o'z konsepsiyalarini shakllantirgan bo'lib, ulardagi islom qonunlari zamonaviy jarayonlarga moslashtirilgan edi. Qur'on va sunnat nufuziga tayangan holda, ular nazariy jihatdan islom doktrinasi va g'arb va sotsialistik taraqqiyot yo'liga alternativ bo'lgan asosga tanuvchi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning «o'ziga xos, uchinchi yo'lini» ishlab chiqdilar.

XVIII-XIX asrlardagi fundamentalistik harakat «an'analari»ga amal qilgan holda, ular musulmon jamiyatlari inqirozini tanqid ostiga olib, zamonaviy sivilizatsiyaning barcha yutuqlaridan islom qonunlarining zamonaviy talqiniga asoslangan islom jamiyatining ijtimoiysiyosiy tuzilmalarini tuzishda foydalanishga chaqirganlar.

H.al-Banna, A.Maududiy va S.Qutb islom qadriyatlariga asoslangan qudratli islohotchilar harakatini yaratish ustida faol ish olib borganlar. Unga yoshlar, talabalar, o'qituvchilar, ziyolilar, tijoratchilar va davlat xizmatchilarini, shahar jamiyatining o'rta qatlamini jalb etganlar. Shu tariqa, zamonaviy bilimga ega bo'lgan, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy muammolaridan yaxshi xabardor bo'lgan, ammo shu bilan bir vaqtda chuqur «islomiy» kayfiyatdagi kishilarni «ijtimoiy qatlamga ajratish» jarayoni intensiv ravishda olib borildi. Mazkur ijtimoiy asos mazkur tashkilot yetakchilariga uzoq muddatli maqsadlarini – ya'ni musulmon davlatlarining jamoatchilik, siyosiy, iqtisodiy va g'oyaviy ustunlarini izchil ravishda va ketma-ketlikda islomiylashtirishga qaratilgan «islom inqilobi»ni amalga oshirishga xizmat qilishi darkor edi.

Islom reformatorlik harakatidagi keskin o'zgarishlarga sabab bo'lgan tashqi omillar ta'siri xususida alohida to'xtalish joiz. Mazkur jarayonda, avvalo arab olamining qaqshatqich mag'lubiyatini namoyish etgan 1967-yilgi Arab-Isroil mojarosi, 1973-yilda A.Sadatning Misr prezidenti lavozimini egallashi hamda isroilliklarga qarshi «muqaddas urush»ning boshlanishi muhim rol o'ynadi. Isroil bilan urushdagi mag'lubiyat, Falastin va arab yerlarining bir qismining bosib olinishi islom fundamentalistlarini mazkur inqirozning ichki omillarini aniqlashga undadi. Bunda «to'g'ri yo'ldan chekinish» natijasida yuz bergan arab davlatlari «tanazzuli» asosiy sabab sifatida ko'rsatildi. Islomchilarning fikricha, musulmon davlatlarining islom qadriyatlariga qaytishi va shaxsiy hamda ijtimoiy-siyosiy hayotda ularga og'ishmasdan amal qilinishigina musulmonlarni qutqarishi mumkin. Bunda islomning me'yori va qadriyatlari axloqiy va g'oyaviy asos ekani bilan bog'liq shart asosida ilmiy-texnik taraqqiyot va uning G'arb ta'siri ostida erishilgan amaliy qiymati inkor etilmadi.

Boshqa tashqi ta'sir omili sifatida 1978-79-yillarda Eronda yuz bergan islom inqilobini keltirish mumkin. Uning natijasida shoh hokimiyati ag'darilib, konstitutsiyaga asoslangan va din arboblariaga alohida huquq beruvchi Eron Islom Respublikasi (EIR)ga asos solindi. Ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, Erondagi islom inqilobi o'n yilliklar davomida Yaqin va O'rta Sharqda kuzatilgan siyosiy va etnik jarayonlarning obyektiv oqibati edi. U musulmon olamiga kuchli ta'sir

ko'rsatgan bo'lib, mazkur voqelik islomning tiklanish harakati tarixida muhim rol o'ynadi. Espozitoning fikricha, Eron inqilobi musulmonlarda o'z diniga nisbatan ishonchning ortishi hamda o'z e'tiqodi qonunlariga amal qilgan holda, «islomning oltin davri – Muhammad payg'ambar davri»ga qaytishga bo'lgan umid uchqunlarini yuzaga keltirdi. Eron inqilobining zamonaviy islom fundamentalizmi g'oyasining shakllanishiga ko'rsatgan ta'siriga keladigan bo'lsak, bunda iqtisodiy manfaatlari o'zaro nomutanosib bo'lgan aholining turli ijtimoiy qatlami vakillarini o'zaro birlashtira olgan islom shiorlariga alohida e'tibor qaratish darkor.

Eron inqilobining din peshvolaridan Oyatullo Humayniy islomning ilk bor G'arb va butun dunyoga bo'lgan qarshiligini oshkor etibgina qolmay, balki «Qonun boshqaruvi» sifatida islom davlati konsepsiyasini ham shakllantirdi. Zero, u «mazkur qonun inson yoki kishilar guruhi tomonidan qabul qilinmay, balki Qudratli zot Olloh tomonidan yaratilganini» ta'kidlagan. Mazkur qonun davlat rahbari, parlament a'zolari, ijroiya hokimiyati, sud hokimiyati va xalq uchun teng asosda dahldordir. Islom boshqaruvi shaklida Payg'ambar, xalifalar va boshqalar Olloh qonunlariga amal qilganlar, mazkur jarayon Oxiratga qadar davom etadi».

Eron islom inqilobining mazkur farazlari, dunyoning g'oyaviy va siyosiy qutblashuvi hamda «teokratik» islom davlati va «inqilobiy islom eksporti»ni yaratish ehtiyoji bugungi kunda ko'plab fundamentalistik va diniy ekstremistik guruhlar uchun o'ziga xos belgi vazifasini o'tab kelmoqda.

Shunday qilib, islom fundamentalizmi diniy-siyosiy oqim sifatida arab davlatlarining tarixiy taraqqiyotidagi muayyan ichki va tashqi omillar mevasiga aylandi. Uning g'oyaviy asoschilari aholining keng qatlami uchun tushunarli bo'lgan konsepsiyalarni yaratgan holda, bir vaqtning o'zida davlatning tarixiy taraqqiyotiga bo'lgan ishonchini yo'qotgan milliy ziyolilarning so'rovlariga to'la javob bera boshladilar.

Radikal islom fundamentalistlari panislamizm va reformatorlikning g'oya va shiorlarini o'zgartirgan holda, barcha musulmonlarni birlashtiruvchi va «Islomning tiklanishi» g'oyasiga asoslanuvchi yagona ideal davlatchilikni shakllantirish maqsadini ilgari surdilar. Musulmon yetakchilari va g'oyaviy asoschilari tomonidan

taraqqiyotning turli davrlarida ilgari surilgan islomni isloh etish modellari 1960-70-yillarda yuz bergan yechimsiz vaziyatlarda uzib qo'yildi. Ayni shu davrda islom fundamentalizmi siyosiy va jismoniy zo'ravonlikka asoslangan radikal diniy harakatlarga aylantirildi.

Islomning siyosat, iqtisod, qonunchilik tizimi, ta'lim va jamiyat hayotining deyarli barcha sohalaridagi roli masalasi ko'plab musulmon davlatlaridagi dolzarb muammolardan biriga aylantirildi. Musulmon davlatlaridagi «islomning uyg'onishi» va dinning siyosiylashuvi masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan batafsil yoritilgan. Bunda «islomning uyg'onishi» borasidagi bahslarda musulmonlarning bugungi kun hamda tarixiy va diniy-ma'naviy o'tmishga bir xilda mos keluvchi hayotbaxsh siyosiy va ijtimoiy sintezni amalga oshira olmaganliklari borasidagi konsensus ilgari surilgan. Musulmon davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy bahslarda ko'plab musulmon hukumatlarining samarasizligi, milliy va sotsialistik g'oyalar inqirozi, g'arb qadriyatlariga bo'lgan ishonchsizlik hamda o'zlikni anglashga bo'lgan intilishga doir masalalar ko'tarildi.

Bugungi kunga kelib, musulmon ummatining «chetga chiqib qolgani» yohud «inqirozni boshdan kechirayotgani», shuningdek, «g'arb andozasi»ga asoslangan demokratiyadan tortib, nosir-baasistik «davlat sotsializmi» bilan yakun topgan boshqaruv shakllarining inqirozi ko'plab musulmonlarni islom tamoyillaridan chekinishi bilan bog'liq ekani borasidagi xulosaga kelishiga sabab bo'ldi. Islom tamoyillarining tiklanishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa muammolarning yechimi sifatida ko'rila boshladi. Shunday qilib, islom fundamentalizmi inqirozni yengish yo'llarini axtarish faol kechayotgan musulmon tafakkurida yetakchi rol o'ynay boshladi.

Zamonaviy tendensiyalar islom omilining turli mintaqalardagi siyosiy vaziyatni shakllantirishga intensiv ta'sir ko'rsatishda davom etayoganini ko'rsatmoqda. Misr, Turkiya, Sudan, Jazoir, Pokiston, Malayziya va Indoneziya kabi musulmon davlatlarida kechayotgan ichki siyosiy taraqqiyot xususiyatlari mazkur ta'sirning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Islom omilining siyosatdagi kuchayuvi haqida Afg'oniston va Iroqda davom etayotgan qarama-qarshiliklar sharoitida yuz berayotgan siyosiy va etno-diniy jarayonlar guvohlik bermoqda. Arab va Osiyodagi musulmon davlatlaridan Yevropa, AQSH, Kanada

va Avstraliyaga kirib keluvchi muhojirlar hisobiga islom va turli islomiy harakatlarning yoyilishi geografik jihatdan kengaymoqda.

«Islom ulgʻayishi»ning kuchayish jarayoni uning global xususiyati bilan xarakterlanib, bugungi kunning muhim gʻoyaviy harakatlaridan biriga aylanmoqda. Kelgusida islom omilining xalqaro, millatlararo va jamoalararo munosabatlarga taʼsirining oʻsishi, davlatlararo islom tashkilotlarining siyosiy va iqtisodiy yoʻnalishdagi faolligining ortishi hamda nohukumat islom tashkilotlari sonining koʻpayishini bashorat qilish mumkin.

Islomdagi reformatorlik harakati asosida yotuvchi koʻplab tamoyillar bugungi kunda koʻplab xavfsizligiga jiddiy xavf tugʻdirayotgan radikal fundamentalizmni shakllantirishda gʻoyaviy asos boʻlib xizmat qildi. Bundan tashqari, islomni xalqaro miqyosdagi yetakchi kuchga aylantirish maqsadidagi «reinterpretatsiyasi» gʻoyasi koʻplab tadqiqotchilarning jahondagi islom radikal harakatining xalqaro siyosatning muhim boʻgʻinlaridan biriga aylanishi borasida fikr yuritishga majbur qilmoqda.

Seminar savollari:

1. Fundamentalizm va salafizm atamaları zamirida nima tushuniladi?

2. Diniy fanatizm islom ekstremistlarining shakllanishiga qanday taʼsir oʻtkazadi?

3. Islomdagi radikal fundamentalizmga xos boʻlgan qanday xususiyatlarni bilasiz?

4. Islomdagi modernistlar, tradisionalistlar va reformatorlar.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Islom fundamentalizmi va salafiylik.
2. Islomdagi zamonaviy shahidizm.
3. Islomdagi reformatorlik harakati.
4. Saudiya Arabistonidagi vahhobiylik harakati.
5. Tradisionalistlarning moliyaviy donorlari va ularning maqsadi.

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. Алексеев И.Л. Цивилизационные параметры исламского фундаментализма: к постановке проблемы. – <http://profi.gateway.kg/alekseev>.
2. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991.
3. Кырлежев А.И. Религиозный фундаментализм // Новая философская энциклопедия. – Т.4. – М.: Мысль, 2001.
4. Ёвкочев Ш. О влиянии радикальных исламистских организаций и движений Египта на социально–политическую ситуацию в стране // Восток (Oriens). – № 6. – Москва, 2007.
5. Ёвкочев Ш. Предпосылки зарождения идеологии «исламского фундаментализма» и современный исламизм в арабских странах// Тошкент ислом университети илмий-тахлилий ахборот. – №4. – Тошкент, 2007.
6. Ёвкочев Ш. Исламский экстремизм на Ближнем Востоке: взаимосвязь между религиозным фундаментализмом и терроризмом // Материалы конференции «Борьба с международным терроризмом, экстремизмом и сепаратизмом в современном мире». – Т.: ТашГИВ, 2002.
7. Ёвкочев Ш. Сиёсат ва дин: Ўқув қўлланма. –Т.:ТошДШИ, 2011.
8. Малащенко А.В. Неприятие фундаментализма как его зеркальное отражение // Независимая газета. – Москва, 1997. – 25 декабря.
9. Олимпиев А.Ю. Ближний и Средний Восток. Актуальные проблемы международных отношений: Монография. – М.: ЮНИТИ, 2004.
10. Религия и глобализация на просторах Евразии / Под ред. А.Малащенко и С.Филатова. – М.: Московский центр Карнеги, 2005.
11. Челышев А.Д. Генезис концептуальной и идеологической основы современного исламского экстремизма.– Ломоносовские чтения. – Москва, 2002. – № 2. – <http://lib.socio.msu.ru/l/library> .
12. Ярлыкапов А.А. Исламский фундаментализм на Северном Кавказе: к постановке проблемы // Бюллетень Центра социальных и гуманитарных исследований Владикавказского

института управления и Владикавказского центра этнополитических исследований Института этнологии и антропологии РАН. – № 3.– Владикавказ, 1999.

13. Abdel-Malek Anouar and Anisuzzaman (eds). Culture and Thought: The Transformation of the World. – Palgrave Macmillan, 1984.
14. Habeck M. Knowing the Enemy: Jihadist Ideology and the War on Terror. - School of Advanced International Studies, Johns Hopkins University. – New Haven, Yale University Press, 2006. .
15. Esposito J.L. The Islamic Threat: Myth or Reality? – Third ed. – New York, Oxford University Press, 1999.
16. Pipes D. Calling Islamism the Enemy. – <http://www.danielpipes.org/blog/300>. – 2001. – 30 Nov.

1.4. ISLOM MAMLAKATLARI ASRLAR DAVOMIDA: SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY JIHATLARI

O‘quv maqsadi: islom mamlakatlarinig asrlar davomida siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishinig sur‘atlarini ko‘rib chiqish hamda mazkur mamlakatlarning o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari haqida ma’lumot berish.

Tayanch so‘z va iboralar: Teokratik tuzum, mutloq monarxiya, etnik nizolar, yosh komlchilar, hur ofitserlar inqilobi.

Reja:

1. Siyosiy faoliyat , siyosiy faoliyatning asoslari
2. Arab davlatlarining siyosiy tizimlari tarixi va ularda kechayotgan vaziyatlar
3. Islom mamlakatlarining mustaqillikka erishgandan keyingi xolati

Siyosiy faoliyat boshqa har qanday maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat singari subyektning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, o‘zgarib boradi. Davlat va jamiyatning shakllanishida individlar va jamoalar siyosiy ishtiroki aniq tarixiy shartsharoitlarning ta’sirini o‘zida his etadi. Birinchi navbatda, insonlar, ijtimoiy hodisalar, jarayonlar, vaziyatlar siyosiy faoliyatning obyekti sanalishadi. Individlar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, harakatlarsiyosiy faoliyatda bir paytning o‘zida ham obyekt ham subyekt sifatida qatnashishadi,

lekin ularning o‘zaro munosabatlari turli davrlarda jamiyatning rivojlanish darajasiga, siyosiy vorisiylikka va huquqiy bilimlarga bog‘liq bo‘ladi. Siyosiy faoliyatning predmeti, ya‘ni odamlar kun kechirishidagi muammolar, davlat hokimiyatini egallash va uni amalga oshirish, jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishini aniqlash, belgilash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish masalalaridagi o‘zgarishlar kabi ham tarixan ijtimoiy faoliyat turi sifatida vujudga kelganligi sababli siyosiy faoliyat o‘zgarishlarga uchraydi. Siyosiy jarayonlarning harakatlanishini va siyosiy faoliyatning predmetini har qanday mamlakatlarda ularning rivojlanishining aniq tarixiy shart-sharoitlaridan, siyosiy bilimlarning va amaliyotning zamonaviy holatidan kelib chiqqan holda ko‘rib chiqilishi lozim.

Siyosiy faoliyatning asosini har xil ijtimoiy guruhlar, milliy tuzilmalarning manfaatlari va ehtiyojlari tashkil etadi. hokimiyat, uni ushlab turish va saqlab qolish, o‘zgarishi va vorisiyligi, isloh qilish hamda tubdan o‘zgartirish asosiy masala hisoblanadi. Shu bilan bog‘liq holda siyosiy faoliyat jamiyat hayotiga ijobiy ta‘sir qilishi, fuqarolarning tinchligi va o‘zaro hamkorligini saqlab qolishga yordam berishi mumkin, lekin shu bilan birga vaziyatni beqarorlashtirishi, ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Bunga misol tariqasida Falastin hududida 2006-yilning yanvar oyida parlament saylovlarida HAMAS radikal harakatining g‘alaba qilganligi bilan bog‘liq vaziyatni keltirish mumkin. Demokratik saylovlarda HAMASning g‘olib chiqishi natijasida ushbu tashkilot vakili I.Haniya Falastin milliy-muhtoriyatining bosh vaziri qilib tayinlandi hamda mazkur tshkilot a‘zolaridan iborat hukumat shakllandi. Bunday holat arab-isroil ziddiyatining yanada kuchaytirishi bilan birga Falastinning asosiy siyosiy kuchlari, ya‘ni HAMAS va FATH o‘rtasida bo‘linish yuz berishiga sabab bo‘ldi. Falastin hududidagi jiddiy qarama-qarshiliklar HAMAS va FATH o‘rtasida hokimiyat uchun kurashning kuchayishiga sabab bo‘ldi. 2006-yilning aprel-may oylarida har ikkala harakat tarafdorlari o‘rtasida qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi. Ziddiyatning kuchayishini bartaraf etish maqsadida Falastindagi FATH va HAMAS rahbariyati vakillari to‘qnashuvlarni to‘xtatish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida kelishishdi. Ammo Falastindagi ikkita kuchlar o‘rtasidagi qurolli harakatlarning ro‘y berganligining o‘ziyoq keyinchalik ham

hokimiyat uchun kurashda kuch ishlatish usullaridan foydalanishlari mukinligini anglatadi. Mazkur har ikkala tashkilotni ham Falastin aholisning ma'lum qismi hamda tashqi kuchlar ham turli darajada qo'llab-quvvatlashmoqda. Shu tarzda, demokratik yo'llar bilan FMMda hokimiyat tepasiga kelgan islomiylarning siyosiy faoliyati mintaqadagi vaziyatni beqarorlashishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, albatta,

«tashqi omil», HAMAS hukumatining xalqaro jihatdan izolyatsiya qilinganligi, Falastin-Isroil ziddiyatining bartaraf etilishi bo'yicha ijobiy siljishlarning yo'qligi, Yaqin Sharqdagi umumiy beqaror vaziyat va boshqalar o'zlarining ta'sirini ko'rsatmoqda.

Fuqarolarning tinchligi va jamiyatning barqarorligini saqlashga yo'naltirilgan siyosiy faoliyat arab davlatlarining hukmron partiyalari, sisosiy va harbiy rahbarlari tomonidan olib borilmoqda. Shu bilan birga ular so'nggi paytlarda Falastin Jazoir kabi mamlakatlarda ro'y bergan va davom etayotgan beqarorlik sharoitini hisobga olgan holda siyosiy faoliyatlarini juda ehtiyotkorlik bilan yuritmoqdalar. Xususan, Tunis rahbariyati mamlakatda demokratik o'zgarishlarni Falastin yerlarida yuz bergan hodislarni hisobga olgan holda o'tkazmoqda. Falastinda siyosiy hayotning erkinlashtirilishi islomchilarning hokimiyat tepasiga chiqishiga imkon berdi hamda u yerda radikal yo'nalish kuchaydi. 1987-yilda Tunisda Prezident Zayn Obiddin ben Alining hokimiyatni egallashidan so'ng shakllangan siyosiy tizim islom radikalizmiga qarshi kurashishda ijobiy natijalarga olib kelganligi bugungi kunda ma'lumdur. Bundagi muhim omil Zayn Obiddin ben Alining janubiy Tunisdagi siyosiy va iqtisodiy elita vakillarining «boshqaruvchilar toifasi» tarkibiga kiritilganligi islomchilarning mavqeiga zarba bo'ldi, chunki islomchilar 1980yillarda bu yerda ko'plab tarafdorlarga ega edilar. Mamlakat rahbariyati ijtimoiy-demoratiya tarafdori bo'lgan Demokratik konstitusiyaviy birdamlik boshchiligida siyosiy hayotni asta-sekinlik bilan erkinlashtirish yo'nalishini o'tkazmoqda. Deputatlar palatasidagi va mahalliy kengashlardagi 20 % joylar muxolifat vakillari uchun zahira sifatida ajratilgan. Davlat subsidiyalari hisobidan siyosiy partiyalarning faoliyati, shu jumladan, muxolifatdagilar ham moliyalashtirilmoqda hamda ularning xarajatlarining yarmi gazetalar nashr etilishiga sarf qilinmoqda. 1994-yildan e'tiboran prezidentlik

saylovlari muqobillik asosida o'tkazilmoqda. Bularning barchasi kuchli ijtimoiy dasturga ega bo'lgan holda o'tkazilayotganligi tufayli Tunisdagi siyosiy barqarorlikning saqlanib qolishiga imkon bermoqda.

Arab mamlakatlaridagi siyosiy faoliyatni ko'rib chiqayotganimizda barcha faoliyat turlarini ko'rib chiqilishi talab etiladi. Agar bunday qilinmasa, davlat taraqqiyotining strategiyasi, uning boshqaruvi, ichki va tashqi siyosatini to'la anglab bo'lmaydi. Ushbu jarayonlarga birinchi o'rinda, iqtisodiy faoliyat subyektlari, yirik ijtimoiy guruhlar, kasbiy guruhlar (neftchilar, harbiylar va boshqalar.), migrantlar (masalan, ishchi-emigrantlar, falastinlik qochoqlar va hakovzolar.), milliy va milliy-diniy guruhlar (misol uchun, Misrdagi qibtiylar, bir qator davlatlardagi shialar hamda kurdlar jamoalari, Suriyada alavitlar va boshqalar.), diniy va diniy-siyosiy tashkilotlar va hakovzolar.

Arab davlatlari siyosiy tizimlarida qo'shin alohida o'ringa ega. Yaqin Sharqdagi vaziyat ko'pincha harbiy harakatlar boshlanishiga yaqin keladi, shu sababli arab mamlakatlaridagi harbiy qurolli kuchlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan birga siyosiy hokimiyat tuzilmalaridagi tub o'zgarishlar milliy harbiy qurolli kuchlarning bevosita ishtiroki yokida ulardan foydalangan holda amalga oshirilgan. Masalan, Jazoirda milliy mustaqillik uchun kurashdan keyin "Milliy Ozodlik Armiya"si "Milliy-Xalq Armiyasi"ga aylantirilgandan so'ng armiya asosiy harbiy kuch bo'libgina qolmay, balki yetakchi siyosiy tashkilotga ham aylanadi. Misrda ham harbiylar an'anviy tarzda muhim rol o'ynab kelishmoqda. Misrlik harbiylarning tarixiy xizmati quyidagi voqeada aks etadi, ya'ni «Hur ofitserlar» tashkiloti rahbarligida, 1952-yilning 23-iyulida inqilob ro'y bergan, ular mustamlakachilikka chek qo'yganlar va monarxiyani ag'darib tashlaganlar. Armiya saflarida ko'zga ko'ringan arbob

G.A.Nosir yetishib chiqqan. Zobitlar saflaridan boshqa prezidentlar: M.Nag'ib, Anvar Sadat, Husni Muboraklar ham chiqishgan. 1967yildagi arab-isroil o'rtasidagi 6 kunlik urushdan so'ng jamiyat hayotida harbiylarning yetakchilik roli kuchsizlanib qoldi, 1973-yilga kelib esa harbiy qaytadan o'zlarining mavqelarini mustahkamlab olishga erishdilar. «Nosirchilar» dan bo'lgan harbiylar bir qator arab mamlakatlarida, ya'ni Suriya, Jazoir, Somali, Sudanda dagi inqilobiy

jarayonlarda hal qiluvchi kuch sifatida qatnashdilar. Misrda ularning ahamiyati muhim va ko'p qirralikka hozirgi kunda tadqiqotchilar «Hur ofitserlarni qaysi guruhga kiritish bo'yicha bahslashmoqdalar. Bir qator arab davlatlarda harbiylarning hokimiyat tepasiga kelishlari, ushbu jamiyatlarda kuchli ta'sirga ega bo'lgan ijtimoiy va siyosiy kuchlarning mavjud emasligi yokida ichki siyosiy vaziyatning keskinlashganida hamda ijtimoiy qarama-qarshiliklar yuzaga kelganida yetakchilik qilishga qodir bo'lgan siyosiy kuchlarning bo'lmashligi bilan izohlanadi. Vaqt o'tishi bilan Misr harbiylarining elitasi asl faoliyati doirasidan chetga chiqib, mamlakatning siyosiy tizimni barqarorlashtirish va zamonaviylashtirish vazifalarini bajarish bilan bir qatorda, ma'muriy-boshqaruv va ijtimoiy vazifalarni ham amalga oshirishni boshladi. Misrdagi harbiy tuzum harbiybyurokrtiyaga aylandi, sobiq «Hur ofitserlar» esa Prezident Nosirning vafotidan keyin burjua toifasiga tegishli bo'lmagan boshqaruvchilik xususiyatiga ega qismga aylanib qolishdi. Shunisi ahamiyatliki, AQSH tarafidan 2003-yilning noyabrida qabul qilingan «Katta Yaqin Sharqni» demokratlashtirish konsepsiyasi va Misr va boshqa arab davlatlarini «boshqariladigan islomlashtirish» ga urinishidan foydalanib qolishi barbod bo'lganligidan so'ng, misrlik harbiylarning ma'muriy-tashkilotchilik roli va uning «barqarorlashtirish omili» ning ahamiyati AQSH siyosiy diralari tomonidan tan olindi. 2006-yilning may oyida AQSH Kongresi quyidagicha fikrni ta'kidlab o'tdi:

«Misrda harbiylar mamlakatning taraqqiyparvar tashkiloti hisoblanishadi», AQSH va Isroilga qarshi bo'lgan misrlik islomchilarning kuchayishi sharoitida muhim ahamiyatga ega sanaladi.

1952-yilgi Misrdagi inqilob Iroqda zobitlar korpusining uyg'onishiga jiddiy ta'sir qildi, u yerda ham Misrdagi tashkilotga o'xshash «Hur ofitserlar» tashkiloti tuzildi. «Hur ofitserlar» tashkiloti inqilob tayyorlay boshlaganlar hamda 1958-yilning iyulida monarxiya ag'darib tashlangan. Mustaqil Iroq davlatining shakllanishida muhim rol o'ynashgan, bu hol uzoq payt davomida mamlakatning ijtimoiysiyosiy tuzilmasida qo'shinning kuchli mavqeni egallashidan dalolat bergan. 1950-yillarning oxirlarida Yamanda ham «Hur ofitserlar» tashkiloti yashirincha tashkil topgan edi. Ular 1962-yilning 26sentabrida monarxiya tuzumini ag'darishga qaratilgan inqilobni

amalga oshirishgan. Mazkur tashkilotning zobitlarining ko'pchiligi Misr va Iroqdagi o'quv muassasalarini tamomlashgan edi. Suriya 1946-yilda mustaqilikka erishganidan buyon harbiy qo'shin siyosiy tizimning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Suriyada qo'shin 1950-60 – yillarda jamiyat hayotini ko'pincha beqarorlashtirgan bo'lsa, Hafiz Asad hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng esa qurolli kuchlar mamlakatning asosiy tayanchiga aylangan. Yangi Prezident Bashar Asad davrida ham Suriya harbiy kuchlari Suriya Arab Respublikasida ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlashda hamda milliy manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynamoqda. Ha, albatta, hamma arab davlatlarida ham holat bunday yo'sinda emas. Xususan, Livan milliy qo'shini qudratli siyosiy kuchga va hokimiyatning tayanchiga aylanmadi. Boshqa bir qator mamlakatlarda qurolli kuchlar kuch to'plab, davlat to'ntarishlari va g'alayonlarning tashkilotchisiga aylanib bordi, qo'shinning o'zida esa bir-birlari bilan kurash olib boruvchi guruhlar harakat qilgan. Shunday tarzda Iroqda 1930-yillarda panarbchilik oqimlari, iroqlik millatchilar, kurd vatanparvarlari faollashishdi, Suriyada esa fransuzlar tizimining chaqiruvi tartibiga muvofiq, zobitlar korpusi diniy oqimlarning muvozanatining buzilishiga asoslanib yaratilgan.

Mustaqilikka erishganidan so'ng ko'pchilik arab mamlakatlarda harbiylar rahbariyatidagi katta ta'sirlaridan foydalanishgan. Ular davlatda va jamiyatda, joylarda rahbarlik mansablarini egallashgan edi. Qo'shin mustaqillikning dastlabki davrlarida davlat boshqaruvma'muriy apparati uchun kadrlarni yetkazib berishga xizmat qilgan, partiyaviylikning, davlatning va iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib borgan. Misol uchun, Suriyada Hofiz Asadning yaqinlari, atrofida qilari siyosiy yo'nalishni shakllantirishda, davlat qarorlarini ishlab chiqishda va qabul qilishda ishtirok etishgan. Ularning asosiy qismi harbiylardan (mudofaa vaziri, General - shtabning boshlig'i, maxsus xizmatning rahbarlari edi). Mas'uliyatli davlat va partiya lavozimlarini qurolli kuchlar hamda maxsus xizmat bilan bog'liq bo'lgan oily darajadagi harbiylar egallashgan edi.

Arab davlatlarining siyosiy tizimiga diniy mazhab yoki guruh sifatida tashkil etilgan diniy konfessiyalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kuchli ta'sir qilishi mumkin. Din va siyosat ko'p asrlar

mobaynida u yoki bu darajada bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan. Din e’tiqod qiluvchilar ommasiga tayanadi, u ijtimoiy bilish shakli sanaladi. Siyosat ham, o‘z navbatida, omma bilan aloqadordir, shuning uchun bu har ikkala ijtimoiy hodisa bir-biri bilan tutashishi tayin, xususan bu holat musulmon olami uchun xosdir. Etno diniy yo‘nalish, mazhab omilini Suriya misolida ko‘rib chiqish mumkin. Mazkur mamlakatda siyosiy faoliyat prezidentlar Hofiz va Bashar Asadlar tarafidan ishlab chiqilgan mehanizmlar bo‘yicha belgilanadi. Suriyada hokimiyat asosiy qismi alavitlardan iborat bo‘lgan hukmron elita qo‘lida mujassamlashgan. Asadlar oilasi ham alavitlardan. Alavitlar aholining kamchiligini (12 %) tashkil etishadi, lekin shunga qaramay ular hukumatni, armiya qo‘mondonligini deyarli butunlay nazorat qilishadi, iqtisodiyot sohasidagi muhim mansablarni egallashgan. Mamlakatni rasman Arab Sotsialistik uyg‘onish partiyasi, ya’ni BAAS boshqarmoqda, ammo partiyada ham alavitlarning ta’siri nihoyatda kuchli. Biroq aynan, mamlakatning siyosiy jarayonlarida alavitlarning bunday muhim ahamiyatga ega bo‘lishidan qat’iy nazar, Suriyadagi diniy yo‘nalishlar, mazhablar o‘rtasidagi barqarorlik, Bashar Asadning diniy mazhablar, yo‘nalishlar o‘rtasida qanchalik to‘g‘ri, moslashuvchan siyosat olib borishiga bog‘liqdir. Bu orqali sunniy yo‘nalishga e’tiqod qiluvchi mamlakat aholining katta qismini boshqarayotgan elitaga keskin ravishda qarshi chiqishining oldini olish mumkin.

Livandagi siyosiy faoliyat turli etno-diniy yo‘nalishlar, mazhablarning guruhleri siyosiy konfessionalchilik tizimi doirasida o‘zaro hamkorlik qilishi bilan belgilanadi. Ammo mamlakatda ushbu tizimni yo‘q qilish yoki transformatsiya qilish haqida doimo bahs ketmoqda. Bunday bahs, ayniqsa, 2005-yilning 14-fevralida bosh vazir Rafiq al-Xaririyning o‘ldirilishi hamda 2005-yilning aprelida Livan hududidan Suriya qo‘shinlarining chiqib ketishidan so‘ng yanada kuchaydi. Hozirgi vaqtda Livandagi «14-mart koalitsiyasi» musulmon-sunniylarni, druzlarni va xristianlarni, birlashtirgan bo‘lib, ular Livanda yangi tartib o‘rnatilishiga chaqirmoqdalar, ular president Emil Lahudning iste’foga chiqishini hamda Suriyaning Livan mamlakatining ichki siyosiy hayotiga ta’sirini yo‘qotishni talab qilib chiqishmoqda. Hozirgi Livan hukumatidagi vazirlarning uchdan ikki qismi ushbu harakatning a’zolari hisoblanishadi. Ularga qarshilar, ya’ni Suriya va

Livan o'rtasidagi mustahkam aloqalarni saqlab qolish tarafdorlari sifatida «AMAL» va «Hizbulloh» (yetakchilari Nabi Berri hamda Hasan Nasrullo) ni ko'rsatish mumkin. Ularga xristianlarning katta ta'sirga ega bo'lgan yetakchisi general Mishel Aun qo'shildi. Livan jamiyati og'ir o'tish davrini o'z boshidan kechirmoqda, bunday vaziyatda barcha siyosiy kuchlarining mavqelari tubdan o'zgarishi mumkin. Siyosiy beqaror vaziyat davom etayotgan bir paytda «Yangi Livanda» kuchlarning yangicha nisbatini o'rnatishga bo'lgan urinish, bunday holatda barqarorlik izdan chiqishi mumkin hamda buning natijasida siyosiy kuchlar o'rtasidagi ichki siyosiy qarama-qarshiliklar yanada keskinlashib ketishi va natijada ular kurash olib borishning har qanday vositalaridan, yo'llaridan, qurolli to'qnashuvlarni keltirib chiqarishdan ham foydalanishlari xavfi mavjud. Tahlilchilarning bashorat qilishlaricha, diniy-siyosiy kuchlarning bunday xaatiharakatlarni sodir etishsa, Livanda fuqarolar urushini keltirib chiqarishlari ham mumkin. Milliy-diniy yo'nalishlar, mazhablar guruhlarining vakillari orasida kurdlar ham o'zlarining jamiyatdagi va siyosiy mavqelarini mustahkamlash uchun tashkilot yoki siyosiy partiya tuzishga intilishmoqda. Ushbu mamlakatda kurdlarining mavqei nihoyatda kuchsiz sanaladi, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyati ko'zga ko'ringan livanlik arboblarning faoliyati bilan tenglasha olmaydi, kurdlar har doim o'zlarining uyushmalariga, tashkilotlariga, ko'pincha hatto oilaviy va urug'chilik asoslariga suyanishga harakat qilishadi.

Milliy-diniy yo'nalishlar, mazhablar omilini inkor qilish yokida undan «katta siyosatda» destruktiv holda foydalanishga intilish 2003yilda Iroqda Saddam Husayn tuzumi ag'darilganidan so'ng, bo'lib o'tgan voqealarda o'zining salbiy natijalarini namoyon qildi, bu holat 2006-yili Iroqda fuqarolar urushi darajasiga keltirib qo'ydi. AQSH Iroq davlatiga bostirib kirgunicha, ma'lum darajadagi kurdlar muammosini hamda Saddam tuzumida ozchilik millatlarni hamda diniy mazhablarni kamsitish siyosatini hisobga olmagan taqdirda Iroq mamlakati umuman olgan yaxlit mustahkam davlat edi. Hozirgi vaqtda esa Iroqdagi siyosiy kuchlarning joylashuviga e'tibor qaratadigan bo'lsak, nafaqat kurdlar va arablar o'rtasida bo'linish yuz bergan, shuningdek sunniylar va shialar o'rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keldi, buning ustiga-ustak ularning har birining ichida ham bo'linish ro'y berdi, bu o'z navbatida

o‘zaro kelishuvlarga to‘g‘anoq bo‘lib, diniy yo‘nalishdagi ichki siyosiy ziddiyatlarga sabab bo‘lmoqda hamda to‘qnashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Yevgeniy Primakovning qayd etishicha, ilgari Saddam Husayn hukmronligi davrida Iroqda «tuzumga qarshi shialarning isyoni» bo‘lib turgan bo‘lsa, AQSH ning harbiy intervensiyasidan keyin esa «diniy asosda shialar hamda sunniylar o‘rtasida to‘qnashuvlar sodir bo‘lmoqda hamda har kuni Iroqda o‘nlabinsonlar halok bo‘lmoqda, Iroq jamiyati fuqarolar urushi boshlanib ketishiga yaqin turibdi».

Siyosiy faoliyatning asosi kishilarning qiziqishlari va manfaatlari hisoblanadi, ular ijtimoiy faoliyat (siyosat) orqali amalga oshiriladi. Bunda ular mustaqil holda yoki o‘zlarining vakillari (siyosiy partiyalar, harakatlar, birlashmalar) yordamida harakat qilishadi. Davlat va jamiyat sohalarini qayta qura oladigan, o‘zgartira oladigan har qanday shaxs ushbu faoliyatning subyektlari bo‘la olishadi. Shu bilan bir qatorda ularning ishtiroki o‘z xohishlariga ko‘ra bo‘lishi yoki hohlamasalar ham bo‘lishi mumkin, chuqur anglagan holda ham tushunmagan holda ham bo‘la oladi. Siyosiy faoliyatning individual subyekti-bu mavjud ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda o‘zining talab-istaklari asosida hayotiy strategiyasini shakllantiradi, faoliyatini yo‘lga qo‘yadi, ijtimoiy faollik vositasida rejalarini amalga oshiradi. Siyosiy faoliyat subyektlari siyosiy faoliyat subyekti sifatida o‘zini anglamaydigan fuqarolar, ya’ni faol bo‘lmagan qatnashchilar hamda o‘zlarining xatti-harakatlarini siyosiy faoliyatga qo‘shiladigan hissa deb hisoblovchi fuqarolarga, ya’ni faol qatnashchilar, siyosiy arboblarga bo‘linadi.

Quyidagi shaxslarni saylovlar natijasida lavozimlarni (presidentlarni, gubernatorlarni, deputatlarni, hokimlarni) egallovchilarni hamda ijroiya hokimiyatda yuqori mansablarni (siyosiy arboblarni, «xalq manfaatlari va irodasini» ifoda etuvchilar) egallovchilarni; ijtimoiy tashkilotlarning va birlashmalarning, siyosiy partiyalar va oqimlarning yetakchilarini, yirik siyosatshunoslarni, jamoat arboblarni («o‘zlaricha» faoliyat ko‘rsatuvchilar, ularning ishtiroki shaxsiy tashabbuslari hamda «ijtimoiy talablar» natijasida kelib chiqqan); yirik xo‘jalik tashkilotlarining rahbarlari («majburlikdan» siyosiy arbob bo‘lganlar, bunday bo‘lishiga sabab ushbu muassasalar, korxonalarining faoliyati, shuningdek ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar mintaq va

mamlakatning iqtisodiyotiga hamda siyosatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi) arab davlatlaridagi siyosiy arboblarning sifatida ko'rsatish mumkin.

Davlat va jamiyatning o'zaro hamkorligining samarador bo'lishi ko'p jihatdan siyosiy arboblarning qandayligiga, uning faolligi qanday maqsadga yo'naltirilganligiga bog'liq. «Majburiyat olgan, va'da bergan siyosiy arboblarning» holatida esa jamiyatda barqarorlikni ta'minlanishi, davlatchilikning kuchayishi ular tarafidan qanday choratadbirlar ishlab chiqilganligiga hamda ularni qo'llashga bog'liq bo'ladi. «Majburiyat olgan siyosiy arboblarning» – yetakchining ahamiyati jamiyatda an'anaviy fikrlash tamoyillarini targ'ib qilishida ham ko'rinadi. Arab mamlakatlarida ushbu fenomen an'anaviy islomning, shariat me'yorlarini saqlab qolishda namoyon bo'ladi, bular asrlar mobaynida jamiyat tafakkuridashakllanib kelgan. Mustaqillini qo'lga kiritganlarida, keyin esa uning asoslarini mustahkamlashda arab yetakchilari anchagina vakolatlarga ega bo'lishgan. Shu bilan birga ularning vakolatlari prezidentlar, bosh vazirlar, siyosiy va harbiy rahbarlar bajaradigan vazifalar doirasida cheklanib qolmagan, aksincha ular «millat otasi», milliy-ozodlik harakati yo'lbo'shchilari sifatida juda keng huquqlarga, vakolatlarga egalik qilishgan. Arab yetakchilarining aksariyati mustaqillikka erishish paytida hokimiyat tepasiga kelishgan, ushbu davrda jamiyat ularning bunday keng vakolatlarga ega bo'lishiga ko'p jihatdan tayyor bo'lgan, bunday qattiq avtoritar hokimiyatni qabul qilinishi, o'z navbatida, aniq tarixiy shart-sharoit hamda xalqning ruhiyati tayyorligidan kelib chiqqan. Shuning uchun Yaqin Sharqdagi deyarli hamma davlatlar boshqaruv shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar, oily hokimiyatning kuchli bo'lishi bilan izohlanadi, bu milliy davlatning mavjud bo'lishining shakli sifatida jamiyat tarafidan qabul qilingan.

Arab mamlakatlarida davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning rivojlanishini belgilab beradigan muhim yo'nalishlardan biri hokimiyatning qay tarzda o'zgarishi masalasidir. Yaqin Sharq mintaqasida so'nggi o'n yilliklarda hukmron elitalarning o'zgarishi jarayoni hamda hokimiyat tepasiga yetakchilarning yosh avlodining kelishi tezlashdi. Buning natijasida asta-sekinlik bilan boshlangan demokratik o'zgarishlarni tezlashtirish bo'yicha tavsiyalar berilish hodisasi kuchaydi, shuningdek bilvosita yoki bevosita arab

davlatlarining ichki siyosiy jarayonlariga aralashish boshlandi. Mazkur mamlakatlarning va xalqlarning kelajakdagi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini belgilab berish uchun ularda hokimiyat tuzumlarini o'zgartirish bo'yicha mexanizmlary muhimroq ahamiyat kasb eta boshladi.

Yaqin Sharq xalqlari o'ziga xosligi va diniy an'analarining ta'siri ostida G'arbda amalda umumiy saylovlar va uyushgan muxolifatning mavjudligi orqali hokimiyatdagilarning davriy almashib turishi arab mamlakatlarida qo'llanilsa, bu markaziy hokimiyatning kuchsizlanib qolishiga, qurolli kuchlar yoki boshqaruvchi siyosiy partiya ichida bo'linish, parchalanish yuz berishiga olib kelishini ko'plab tadqiqotchilar hamda siyosatchilar bugungi kunda tan olmoqdalar. Ular arab davlatlarida milliy suvereniteti timsoli hisoblanishadi.

Shuning uchun arab dunyosida hokimiyatning almashishi jarayoni asosan an'anaviy mexanizmlar asosida amalga oshirilmoqda. Ko'pincha bu jarayonda ichki siyosiy inqirozlar ro'y berishi kuzatilmoqda. Arab davlatlari rahbarlari umuman olganda, boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda yoshlari ancha katta bo'lgan (sobiq Misr prezidenti Husni Muborak, Yaman prezedenti A.Solih, Liviya rahbari M.Kaddafi). Xususan, sobiq Misr Prezidenti Husni Muborak (1981-2012) 2005-yilgi prezidentlik saylovlarida qatnashayotganida «islohotchi-prezident» imidjini faol ishlatishni boshladi. U 24 yillik boshqaruvidan so'ng, 77 yoshida mamlakatdagi tub o'zgarishlarni davom ettirishga qaror qildi. Prezidentning yangi imidji bilan birga» Muborak 2005: yetakchilik va kelajakka o'tish» shiori ostida o'zining zamonaviy hamda g'ayratli uslubini shakllantirishga urindi. Shu bilan birga, jamiyat hayotida islohotlar o'tkazishga va uni erkinlashtirishga tomon harakatlanishda birinchi bosqichda ichki siyosiy beqarorlik yo'ldosh bo'lmoqda, bunday hol esa o'z navbatida arab davlatlari yetakchilarini ehtiyotkor bo'lishga, hatto siyosiy madaniyatni o'zgartirishda» arxaik» yondoshuvga amal qilishga majbur qilmoqda.

Arab davlatlarida an'anaviy hokimiyat ta'sirli oilaga yoki shaxslar guruhiga tayanadi, bunda ular kuchli shaxs atrofida birlashishadi. Misrda inqilob yuz bergan davrgacha Muhammad Alining sulolasidan chiqqan podshohlar mamlakatni boshqarishgan. Mazkur sulola hokimiyat tepasiga 1805-1806-yillarda kelgan. Saudiya Arabistoni

mutlaq monarxiyasida hokimiyat as-Saud oilasi tarafidan idora etiladi. As-Saudlar yirik arab qabilalaridan biri bo'lmish Anizax¹lardan kelib chiqishgan saudiyalar oilasi.

Mamlakatning davlatchilik tuzilishida oilaviy aloqalar muhim rol o'ynaydi. Bunday holat arab mamlakatlarida hokimiyatni vorisiylik yo'li bilan berilishini yoki davlat to'ntarishlari yo'li bilan hokimiyatni egallash mehanizmlari bilan belgilanadi. 1970-1980-yillardagi islohotlar yangi davlat to'ntarishlari ro'y berishi xavfini bartaraf qildi hamda arab davlatlarida hokimiyatni uzoq payt barqaror hukm surishiga yo'l ochdi. Chuqur o'zgarishlarning amalga oshirilmaganligi avtoritar idora usulining uzoq vaqt o'zgarmay shaklda saqlanib qolishiga olib keldi va siyosiy barqarorlikni ta'minlash vazifasini bajaradi.

Parlament institutlarining roli ko'pgina holatlarda vakillik vazifalarini bajarishdan hamda hokimiyatning o'tish jarayonini konstitutsiyaviy jihatdan rasmiylashtiradi. Siyosiy partiyalar mazkur

jarayonlarga deyarli amalda ta'sir ko'rsata olmaganlar. Natijada, arab davlatlarining siyosiy tizimlarining rivojlanishi «hokimiyat tuzilishining monarxik» jihatlariga ega bo'lishiga sabab bo'lgan. Oxirgi o'n yilliklarda bunday tizim butunlay samarali ishladi. Arab mamlakatlaridagi Bir qancha aholi qatlamlari va guruhlarining noroziligiga qaramay, deyarli 3 ta o'n yilliklar mobaynida mavjud tuzumni ag'darishga qaratilgan hukumatga qarshi keng miqyosidagi xalq chiqishlari kelib chiqmagan. Xorijdagi muxolifat yaxshi uyushmagan edi va ko'pgina hollarda shunday bo'lib qolmoqda. Islomchilarning hokimiyatga qarshi chiqishlari samarali va qattiqo'llik, shafqatsizlik bilan bostirilgan hamda ular aholi o'rtasida kuchli tayanchga ega bo'lishmagan. Bunday holat ko'pchilik jahondagi qudratli davlatlarga ma'qul kelardi, shular qatorida AQSHga ham. AQSH o'zining strategik manfaatlaridan kelib chiqqan holda bu yerdagi mavqeini saqlab qolishga intilgan.

¹ Saudlar oilasi kelib chiqishi qadimgi «**Anazah**» degan Iroq va Suriyada yashab kelgan eng katta arab qabilasiga borib taqaladi. https://ru.wikipedia.org/wiki/Племена_и_кланы_Аравийского_полуострова.

So‘nggi o‘n yillikda vaziyat o‘zgara boshladi. Demografik muammolarning keskinlashishi, suv zahiralari va boshqa resurslarning kamayib ketishi, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarning kuchayishi, ekstremistik mafkuraning tarqalishi davlat boshqaruvining faoliyat ko‘rsatishiga nisbatan qarama-qarshi holatlarga misol bo‘la oladi. Xorijdagi muxolifat ham faollashib brogan, ushbu jarayonda G‘arbning siyosiy tuzilmalari ishtirok eta boshladi, bu hol ayniqsa AQSH prezidentining milliy havfsizlik bo‘yicha sobiq maslahatchisi K.Rays tomonidan aytilgan quyidagi: Ko‘proq demokratiya, sabr-toqat, gullab-yashnashi va erkinlikni kim ko‘proq hohlasa o‘shalar bilan hamkorlikda ishlaymiz degan» mashhur ta’kididan so‘ng kuchaydi.

2001-yil 11-sentabrda Nyu-York va Vashingtondagi terrorchilik harakatlaridan keyin boshlangan terrorizmga qarshi global miqyosdagi kurashda AQSH dastlab Afg‘onistonda, so‘ngra esa Iroqda siyosiy vaziyatni hamda kuchlar muvozanatini keskin ravishda o‘zgartirishdi. Amerika rahbariyati «sayyoramizning boshqa qismida, ya’ni Yaqin Sharqda uzoq muddatga mo‘ljallangan yangilanishlarni o‘tkazishni» o‘z zimmasiga oldi. Vashingtonlik strateglarning fikricha, u yerda «siyosiy va iqtisodiy erkinlikning yetishmovchiligi» yuzaga kelgan, shuningdek, «nafrat mafkurasining» tarqalishi uchun shart-sharoit hamda mintaqaviy beqarorlik o‘rnatildi, bu holat «Amerikaning xavfsizligi uchun doimiy tahdiddir».

Yaqin Sharqda qayta shakllantirish bo‘yicha AQSH strategiyasini ro‘yobga chiqarishga intilish AQSH dagilarning o‘zlari tarafidan keskin tanqidga uchragan hamda arab davlatlarida o‘ta murakkab sharoitni yaratishdi. 2011 yilda Tunisda va keyinchaklida Misr va Liviyada “Arab bohiri” deb atalgan kuchli siyosiy-ijtimoiy jarayonlar ostida boshlangan davlat to‘ntarishlar hozirgi kungacha bu mintaqani kuchli siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy inqirozga solib qoydi. Hozirgi kungacha mazkur davlatlar o‘zini eplayomasdan kelishmoqda.

AQSH tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va dunyoning 8 ta yirik davlatlar tomonidan ma‘qullangan «Katta Yaqin Sharq» dasturi hozirda ham jiddiy va asosli tashvish paydo qilmoqda. Arab mamlakatlarida yetakchilarning (Marokash, Iordaniya, Qatar, Bahrayn, Suriya, BAA) yangi avlodining asta-sekinlik bilan hokimiyat tepasiga kelishiga qaramay, yirik manbalar ustidan nazorat qilish hamda siyosiy qarorlar

qabul qilish amalda oldingi hukmron elitalar tarafidan amalga oshirilmoqda. Demokratlashtirishni tezlashtirish, uni tashqaridan «tiqishtirish», shuningdek, tuzumlar agʻdarishga yashirincha intilish va eski hukmron elitalarni hokimiyatdan chetlashtirishga urinish arab davlatlardagi vaziyatni beqarorlashtirishi mumkin hamda hokimiyat tepasiga islomchilarning kelishi uchun «qulay» holat yaratib beriladi. Buning yaqqol misoli sifatida Misrda 2012-2013 yillarda Birodar-musulmonlarning hokimiyatga chiqqanlarni keltirish mumkin.

Yaqin Sharqdagi va umuman olganda, dunyodagi geosiyosiy oʻzgarishlar, ayniqsa, 2000-chi yillar boshida va 2011–2016-yillar voqeʻlardan soʻng Iroq, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada boshlangan urush va notinchliklardan soʻng AQSH maʼmuriyati tashabbusi bilan boshlangan mintaqdagi «oʻzgarishlar strategiyasi» anchagina soʻsayib kelmoqda.

Suriya prezidenti B.Asad tomonidan amalga oshirilgan davlatni boshqarish va siyosatni yuritish tajribasi katta qiziqishni uygʻotadi. Tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, «SAR siyosiy institutlar chuqur tarmoqlangan va bir-biri bilan uzviy bogʻliq, Suriyada islomchilarning mavqelari kuchsiz hamda hokimiyat mamlakatda radikal islomning va terrorchi tashkilotlarning faollashishiga boʻlgan urinishlarga qarshi qatʼiy choralar koʻrmoqda. Shu bilan birga Suriyadagi siyosiy hayotning sezilarli darajada erkinlashtirishiga, Suriya jamiyatidagi oʻtkir muammolarni ochiqchasiga muhokama qilayotgan mustaqil OAV paydo boʻlishiga, shuningdek, uning keyingi ijtimoiy-siyosiy rivojlanish yoʻliga eʼtiborni qaratmaslik mumkin emas.

Biroq zamonaviy shart-sharoitlarda Suriyada va uning atrofida shakllanilgan holatlarni hisobga olmasdan boʻlmaydi. Beqarorlashtiruvchi tashqi omillar, soʻnggi yillarda AQSH va Saudiya Arabistoni tomonidan Suriyaga nisbatan qilinayotgan bosimning kuchayishi bir paytning oʻzida liberal islohotlar dasturini tez va oson amalga oshirishga hamda jamiyatda barqarorlikni va murosani saqlab qolishga imkon bermayapti.

Seminar savollari:

1. Misrda “Hur ofitserlar” harbiy inqilobigacha bolgan davrda islom dinining radikallashtiruviga sabab bolgan omillar?

2. Livanda fuqarolar urushining asosiy omillari nimadan iborat?
3. Isroil Falastin mojarosida HAMAS tashkilotining roli? 4. 2001 yil 11-sentabr voqealaridan keyin

Mustaqil ish savollari:

1. HAMAS hukumatining xalqaro jihatdan izolyatsiya qilinishi.
2. HAMAS va FATH o'rtasida bo'linish yuz berishiga sabab.
3. 2003-yilda Iroqda Saddam Husayn tuzumi ag'darilganidan so'ng.
4. Livandagi siyosiy faoliyat turli etno-diniy yo'nalishlar.
5. 1987-yilda Tunisda Prezident Zayn Obiddin ben Alining hokimiyatni egallashidan so'ng shakllangan siyosiy tizim.

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. John L. Esposito. Islam and Politics. Third edition. Siracusy University Press. –New-York, 2006.
2. 'Azzam, Maha. Islamism revisited // International Affairs.–N.Y., 2006. –Vol.82.– № 6.–P 1129.
3. Dimuqratiyat al-Iqsa Masiruha al-Fana. – 2005. – 22 Dec
4. Baylouny, Anne-Marie. Emotions, Poverty, or Politics: Misconceptions About Islamic Movements // Connections 3. №.3 – September 2004. –Partnership for Peace Consortium of Defence Academies and security Studies Istitutes, GarmischePartenkirchen (Germahy), 2004.– P.69-77: Baylouny A.-M.
Democratic Inclusion: A Solution to Militancy in Islamists Movements? // *Strategic Insights*. Center for Contemporary Copnflct (CCC), Mounterey (US), 2004. – Vol. III.– Issue 4.– 7p.
5. Gold D. Middle East: the Terror Trail // The Jerusalem Post. – 2006. – Feb 2
6. Pollack K. The Seven Deadly Sins of Failure in Iraq: a Retrospective Analysis of the Reconstruction // The Middle East Review of International Affairs. – December 2006. – Volume 10, No. 4. – Article 1/7.
7. Sh.Yovqochev. Jahon siyosatida Islom omili. -T.:TDSHI, 2016.

8. Shanahan R. Hizballah Rising: The Political Battle for the Loyalty of the Shi'a of Lebanon// The Middle East Review of International Affairs. – March 2005. –Vol. 9. – № 1.–Article 1.
9. Yom S.L. Civil Society and Democratization in the Arab World // The Middle East Review of International Affairs. – Dec. 2005. –Vol. 9.–No. 4.– Article 2.

2. ARAB-MUSULMON DAVLATLARIDA ISLOM OMILI

2.1. ARAB DUNYOSINING SIYOSIY TARAQQIYOTIDA ISLOM (JAZOIR VA TUNIS MISOLIDA)

Dars o‘quv maqsadi: Magistratura talabalariga Shimoliy Afrika mintaqasi mamlakatlarida dinning siyosiylashuv jarayonini o‘ziga xos xususiyatlari, arab davlatlarida islom muxolifati, islomning siyosiylashuv jarayoni to‘g‘risida batafsil ma’lumotlarni berish.

Tayanch iboralar: Islomning siyosiylashuv jarayoni, Shimoliy Afrika mintaqasi, islom dinining xususiyatlari, sekulyarizatsiya jarayoni

Reja:

1. Islom musulmon mamlakatlarning siyosiy rivojlanishida.
2. Jazoir va Tunisda islomiy partiyalarning o‘rni.
3. JXDRda sekulyarizatsiya jarayoni.
4. Jazoida funtamentalizmning o‘sishi
5. Jazoir va Tunis davlatlarining dinga qarshi siyosati.

Butun arab dunyosi uchun umumiy bo‘lgan islomning siyosiylashuvi jarayoni ijtimoiy-siyosiy hayotning turli-tuman sohalari va turli darajadadir. Bu borada tarixiy-madaniy jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, ammo jamiyatning islomlashuvi va ijtimoiy-siyosiy hayotida islomning o‘rni borasida tub farqlarga ega Jazoir va Tunis kabi ikki shimoliy Afrika mintaqasi mamlakatlarini solishtirish qiziqarlidir.

Ushbu mamlakatlarning rasmiy mafkurasi tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida turli ijtimoiy shiorlar ostida chiquvchi milliylikdir. Tunisda 1964-yilda «dastur sotsializmi» doktrinasi e‘lon qilindi, Jazoir mustaqillikni qo‘lga kiritgach «jazoir sotsializmi»ning qurilishini e‘lon qildi. Islom komponenti har ikkala mamlakat rasmiy doktrinasining bir qismini tashkil etadi, ammo uning o‘rni turlicha.

Tunis o‘zining rasmiy mafkurasida sekulyarizm tamoyilini asos qilib olgan. 50-60-yillarda Tunis prezidenti Habib Burg‘iba tomonidan o‘tkazilgan islomni davlat va jamiyat hayotidan chiqarishga qaratilgan keng miqyosdagi islohotlar natijasini berdi. Obyektiv omillar – intensiv g‘arblashtirish va G‘arb davlatlari bilan keng aloqalar bilan birga tunis

jamiyatining psixologik muxitida sezilarli o'zgarishlar bo'lishiga, uning islomga bo'lgan munosabati kompleks diniy tasavvurga aylanishiga olib keldi.

Shunday bo'lsada, 1970-80-yillarda ushbu ijtimoiy ong va ijtimoiy hayotning sekulyarizatsiya tendensiyasi to'xtab qoldi va uning g'arb qadriyatlari ruhidagi modernizatsiyadan milliy, madaniy tiklanish asosidagi modernizatsiya yo'llarini qidirishga yo'naltirilishi sodir bo'ldi. Shunga qaramay tunis mafkurasining umuman olganda dunyoviy xarakterga ega prinsipial asoslari o'zgarishsiz qoldi. Burg'ibaning sekulyaristik islohotlarining birortasi ham qayta ko'rilmadi. Tunisda islomga e'tibor pragmatik maqsadda qat'iy amal qilinadi, ya'ni fundamentalizmga qarshi kurash sharoitida omma bilan samarali aloqaga erishish, mamlakatning xalqaro miqyosda, ayniqsa, arab dunyosidagi obro'yini oshirishga xizmat qiladi.

Jazoirda islom mamlakatning tarixiy va ijtimoiy-madaniy taraqqiyotining asosiy sharti sifatida rasmiy mafkuraning muhim tarkibiy qismi bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. 1986 yilda milliy xartiyaning, keyinchalik esa 1989-yilda konstitutsiyaning qabul qilinishi bilan oxirgi o'n yillikda Jazoir «jazoir sotsializmi» shiorlaridan voz kechdi va mafkura, siyosat, madaniyat, hayotning barcha jabhalarida islomni birinchi o'ringa qo'ydi.

JXDRning islomning mavqeini mustahkamlashga qaratilgan davlat din siyosati an'anaviy musulmoncha hayot tarzini rivojlantirish bilan birga aholining turli qatlamlarida an'anaviy ijtimoiy ongni saqlashga qaratilgandir.

Jazoir va Tunisdagi fundamentalizm umumiy tabiatga ega, ammo uning roli va islomiy partiyalarning o'rni ushbu mamlakatlar ijtimoiysiyosiy hayotida bir xil emas. Jazoirda fundamental harakat mafkuraviy-siyosiy mavqe jihatidan tuzum bilan bir xil, Tunisda esa qarama-qarshidir.

Tunisda fundamental harakat 1960-yillar oxirida paydo bo'ldi, boshqa mamlakatlar singari ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning oxiriga yetmay qolgani, sotsial notenglikning o'sishi, g'arb tomonidan «zararli» madaniyatning kiritilishiga javob edi. 1970-yillar oxiriga borib harakat al-amir boshchiligidagi yaxshigina maxfiylashgan, kuchli markazlashgan bo'linmalarga bo'lingan, harbiylashgan guruhlariga ega

tashkilotga aylandi. 1981 yilda u o'z partiyasi – Islom yo'nalishidagi harakat (IYH)ning tashkil etganini ma'lum qildi. IYH tez fursatda eng faol muxolifat kuchlaridan biriga aylandi.

Burg'ibaning fundamental harkatga munosabati yagona edi – fundamentalizm uning Tunisdagi modernizalashgan dunyoviy jamiyat qurilishi borasidagi ishlariga kuchli zarba berishi mumkin deya hisoblab, islomiy partiyaning ehtimoliy tan olinishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Burg'iba boshqaruvi davrida harakatga qarshi uning boshliqlari va ko'plab a'zolarining hibsga olinishi bilan yakunlangan uchta antiislom kampaniyasi amalga oshirildi.

1987-yilda hukumatga kelgan Tunis prezidenti Zayn Obiddin bin Ali o'z boshqaruvining dastlabki yillarida o'zidan oldingi prezidentga nisbatan nozikroq taktika qo'llashga harakat qildi. Burg'iba kabi diniy harakatning eskalatsiyasiga yo'l qo'ymagan holda, u ko'proq nozik va ehtiyotkor uslub bilan harakat qildi. 1988-yilda qabul qilingan partiyalar to'g'risidagi qonun irqiy va diniy kelib chiqishga asoslangan faoliyat bilan shug'ullanuvchi har qanday partiyaning rasmiy tan olinishini ta'qiqladi. Shu bilan birga, to'rtta amnistiya va umumiy amnistiya to'g'risidagi (1989-iyul) qonun natijasi o'laroq, hibsga olingan barcha fundamentalistlar va ularning boshliqlari ozod etildi. 1988-yilda IYH rahbarlari Milliy pakt – hokimiyatdagi va muxolifatdagi partiyalarning yagona strategik liniyalari to'g'risidagi kelishuvni imzolashga taklif etildi, ammo ular buni rad etdilar.

Islomiyarning hukumat partiyasi bilan aloqaga kirishni istamasligi, to'xtovsiz ekstremistik chiqishlar, IYHning aholining ma'lum qatlamlari orasidagi ta'sirining o'sishi (1989-yilgi parlament saylovlarida islomchilar alohida hududlarda 13%dan 20%gacha ovoz olgani shundan guvohlik beradi), hukumat doiralarini tezda o'z taktikalarini o'zgartirishlarini taqozo etdi. Ularning pozitsiyalarini qattiqqo'lligini oshirishiga Tunis bilan amalda ochiq chegaraga ega bo'lgan Jazoirda sodir bo'lgan voqealar ham muhim rol o'ynadi. «Bin Ali Ichki terror hisobiga bo'lsada, o'z mamlakatiga tashqi terrorning kirishiga yo'l qo'ymayapti», – deb yozadi ushbu voqea tufayli «Mond» gazetasi.

IYHning rasmiy olinishi uchun partiyalar to'g'risidagi qonun talablaridan kelib chiqib, hatto o'z nomidan «islomiy» so'zini olib

tashlab (1989-yildan u «An-Nahda harakati» deb atala boshlagan) bir necha bor harakat qilishiga qaramay, Tunisda islomiy harakat hech qachon va hozir ham qonunan mavjud bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Bin Ali kuchli politsiya apparati va armiyaga tayangan holda har qanday ekstremistik chiqishlarning olidini oladi, harakat amalda boshsiz qoldirilgan, talabalar shaharchalarida polisiya kuzativi o'rnatilgan.

Bin Ali o'z boshqaruv yillarida ma'lum iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka erishdi. Oxirgi yillarda YaIP o'sish sur'ati o'rtacha 8%ni, aholi jon boshiga yillik daromadh 1500 dollarni tashkil etdi, bu arab mamlakatlaridagi o'rtacha ko'rsatgichdan yuqoridir.

Siyosiy hayotda ma'lum demokratik o'zgarishlar yuz berdi – (anNahdadan tashqari) barcha muxolifat partiyalari tan olindi, matbuotda senzura ta'qiqlandi, fuqarolik erkinliklari kengaytirildi.

Bularning barchasi, so'zsiz, hukumatga ommaning ishonchini orttirdi, 1990-1994-yillardagi prezidentlik saylovlarida Bin Alining 99% ovoz bilan deyarli bir ovozdan o'z lavozimiga saylangani buning isbotidir.

Shunday bo'lsada, Tunisda kechayotgan demokratik jarayon juda mo'rt va har xil og'ishlardan kafolatlanmagan, chunki u to'liq hukumat nazorati ostidadir. Tunis hukumatidagi Bin Ali yetakchiligidagi Demokratik konstitusion birlashma partiyasi butun ijtimoiy-siyosiy hayotni boshqarishda davom etgan va hokimiyatni boshqa muxolif kuchlar bilan bo'lishish niyati bo'lmagan. “Arab baxori” paytida Tunisda katta o'zgarishlar ro'y berdi. O'zining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan norozi bo'lgan qu'yi tabaqalar hukumatga qarshi chiqib, yangi hukumat saylashdi. 2011-yil 15-yanvardan boshlab bosh vazir etib Fuad Mebaza tayinlandi. Lekin njrozilik kayfiyatlardan foydalangan yagona real muxolif kuchi – An-Nahda islom partiyasi – yangi saylovlarni o'qazishni talab etgan.

2011-yil 2-dekabrda Tunis parlamenti Munsef Marzuqi nomzodini qo'llab quvatlashdi. 2014-yildagi umum xalq saylovlarda Marzuqi g'alabaga erishomadi va prezidentlik kursini yangi demokratik uslubida Bedji Qaid As-Sebsiga (2014-2019) bo'shatib berdi. As-Sebsiyning vafotidang (2019) so'ng presidentlikka Qays Said saylandi.

Arab dunyosining eng zamonaviylashgan mamlakatlaridan biri, madaniyat, ta'lim, ijtimoiy ong, inson huquqlari borasida sezilarli yutuqlarga erishgan Tunisda shariyatga qaytish shiorlarini aholining asosiy qismi salbiy qaraydi. Shunga qaramay ma'lum ijtimoiy asosga ega islomiy harakat o'z saflarida parchalanish va ta'qib tufayli zaiflashgan bo'lsada, tunis siyosiy hayotining doimiy asosdagi faktori bo'lib qolmoqda.

Tunisdan farqli ravishda Jazoir islom davlatidir. Bu yerda islom rasmiy mafkuraning muhim qismi bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Ommaviy ong darajasida esa, ko'pincha aholining turli qatlamlari hayot tarzini va ruxiyatini belgilab beradi. 1989-yilda yangi konstitutsiya va uning asosidagi siyosiy plyuralizm to'g'risidagi qonunning qabul qilinishdan so'ng ijtimoiy-siyosiy hayotning liberalizatsiyasi sharoitida, mamlakatda o'ttizdan ortiq turli siyosiy partiyalar ro'yxatga olindi. Muxolif kuchlar orasida birinchi o'ringa islomiy harakat chiqdi, bir jihatdan uning siyosiy maydonda paydo bo'lishi kutilmagan hol bo'ldi, chunki 1987-yil oktabrdagi ommaviy chiqishlargacha mamlakatda islom qaytarli real siyosiy kuchni ko'rsatmagan edi. Hozirgi kunda Tunis G'arb standartlari bo'yicha yagona arab demokratik davlati xisoblanadi.

Jazoirda fundamentalizm Tunisga nisbatan anchagina kech paydo bo'ldi. Masjidlar atrofida shakllangan birinchi islomiy guruhlar 70yillar o'rtasidagina paydo bo'ldi. 1979-yilda islomchilarning birinchi s'ezdida ularning birlashuvi ko'rib chiqildi, ammo bu omadsiz yakun topdi: liderlar o'rtasidagi turlicha fikrlar anchagina yirik bo'lib chiqdi. Yoshlarning 1987-yil oktabr chiqishlarigina fundamentalistlarning tashkiliy birlashuviga turtki bo'ldi. Jazoirning asosiy islomiy partiyasi – Islom qutqaruv fronti 1989-yilning 10-martida o'zining tashkil topganini e'lon qildi. Mamlakatda boshqa bir qator islomiy partiyalar ham faoliyat yuritadi.

Jazoirda funtamentalizmning o'sishiga asosiy sabab faqatgina hukumatning g'arbga moyilligi emas, balki Tunisdagidek, xalq ahvolining halokatli yomonlashuvi hamdir. Jazoir yetakchilari tanlagan ko'proq sotsiologik tamoyillarga asoslanuvchi «Jazoir sotsializmi» yo'li o'zining noto'g'riligini ko'rsatdi. 80-yillar boshidan boshlab kuchli markazlashgan davlat tizimidan bozor munosabatlariga

ehtiyotkorlik bilan o'tila boshlandi. Ammo islohotlar sekin kechdi, sanoat tushib ketdi, tashqi qarz o'sdi, ishsizlik va inflyatsiya oshdi. Milliy ozodlik frontining Ko'p yillar mobayni yakka boshqaruvidagi siyosiy va iqtisodiy yo'qotishlari, uning ommadhan uzilib qolgani, byurokratiya kuchliligi, ko'plab davlat-partiya apparati vakillarining korrupsiyalashgani tezda milliy-ozodlik kurashi va Jazoirning ilk mustaqil taraqqiyot bosqichida aytilgan qadriyatlarga xalqning ishonchini so'ndirdi. Mamlakatda keyinchalik fundamentalistlar tomonidan to'ldirilgan mafkuraviy vaakum paydo bo'ldi. Ko'plab jazoirliklar mamlakatning barcha o'tkir muammolari u bilan bog'liq bo'lgan MOF boshqaruviga muqobillikni islomda ko'rdi. Islomchilarning shiorlari oddiy jazoirliklar uchun tushunarli bo'lib chiqdi, chunki Jazoir jamiyati boshqalarga qaraganda ko'proq islom psixologiyasi bilan sug'orilgandir.

IQF – islom partiyasining birinchi bosqichida Tunisdagi analogiga qaraganda anchagina zaif edi: unda na tajriba, na tuzilma, na keng xalqaro aloqalar bor edi. Uning tinch va ekstremistik qanot liderlari – Abbos Madhini va Ali Belxoj tunislik Abdul Fattoh Muru va Rashid Gannushi bilan solishtirganda o'z mamlakatida ham, xrijda ham yetarlicha diniy obro'ga ega emas edi, buni Jazoir fundamentalistik harakati a'zolarining o'zlari ham tan olar edi. Ammo Tunisdan farqli ravishda Jazoirda fundamentalizm keng ijtimoiy qo'llab-quvvatlandi va tezlik bilan kuch yig'di.

Agar Tunisda islomiy harakatga salohiyatli hukmron partiya Demokratik konstitusion birlashma qarshilik ko'rsatgan bo'lsa, doim Tunis partiyasidan kuchsiz bo'lib kelgan Jazoir Milliy ozodlik fronti imkoniyati bor vaqtda ham fundamentalizga to'siq qo'ya olmadi. Buning ustiga, Jazoir prezidenti Shadli Benjedid dastlabki vaqtdan boshlab islomiy kuchlarni kengaytirdi, unda demokratik kuchlarga qarshi tura olish qobiliyatini ko'rdi. Uning davrida barcha islomiy partiyalar qonuniylashtirildi. Shu bilan birga, fundamentalistlarning 1990-yilgi munisipal va 1991-yilgi parlament saylovlaridagi (bunga halaqit berishga bo'lgan barcha urinishlarga qaramay: saylovlarning birinchi bosqichi natijalarining bekor qilinishi, muddatlarining o'zgartirilishi, 1991-yil yozida favqulodda holat joriy etilishi) hayratlanarli g'alabasi Jazoiridagi amaldagi tuzumni xavf ostida

qoldirib, o'tkir siyosiy inqirozga olib keldi. IQFga parlamentda mutlaq ko'pchilikni tashkil etish uchun faqatgina bir necha o'rin yetmadi xolos.

Bendjedid istefo berishga majbur bo'ldi. Mamlakat murakkab siyosiy inqiroz darajasiga kelib qoldi.

Hukumat vaakumidan qochish uchun Jazoirda yangi davlat organi – Oliy davlat kengashi tashkil etildi va uning birinchi raisi Muhammad Budiaf bo'ldi. 1992-yilda u tomonidan fojeali o'ldirilganidan so'ng Ali Kafi davlat rahbari bo'ldi, 1994-yilning fevralida esa, uning rasmiy muhlati yakunlangach ushbu lavozimga mudofaa vaziri Lamin Zerual o'tirdi. O'tgan yillar mobaynida vaqti-vaqti bilan qatag'onlar o'tkazilib, qator islomiy partiyalar tahqiqlangan bo'lsada, prezidentlarning hech biri islomiy harakatning ta'sirini susaytirishga erisha olmadhi. Mamlakatda haqiqiy islom terrori yuzaga keldi. Qotilliklar, islom jangarilarining davlat idoralari, banklar, korxonalar, MOF va boshqa partiyalarning shtab-kvartiralariga hujumi, yoqib yuborish, janjallar oddiy holga aylandi. Matbuot islom «malaylari» tomonidan xizmatga kelgani va ochiq yuz bilan ko'rinishga jur'at etgani uchun tiriklay yoqib yuborilgan, yuzlari tilib tashlangan qizlar haqida ma'lumot berardi. Eng ekstremistik guruhlar – «Qurolli islom guruhi» va IQFdan ajrab chiqqan «Islom qutqaruv armiyasi» eng ko'p razilliklarni amalga oshirar edi.

Jazoir ichki ishlar vazirligining ma'lumotlariga ko'ra islom ekstremizmi gullab-yashnagan uch yil ichida 15 ming odam o'ldirilgan, 100 ta korxona, mahalliy organlarning 400 ta binosi, 600 ta o'quv muassasasi talangan va yoqib yuborilgan. Umumiy iqtisodiy zarar 2 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Liamin Zerual islomchilarga munosabatda ko'rinib turgan murakkab real vaziyatdan kelib chiqib, barcha mavjud imkoniyatlardan kelishuv yo'lini tanladi. 1995-yilda Rimda uzoq va qattiq tayyorgarliklardan so'ng Jazoirning asosiy siyosiy partiyalari, jumladan, Islom qutqaruv fronti o'rtasidagi hamkorlik va siyosatning umumiy yo'nalishi haqidagi «Siyosiy platforma» deb ataluvchi hujjatga imzo qo'yildi. IQFdan norozilik belgisi sifatida qurolli kurashdan ortga qaytishni xohlamagan qurolli qanot – Islom qutqaruv armiyasi ajralib chiqdi.

1994-yilda Zerual tomonidan asosiy islom liderlari ozod etildi, 1995-yilning mayida esa, ko'plab islomchilarni afv etish va boshqalarga

nisbatan o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida qonunlar seriyasini chiqardi.

Zerualning pozitsiyasi turli siyosiy kuchlar tomonidan turlicha munosabatlarni keltirib chiqardi. Demokratik doiralar vakillari hukumatning fundamentalistlar bilan murosa qilganiga qarshi chiqdi. Umuman dunyoviy pozitsiyaga ega berberlar partiyasi – Madaniyat va demokratiya uchun birlashmaning bosh kotibi Said Saadi mamlakat rahbariyati fundamentalistlarga mamlakat ustida tajriba o‘tkazishlari uchun ruxsat berib, amalda hukumatni islomchilar bilan bo‘lishish haqida qaror chiqardi, deb hisoblaydi. Madaniyat va demokratiya uchun birlashma Ilg‘or sotsialistlar partiyasi bilan birga «fashizm xavfi»ga qarshi chiquvchi yagona antiislom frontini tuzishga harakat qiladi. Shuningdek, Ait Axmed boshchiligidagi Sotsialistik kuchlar fronti, Jazoir inson huquqlari himoyasi ligasi, ijodiy uyushmalar, yangi xotin-qizlar tashkilotlari ham islomchilarga qarshi chiqqan. Jazoirning ko‘pchilik partiyalari islom shiorlarini mo‘tadil variantda ma’qullamoqda.

1999-yilda Jazoirda bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovlarda Abdel’aziz Buteflika (1999-2019) g‘olib chiqdi. U Jazoirda islomiy kuchlar tomonidan boshlab yuborilgan fuqarolik qarama-qarshilikni tugatishga muvaffaq bo‘ldi. Buteflika hukumati ichiga muxolifat kuchlar (shuningdek, an-Nahda islom harakati) va partiyalarni kiritib, ularni qarama-qarshilikdan to‘htatdi. 1999-yil sentabrda umumxalq referendumida Buteflika tinchlikparvar siyosatini xalq butunlay qo‘llab-quvvatladi. 2019 yili xalqning norozilik chiqishlari natijasida Buteflika iste’foga chiqdi. Prezidentlik lavozimiga esa sobiq Bosh vazir Abdelmajid Tebbun saylandi (2019-x/k).

Seminar savollari:

- 1.Musulmon mamlakatlarning siyosiy revoji
- 2.Arab davlatlarda siyosiy partiyalar
- 3.Jazoir va Tunisda diniy siyosat

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Arab mamlakatlarida islom muxolifati
- 2.Arab davlatlarning diniy siyosati

3. Tunis va Jazoirda diniy fundamentalizm muammosi **Tavsiya**

etilgan adabiyot:

1. Ёвқочев Ш.А. Политизация ислама и проблема религиозного экстремизма в современном мире. Т., 2003.
2. Ёвқочев Ш. Ислам и политика: Учебное пособие. –Т.:ТашГИВ, 2011.
3. Гучетль Г.И. Демократизация в арабском мире: опыт Туниса и Сирии. – М., 1999.
4. Ислам и экстремизм на Ближнем Востоке. – М.: Институт изучения Израиля и Ближнего Востока, 2001
5. Исламский фактор в международных отношениях в Азии. (70 – первая половина 80 –х годов). Сборник статей. – М., 1987.
6. Киселев В.И. Палестинская проблема в международных отношениях: региональный аспект. – М., 1998.
7. Коровиков А.В. Исламский экстремизм в арабских странах. – М., 1990.
8. Красиков А.А. Религиозный фактор в европейской политике. – М, 2000.
9. Ефимова Л.М. Современный ислам и политика на зарубежном Востоке. – М., 1986.
10. Мальцев Ю.М. Страны Магриба в региональной и мировой политике. – М., 1994.
11. Международные отношения на Ближнем и Среднем Востоке. И политика России на рубеже XXI века. М., 2000.
12. Милославский Г.В. Интеграционные процессы в мусульманском мире. – М., 1991.
13. Милославская Т.П., Милославский Г.В. Некоторые вопросы теории и практики финансово-экономической деятельности ОИК // Ислам: проблемы идеологии, права, политики и экономики. – М., 1985.
14. Павлов В.В. Исламские банки в современном мире (80 –90 –е годы). – М., 2000.

15. Религия дипломатия (материалы научной конференции). – М.: МИД РФ, 2002.
16. Esposito J.L. Islam and politics. – N.Y.: Syracuse University Press, 1987.
17. Esposito J.L. The Islamic threat: Myth or reality? – N.Y.: Oxford University Press, 1992.
18. Islam in foreign policy. – Cambridge – London – New York, 1983.
19. Islam and Politics in Modern Middle East. – London-Sydney, 1984.
20. Roy O. The Failure of political Islam. – L.: Taurus, 1994.

2.2. ARAB DAVLATLARINING TASHQI SIYOSATI: ASOSIY YO‘NALISHLARINING SHAKLLANISHIDA ISLOM OMILI

O‘qitishdan maqsad: Arab sharqi mamlakatlarining tashqi siyosatlarining shakllanishida dinning qanchalik kuchli ta’sir ko‘rsatayotganligini ko‘rsatib berish, shuningdek Arab davlatlari jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hayotlarida islom omili darajasi hamda ahamiyatini tahlil qilib berish.

Tayanch so‘z va iboralar: islom omili, tashqi siyosat, ichki siyosat, arab mamlakatlari, islom davlati, agregatsiya, vaqf, vaqf vazirligi, ulamo, ijma‘a.

Reja:

1. Arab mamlakatlari bo‘yicha umumiy ma’lumotlar: hududi, demografiyasi va iqtisodiyoti
2. Arab davlatlarining siyosiy hamda ijtimoiy resurslari
3. Arab mamlakatlari siyosiy tizimlarining o‘ziga xosliklari
4. Arab davlatlarining tashqi siyosatlarining shakllanishida islomning ta’siri.

Arab mamlakatlari umumiy geosiyosiy, til, madaniy va diniy makonni o‘zlarida aks ettirishadi hamda Shimoliy Afrika va G‘arbiy Osiyoning 13 mln. kv. km hududini egallaydi. Arab dunyosiga 23 ta mamlakatlar mansub deb tan olingan bo‘lib, ular Arab davlatlari ligasiga a’zodirlar. Ular quyidagi davlatlar: Jazoir, Bahrayn, Jibuti, Misr, Iordaniya, Iroq, Yaman, Qatar, Qamar orollari, Quvayt, Livan, Liviya, Mavritaniya, Marokash, Birlashgan Arab Amirliklari,

Ummon, Saudiya Arabistoni, Suriya, Somali, Sudan, Tunis, G'arbiy Sahro hamda Falastin milliy muhtoriyati. To'g'ri falastinliklar mustaqil davlat tuzishga muvaffaq bo'lishmagan bo'lishsada, lekin bir qator mamlakatlarni (Jibuti, Qamar orollari, Mavritaniya, Somali, Sudan) u bilan solishtirganda arablar aholining kamchilik qismini tashkil etishadi.

Xalqaro munosabatlarning har bir subyekti xalqaro munosabatlar tizimida o'z o'rniga egaligi hech kimga sir emas. Shu kabi har bir arab davlati o'ziga xos xususiyatlarga ega hamda xalqaro munosabatlarda o'z o'rniga ega hisoblanadi. Biroq ular uchun kuchli markaziy hokimiyat, mamlakat rahbarining keng vakolatlarga egaligi, iqtisodiyotda davlatning katta rol o'ynashi hamda paternalistic davlat siyosati yo'nalishini o'tkazishga intilish, qo'shinning siyosiy tizimdagi o'ri, an'anaviy jamiyat elementlarining ta'siri, islomning siyosiy lashuvi xos bo'lib, bular arab mamlakatlaridagi ko'plab umumiy xususiyatlarni, shu bilan bir qatorda tashqi siyosat yo'nalishini ham ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

Hududiy va georafik joylashganligi jihatdan arab davlatlari qulay geosiyosiy holatda ekanligini bildirib, bu holat Yevropa mamlakatlariga yaqinligi (ayniqsa, Shimoliy Afrikada joylashgan mamlakatlarga xos), Afrika va Osiyodan Yevropaga boradigan tranzit yo'llarning kesishuvida qulay holda joylashganligi bilan izohlanadi. Afrika va Osiyo qit'alarini bog'laydigan Sinay yarimoroli tegishli bo'lgan Misr hammadan ham ko'ra ko'proq geosiyosiy ustunlikka egadir. Suvaysh kanali orqali esa O'rtayer dengizi va Atlantika okeaniga Hind okeanidan keladigan dengiz yo'li o'tgan. Ko'plab arab davlatlarining diniy ziddiyatlar, nizolar o'choqlariga hamda beqaror hududlarga (Falastin, Sudan, Yaman, Iroq, Livan) yaqinligi salbiy vaziyatlarga misol bo'ladi. Hozirgi vaqtda aynan arab mamlakatlari orqali Yevropa va Amerikaga migratsion oqimlar ketmoqda. Sahro va yarmi cho'l hududlar dengiz bo'ylarida to'planib borishini kuchaytirmoqda (shunga qaramay bunday hol yuqori darajada shaharlashishning yagona omili sanalmaydi). Misol uchun, Misrning hamma aholisi mamlakat hududining atigi 5-6% dagina yashashadi, poytaxt Qohiraning o'zida esa 20 mln.ga yaqin odam istiqomat qiladi, bu mamlakat aholisining to'rtidan bir qismini tashkil etadi.

Arab mamlakatlarining demografik resurslarini bir xilda baholab bo'lmaydi. Bir tomondan bir qator arab davlatlari aholisi ko'p sonly bo'lib, ular yoppasiga ishlash bilan banddirlar (anchayin yirik mamlakatlar: Misr-83 mln., Sudan-41 mln., Marokash-34,9 mln., Jazoir-34,2 mln., Iroq-29 mln., Saudiya Arabistoni 28,7 mln., Yaman-23,8 mln., Suriya-20,2 mln., qolgan ko'pchiligining aholisi bir necha yuz mindan bir necha milliongacha boradi). Fors ko'rfazidagi neftga boy arab davlatlaridan tashqari, boshqa arab mamlakatlarida ishsizlik yuqori darajada ekanligi bilan xususiyatlanishadi (2015-yilda arab olami uchun o'rtacha hisobda 15 % atrofida). Boshqa tarafdin esa mutaxassislarning yetishmasligi sababli Fors Ko'rfazidagi neft qazib oluvchi mamlakatlar xorijlik ishchilarni jalb etish yo'li bilan ishchi kuchi bilan to'ldirishga majbur bo'lishmoqda. Xorijlik ishchilar bir qator mamlakatlarda (Bahrayn, Qatar, Quvayt, BAA, Ummon, Saudiya Arabistoni) aholining 25 %idan 80 %igacha bo'lgan qismini tashkil qilishadi. Arab dunyosi davlatlarining ko'pchiligi uchun kambag'allik dolzarb muammo bo'lib qolmoqda, arab olamining 20,3 % aholisi kuniga 2 dollardan kamroq miqdordagi pul hisobiga kun kechirmoqda.

Fors ko'rfazi davlatlari neftga boy zahiralarga egadirlar. Bu neft qazib oluvchi mamlakatlarga katta miqdorda valyutalarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda, zamonaviylashtirish jarayonlarini o'tkazishda resurslarning mavjudligi ularning jahon moliyaviy tizimida muhim rol o'ynashiga imkon bermoqda. Biroq iqtisodiyotning bir yoqlama rivojlanganligi, oziq-ovqat, mashinasozlik mahsulotlarining, yuqori texnologiya tovarlarining chetdan keltirilishiga bog'liqligi va hokazolar neft qazib oluvchi mamlakatlar uchun muammo bo'lib qolmoqda. Neft narxlarining keskin pasayib ketishi natijasida yuz bergan iqtisodiy inqiroz davrida mazkur holat yaqqol namoyon bo'ldi, Fors ko'rfazi mamlakatlari budjetlaridagi kamomadlarni zahiralardagi valyuta fondlari hisobidan qoplashga majbur bo'ldilar.

Suv manbalarining yetishmovchiligi arab davlatlaridagi yana bir katta muammo hisoblanadi. Arab dunyosi iste'mol qladigan yuqoridan keladigan suvlarning umumiy hajmidan 57 % arab bo'lmagan mintaqalardan arab mamlakatlari hududlariga kirib keladi. Suv muammolari sanoat ishlab chiqarishi hamda qishloq xo'jaligi sektori uchun murakkabliklar, qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Suv

yetishmovchiligidan tashqari, hududlarning cho'llanishi ham qishloq xo'jaligining rivojlanishini qiyinlashtirmoqda. Hozirgi paytda arab olami mamlakatlari maydonining 68,4 % sahro egallagan.

Ko'pchilik arab davlatlarida avtoritar tuzumlar yetarli darajada mustahkamligi arab mamlakatlari siyosiy resurslarini belgilab beradi. Hukmron doiralar global miqyosda fikrlashadi. Bu arab olamining jahon siyosatining muhim omili sifatida tushunib yetishini ifodalaydi. Ularning ishtirokisiz energetik muammolarni hal qilib bo'lmaydi, terrorizmga qarshi kurashib bo'lmaydi, mintaqaviy ziddiyatlarni bartaraf etish mumkin emas. Shuningdek, arab mamlakatlari va islom davlatlari jahon minbarlarida birdamlik uchun intilishlarida bu holat muhimdir. Mintaqaga tegishli bo'lmagan xalqaro tashkilotlarda ishtirok etishlariga keladigan bo'lsak, Saudiya Arabistonining o'zigina dunyo miqyosidagi yetakchi davlatlarning "yigirmataligiga" kiradi. Shu bilan birga, arab mamlakatlari ADL, Islom hamkorligi yokida birdamligi (2001-yilgacha IKT deb nomlangan) tashkiloti a'zolari hisoblanishadi, shuningdek OPEK va neft eksport qiluvchi arab davlatlari tashkiloti a'zolari sanalishadi. Birorta ham arab mamlakati NATO ga a'zo bo'lib kirmaganligiga qaramay, bir qator davlatlar (Misr, Marokash, Iordaniya, Fors ko'rfazi mamlakatlari) AQSH bilan uzviy harbiy-siyosiy hamkorlik qilishadi. Suriya bir qancha tarixiygeografik sabablarga ko'ra, uzoq vaqt davomida Eron bilan alohida munosabatlarga ega hamda u mintaqadagi kuchlarning markaziga aylanishga da'vogarlik qilmoqda. Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyodagi arab davlatlari O'rtayerdengizi ittifoqi dasturini ishlab chiqish doirasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan faol hamkorlik qilishmoqda.

Arab dunyosining o'ziga xosligi markaziy rol o'ynovchi aniq yetakchi davlatning yo'qligi bilan izohlanadi. Arab Sharqida kuchlar markazi roliga Saudiya Arabistoni va Misr da'vogarlik qilmoqda. Biroq ko'plab boshqa mamlakatlar ham, shu jumladan aholisi unchalik ko'p sonli bo'lmagan, misol uchun, Qatar hamda BAA ham ba'zi paytlarda u yoki bu muammolarni hal etish jarayonida yetakchi o'ringa chiqib qolishadi. Harbiy nuqtayi nazardan arab olamining resurslari tashqi tahdid yuz bergan taqdirda unga qarshi tura olishga imkon bermaydi. Shunga qarama-qarshi o'laroq arab davlatlarining harbiy xarajatlari

yuqori darajadali bilan xususiyatlanadi. Neft sotish orqasidan yuqori darajada daromad olayotgan mamlakatlar shunday davlatlar sirasidan. Saudiya Arabistoni, Quvayt, BAA qurol-yarog‘ sotib olishga o‘rtacha YIM 10 % ni sarflaydi, bu jihatdan Misr ham ortda qolmayapti. AQSH va Fransiya Ularga qurol-aslaha yetkazib beruvchi asosiy davlatlar AQSH va Fransiya. Ular arab dunyosida dunyosida ittifoqchilarining havfsizligi uchun kafolat hisoblanishadi.

Arab olami mamlakatlari aholisining birdam emasligi siyosiy yo‘nalishdagi muammolardan bo‘lib tavsiflanadi, fuqarolik jamiyati esa kuchsizligi tufayli tashqi siyosiy jarayonlarga deyarli ta‘sir ko‘rsata olmaydi.

G‘arb xatti-harakatlariga qarshi hamda biror-bir salbiy hodisaga nisbatan qarshi namoyishlar chog‘ida ba‘zan faollashishi bilan uning roli cheklanadi. G‘arbning taraqqiyot modeli ko‘pchilikni qoniqtirmaydi hamda uning o‘rniga islomiy rivojlanish yo‘li alternative sifatida tavsiya etiladi, bu aholi o‘rtasida „Islom – bu yechim!“ shiorini olg‘a surayotgan Birodar–musulmonlar tashkiloti kabi muxolifatdagi islomiy partiyalarning aholi orasida ta‘sirga egaligi bilan ifodalanadi.

Arab davlatlarining ilmiy-ta‘limiy, maorif potentsiali, nafaqat G‘arbdan, balki Osiyoning rivojlanayotgan ko‘plab mamlakatlaridan ortda qolmoqda. YUNESKO ning ma‘lumotlariga qaraganda, arab dunyosida 60 millontacha odam savodsiz, bu taxminan arab mamlakatlarining aholisining umumiy sonining 20 %ini tashkil etadi. Maktab yoshidagi 6,5 mln. bolalar boshlang‘ich ma‘lumot olish imkoniyatlaridan mahrumdirlar. Mazkur sohadagi hammadan ham ko‘ra murakkabroq holat Yaman, Sudan hamda Mavritaniyada mavjud. Oliy ta‘limga keladigan bo‘lsak, arab davlatlarida “miyalarning chiqib ketishi” jarayoni kuzatilmoqda. Arab oliy o‘quv yurtlarining 70 mindan ko‘proq bitiruvchisi har yili ish izlab xorijga ketmoqda. Misrda, Livanda, Suriyada, Liviyada hamda Iordaniyada bu muammo juda dolzarb bo‘lib turibdi. Ta‘lim olish maqsadida chetga chiqib ketgan arab talabalarining 54 % vatanlariga qaytib kelishni afzal deb bilishmayapti. “Miyalarning chiqib ketishi” natijasida Arab Sharqi mamlakatlari har yili 1,6 mlrd. dollar yo‘qotishmoqda. Ilmiy sohadagi vaziyat fundamental tadqiqotlarning deyarli yo‘qligi bilan tavsiflanadi. Million nafar fuqaroga 371 nafar olim to‘g‘ri kelmoqda. Aslida dunyo

miqyosida o'rtacha daraja bir million nafar kishiga 979 nafar olim to'g'ri kelishi kerak.

Shunday qilib, arab mamlakatlari tashqi siyosat resurslari jahon iqtisodiyotida uncha katta bo'lmagan salmog'i, energiya manbalarini eksport qilishi potensialining yuqori darajadagi ahamiyati, arab olamida kuchli yetakchi davlatning yo'qligi hamda arab davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va harbiy sohada integratsiyalashuvining mavjud emasligi bilan xususiyatlanadi. Mazkur yo'nalishlarda integratsiyalashuvning yo'qligi ushbu mamlakatlarning harakatlarini muvofiqlashtirishlari imkoniyatlarini pasaytirib yuboradi. Arab davlatlari mintaqalariga taalluqli bo'lmagan ittifoqchilarga, birinchi navbatda AQSHga kuchli bog'langandirlar. AQSH ularning havfsizliklari uchun asosiy kafolat hisoblanadi.

Tashqi siyosatda arab davlatlari asosiy qonunlarga kam e'tibor berishadi. Mazkur hujjatlarning anchagina qismi siyosiy tizimga va uning tuzilishiga, davlatning ijtimoiy kafolatlariga hamda iqtisodiyotda uning roliga bag'ishlangan. Konstitutsiya preambulalarida, qoidaga ko'ra, mamlakatlar tinchlikparvar tashqi siyosatga hamda tashqi siyosiy faoliyatlarida xalqaro tashkilotlar bilan uzviy hamkorlikda olib borishlariga, tinchlikparvar, adolatlilik hamda teng huquqli hamkorlik tamoyillariga amal qilishlarini ta'kidlab o'tishadi. Masalan, Yaman konstitutsiyasida "BMT nizomiga, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasiga, Arab Davlatlari Ligasi nizomiga hamda xalqaro huquqning umumjahon miqyosida tan olingan me'yorlariga sodiqligini tasdiqlaydi". MAR konstitutsiyasida esa (2-modda) islom davlat dini deb tan olingan. 2012-yilgacha bo'lgan Suriya konstitutsiyasining tashqi siyosatga bag'ishlangan qismi haddan tashqari mafkuralashgan edi. Uning yangi nashri qabul qlinganligidan so'ng ASUP ning yetakchilik roli hamda sionistlarga qarshi kurashish bo'yicha barcha qaydlar, eslatmalar o'chirib tashlandi.

Umuman olganda, arab davlatlari qonunlarida tashqi siyosat yo'nalishi hamda uni amalga oshirish shakllari aniq ko'rsatib o'tilmagan. Bundan tashqari, arab monarxiyalari konstitutsiyalarida tashqi siyosat sohasida davlat rahbarining vakolatlari mustahkamlanishi har doim ham hal qiluvchi rol o'ynamaydi. Saudiya Arabistoni va Ummonda singari mamlakatlarda konstitutsiyalar 1992- va

1996yillarda paydo bo'lganligidan ko'rinib turibdiki, bunday davlatlarda tashqi siyosiy qarorlarni qabul qilish bo'yicha davlatning turli institutlarining vakolatlari hamda mehanizmlari asosiy qonunlar qabul qilinishidan ancha oldin shakllangan edi.

Arab davlatlarining konstitutsiyalari hokimiyat institutlarini o'rnatadi hamda ularning vakolatlarini belgilab beradi, shu jumladan tashqi siyosat sohasida ham. Shu bilan birga boshqaruv shaklidan qat'iy nazar (respublika yokida monarxiya), parlamentning mavjudligi yokida yo'qligi siyosiy tuzumga sezilarli ta'sir ko'rsata olmaydi, chunki davlat rahbari tarixiy sabablarga hamda an'analarga muvofiq tarzda arab mamlakatlarida hokimiyat organlarida markaziy o'rinni egallaydi. Asosiy qonunlar davlat yetakchisining vakolatlarini mustahkamlaydi va turli sohalarda davlat siyosatini ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda, shu bilan birga xalqaro arenalarda hal qiluvchi rolni bermoqda. Arab monarxiyalari konstitutsiyalarida davlat rahbarining keng vakolatlari mamlakatdagi barcha hokimiyat monarxdan kelib chiqishiga taalluqli ekanligini tasdiqlaydi.

Davlat rahbari hokimiyatning oily darajadagi vakili hisoblanganligi sababli xalqaro bitimlar hamda shartnomalarni tuzadi, imzolaydi. Qonunga muvofiq holda, u shaxslarni fuqarolik va harbiy lavozimlarga tayinlaydi, ularni o'zgartiradi, shuningdek boshqa mamlakatlaridagi elchilarini va xalqaro tashkilotlardagi vakillarini tayinlaydi. Davlat boshlig'i huzurida xorijiy davlatlarining diplomatik vakillari akkredatsiya qilinshadi. Shuningdek mamlakat yetakchisi qurolli kuchlarning oily bosh qo'mondoni hisoblanib, urush e'lon qilish va sulh tuzish huquqlariga ega. Arab respublikalari prezidentlaridan farqli o'laroq, monarxlarning hokimiyati konstitutsiya yokida parlament bilan cheklanmagan bo'lsa, ular tomonidan imzolangan xalqaro shartnomalarni tasdiqlash, ya'ni qonuniylashtirish uchun farmonlar chiqarish huquqiga egadirlar. Davlat rahbarining mamlakat tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatishining yana bir usuli buyruq xususiyatiga ega bo'lgan chaqiriqlari va murojaatlari shaklida uning qonunchilik va maslahat organlariga amaliy ta'sir ko'rsatishi hisoblanadi. Shuningdek, prezident yoki monarx qonun loyihasini imzolashi yokida rad qilishi mumkin, tashqi siyosatga tegishli parlamentning u yoki bu tashabbusini qo'llab-quvvatlashi yoki unga

qarshi chiqishi ham mumkin. Hokimiyatning qonunchilik organlarining tashqi siyosiy jarayonlariga hamda arab olamidagi umumiy siyosatiga ta'siri juda ham pasaytirib yuborilgan. Davlat rahbari hamda parlament o'rtasida vakolatlarning taqsimlanishiga ko'ra, arab respublikalari prezidentlik respublikasi turiga tegishlidir. Monarxiya davlatlaridagi parlamentlar Bahrayn, Iordaniya, Marokash Podsholiklarida hamda Quvayt Amirligida faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur mamlakatlar dualistik monarxiyalardir.

Bir qator mutlaq monarxiya tuzumidagi arab mamlakatlarida parlamentlar yo'q, bular quyidagilar: Qatarda, Birlashgan Arab Amirliklarida, Ummonda va Saudiya Arabistonida. Ushbu mamlakatlarda kengashlar faoliyat yuritmoqda – Qatarda Maslahat kengashi, BAA da Federal milliy kengash, Ummonda Davlat kengashi, Saudiya Arabistonida Maslahat kengashi – nomlanishidan ko'rinib turibdiki, ular qonun ijodkorligi bilan shug'ullanishmaydi, balki maslahat-rozilik vazifalarini bajarishadi. Shunga muvofiq tarzda, kengashlarning tashqi siyosat jarayonidagi ishtiroki huquqiy jihatdan u yoki bu tashqi siyosiy masalalarni muhokama qilish bilan cheklangandir. Buning ustiga-ustak, mazkur monarxiyalar maslahat organlarining a'zolarining barchasi bo'lmasada, har holda ma'lum bir qismi parlament deputatlari kabi to'g'ridan-to'g'ri umumiy ovoz berish yo'li bilan saylanishmaydi, balki davlat boshlig'i tarafidan tayinlanadilar.

Arab mamlakatlari siyosiy tizimining yana bir o'ziga xos xususiyati ijtimoiy-siyosiy hayotda partiyalar roli muhim sanalmaydi. Bu holat an'anaviy jamiyat ijtimoiy ustqurtmasining o'ziga xosliklari bilan izohlanadi. Arab respublikalarida partiyalar davlat rahbarining tayanchi, demokratik "manzara" sifatida faoliyat yuritishmoqda. Arab monarxiyalarining ko'pchiligida siyosiy partiyalarni tashkil etilishi hamda faoliyat ko'rsatishi ta'qiqlangan. Partiyalar faqatgina Iordaniya va Marokashda mavjud. Mazkur arab mamlakatlarida an'anaviy jamiyat kuchli bo'lganligi bois partiyalar ommaning kam qismining qo'llab-quvvatlashiga erishdilar. Aholi asosan partiyalarga emas, balki mashhur qabilalarning doiralariga hamda urug'-aymoqlarning yetakchilariga ovoz berishni afzal ko'rishadi.

Diplomatik xizmatlar arab mamlakatlarida nisbatan yaqinda ta' sis etilgan, chunki zamonaviy Arab Sharqining siyosiy xaritasi 1jahon urushida Usmoniylar saltanati mag'lubiyatga uchrab, ushbu mamlakat tugatilishi natijasidagina shakllana boshladi. Arab mamlakatlari Yevropaning buyuk davlatlarining yarim mustamlakasiga aylanib qolganliklari tufayli XX asrning birinchi yarmi davomida tashqi siyosat idoralarini tashkil etishda qiyinchiliklarga uchradilar. Uning tashqi ishlar vazirligi xediv Muhammad Ali (1805-1849) hukmronligi davrida tashkil qilingan.

Arab mamlakatlari elchilari, diplomatlari muzokaralar olib borish uslublari bilan farq qilishadi. Arab elchilari arab birdamligi bilan bog'liq og'riqli muammoni ko'tarmaslik maqsadida Yaqin Sharq mintaqasiga, arab mamlakatlari o'rtasidagi ozaro munosabatlariga taalluqli u yoki muammolarni muhokama qilishdan tiyilishlari mumkin. Arab diplomatlari yaxshigina notiqlik xususiyatlariga hamda muhokama olib borish malakasiga, u yoki bu masala yuzasidan bilimlarga ega ekanliklari bilan farqlanishadi. Ular uchun, shuningdek, yo'riqnomalarga ehtiyotkorlik va aniqlik bilan rioya qilish xosdir, agar ularga markazdan farmoyish, ko'rsatma bo'lmasa, u yoki bu masalani muhokama qilishni rad qiladilar. Tashqi siyosat boshqarmasi xodimlari muammolarni bartaraf etish variantlarini ishlab chiqishga intilishaydi, balki avvalgi tajribaga tayangan holda hal qilish yo'llarini topishga harakat qilishadi. Arab mamlakatlari tashqi siyosat mahkamalari xodimlari mahoratli ekanliklari bilan ajralib turishadi. Ularning ko'pchiligi diplomatlar tayyorlash bo'yicha faqatgina o'zlarining institutlarining bitiruvchilari bo'libgina qolmay, balki AQSH, Britaniya, Fransiya universitetlarining tamomlovchilari hisoblanishadi. Ular xorijiy tillarni, ayniqsa sobiq metropoliyalarining yokida ilgari ularni mandatga aylantirgan buyuk davlatlarning tillarini yaxshi bilishadi.

Arab mamlakatlarida islomning kuchli mavqeni egallaydi hamda diniy jihatdan kuchli ta'sirga ega. So'nggi o'n yilliklarda ushbu mamlakatlarning siyosiy hayotlarida islom omili borgan sari kuchaymoqda. Islom alohida shaxsning, jamiyat va davlat hayotining barcha jihatlarini tartibga solishga da'vogarlik qilayotganligi bilan alohida ajralib turibdi. U shuningdek tashqi siyosatni ham tartibga

solishga urinmoqda. Natijada tashqi siyosat jarayonlarida u yoki bu qarorlarni hamda harakatlarni qonuniylashtirish nuqtayi nazaridan islom muhim rol o'ynamoqda. Har xil davlatlarda yashayotganliklaridan, tarixlarining o'ziga xosliklaridan, turli etniklikka mansubliklaridan qat'iy nazar, musulmonlar uchun yagona diniy jamoaga (ummatga) tegishli ekanliklari – bu holat islomning birlashtiruvchilik vazifasini bajarishidir. Natijada arab davlatlari siyosiy hukmron doiralari orasida ham jamiyatda ham buning natijasida islom birdamligi omili aniq, belgilangan vazifani amalga oshirmoqda. Arablar va musulmonlar o'zlarini alohida ekanliklari, yer yuzining turli burchaklaridagi dindoshlarini qo'llab-quvvatlashlari lozimliklari, musulmon dunyosini tashqi tajovuzdan himoya qilish hamda hatto islomning tarqalishiga ko'maklashishlari kerakliligi bo'yicha tushunchalari shakllanib bormoqda.

Islom omili hammadan ham ko'ra ko'proq Saudiya Arabistonidagi tashqi siyosiy jarayonlarga kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu podsholik islom vujudga kelgan joy hamda mazkur dinning asosiy muqaddas shaharlari (Makka va Madina) uning hududida joylashgan. Bu yerga har yili millionlab musulmonlar haj qilish uchun kelishadi. Ulkan moliyaviy imkoniyatlari bilan birgalikda, bu holat Saudiya Arabistonini islom olamining tan olingan yetakchisiga aylantiradi. Hukmron sulolaning nuqtayi nazariga ko'ra, nufuzli musulmon mamlakati sifatida o'zining mavqeni mustahkamlash butun dunyodagi musulmonlarni qo'llab-quvvatlash – podsholikning tashqi siyosatdagi muhim vazifasi sanaladi. "Hokimiyat tizimining asoslari"da (konstitutsiya) quyidagilar ta'kidlanadi: "Davlat dunyodagi arab va islom millatining, xalqining birdamligi hamda birligi, do'stona ruhdagi mamlakatlar bilan munosabatlarni mustahkamlash haqida qayg'uradi". SAP Tashqi Ishlar Vazirligining rasmiy saytining "Saudiya Arabistoni Podshoxligi tashqi siyosati" bo'limida "podshoxlik tashqi siyosatini ustivor yo'nalishlarini belgilashda islom har doim eng muhim omil bo'lib kelganligi" ta'kidlab o'tilgan. Islom birdamligi islom mamlakatlari umumiy xavfsizligi g'oyasi sifatida tushuniladi, shuningdek ushbu g'oya ular o'rtasidagi bahsli masalalarni tinch yo'l bilan hal qilishda, imkoniyatlari cheklangan musulmon mamlakatlariga va jamoalariga iqtisodiy yordam berishda, tabiiy ofatlarga duchor

bo'lgan musulmon mamlakatlarga zudlik bilan ko'mak berishda, musulmonlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning haququqlarini himoya qilishda, ularga moddiy va ma'naviy yordam berishda, ular qayerda bo'lishligidan qat'iy nazar, masjidlar qurilishiga ko'maklashishda va islom madaniy markazlarini yaratishga yordamlashishda namoyon bo'lishi tarzida tushuniladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun podsholik 1962-yili Musulmon dunyosi ligasi hamda 1969-yilda esa Islom Konferensiyasi Tashkilotini tashkil etishda tashabbus ko'rsatdi. Ushbu tashkilotlarning qarorgohlari uning hududida joylashgan, Shuningdek, ko'plab xayriya fondlari hamda tashkilotlarini tuzish tashabbusi bilan chiqdi.

Islom omili mintaqaviy muammolarni, ayniqsa, birinchi navbatda, Falastin-Isroil ziddiyatini muhokama etishda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu holat islom dinining muqaddas shaharlari: Makka va Madinadan so'ng musulmonlarning ziyoratgohining (Al-Aqsa majmuasi) Quddus shahrida joylashganligi bilan bog'liqdir. Arab jamiyati uchun islom va arab birdamligi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining kuchsizligi sharoitida ichki siyosiy hayotni, OAV, kasaba uyushmalarni, jamiyatning siyosiy faolligining oshishi tufayli yuzaga keladigan mitinglar, norozilik namoyishlari, qahvaxonalarda tashqi siyosiy muammolarni muhokamalar hukmron siyosiy tuzumlar tarafidan nazorat qilinishida islom va arab birdamligi namoyon bo'lmoqda. Xalqaro muammolar bo'yicha islomiy siyosiy partiyalarni hamda harakatlarni qo'llab-quvvatlash jamiyatdagi qarashlarni ifodalash usuli sifatida namoyon bo'lmoqda. Turli lavozimlarda urgan arab rahbarlari tashqi siyosat bo'yicha nutqlarida hamda arab davlatlari siyosiy elitalari qarorlar qabul qilishda "arab ko'chalari" dagi fikrlarni hisobga olishadi.

Tashqi siyosiy qarorlar qabul qilishda islomning ta'siri yokida shikoyatlarni ko'rib chiqishda dinga tayanish patriarxal va an'anaviy tuzumlarga ham, dunyoviy, milliy hamda islohotlar tarafdori bo'lgan rahbarlar uchun ham xosdir.

Shu bilan birga hozirgi zamonaviy real vaziyatni hisobga olish va pragmatiklik arab mamlakatlari yetakchilariga xos xususiyatdir. Diniy aqidalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida musulmon mamlakatlari rahbarlari o'ziga xos "ikki xil fikrlashga" moyil

bo'lishmoqda: islom aqidaparatlari real hayot talablari bilan to'qnashgan holatlarida, ularni inkor etishga harakat qilishmoqda.

Yaqin Sharq mamlakatlari o'zlarini arab millatining bir qismi deb bilishlari ularning yana bir o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi, ular sivilizatsiya jihatidan yagonaliklarini, tarixiy taqdirlari, tillari umumiy ekanlikligini, madaniyatlari yaqinligini ta'kidlashadi. "Arab millatchiligi hamda islom bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqada bo'lishi lozimligini" tan olinishi Saudiylarning tashqi siyosati uchun xosdir. Saudiya Arabistoni islomning va arab millatchiligining vatani deb e'lon qilinmoqda.

Islomiy, arab hamda mintaqaviy birdamlikni chegaralovchilari ham bor. Islom davlatlari (Saudiya Arabistoni va Eron) o'rtasida yetakchilik uchun bo'lgan kurash va arab olamida yetakchi mavqeni egallash uchun (Saudiya Arabistoni hamda Misr) olib borilayotgan kurash, shuningdek islomdagi ikkita oqim o'rtasida (sunnaylik va shialik) o'rtasidagi qarama-qarshiliklar Arab mamlakatlari o'rtasida ularning birdamligiga to'g'onoq bo'lmoqda. Arab mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tartiblarning mavjud tafovutlarini, har bir alohida arab davlatining xalqaro munosabatlarda o'z o'rniga egaligini va ularning milliy manfaatlari borligini ham unutmaslik lozim. Bundan tashqari, bir-birga nisbatan hal etilmagan hududiy da'volari mavjud (Saudiya Arabistoni va Ummon, Iroq hamda Quvayt, Iroq va Eron, Marokash va Jazoir, Saudiya Arabistoni va Yaman, Saudiya Arabistoni va Iroq, Eron va BAA, Eron va Bahrayn). Mazkur hududiy muammolar arablar o'rtasidagi munosabatlarda jiddiy holda bo'lmasligiga qaramay, hal qilinmagan muammolarning, da'volarning hamda xafagarchiliklarning tarixiy yoki ushbu davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni murakkablashtirmoqda, chigallashtirmoqda.

Bundan tashqari, diniy omilning qabilalar va urug'-aymoqlar bilan chatishib ketgan holda uzviy aloqada ekanligi ham ba'zi arab mamlakatlarida muhim o'ringa ega. XVIII asrda Muhammad Abdul Vahobning islomiy sohta salafiylik oqimining asoschilari bo'lgan diniy-fundamentalistlarning avlodlari Oli ash-Shayx oilasini tashkil etishadi. Hozirgi paytda ular oliy muftiy boshchilik qilayotgan ulamolarning oliy Kengashi tarkibiga kirishadi. Kengash a'zolari

podsho tarafidan tayinlanadilar. Ruhoniyat vakillari shuningdek adliya vazirligini nazorat qilishadi hamda hukmronlik qilayotgan sulolaning qonuniyligini o'zlarining nufuzlari bilan qo'llab-quvvatlashmoqda, uning qarorlari to'g'riligini tasdiqlashadi, jamiyatni yakdilligiga xizmat qilishadi. 1990-yilda Iroq Quvaytga hujum qilganligi tufayli Saudiya Arabistoni hududiga (islom dini tarqalgan hududda boshqa dinga mansub harbiylarning bo'lishi man etilgan) AQSH qurolli kuchlari kiritilishi zarur bo'lganligi sababli Saudiya podshosi Fahdga oliy darajadagi ulamolarning ruxsati kerak bo'lgan. Podsho, uning oila a'zolari hamda buyuk muftiy Abdulaziz bin Abdulla bin Baz ishtirokida bo'lib o'tgan uzoq muddatli muzokaralardan so'ng, 350 nafar ulamolar Makkada fatvoni tasdiqlashdi.

Suriyada alavit shayxlarning Kengashi alohida rol o'ynaydi, prezidentning shaxsan o'zi ham islomdagi alavit oqimiga mansub sanaladi, ushbu Kengash muhim masalalarni muhokama qiladi. Dunyodagi yirik va nufuzli islomiy oily o'quv yurti sanalmish AlAzhar universitetining musulmon ruhoniylari Saudiya Arabistonidagi ulamolar qurultoyiga nisbatan kamroq ta'sir ega hisoblanishadi. Marokashda podsho bir vaqtning o'zida mamlakatdagi musulmonlarning ham dunyoviy ham diniy rahbari sanaladi. Rasmiy jihatdan islomning sunniy yo'nalishining molikiya mazhabi diniyhuquqiy maktabi tan olinadi. Mag'rib mamlakatlarining ko'pchiligida bo'lgani kabi bu yerda ham marabutizm, ya'ni merosiy muqaddas narsalarning (marabutlarning) kulti anchayin keng tarqalgan, ular "barakaga" ega bo'lishib, ularga alohida kuch ato etadi.

Arab davlatlarining siyosiy hayotida harbiylar ulkan ta'sirga ega ekanliklarini ta'kidlab o'tishimiz zarur. Davlat rahbarlarining ko'pchiligi (masalan, Misr prezidenti Jamol Abdul Nosir, Liviya yetakchisi Muammar Kaddafi, Suriya prezidenti Hofiz Asad) harbiy to'ntarishlar natijasida hokimiyat tepasiga kelishgan. Ular harbiy doiralarga mansub bo'lishgan yokida aholi o'rtasida nufuzini oshirish hamda harbiy kuchlar elitasi bilan aloqalarni mustahkamlash maqsadida qurolli kuchlarda bir qancha muddat (Iordaniya podshosi Abdulla II, Suriya prezidenti Bashar Asad) xizmat qilishgan. Arab mamlakatlarida harbiylar davlat rahbarining tayanchlaridan biriga aylanishdi, tashqi siyosiy qarorlarni qabul qilishga ma'lum darajada

ta'sir ko'rsatib kelishmoqda. Hatto Suriyada ham armiyaning hamda maxsus xizmatlarning ta'siri yuqori darajada, ularning rahbarlari bilan president eng dolzarb masalalar yuzasidan maslahatlashadi, davlatning hozirgi rahbari Bashar Asad harbiylarni qat'iylik bilan nazorat qilib bormoqda hamda ularning ta'sirini haddan tashqari kuchayib ketishiga yo'l qo'ymayapti.

Turli omillarni hisobga olgan holda tashqi siyosat bo'yicha qarorlar qabul qilish mehanizmlariga sho'ro, ya'ni maslahatlashish asosida ta'sir qilish ko'pchilik arab va islom mamlakatlari uchun xos bo'lib, u dinning ildizlariga borib taqaladi. Maslahatlashish tamoyili Qur'onning Oli Imron surasining 159-oyatida asoslanadi va quyidagicha jaranglaydi: "biror narsa qaror qilgan bo'lsang yoningdagilar bilan maslahatlashish...". Muhammad payg'ambar sunnasiga muvofiq, u va sahiih xalifalar muhim qarorlar qabul qilishlari oldidan safdoshlari, yaqinlari bilan maslahatlashishgan.

Davlat rahbarining qo'lida hokimiyatning mujassam bo'lishi sharoitida sho'ro tamoyiliga rioya qilish, uning qarorlariga qonuniylik baxsh etadi. Ayni paytda sho'ro tamoyili "manzara" bo'libgina qolmay, balki hukmron siyosiy elitalar o'rtasida konsensusga erishish yo'li bo'lib, tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish chog'ida tavakkallarni kamaytirishga imkon beradi. Buning tasdig'I sifatida oxirgi o'n yilliklar davomida ko'pchilik respublika va monarxiya tuzumlarining barqarorligini, shuningdek davlat rahbarlarining siyosiy hukmronliklarining uzoq davom etishini ko'rsatish mumkin: Misr prezidenti Husni Muborak, Suriya prezidenti Bashar Asad, Iordaniya podshosi

Husayn, Ummon sultoni Qobus, Saudiya Arabistoni podshosi Fahd, Liviya Jamohiriyasi yetakchisi Muammar Kaddafi va ko'plab boshqa prezidentlar va monarxlar.

Shunday qilib, boshqaruvning monarxiya yoki respublika tizimi bo'lishidan qat'iy nazar, tashqi siyosat bo'yicha davlat yo'nalishini ishlab chiqadigan hamda uni belgilab beradigan davlat rahbari arab mamlakatlarida tashqi siyosiy jarayonlarning xususiyatining asosiy omili hisoblanadi. Mamlakat rahbari tarafdorlarining tor doirasiga tayanadi, ular ijro hokimiyatining, harbiy kuchlarning rasmiy vakillari ham bo'lishlari mumkin yokida norasmiy strukturalarning vakillari ham

bo'lishlari mumkin: qabilalarning rahnamolari, nufuzli ruhoniylar, burjuaziya hamda "yangi" zakovatli-texnokratlar. Maslahatchilar bilan muhokamlalardan va maslahatlashishlardan hamda u yoki bu tashqi siyosiy harakatga nisbatan jamiyatning munosabatini baholashdan so'ng aynan shu bosqichda uzil-kesil qaror qabul qilinadi. Parlament (agar u mavjud bo'lsa) "manzarali" organ sifatida qabul qilingan qarorni tasdiqlaydi. Shu bilan birga qaror ishlab chiqilayotgan paytda jamiyatning munosabatini hisobga olish, haddidan oshib ketmaslik lozim bo'ladi (misol uchun, Isroil bilan bo'ladigan munosabatlarda). Tashqi siyosiy jarayon hamda qaror qabul qilayotgan shaxs bir tomondan islom va arab birdamligida milliy omillarning ta'siri ostida bo'ladi, boshqa tarafdin esa ularni hisobga olishi lozim bo'ladi.

Seminar savollari:

1. Arab davlatlarining geyosiyosiy tuzilishi va madaniyatining oziga hos xususiyatlari.
2. Arab davlatlarida suv muammosi siyosiy darajada.
3. Arab davlatlarida fan va ta'imga berilayotgan etibor.
4. Arab davlatlarida hokimiyatlar bo'linishi va davlat boshqaruvi.

Mustaqil ish savollari:

1. Fors ko'rfazi davlatlarida geyosiyosiy muammolar.
2. Saudiya Arabistoni Podshoxligining jahon siyosatida tutgan o'rni.
3. Arab mamlakatlarida demografik resurslar.
4. Iordaniya va Marokash davlatlarining arab davlatlarida tutkan orni va o'ziga hos xususiyatlari.
5. Arab davlatlarining tashqi siyosatlarining shakllanishida islomning ta'siri.
6. Arab davlatlari jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hayotlarida islom omili

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. Arab Human Development Report 2009. Challenges to Human Security in the Arab Countries. United Nations

Development Programme, Regional Bureau for Arab States (RBAS), New York, 2009. P. 10.

2. The Guardian. 01.07.2004.

3. Arab Human Development Report. 2009. P. 11.

4. Гусейнов В., Денисов А., Савкин Н., Демиденко С. Большой Ближний Восток: стимулы и предварительные итоги демократизации. М., 2007. С. 20.

5. Arab Human Development Report. 2009. P. 3.

6. Косач Г. Г. Арабский мир: идентичность и структура геополитического региона. www.iimes.ru (Институт изучения Ближнего Востока). 19.04.2009.

7. Ахмедов В. Роль армии в политических системах арабских государств Ближнего Востока. www.iimes.ru (Институт изучения Ближнего Востока). 17.04.2009.

8. РИА «Новости». 16.01.2008.

9. РИА «Новости». 18.03.2007.

10. Аш-Шарк аль-Аусат. 06.09.2009.

11. Конституция Йеменской Республики // Сапронова М. А. Государственный строй и конституции арабских республик. М., 2003. С. 215.

12. Конституция Алжира // Сапронова М. А. Государственный строй и конституции... С. 119.

13. Сапронова М. А. Арабский Восток: власть и конституции. М., 2001. С. 60.

14. Конституция Арабской Республики Египет // Сапронова М. А. Государственный строй и конституции... С. 184.

15. Democracy in Jordan - 2006. Public Opinion Poll Unit. Centerfor Strategic Studies. University of Jordan. July 2006. P. 9.

16. Попов В. И. Современная дипломатия: теория и практика. Дипломатия - наука и искусство: курс лекций. М., 2004. С. 287– 290.

17. Saudi Arabia: Basic Law of Government. 1992.

18. Подцероб А. Б. Исламский фактор и процесс принятия внешнеполитических решений.www.iimes.ru (Институт изучения Ближнего Востока). 08.12.2007.
19. Obaid Nawafe. The Power of Saudi Arabia's Islamic Leaders //Middle East Quarterly. 1999, September.
20. Косач Г.Г., Мелкумян Е. С. Внешняя политика Саудовской Аравии... С. 195–196.
21. Ахмедов В. М. Сирия при Башаре Асаде. Региональный опыт модернизации в условиях внешней нестабильности. М., 2005. С. 40–41.
22. Champion Daryl. The Kingdom of Saudi Arabia: Elements of Instability within Stability//The Middle East Review of International Affairs.1999.Vol.3.№ 4.

2.3. MISRNING ZAMONAVIY SIYOSIY TUZUMIDA ISLOM OMILI

Dars o‘quv maqsadi: Magistratura talabalariga MARda islom dinining o‘rni, MAR siyosiy jarayonlarida islom omili, islomiy ekstremistik harakatlarning asosiy g‘oyalari to‘g‘risida kerakli ma’lumotlarni berish.

Tayanch iboralar: MARda islom, Sufiy harakatlar, radikal islomiy tashkilotlar, Musulmon birodarlar, islom muxolifati.

Reja:

1. Radikal ekstremistik guruhlar («Al-Jihad», «al-Jamoa al-Islamiya»).
2. So‘fiy tariqatlar.
3. Misr hukumatining islomiy harakatlariga qarshi kurashuvi.
4. Islomiy ekstremistik harakatlarning asosiy g‘oyalari.

Oxirgi o‘n yillikda islom va uning shiori ostida faoliyat yurituvchi tashkilot hamda harakatlarning islom dunyosi mamlakatlari ijtimoiysiyosiy hayotiga ta’siri masalasi keskinlashib bormoqda. Boshqa tomondan, turli darajadagi diniy-siyosiy tashkilotlar faoliyati va mafkurasining rivojlanishiga musulmon jamiyatlarida sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlarning ta’siri muammosining ham ahamiyati undan kam emas. “Arab bahori” jarayonlar natijasida Misrda 2012 yili hukumatga radikal tashkilot ko‘rinishidagi «Birodar-musulmonlar» islom muxolifati keladi. Ko‘plab tahlilchilarning ta’kidlashicha, bu Misr xalqining o‘zi uchun ham va umuman mintaqa uchun ham ko‘pgina muammolarni keltirib chiqqan jarayondir. Oqibatda mamlakatda xalq noroziligi kuchayib, islomiylar hukumatiga e’tirozlar ko‘cha namoishlarga olib keldi. Natijada bir yil prezident bo‘lgan Birodar-musulmonlar vakili Muhammad Mursi o‘z lavozimidan harbiylar tomonidan chetlarildi. 2014-yil o‘qazilgan umumxalq saylovlarda g‘alabani general Abdul Fattah As-Sisi qozondi.

MARdagi radikal islomiy tashkilotlar faoliyati dunyoning boshqa mamlakatlaridagi kabi davlatga qarshi kayfiyatini aniq-ravshan namoyon etdi va allaqachon butun mintaqa barqarorligiga xavfga aylangan. Misrda «Al-Jihad» (asoschisi – Abd as-Salom Faraj), «al-Jamoa al-Islamiya» (g‘oyaviy ustoz – Umar Abd ar-Rahmon) va «at-

Takfir v-alxijra» (asoschisi – Shukri Mustafo)lar eng ko‘p kelishmaydigan radikal tashkilotlardan biri hisoblanadi. Ularning mafkurasida u yoki bu shaklda S.Kutbning davlat hokimiyatini «chin musulmonlar» guruhleri yordamida inqilob yo‘li bilan to‘ntarish g‘oyalari aks etgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, Misrdagi islomiy harakat ichida ko‘pgina turli tashkilotlar mavjud. Unga rasmiy diniy idoralar, milliy diniy jamoalar, diniy hayriya jamiyatlari, so‘fiylik tariqatlari, yashirin diniy tashkilotlar va guruhlar aloqadordir.

Misrning zamonaviy islomiy harakatini uchta asosiy oqimga bo‘lsa bo‘ladi: rasmiy, so‘fiy va radikal islom.

Rasmiy islom ma‘naviy ko‘rinishda bo‘lib, davlatga xizmat qiladi. Kuchli byurokratlashgan va vaziyat taqozosi bilan davlat apparatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois, xalq orasida unchalik ommaviylashmagan.

Xalq islomi soddalashtirilgan ko‘rinishdagi, afsonalar va Ollohga yaqinroq bo‘lish uchun jamiyatdan parvarish zarur bo‘lgan g‘oyalar bilan sug‘orilgan islom hisoblanadi. Turli tariqat (tasavvuf tushunchalari) izdoshlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Radikal (siyosiyashtirilgan) islom joriy tuzumning eng jiddiy raqibi hisoblanadi. Ushbu oqim ichida «Birodar-musulmonlar» tashkiloti, noqonuniy tashkilotlar va guruhlar, fundamentalistik jamiyatlar va xususiy masjidlarining davlatga xizmat qilmaydigan mustaqil imomlari faoliyat yuritadi.

Misrda islom ekstremizmining paydo bo‘lishiga oid ko‘p yillik tadqiqotlar radikal islom oqimlarini uchta asosiy yo‘nalishga tasniflashga asos beradi. Bu, birinchidan, «Birodar-musulmonlar» tashkiloti. Ikkinchidan, asosiy vakillari «Al-Jihad», «al-Jamoa al-Islamiya» («Islom jamiyati») tashkilotlari hisoblangan jihad oqimlari, Uchinchidan, «jamiyatdan ketish va uzlat»ni targ‘ib etuvchi takfir yo‘nalishi, «atTakfir val-Xijra» (Xudosizlikda ayblash va xijrat qilish) tashkiloti ularning yorqin vakilidir.

Ushbu tashkilot va guruhlarining maqsadi – qonuniy hokimiyatni kuch bilan ag‘darish, shariat asosidagi islom davlati va jamiyatini tuzish, va shu orqali boshqa davlatlar bilan birlashib «xalifalik» shakllantirishdan iboratdir. Diniy qadriyatlarni va islom merosini qayta

tiklash g'oyasiga murojaat qilgan holda, radikal islomchilar fundamentalizm pozitsiyasi bilan chiqishadi. Din misr jamiyatini hukmron tuzumga qarshi kurashda birlashtirish vositasi sifatida ishlatiladi.

Zamonaviy radikal islom nazariyotchilarining mafkurasi bir nechta asosiy ustunlarga tayanadi. Bu – Islom xalifaligi tuzish, hukmron tuzumlarga qarshi muqaddas urush (jihod) uyushtirish va “hokimiya” (Olloh boshqaruvini) o'rnatish masalalari.

“Al-Jihad”ning ancha to'liq mafkurasi A.Farajning “Unitilgan qarz” asarida bayon etilgan. Bunda A.Faraj Qur'on, Sura, Axmad ibn Taymiya, Ibn Qayyim al-Jauziy va boshqa o'tgan obro'li diniy daholarga murojaat etadi. 1980-yillar oxiri va 1990-yillar boshida tashkilotning mafkuraviy rivojiga uning yangi yetakchisi, harbiy razvedka ofiseri Abbud az-Zumr katta xissa qo'shdi. U islomning zamonaviy “Johiliya” – kapitalizm, marksizm, “xalqaro sionizm”, bilan murosasiz kurashiga e'tibo qaratadi. Tashkilotning maqsadi – xudoning irodasining yagona qonunchilik sifatida ustivorligini e'tirof etishga asoslangan global islom davlatini tuzish va ummatining “kofirlar”ga qaramligidan qutilish.

“Al-Jihad” yetakchilari e'tiqodiga ko'ra, hozirgi barcha Misr va boshqa musulmon davlatlari rahbarlari “islom dushmanlari” xisoblanadi. Ammo, A.Faraj fikriga ko'ra, barcha “johil” odamlar ham islomdan ketmagan, ularni hali dinga qqaytarish mumkin. Ba'zi davlatlarni dar al-xarb va dar al-kufrga bo'lgan holda, “Al-Jihad” mafkurachilari ularning barcha aholisini kofirlikda ayblashmaydi va hammaga urush e'lon qilishmaydi – yuqoridagi atamalar ulardagi umumiy siyosiy holatni anglatadi. Abbud az-Zumr Misr jamiyatini dar al-murakaba (“aralash hudud”) sifatida ta'riflaydi. Ya'ni bunda hukmron tabaqa kofir va asosiy aholi esa musulmonlar. Ammo, tashkilot nomining o'zi uning mafkurasi va faoliyatida jihod konsepsiyasining ustuvorligini anglatadi. “Muqaddas urush” ekstremistlar tomonidan “dinning oltinchi ustuni” sifatida ko'riladi va u “yaqin dushmanlar” (musulmon davlatlaridagi zamonaviy tuzumlar) va “uzoq dushmanlar” (G'arb va Isroil) bilan olib borilishi lozim.

Bu bilan “Al-Jihad” mafkurasi “al-Jamoa al-Islamiya” tarafdorlari g'oyasiga o'xshab ketadi. “al-Jamoa al-Islamiya” ham zamonaviy

musulmon mamlakatlarini joxiliya jamiyatiga qo'shadi va ularning yetakchilarini dindan qaytganlar safiga qo'shishadi. "Yaqin va uzoq dushmanlar" bilan kurash "jihodchilar" tomonidan islomni himoya qilish va haqiqiy islomiy boshqaruvni o'rnatishning muhim yo'li sifatida qaraladi. "Jihodchilar" fikriga ko'ra faqat "yaqin dushmanlar"ni yo'q qilgandan so'ngina, ummatining G'arb va kofirlar hukmronligidan qutilishni amalga oshirish bosqichiga o'tish mumkin.

Bu yo'nalish mafkurachilari fikriga ko'ra, islom davlati tuzish uchun davlatning kuch ishlatar tuzilmalari, ayniqsa armiya, militsiya maxsus otryadlari safiga kirish lozim. Chunki bu tuzilmalar "islom inqilobi" boshlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi ko'zda tutiladi. Tashkilot a'zolari fikriga ko'ra hukmron tuzumning ag'darilishi islom davlati tuzishga birinchi qadam hisoblanadi. Bunda ular islom xalifaligini qayta tiklash har bir musulmonning burchi va Muhammad payg'ambarning vasiyati deb hisoblashadi.

"Birodar-musulmonlar" singari "Al-Jihad" a'zolari, islom davlatini tuzishga musulmonlarni tayyorlashning muhim komponenti tarbiyaviy va tashviqot ishlari deb hisoblashadi. Ammo, da'va ular tomonidan alohida qurolli kurash sifatida jihodni g'oyaviy asoslash uchun yo'naltiriladi. Unga yolg'on xabar tarqatish, josuslik va qo'poruvchilik faoliyati, musulmon bo'lmaganlar bilan taktik ittifoqlar tuzish, terrorchilik kabi uslublar kiradi.

1980-yillar o'rtalarida "Al-Jihad" faollari Afg'onistonda "kofirlar"ga qarshi kurashganida, tashkilotda Ayman az-Zavaxiri boshchiligidagi tashqi boshqaruv paydo bo'ldi. O'sha davrdan Misrdagi "Al-Jihad" faoliyatini takrorlovchi tashkilotning xalqaro tarmog'i o'z faoliyatini boshladi. Az-Zavaxiri G'arb va Isroilga qarshi kurashning muhimligiga urg'u bergan holda, jihod doirasini Yaqin Sharq mintaqasi tashqarisiga ham kengaytirdi. Uning fikricha, faqat "uzoq dushmanlar"ni mag'lub etibgina, AQSH ko'magidan foydalanuvchi arab davlatlari tuzumlarini mag'lub etish mumkin. Uning ta'kidlashicha, musulmon davlatlari hukumatlari g'arb davlatlari yordamiga bog'liq va "salbchilar" muqaddas yerdan ketganidan so'ng ular qulaydi. Az-Zavaxiri boshchiligida yangi istiqbollarning e'lon qilinishi bilan tashkilot "Al-Jihad al-jadid" ("Yangi jihod") nomini oldi va "uzoq dushmanlar" bilan urush olib borishning "samarali" usuli

terrorni keng qo‘llash amaliyotini joriy qildi. 1995-yil noyabrya oyida tashkilot Shveysariya, Bolgariya, Pokiston va Misrdagi misr “nishonlari”ga qarshi beshta terrorchilik amaliyoti uyishtirishdi, 1998yilda esa Keniya va Tanzaniyadagi AQSH elchixonalarda portlashlar uyishtirishda ishtirok etdi.

Tashviqot va tashkilot saflariga odam yig‘ish dastlab tashkilot a‘zolari qarindoshlari va do‘stlari orasida yoki Misrdagi xususiy va davlat tomonidan nazorat qilinmaydigan machitlarda olib borilar edi. Faol mafkuraviy ishlov berilgan yoshlar “o‘z-o‘zini qurbon qilish” ruhida tarbiyalanadi va ekstremistlar tomonidan suisid terrorchilik aktlarini amalga oshirishda foydalaniladi. “Al-Jihad”ning muhim g‘oyalaridan biri shahidlik (shahada) bo‘lib qoldi. Tashkilot yetakchilari potensial shahidlar safiga asosan shahar hayoti sharoitlariga ko‘nika olmayotgan, qishloq yoshlari va talabalarni yig‘ishadi.

1980 yil Prezident A.Sadat hayotiga suiqasd sababli eksremistlar bostirilganidan so‘ng 1982 yil tashkilotning mafkurachisi A.Faraj qatl etiladi, yana ikki yildan so‘ng esa “Al-Jihad” ikta guruhga bo‘linib ketadi. “Al-Jihad” nomi Abbud az-Zumr boshchilik qilayotgan Qohira guruhiga nisbatan saqlanib qoladi. “Janubiy guruh” – “al-Jamoa alIslamiya” saflariga Yuqori Misr vakillari kirishdi. Az-Zumr esa tashkilot yirik yo‘qotishga uchraganligi sababli vaqtincha harbiy faoliyatni to‘xtatib, targ‘ibot ishlarini kuchaytirishga chaqirilgan tezisni e‘lon qildi. Bu tezis tashkilot ba‘zi a‘zolarining noroziligiga sabab bo‘ldi. Ular Az-Zumrni jihod prinsiplaridan qaytishda ayblashdi. Shunday qilib, norozilar guruhi “Al-Jihad”dan ajralib chiqdi va “Jihad alHaram” (Qohira tumanlaridan birining nomidan olingan) tashkilotini tuzishdi. Keyinchalik Afg‘onistonga ketgan Ayman az-Zavaxiri ham azZumrning sustligidan norozi edi va o‘z tarafdorlari bilan “Al-Jihad aljadid” tashkilotini tuzdi. Bu tashkilot juda ko‘p terrorchilik aktlarini o‘z bo‘yniga oldi. Xususan, 1993 yildagi matbuot va axborot vaziri Safvat ash-Sharif, ichki ishlar vaziri Hasan al-Alfi, premer ministr Atef Sidqi hayotiga suiqasd. 1990 yillar boshida az-Zumr radikal Misr guruhlarining yagona frontini tuzish loyihasi bilan chiqdi.

“Al-Jihad” bilan boshqa “Birodar- musulmonlar” va “al-Jamoa alIslamiya” kabi islomiy tashkilotlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar

alohida ahamiyatga ega. Xususan, Al-Jihad “Birodar-musulmonlar” tomonidan qabul qilinadigan parlament faoliyatida ishtirok etish amaliyotini rad etishadi. Bunga javoban “Birodar-musulmonlar” hokimyaning manbai xalq ekanligini e’tirof etishadi va adolatni saylovlarning qonuniyligiga ishonishadi. Ular barcha qonunlar shariatga mos ravishda parlamentda qabul qilinishini xohlashadi. “AlJihad” yetakchilari, ayniqsa, “takfirchilar” faoliyatiga salbiy munosabat bildirishadi. Ularning fikricha, “takfirchilar” yetakchisi Sh. Mustaf o hech narsa amalga oshirmagan holda, faqat yoshlarni jamiyatdan ajratib hayotini buzadi. “Al-Jihad” yetakchilari jamiyatdan ajralish (xijrat)ni jihoddan chekinish deb xisoblashadi.

Yaqin o‘n yilliklar davomidagi “Al-Jihad” faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, tashkilot 1981-yildagi bostirilishdan so‘ng Misr tuzumi va milliy xavfsizligi uchun kuchli ta’sir etadigan tahdidlar paydo qilishi mumkin bo‘lgan “samarali” faoliyat yurita olmay qoldi. “AlJihad” resurslari Misrda hukumatning qat’iy harakatlari va antiterror strategiyasi sababli zaiflashdi. Ammo “Al-Jihad” mafkurasi butun mintaqada “jihodchilar” harakati rivojiga katta ta’sir o‘tkazdi. Ayman az-Zavaxiri Ben Laden bilan birga butun dunyo radikal jihod harakati ramzi va zamonaviy jihod harakati mafkurasi asoschilaridan biriga aylandi. Ular musulmonlarning G‘arbga qarshi kurashi zarurligini diniy va siyosiy nuqtayi nazardan asoslash maqsadida arab telekanallari va Internet orqali tez tez chiqishadi.

Misr va boshqa g‘arb davlatlari manbalariga ko‘ra “At-Takfir valXijra” tashkiloti 1978-yil Sh.Mustafoning qo‘poruvchilik maqsadida tashkilot tuzishda ayblanib qatl etilganidan so‘ng yashirin va transmilliy faoliyatga o‘tdi. Bu tashkilot Misr, Sudan, Livan, va ba’zi Yevropa davlatlarida yashirin faoliyat yuritmoqda.

Takfir oqimi yoki “jamiyatdan ketish”ning mafkurasi hokimiyat (tuzum) va jamiyatni ayblashga asoslanadi. Tashkilot mamlakatdan ketishga va yaman tog‘larida islom davlatini barpo etish, asosiy vazifasi mamlakatlarni yangi musulmoncha zabt etish va katta islom davlatixalifalik qurush bo‘lgan musulmon armiyasini shakllantirishga chaqiradi.

«At-Takfir val-Xijra» tashkiloti vakillarining fikricha, sotqin jamiyat va hukmdorlar bilan kurashuchi bosqichga bo‘linadi.

1. Sotqin jamiyatdan ketish;
2. Haqiqiy musulmon jamiyatini qurush;
3. Islommiy tartibga qaytish va o'rnatish (zarur bo'lsa qo'lga qurol olib).

Ushbu oqimning vakillari bola tug'ilishiga taqiqlar, hayotni sug'urtalash tizimi, investitsion aksiyalar, bank tizimi va boshqalarning qo'llanilishiga qarshi chiqishadi. Tashkilot a'zolarining fikricha, faqatgina ularning o'zlari haqiqiy musulmonlar hisoblanishadi. Bundan tashqari, tashkilot a'zolariga masjidga borish taqiqlanadi, chunki ular yovuzlik joyiga aylangan.

Misrning o'zida hozirgi vaqtda radikal islomiy guruhlarining, jumladan, «Al-Jihad» va «al-Jamoa al-Islamiya»ning maqsad va shakllarini yashirish tendensiyasi qayd etilmoqda. Shu bilan birga, «al-Qoida» tarafdorlari Misrga nisbatan o'z munosabatlarini tushuntirishicha, bu mamlakatdagi jihadning eng asosiy maqsadi turistlar hisoblanadi, ularning o'ldirilishi G'arbga qarshi emas, mujohidlarning yangi avlodini «tarbiyalashga» qaratilgandir. Radikal mafkurachi Abu Mus'ab as-Surining mashhur izdoshi va «al-Qoida» tarafdori Abu Muhammad al-Hiloliy «Risola ila ahl as-sugur fi Sina» («Sinayning chegardosh viloyatlaridagi xalqqa murojaat»)da Sinay yarimorolida amalga oshirayotgan terrorchilik harakatlari shu kabi strategiyaning omadhli namunasi, deb hisoblaydi.

Turli «jihad» guruhlari Misrning turistik hududlarida xavfli vaziyatni yuzaga keltirmoqda, mamlakatning strategik muhim infratuzilmalariga xavf solmoqda. Oxirgi yillardagi voqealar Misr transchegaraviy va mahalliy terroristik guruhlar uchun asosiy «jihad frontlari»dan biri sifatida qaralishini ko'rsatadi. Misr hukumati tomonidan terrorizmga qarshi kurashda va mamlakatda siyosiy barqarorlikni taminlashda qat'iy choralar ko'rmoqda.

2006-yil 26-martda Misr tergov organlari birinchi marta Tab va Sharm-esh-shayxdagi qonli terrorchilik harakatlari ortida «al-Qoida» bilan aloqador «at-Tavhid val-Jihad» islom guruhini turgan deya ayblashdi. Bundan birozdan keyin Misr hukumati Qohirada yirik terrorchi guruh 22 jangariga ega va Qohira yaqinida faoliyat yuritgan «at-Toifa al-Mansura» («G'alabali jamoa»)ni zararsizlantirdi. Maxsus xizmatlar ma'lumotlariga ko'ra guruh a'zolari jangarilarni «jihad»

hududlariga yo'naltirish maqsadida chet el terroristik tashkilotlari bilan aloqa qilgan. Qohiradagi maxfiy guruh 20 nafar yoshlarni – tadbirkorlar, talabalar, diniy xizmatchilarni o'z ichiga olgan edi. Ekspertlarning baholashicha, ular Iroqda “al-Qoida” sifatida” faoliyat yuritishga harakat qilishgan, ularning maqsadi Misrda umumiy xaos muhitini yaratish va hukumatni ag'darishdan iborat bo'lgan. MAR ichki ishlar vazirining ma'lum qilishicha, guruh internetdan portlovchi va zaharli moddalar haqidagi ma'lumotlarni to'plagan, turistik hududlarda operatsiyalar va Qohira gaz trubasini portlatishni rejalashtirgan. Qohiraga gaz yetkazib berilishining to'xtashi o'n millionlab aholi istiqomat qiluvchi butun Nil vodiysining energiya ta'minotining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin edi. Gaz trubasining portlashi aholining hukumatga bo'lgan ishonchiga putur yetkazishi mamlakatda keng miqyosdagi beqarorlikni keltirib chiqarishi kerak edi.

Fitnaning tergov qilinishi terroristlarning asosiy mo'ljali turistik obyektlar bo'lib qolayotganini ko'rsatdi. Bu xavf 2006-yil 24-aprelda kurort shaharlar Daxab va Sinaydagi portlashlarda o'z isbotini topdi, u yerda 18 kishi xalok bo'ldi va 80dan ortig'i jarohatlandi. Portlash uchun javobgarlikni qandaydir “Misr mujohidlari” guruhi o'z bo'yniga oldi. Portlashlar Misr milliy bayramlari – Sinaydagi g'alaba kuni, Inqilob kuni, Armiya kuniga “to'g'rilangan” edi. Chamasi, terorchilar hukumatga o'z kuchlarini va istalgan paytda, istalgan joyga zarba bera olish imkoniyatlarini ko'rsatib qo'yishni xohlashgan.

Bundan tashqari, Daxabdagi aksiyalar mamlakatdagi xavfli jarayonlar sharoitida kechdi. Birinchidan, 2006-yil 14-aprelda Aleksandriyaning uchta kopt cherkovida terorchilar tomonidan bir kishi o'ldirilgan va 12 tasi jarohatlangan qirg'indan keyin Misrda dinlararo taranglik kuzatildi. Xristianlar va musulmonlar o'rtasidagi ushbu to'qnashuvdan ekstremistlar mamlakatdagi o'z ta'sirlarini kuchaytirishda foydalanib qolishdi. Ko'plab misrliklarning fikricha, jamiyatlardagi muhit yomon tomonga o'zgargan. Diniy jamoalar o'rtasidagi ishonch xavf ostida qoldi. Ikkinchidan, bu paytda mamlakatda hukumat va “Birodar-musulmonlar” o'rtasidagi qaramaqarshilik keskinlashdi. Murakkab siyosiy sharoitda terorchilar mamlakatda vaziyatni chigallashtirish va Yaqin Sharqdagi holatni izdan chiqarish urinmoqda.

Uchala radikal islomiy oqimlar va ularni vakillari bo'lgan tashkilotlar o'rtasidagi asosiy farq qo'yilgan maqsadga yetish yo'llari va vositalaridadir. Ushbu farqlar "Birodar-musulmonlar" tashkilotidan ba'zi unsurlarning ajralib chiqishiga olib keldi.

Ushbu voqealarning barchasi, Misr mintaqadagi terrorchilar va ekstremistlarning asosiy mo'ljallaridan biri bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Terrorchilar terakt qurbonlari – xorijiy sayyohlar va misrliklarning o'zlari esa, ularning mamlakati olib borayotgan siyosatning "asirlari" ekanini ko'rsatish harakat qilishmoqda.

Misrni mintaqadagi navbatdagi "xaos hududi"ga aylantirish maqsadida terrorchilar va ekstremistlar nafaqat mahalliy maxfiy bo'linmalar tashkil etishmoqda, terrorchilik harakatlari sodir etmoqda, balki Misrda mavjud bo'lgan siyosiy holat uchun "portlovchi" omillardan, jumladan, muxolifatni kuchaytirish va diniy e'tiqod ixtiloflarini ishga solmoqda. Hozirgi kunda "Birodarlar"ning mo'tadillik ko'rsatkichi, ularning boshqa islomiy tashkilotlardan asosiy farq qiluvchi jihatidir. O'zining kuchli radikal qarashlari bilan, "islom nuqtai nazaridan" rasmiy hokimiyatni noqonuniy deb hisoblovchi "Al-Jihad" tashkiloti ajralib turadi. Tashkilot mafkurachilari hukumatga kirish uchun zamonaviy siyosiy metodlarga murojaat qiluvchi "Birodar-musulmonlar"ning mo'tadil pozitsiyasini tanqid qilishadi.

Shu bilan birgalikda, o'zining "radikal kurash metodlaridan chekinishi"ni ko'rsatgan "Birodar-musulmonlar" o'tgan 2005-yil noyabr-dekabr oylarida bo'lib o'tgan Misrdagi parlament saylovlarida jiddiy muvaffaqiyatga erishdi. Birodar-musulmonlar"dan chiqqan "mustaqil nomzodlar" saylovlarda "Islom – bu yechim" shiori bilan chiqishdi va birinchi turdayoq 34 ta joyni egallashdi. Saylovlarning so'ngi natijalariga ko'ra "Birodar-musulmonlar"ning Misr Milliy Majlisidagi o'rnini 17 tadan 88 taga yetdi. Bu oldingiga qaraganda besh karra ko'p bo'lib, saylov arafasida ular 70 ta joy olishni rejalashtirishgan edi. Misr matbuoti saylov natijalarini islomchilarning "tarixiy yutug'i" deb atadi.

1980-1990-yillardagidan farqli ravishda, "Birodar-musulmonlar" bu safar boshqa muxolif partiyalardan alohida saylovga borishdi. Saylovlarda asosiy raqobat hukmron Milliy-Demokratik Partiya (MDP) va "Birodar-musulmonlar" o'rtasida bo'ldi. Bu nuqtai nazardan, islomchilar erishgan natija ancha jiddiy ko'rinadi.

MDP va hukumat blogiga kiruvchi mustaqil nomzodlar parlamentda 326 ta joy olishdi. Garchi MDP Milliy majlisda 70 % joyni o'zi uchun ta'minlagan bo'lsada, aynan "Birodar-musulmonlar" o'zini g'alaba qilgan deb e'lon qilishdi. Chunki ular mamlakat tarixida birinchi marta Misr tashqi va ichki siyosatiga tegishli masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir etish imkoniga ega bo'lgan muxolif blok tuzishdi. Kuzatuvchilarning ta'kidlashicha dunyoviy kuchlar ustidan diniy muxolifatning ustun kelishi H.Muborakning hukmron partiyasi uchun jiddiy muammo tug'dirdi. "Birodar- musulmonlar"ning parlament saylovlari natijasida ta'sirining oshishi dunyoviy muxolifatning zaifligini ham ko'rsatdi. Masalan, partiya "Vafd" parlamentda 6 ta joy egalladi, Milliy-progressiv partiya 2 ta, "al-G'ad" ("Ertaga") 1ta deputatga ega bo'ldi. 2005-yil Prezident saylovlari natijasida H.Muborakdan so'ng ikkinchi o'rinni olgan "alG'ad" partiyasi yetakchisi Ayman Nur Milliy Majlisga saylana olmadi.

"Birodar-musulmonlar"ning saylov kampaniyasi davrida erkin targ'ibot olib borish imkoniga ega bo'lganligi va vakillarining saylovlarda ishtirok etishi shundan darak beradiki, hokimiyat va muxolifat vakillari o'rtasida, mo'tadil kuchlarni siyosiy jarayonlarga konstruktiv ravishda jalb etish maqsadida biror bir kelishuvga kelingan bo'lishi mumkin. Hukumat "Birodar-musulmonlar"ning ta'sirli ijtimoiy kuchga aylanganligi sababli ularni e'tiborsiz qoldira olmagan bo'lishi mumkin.

Shuningdek, "Birodar-musulmonlar"ning taktikasi ham o'ziga e'tiborni jalb etadi. O'zlarining ta'kidlashlaricha ular muvaffaqiyatining eng asosiy sababi davlat OAVning muxolifatni keskin tanqid qilishi bo'lgan. Chunki bu saylovchilar orasida teskari ta'sirga ega bo'lgan. Bu fikrga ma'lum darajada ba'zi Misr tahlilchilari ham qo'shilishadi. Masalan, "Al-Ahrom" siyosiy va strategik tadqiqotlar Markazi eksperti Muhammad Saidning fikricha, islomchilar bu muvaffaqiyati faqatgina ularning saylovoldi kampaniyasini yaxshi yo'lga qo'ygani bilangiga bog'liq bo'lib qolmay, balki bu xalqning mamlakat hukumati va va siyosiy hayotni boshqaruvchi tuzumga nisbatan ham ishonchi kamayganligini anglatadi.

Saylovning muhim natijasi shu bo'ldiki, "Birodar-musulmonlar" prezidentlik mansabiga o'z nomzodini ko'rsatish va davlat hokimiyati organlarida siyosiy kurash olib borish imkoniyatiga yaqinlashishdi. "Birodar-musulmonlar" vakillari parlamentda MDPga qarshi turuvchi muxolif blokka kirishga tayyorligi e'lon qilishdi. Bundan tashqari, islomchilar yetakchisi Muhammad Maxdi Akif uning vakillari Misr prezidenti vakolatlarini qisqartirish va konstitutsiyaga o'zgartirish kiritishga harakat qilishadi. Ammo mamlakat tashqi siyosiy kursiga o'zgartirish niyatiga ega emasliklarini ta'kidladi. Xususan, guruh Isroil davlatini tan olishni rad etdi, lekin 1979-yilda imzolangan tinchlik sharnomasini hurmat qilgan holda Isroil bilan urush qilishga chaqirmaydi. "Birodar-musulmonlar" bu bilan, an'anaviy ravishda falastin-isroil mojarosini hal etishda faol vositachi va yaqin sharq diplomatiyasining muhim markazi hisoblangan Misrning tashqi siyosiy pozisiyalarining radikallashtirishidan qo'rqayotgan jahon hamjamiyatini tinchlantirmoqchi bo'lishdi.

2005-yilgi parlament saylovlari xalqaro hamjamiyatning yuksak e'tiborini o'ziga jalb etdi. Saylovlar borishini kuzatgan juda ko'p NNT, OAV va xorijiy diplomatik korpus vakillari hokimiyat tashabbusi bilan mamlakat siyosiy hayotining ancha liberallashtirishini ta'kidlashdi. Shuningdek oldin yarim legal faoliyat yuritgan muxolif kuchlarning siyosiy sahnaga chiqishi ko'pchilik e'tiborini tortdi.

Bu nuqtai nazardan, "Birodar-musulmonlar" mafkurasining 2005-yildan keyingi o'zgarishlarini tahlil qilish muhim masala hisoblanadi. Bu masalaning yana bir dolzarbligi shundaki, Misr islomchilari faqatgina ichki siyosat sohasidagina emas, balki xalqaro hayotda ham o'z pozisiyalarini mustahkamlashdi. Yana shuni hisobga olish lozimki, bu voqeadan so'ng 2006-yilda Falastin muxtoriyati Qonunchilik kengashiga bo'lib o'tgan saylovlarda radikal islom tashkiloti "Hammas" ham g'olib bo'ldi. Bunda "Birodar-musulmonlar" g'arb tahlilchilari tomonidan mavjud tuzumga muqobil sifatida ko'rila boshlandi. Chunki aynan shu paytda H.Muborak hokimiyatining kimga meros bo'lib qolishi dolzarb mavzuga aylangan edi.

Ko'pchilik misrlik va xorijiy kuzatuvchilar "Birodar-musulmonlar" Misrda davlat to'ntarishi amalga oshirishi mumkinligidan havotir olishmoqda. Bunga javoban tashkilot vakillari

ular hali siyosiy hokimiyatni qo‘lga olish maqsadidan hali yiroqligini ta’kidlashdi. “Birodar-musulmonlar” yetakchisi M.Akif tashkilot uchun asosiy maqsad hokimiyatga islomiy-prezidentni keltirish emas, xalqni ta’lim va tarbiya qilish yo‘di bilan islohotlar amalga oshirish ekanligini ta’kidladi. Bunday e’tirof tashkilotning tinch progressiv maqsadlaridan dalolat bermaydi, balki bu tashkilot yetakchilarining mamlakatda ularning hokimiyatga kelishi uchun shart-sharoit yetilmaganini tushunishini anglatadi.

Bugungi kunda bu harakat kun tartibidan qaysi masalalar joy olganligini tushinish ham muhim ahamiyatga ega. Parlament saylovlaridan so‘ng “Birodar-musulmonlar” siyosiy kengashi rahbari Essom al-Arian tashkilotning istiqboldagi harakat dasturini taqdim etdi. Ichki siyosat sohasida u to‘rtta asosiy maqsadni o‘rtaga qo‘ydi: 1) “Birodarmusulmonlar”ning “siyosiy loyihasi”ni shakllantirish va uni keng xalq ommasi va mamlakat siyosiy doiralari tushuntirish; 2) tashkilotning tashkiliy, tarbiyaviy, siyosiy va ijtimoiy faoliyati orasida muvozanatni o‘rnatish; 3) xalq orasida tartibsiz ravishda, ko‘p hollarda hissiyotlarga asoslangan “Birodar-musulmonlar”ni qo‘llab-quvvatlashini ommaning siyosiy va ijtimoiy hayotda produktiv ishtirokiga aylantirish; 4) boshqa o‘xshash siyosiy va intellektual guruhlar bilan turli shakllardagi sherikchilik va hamkorlikni mustahkamlash.

Xalqaro siyosat sohasida Essom al-Arian asosiy e’tiborni Misr va arab davlatlari xavfsizligiga qaratdi. Uning fikricha, tahdid hukmron kuchlarning istibdodi va xudbinligidan, sionistik tuzilmalardan (Isroil) va Amerika intervensiyasi va mintaqa ichki ishlariga aralashishidan kelib chiqadi. Bu tahdidlarga javoban “Birodar-musulmonlar” beshta asosiy tadbirni o‘z oldilariga qo‘yishadi: 1) Amerika va sionistlar “loyihasi”ga qarshi bo‘lgan mamlakatlarning siyosiy kuchlari va elitasi bilan hamkorlikni rivojlantirish; 2) “gegemonlikka asoslangan globallashuv”ga qarshi arab va boshqa musulmon davlatlaridagi ijtimoiy fikrni safarbar etish; 3) tashqi kuchlarning gegemonlikka asoslangan loyihalariga qarshi turush va siyosiy va iqtisodiy sohalarda islohotlarni amalga oshirishni talab qilish uchun xalq birdamligi va elita murosasiga asoslangan qarshilik ko‘rsatish kuchlarini shakllantirish; 4) Amerika xalqi bilan aloqalarni normallashtirish va

AQSH hukumati bilan teng huquqlilik asosida mintaqadan o'z kuchlarini olib chiqish bo'yicha muzokara boshlash; 5) Yevropa davlatlarini sionistik loyihani musulmon davlatlariga eksport qilish uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olishga majburlash maqsadida Yevropa bilan dialog o'rnatish. Rejaga shuningdek mintaqada milliy va diniy kamchilikning ahvolining yomonlashuviga e'tiborni qaratishga chaqiriq ham kiritildi. Sionistik va amerikalik kuchlarning kamchilik millatlarning tarixiy noroziliklaridan foydalanib mintaqada davlatlari va xalqlariga nisbatan tahdid solishiga qaratilgan harakatlarini "blokirovka" qilish ham taklif etildi.

Al-Arianning ta'kidlashicha, bu reja tashkilotning asosiy strategiyasiga kiritiladi. Bu loyiha har bir shaxsning mukammallashuvidan boshlanadi va asta sekin ancha keng islohotlarga o'tadi: musulmonlarning oiladagi va jamiyatdagi turmush tarzini o'zgartirish, mamlakatni xorijiy hukmronlikdan ozod qilish va harbiy, siyosiy, iqtisodiy, mu'naviy-madhaniy sohalarda boshqaruvni va hokimiyat organlarini isloh qilish va shuningdek "xalqaro musulmon millati birligini" (al-kiyan ad-davli li-l-ummat al-islamiya) qayta tiklash. "Birodar-musulmonlar" tomonidan kun tartibiga qo'yilgan

birinchi masala (islomchilar siyosiy loyihasini shakllantirish va targ'ib qilish)ni harakatning uning dasturi va maqsadlari bo'yicha ularning noaniqligi va bir biriga mos kelmasligi haqidagi turli tanqidlarga qarshi o'ziga xos javob sifatida ko'rish mumkin. Misrlagi va xorijdagi juda ko'p kuzatuvchilar "Birodar-musulmonlar"ning ataylab ichki siyosat masalalari bo'yicha aniq, va batafsil pozitsiyasini aniq ifodalashdan qochishini ta'kidlashadi. Saylovlardagi g'alabadan so'ng "Birodar-musulmonlar" yetakchilari siyosiy va iqtisodiy islohotlarga tegishli maxsus bayonot bilan chiqishdi. Bayonotda oldingilari singari umumiy gaplar bilan cheklanishdi. Yana shunga e'tiborni qaratish lozimki, 2004 yil 3 martda e'lon qilingan "Birodar-musulmonlar"ning "Islohot tashabbuslari"dan boshlab, harakat yetakchilari tomonidan islomchilar siyosiy dasturini aniqlashi mumkin bo'lgan biror bir keng qamrovli hujjat e'lon qilinmadhi.

Masalan, 2006 yil fevralida "Birodar-musulmonlari" yetakchilaridan biri Muhammad as-Sayid "Agar biz hukumatni

boshqarishni qo‘lga olsak nima bo‘ladi” deb nomlangan maqola e‘lon qildi. Maqolada saylov tizimi va hukumat tuzilishini isloh qilish masalalari ko‘rib chiqildi. Ammo bu maqola Misr konstitutsiyasining shariat qoidalariga asoslangan qonuniy hokimiyatni e‘lon qilishi lozimligini ta‘kidlashdan boshqa “Birodar-musulmonlar”ning davlat shakli, jamiyatdagi islomning o‘rni, davlat va din o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar haqidagi qarashlarini o‘z ichiga olmaydi. As-Sayid Habib hattoki mo‘tadil islomchilar tez-tez takrorlashadigan “Birodar-musulmonlar ining maqsadi – hokimiyatning manbayi islom bo‘lgan fuqarolik davlatini qurush” formulasini ham eslamadi.

Ammo uning bu masaladagi fikrini maqoladagi Misr nasroniylari haqidagi qismdan anglab olish mumkin. Uning yozishicha “Birodar-musulmonlar Misr nasroniylarini barcha fuqarolik huquqlariga ega bo‘lgan fuqarolar deb hisoblaydi va bunda ular davlat boshlig‘idan tashqari mamlakatdagi har qanday jamoat mansablarga tayinlanish huquqiga ega”. Bu mustasno islomchilarning “nomusulmonlar”, garchi ular teng huquqli fuqarolar bo‘lsa ham, musulmon davlatini boshqarishi mumkin emasligi haqidagi prinsipini ko‘rsatadi. Bunda tabiiy ravishda savol tug‘iladi, “to‘liq fuqarolik huquqi” nimani anglatadi. Shunisi aniqki, as-Sayid Habib *zimmi* konsepsiyasi tarafdori hisoblanadi. Bu konsepsiyaga ko‘ra “nomusulmonlar” jamiyatning kiikinchi darajali a‘zolari safiga qo‘shiladi. Shunisi e‘tiborga molikki, maqolaning tashkilot saytidagi ingliz tilidagi variantida Misr nasroniylari barcha jamoat mansablariga, davlat boshlig‘i lavozimi bilan birga tayinlanish huquqi e‘tirof etiladi.

“Birodar-musulmonlar”ning davlat boshqaruvini isloh qilish va davlat va din o‘zaro munosabatlari, shuningdek turli konfessiyalar vakillari haqidagi rasmiy pozitsiyasining ikki xilligi Misr nasroniylarining doimiy xavotirlari manbai bo‘lib qolmoqda. 2005 yilgi parlament saylovlaridan so‘ng darhol tashkilotning boshqaruv kengashi a‘zolari Abd al-Munim Abu al-Fatuh, Essom al-Arian va boshqa yetakchilar Misr nasroniylari (qibtiylar) bilan uchrashishdi. Bu uchrashuvdan asosiy maqsad ularning xavotirlarini tarqatish va “Birodar-musulmonlar” g‘alabasiga nisbatan nomusulmon aholi orasidagi salbiy munosabatni yo‘qotishdan iborat edi. Bu uchrashuvlarda “Birodar-musulmonlar” vakillari “nomusulmonlar”dan

jizya solig'i olishni ko'zda tutuvchi 1996-yilgi islomchilarning sobiq yetakchisi shayx Mustafo fatvosini ular qo'llab quvvatlamasligini bildirishdi. Misrdagi islom islohotchilari bu konsepsiyaning eskirganligini va nomusulmonlar Misr musulmonlari bilan teng huquqqa egaligini ochiq ta'kidlashmoqda. Bu Misr Konstitutsiyasida ham belgilab qo'yilgan. Harakat vakillari qibtiylarni, ular "diniy davlat" emas, balki islom hokiyamyatning manbayi hisoblangan fuqarolik davlati (daula madaniya) tuzishmoqchiligiga ishontirishga harakat qilishdi. Ammo ularning so'zlariga ko'ra hokimiyat manbayi sifatida islom sivilizatsiyalashgan ijtimoiy-siyosiy tizimdir. Bu tizim musulmon aholisi ko'pchilikni tashkil etgan davlat boshqaruvi va faoliyatiga asoslanadi. Va ular shunday savol qo'yishdi: "Butun dunyo demokratlari hokimiyatning oliy manbayini tan olishmaydimi?" Ammo qibtiylar vakillari "diniy manbaga ega bo'lgan fuqarolik davlati" noaniq va tushunarsizligini ta'kidlashdi va rasmiy ulardan o'zlarining rasmiy pozitsiyasini ifodalovchi rasmiy hujjat e'lon qilishni so'rashdi. Bunday pozitsiya o'zi shakllanib bo'lgan edi. Masalan, qibtiylar M.M.Akifdan uning qibtiylarga nisbatan shaxsiy pozitsiyasini so'rashganda u "Biz "Birodar-musulmonlar" harakati qibtiylarga nisbatan Olloh tomonidan o'rnatilgan pozitsiyani qo'llaymiz" deb javob qildi.

Xuddi shunga o'xshash yondashuv "Birodar-musulmonlar"ning boshqa kamchilik millat va dinlar vakillariga nisbatan ham tatbiq etiladi 2006-yil Iskandariya shahri ma'muriy sudi ichki ishlar vazirligiga baxai jamoasiga mansub aholiga ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatda diniy e'tiqodini ko'rsatishni belgilovchi qaror qabul qilganida "Birodar-musulmonlar" norozilik bildirishdi.

Seminar savollari:

- 1.Radikal – ekstremistik guruhlar va tashkilotlar
- 2.Xalq islomi yoki sufiy tariqatlar
- 3.Misrda diniy siyosat va islom ekstremizmga qarshi kurash

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Islomda radikal yonalish
- 2.Radikal yonalishlarning oqimlari

3. Islom omlining Misr hayotida tutkan orni

4. Islom radikalizmi va keskin goyalar

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. Ёвқочев Ш.А. Исламский фактор в политической системе современного Египта. – Т., ТИУ, 2008.
2. Sh.Yovqochev. Jahon siyosatida islom omili: O'quv qo'llanma. T.: ToshDSHI, 2016.
3. Коровиков А.В. Исламский экстремизм в арабских странах. – М., 1990.
4. Исаев Г. «Братья-мусульмане» в арабском мире в 2011–2014 гг.: от триумфа к катастрофе.// <https://russiancouncil.ru/analyticsand-comments/analytics/bratya-musulmane-v-arabskom-mire-v-2011-2014-gg-ot-triumfa-k>
5. Мальцев Ю.М. Страны Магриба в региональной и мировой политике. – М., 1994.
6. Мартынкин А.В. Зеленый интернационал: история экспансии «Братьев-мусульман». – Севастополь: Филиал МГУ, 2021.
7. Международные отношения на Ближнем и Среднем Востоке. И политика России на рубеже XXI века. М., 2000.
8. Павлов В.В. Исламские банки в современном мире (80 –90 –е годы). – М., 2000.
9. Плешов О.В. Ислам и демократия. Опыт Пакистана. – М., 1996.
10. Бабкин С.Э. Движения политического ислама в Северной Африке. – М., 2000.
11. Борисов А.Б. Роль ислама во внутренней и внешней политике Египта в XX веке. – М., 1991.
12. Гучетль Г.И. Демократизация в арабском мире: опыт Туниса и Сирии. – М., 1999.
13. Ислам и экстремизм на Ближнем Востоке. – М.: Институт изучения Израиля и Ближнего Востока, 2001
14. Islam and Politics in Modern Middle East. – London-Sydney, 1984.
15. Roy O. The Failure of political Islam. – L.: Taurus, 1994.

2.4. “BIRODAR-MUSULMONLAR” TASHKILOTINING MISRNING TASHQI VA ICHKI SIYOSATIGA TA’SIRI

O‘qitishdan maqsad: Misr Arab Respublikasining tashqi siyosatlarining shakllanishida dinning qanchalik kuchli ta’sir ko‘rsatayotganligini ko‘rsatib berish, shuningdek Misr jamiyatining ijtimoiysiyosiy hayotlarida islom omili darajasi hamda ahamiyatini tahlil qilib berish, Misrada radikal islom tashkilotlarning o‘rni va faoliyati.

Tayanch iboralar: ichki siyosat, parlamentga saylov, AQSHning strategiyasi, Katta Yaqin Sharq, Misrda saylovlar, “Birodar-musulmonlar”, Falastin avtonomiyasi, arab-isroil urushi, Xalqaro hamjamiyat, liberalizm, konservatizm, islom davlati, xalifalikni qayta tiklash, yetakchi partiyalar, g‘arb demokratiyasi, Yaqin va O‘rta Sharq, “Hamas”, FATH, “Buyuk Suriya” davlati, AQSHlik mutaxassis va tahlilchilar, arab madaniyati, demokratik davlat qurish, Markaziy Osiyo, Kashmir jangchilari.

Reja:

1. Misr ichki siyosatiga ta’sir qiluvchi ichki omillar.
2. Misrning ichki siyosatiga ta’sir qiluvchi asosiy hamda tashqi omillar.
3. “Birodar-musulmonlar” yetakchilarining pozitsiyalari.
4. Xalqaro hamjamiyatning “Birodar-musulmonlar” faoliyatiga munosabati.

Misrda va qolaversa Yaqin Sharq hamda Afrikadagi bir qator davlatlarda “G‘arb andozasidagi erkin saylovlar”ning o‘tkazilishi G‘arb ekspertlari va siyosiy guruhlarini, ayniqsa AQSHni esan kiratib qo‘ydi. Haqiqiy liberal va dunyoviy “imkoniyatlar” yo‘q bir sharoitda “Birodar-musulmonlar”ning parlament saylovlaridagi muvaffaqiyati G‘arb oldiga qiyin, baxsli vaziyatni yuzaga keltirdi: islomchilarni siyosiy kuch sifatida inkor etish yoki ularni Misrni rivojlantirish yo‘lida “munozaraga chaqirish”.

Bizga ma’lumki, “Birodar-musulmonlar” Vashington tomonidan Misr hukumatiga “suqulib” kirilishidan va qolaversa Misr siyosiy hayotida yuzaga kelgan bo’shliqdan foydalanib qolishdi. AQSH har

doim Qohirani “haqiqiy demokratik” saylovlar o‘tkazishga undab keldi va hattoki 2005-yilda parlament kampaniyasining natijasiga ko‘ra islomchilarning Misr Milliy yig‘ilishida ko‘p joy olishiga qaramasdan ham J.Bush hukumati MARdagi mavjud rejimning “demokratik o‘yinlar qoidasiga moslashishib ketishi”ga shubha bilan qarar edi.

Mazkur holat 2005-yilning sentabr oyida MAR prezidentligiga saylovida yana takrorlandi, bu vaziyatda esa AQSH prezidenti H.Muborakni oppozitsion siyosiy partiyalar ishtirokida saylovlar o‘tkazishga va bu saylov xalqaro kuzatuvchilar ishtirokida o‘tish kerakligiga chaqirgan edi. Bunda Vashington prezidentlikka nomzodlar qatorida partiyalardan 10 ta lider orasida yaqqol yetakchi, mavjud hokimiyat, XDP vakili H.Muborak bo‘lishiga qaramasdan alG‘od (“Ertangi kun”) partiyasi lideri, davlatning oppozitsion kuchi bo‘lmish Aymon Nurga o‘z ishonchini bildirgan edi. Lekin, prezidentlikka saylov davrida yana vujudga kelgan dunyoviy oppozitsiyaning yaqqol o‘jizligi Vashingtonni mamlakatda antiisroil va antiamerikachilik kayfiyatlari vujudga kelishi mumkinligi bilan ogohlantirib qo‘ygan ekspertlarning havotiriga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, “Musulmon-birodarlari”ning Yaqin va O‘rta Sharqdagi amerika siyosatiga qarshi aytgan so‘zlari katta havotirni keltirib chiqardi.

Shu munosabat bilan, Misr va Yaqin Sharqdagi boshqa davlalarda amalga oshirilayotgan “demokratlashtirish natijasi”ga nisbatan Amerika mutaxassislari va tahlilchilarida AQSH Kongressidagi mavjud ikki partiya vakillariga qarshi ishonchsizlik holati kuzatildi. Ayniqsa ularning havotiri Misrdagi “dunyoviy tuzum”ning, ya’ni Yaqin Sharqdagi so‘ngi tayanchining qo‘ldan ketishi aniq bo‘layotganligini bilgan holda kuchayib bordi.

Birinchidan, 2006-yilda Falastin hududida “Hamis” islom qarshi harakatining muvaffaqiyati natijasida ilk marotaba radikal islomchilar parlamentning asosiy kuchi bo‘la olishgan edi va ular parlamentni shakllantirishga muvaffaq bo‘lishdi. Natijada falastinisroil konflikti yanada keskinlashdi, falastin qurolli guruhlar, ayniqsa, Eron tomonidan qo‘llab-quvvatlanayapti deb taxmin qilinayotgan guruhlar tomonidan keladigan xavf miqdori oshdi. Shunday qilib falastin muammosini kuch bilan hal etish taxmini kuchayib bordi va muammoni tinch yo‘l bilan hal etish rejasi esa orqaga surilib ketdi.

Ikkinchidan, parlamentdagi muvaffaqiyati evaziga Iroq birlashgan alyansi shia diniy partiyasi yetakchilik qilayotgan Iroqda ham “demokratik vakillik”ni kengaytirish muammosi paydo bo‘ldi. 2005-yil dekabr oyida bo‘lib o‘tgan va 2006-yil yanvar oyida uning natijalari e‘lon qilingan saylovlar natijasiga ko‘ra Iroq Birlashgan alyansi 275 joydan 128 ta joyni qonunchilik majlisida qo‘lga kiritdi. Bizga ma‘lumki ushbu voqeadan so‘ng 2006-yilning 22 fevral sanasida Samarra shahrida mamlakatda fuqarolik urushini keltirib chiqarish maqsadida shialarning muqaddas joylari bo‘lmish – Ali alHadvva Hasan al-‘Asqar masjidlarida portlashlar yuz berdi. Ushbu voqeadan so‘ng Iroqda zo‘ravonlik holati kuchayib ketdi, Bag‘dod, Basra va boshqa shaharlar markazida qasos olish va qirg‘inliklar avjiga chiqdi. Fuqarolik va partizanlik harakatlari girdobida qolib ketgan “demokratik” Iroq davlati deyarli boshqarib bo‘lmaydigan huduga aylanib qoldi va ushbu mamlakatda terroristik guruhlarining faoliyati kuchayib ketdi. Natijada okkupatsiya qilingan huduni “demokratlashtirish” jarayoni mamlakatning ichida mahalliy siyosiy hamda etnodiniy balansning buzilishiga olib keldi va shuning bilan birga bu mamlakatda barqarorlik hamda xavfsizlikni qayta tiklashga bo‘lgan ishonch yo‘qolib ketdi. Iroq voqealari Yaqin va O‘rta Sharqda hamda Janubiy Osiyoda radikal islom harakatlarining va xalqaro terroristik tashkilotlar faoliyatining mislsiz darajada kuchayib ketishiga olib keldi.

Ushbu munosabat bilan so‘nggi yillarda g‘arblik ekspert-mutaxassislar vakillari islom tashkilotlarining siyosiy partiyalar sifatida faoliyati qonuniylashtirilishidan havotirda ekanliklarini aytmoqdalar va ushbu holat mintaqaviy hamda global xavfsizlikka salbiy ta’sir qilishi mumkin deyishmoqda.

Bundan o‘n yillar avval G‘arbda arab-musulmon dunyosida turli xil ekstremistik va terrosristik guruhlarining faoliyatining vujudga kelishiga quyidagi sabablar turtki bo‘ladi deb tushunilar edi: asosan ichki siyosiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy holat hamda “avtoritar hukumat”ning islom tashkilotlariga qarshi qattiq choralariga, qo‘llayotgan vositalarga nisbatan, ya’ni bu masalaga standart yondashilar edi. Masalan, Harbiy-dengiz maktabi (Monterey, AQSH) Milliy xavfsizlik kafedراسи dotsenti A.M.Bayluni ta’kidlaganidek, “demokratik nazariya ta’kidlaydiki, siyosiy partiyalarning formal

siyosiy hayotda ishtiroki ularni o'rtacha darajaga tushirib qo'yadi: bir tizim doirasida partiyalar ma'lum faoliyatga bo'ysunib qoladi, ya'ni harakatlari birlashadi; ular konflikt va zo'ravonlik yo'llarini tanlashga tavakkal qilishmaydi va barcha o'zgarishlarga siyosiy jarayonlar orqali erishishga umid qilib qolishadi. Bundan tashqari, siyosiy partiyalar ma'lum bir siyosiy tizim doirasida o'zlarining aniq maqsadlarini belgila bolsalar ular o'zlarining erishgan pozitsiyalarini yo'qotib qo'ymasliklari uchun radikal qanotlarga bosim o'tkazishni boshlashadi".

Yana bir boshqa muallif Xalqaro ishlar bo'yicha Britaniya Qirollik institutidan (Chetham House) Maha 'Azzam xalqaro hamjamiyatda har qanday mamlakatda islomiylarning hokimiyat tepasiga kelishi global barqarorlikka jiddiy xavf tug'diradi, bu o'z navbatida turli xil islom kuchlari o'rtasida mavjud bo'lgan transmilliy aloqalarni "davlat qo'llab-quvvatlashi" misolida kuchaytirib yuborishi mumkin deb ta'kidlaydi. Shunday bo'lsa ham, britaniyalik ekspert "aksincha, siyosiy organlarda islomizm integratsiyalashuvi barqarorlikni ta'minlab berishi mumkin, chunki ko'plab islom guruhleri o'zlarining davomli manfaatlarini bir nechta xalqaro tan olingan tamoillar bilan bog'lashadi...Ushbu ma'noda islamizm mobilizatsiyalashgan siyosiy va ijtimoiy kuch sifatida hamda ushbu ko'rinishda musulmon jamiyati o'rtasida qo'llanib kelinishi mumkin".

Jorjtaun universiteti professori J.Vol 2006 yil Nikson Markazida (AQSH) so'zlagan nutqida dunyoda mavjud bo'lgan islom harakatlari o'rtasida farqlar mavjud ekanligini aytib o'tdi. U, o'z navbatida, "barcha ushbu harakatlar islomni niqob qilib olgan bo'lsa ham, lekin amalda boshqa metodlardan foydalanishadi" deb ta'kidlab o'tadi. Masalan, "Birodar-musulmonlar" bilan "al-Qoida"ni aralashtirib bo'lmaydi. "Birodar-musulmonlar" go'yoki jihodchilik pozitsiyasidan (non-jihadiapproach) voz kechgandek faoliyat yuritishmoqda. Garchi bu islom tashkiloti, ya'ni qaysidir ma'noda uning Misrdagi shohobchasi misrliklarni gunohkor deb hisoblasa-da qisman bo'lsa ham qolgan misrliklarni xudosizlikda ayblashda no'zlarini tiyib turishadi." Bundan tashqari amerikalik tadqiqotchi "Birodar-musulmonlar"ning mafkurasi emas balki islomiylarning o'zaro mafkuraviy taffovuti radikalizmni eltirib chiqarmoqda, yanada aniqroq qilib aytganda mavjud siyosiy

jarayonlarda ishtirok etishni qo'llab quvvatlovchi islom harakati va jihodchilikni amalga oshiruvchi terroristic guruhlar faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi islom harakatlari o'rtasidagi tavofutlar radikalizmning kuch ayishiga sabab bo'lmoqda" – deb ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, Misr jamiyatiga "Birodarmusulmonlar" emas balki ularning Yevropadagi "do'stlari" katta xavf solayapdi deb hisoblaydi. Ushbu xulosalarga tayangan holda J.Vol amerikalik siyosatchilarga Yaqin Sharqda "siyosiy islohotlarni yanada samarali"roq qilish maqsadida Misrdagi "Birodar-musulmonlar" bilan yanada yaqinroq aloqani o'rnatmoq kerakligini va shuning bilan birga, mintaqadagi boshqa davlatlardagi muxolifat kuchlar bilan ham aloqlarni yaxshilash kerak deb taklif bildirmoqda. J.Vol ushbu maqsadlarga yetishish uchun AQSH hukumatiga "Musulmon-birodarlar"dan muzokaralar olib borishni o'rganish kerakligini va ular bilan hamkorlik qilish kerak" deb maslahat berdi.

Yaqin va O'rta Sharq davlatlaridagi ichki siyosiy jarayonlarni va ular ichidagi diniy-siyosiy tashkilotlar faoliyatining kuchayishi hamda faollashishini chuqur o'rganish mutaxassislarga mavjud jarayonlarga nisbatan obyektiv baho berish imkoniyatini beradi. Falastin avtonomiyasidagi voqealar va Livandagi shia tashkiloti "Hezbollah" faoliyatining kuchayishi G'arbliklarning vaziyatni yanada chuqurroq o'rganishiga turtki bo'ldi. Bu va boshqa shunga o'xshash ko'plab voqealar, har doim ham to'g'ridan-to'g'ri "demokratik saylovlar" orqali milliy an'analari va o'zlarining siyosiy madaniyati kuchli bo'lgan musulmon davlatlarida g'arbcha demokratiyani o'rnatib bo'lmasligini ko'rsatib berdi. Bundan tashqari islom harakatlarining hokimiyatga kelishi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qilmaydi, lekin buning aksini bir nechta g'arblik ekspert va siyosiy guruhlar ta'kidlab o'tishganedi.

So'ngi yillarda Yaqin Sharqdagi bir nechta davlatlardagi saylovlar natijasi shuni ko'rsatadiki, ularning natijasi milliy an'analarga asoslangan jamiyatlarda siyosiy barqarorlikka va bosqichma-bosqich rivojlanishga hamda zamonaviy davlat qurishga bo'lgan harakatga katta xavf tug'dirdi. Ushbu jarayonda siyosiy islohotlarni tezlashtirish va unga Yaqin Sharq mamlakatlaridagi tarixiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy farqlarni hisobga olmagan holda

“demokratiyaning g‘arbcha modelini” birlashtirib yuborish esa salbiy ahamiyat kasbetdi. Falastin, Iroq, Livan, Misr kabi davlatlardagi voqealar, ya’ni hokimiyatga islomchilarning kelishi shuni yaqqol ko‘rsatadiki, hardoinimham g‘arbcha ko‘rinishdagi ijtimoiy-siyosiy qaytaqurish boshqa davlatlarga mos tushavermaydi, qolaversa bu jarayonlar mamlakat ichidagijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni va g‘arb dunyosi bilan aloqlarni kuchaytirishga yordam beravaermaydi. Bundan tashqari bir nechta g‘arb tadqiqotchilari Yaqin Sharqdagi avtoritarizmga “javob” sifatida ichki kuchlar “(arab-musulmon) davlatlarida fuqarolik jamiyatini qo‘llab-quvvatlashda juda ehtiyotkor bo‘lmo‘gi darkor” – deb ta’kidlashadi.

Demokratiyani yoyishda tadrijiylikni qo‘llash maqsadida AQSH va Yevropa davlatlari o‘zlarining zamonaviy siyosatining ikkita eng muhim tamoillaridan birini tanlashga majbur bo‘lib qolishidi: 1) ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish zaruriyati; 2) musulmon davlatlaridagi barcha “demokratik harakatlarni” qo‘llab-quvvatlashga sodiqlik. Bunday harakatlar orasida albatta “xalq manfaatlarini va orzuomidlarini” da’vo qiluvchi islom kuchlari ham mavjud. Bu mavzuga bog‘liq bo‘lgan diqqatga sazovor muloqot AQSHdagi Nikson Markazida 2005 yil oktabr oyida bo‘lib o‘tdi, uning mavzusi esa quyidagicha edi: “AQSH islom harakatini qo‘llab quvvatlashi kerakmi?” Mazkur muloqotda AQSHning yetakchi mutaxassislari, shular qatorida D.Payps (Yaqin Sharq forumi direktori) va R.M.Gerext (Amerika tadbirkorlik instituti) kabilar ishtirok etishdi.

Mazkur uchrasuvda misrlik “Birodar-musulmonlar” vakillarining Misrdagi parlament saylovlaridagi g‘alabalaridan keying siyosiy jarayonlardagi faoliyatining muammolari muhokama etildi. Arab davlatlarida radikal diniy tashkilotlar ishtirokida g‘arbcha modeldagi “cheksiz” saylovlar o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi deb hisoblovchi D.Payps H.Muborak kabi 25 yilgacha bo‘lgan vaqtni o‘zida qamrab oluvchi siyosiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshiruvchi Yaqin Sharqdagi kuchli rahbarlarni qo‘llab-quvvatlashini aytib o‘tdi. Ushbu munosabati bilan u quyidagi fikrni aytib o‘tdi: “musulmon davlatlarida tadrijiy o‘zgarishlarni amalga oshirish darkor, islamizm xavfi kuchayib turgan joyda esa demokratiyani rivojlantirish kerak emas. Demokratiyani uzoq, sekin va maslahatli o‘rganish kerak.

Uni inkor etib esa islom harakatlarining g'alaba qozonishiga zamin yaratish mumkin"¹.

Bunday fikrlar o'z navbatida boshqacha tendensiylarning ham tu'gilishiga qarshi tura olmaydi – amerikalik siyosatchilarning bir nechta davlatlarda “mashhur islomiy harakatlarning” siyosiy jarayon-

lardagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabi fikrlar. Vashingtonning bunday yondashuvi asosan islomchilar bilan muzokaralar olib boorish musulmon davlatlari bilan siyosiy aloqaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi deb hisoblovchi siyosatchilarning AQSH hukumatida ko'payib borayotgani bilan baholanadi. Arab OAV bir necha bor Misrda amerikalik rasmiy shaxslar “Birodar-musulmonlar” asosan siyosiy yetakchilari bo'lmish, ya'ni ulardan chiqqan Iroq islom partiyasidan tortib ekstremistik tashkilotlar hisoblanmish “Hizb utTaxrir”, “Hammas” va boshqalarning yetakchilari bilan uchrashishganini ta'kidlashgan edi. Ehtimol, AQSH Yaqin Sharq davlatlarini demokratlash tirish jarayonini yangi yo'nalishda amalga oshirmoqchi: agar ushbu mintaqadagi davlatlardagi saylovlarda islom harakatlari g'alaba qozonishsa, unda G'arb tezda ular bilan aloqa o'rnatadi va

“neytral hamda tolerant” pozitsiysani egallab oladi. Shubhasiz, ekstremistik tashkilotlar musulmon va g'arb davlatlaridagi vakillarining siyosiy legitimligini ta'minlash maqsadida o'z yo'nalishlarini o'zgartirishlari ehtimoldan holi emas. Lekin, bu holatlar ularning asosiy maqsadi bo'lmish – “butun jahon islomizm”ni qurish maqsadini o'zgartirmaydi. Shunday ekan, ularning radikal pozitsiya va terrorizm metodlaridan voz kechishlari yetarli emas. Bunday tashkilotlarga saylovlarda legitim siyosiy partiya sifatida ishtirok etishlari va g'alaba qozonishlari o'z davlatlaridagi siyosiy tuzumni o'zgartirib yuborishlari uchun katta imkoniyatdir va ular bunday imkoniyatdan foydalanishni kechiktirmaydilar.

Shu bilan bir qatorda, so'nggi paytlarda islom harakatlarining ichida ham tashqi siyosiy poztsiyalar borasida munozaralar kelib

¹ Should the United States Support Islamists? A Debate with R.M.Gerecht and D.Pipes//Program Brief. A Publication of the NixonCenter. – The Nixon Center, – Washington D.C., 2005.– October 24.–P. 1-2.

chiqmoqda. Bunday debatlar “Birodar-musulmonlar” ichida ham amalga oshirilmoqda. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, “Islom jihodi” (“Al-Jihad al-Islami”) yetakchisi hisoblanmish “Birodarmusulmonlar” tarkibidan chiqqan Ayman az-Zavaxiri o‘zining sobiq safdoshlarini “al-Qoida” va shu kabi terroristic tashkilotlarning “kontrproduktivlik” tezislari AQSH bilan hamkorlikda tarqatayotganlikda aybladi¹.

“Birodar-musulmonlar” orasida ham AQSHga nisbatan ikki xil yondashuvchilar paydo bo‘lishdi. Birinchitomon – AQSH bilan qarama-qarshilikdan qochishning iloji yo‘qligi va muzokaralar

o‘tkazib bo‘lmasligiga ishonuvchilardir. Ikkinchi tomon esa – “ma’lum bir shartli sharoitlar” doirasida muzokara o‘tkaza olishga ishonuvchilar hisoblanishadi. Birinchi yondashuv tarafdorlari “Birodar-musulmonlar”ning an’anaviy qarashlariga sodiq qolishgan, ya’ni, ulartarixda islomchilarning an’analari hamda amerikaliklarning mintaqadagi va dunyodagi maqsadlariga qarshi chiqqan holda AQSH bilan hech qanday muzokaraga kirishishmagan.

Bugungi kundagi “Birodar-musulmonlar”ning yetakchisi Muhammad Mahdi A’kif ham ushbu fikrga sodiq qolgan, ya’ni u AQSHni dunyo yovuzi, dushmani timsoli sifatida ko‘radi. Uning ishonishicha yangi “amerikacha global tartib” insoniyatni 10 ta guruhga ajratib qo‘ymoqda: birinchi guruhga – amerikaliklar va sionistlar, ikkinchi guruhga – yevropaliklar va h.k. kiradi. Eng so‘nggi guruhga esa arab, musulmon va osiyo xalqlari kiradi deydi. Global tartib (yoki A’kifning ta’biri bilan aytganda “global mudhish ahvol”) pinhona ravishda sionistlar qo‘li bilan tuzilmoqda. AQSH

“terrorizmga nisbatan” global urushni boshlashi bilan xalqaro hamjamiyat (eng avvalo Yevropa) Amerika tomonga o‘tib uning orqasidan yurdi va amerikacha dunyo tartibi konsepsiyasini qabul qildi deb ta’kidlaydi A’kif. AQSH hukumati butun dunyoga kimki antiterroristik koalitsiyaga qo‘shilgan bo‘lsa u “demokratiya”ga sodiqdir va agarda kimki Vashingtonning global kampaniyasini

¹ Qarang: www.sabeelnet.com. – 2006. – 7 January.

qo'llab-quvvatlamagan bo'lsa u "terrorizmning hamkorlari" va terroristlardir deb dunyoga jar solmoqda. A'rifning so'zlariga ko'ra, "Birodar-musulmonlar" doim amerikaliklarning demokratik va erkinlik chaqiruvlariga shubha bilan qarovchi kuchlarning avangardida (oldida) bo'lib kelishgan, ya'ni undaylarni qo'llab-quvvatlashgan. Uning ta'kidashicha, AQSHning o'zi "salbiy imperialistik tarixga ega" – deydi, lekin diktatorlik tuzumidagi davlatlarga yordam berishda davom etmoqda va butunlay "sionistik loyihani" qo'llabquvvatlaydi hamda butun kuchi bilan rivojlanayotgan, tabiiy boyliklarga ega davlatlar ustidan nazorat o'rnatishga harakat qiladi. A'rif

"amerikacha va sionistik okkupatsiyaga qarshi xalqaro kampaniya" mavzusidagi konferensiyada insonlarni "imperialistic davlatlar"ga nisbatan iqtisodiy boykot qilishga chaqirdi. Uning so'zlariga ko'ra, ushbu boykot o'z ichiga AQSHning "ommaviy madaniyati"dan voz kechishni ham qamrab olishi kerak deydi, sababi aynan shu orqali AQSH boshqa xalqlarning qarashlarini, tarbiyasini "g'arbcha ko'rinishga" olib kelmoqchi.

"Birodar-musulmonlar"ning bir nechta a'zolari, ya'ni yosh avlod vakillari "neytral mavqeyida" turishdi va ular AQSH bilan muzokara olib borishga qiziqishlarini bildirishdi, lekin bu xavfli ekanligini tan olishdi. Shunday xavflardan biri shuki, Misr hukumati ularni mavjud tuzumni ag'darishga bo'lgan harakat yuzasidan tashqi kuchlar bilan aloqa o'rnatish aybi bilan jazolashlari mumkin edi. Bundan tashqari islom olmidagi radikal kuchlar va, qolaversa, jihodchi guruhlar, "Hizbulloh" kabi tashkilotlar ham ularni AQSH bilan hamorlikda ayblashlari mumkin edi. Bunday holatda esa "Birodar-musulmonlar" tashqi kuchlar, qolaversa AQSHning qo'lida qo'g'irchoqqa aylanishlari mumkin edi.

Shunga qaramasdan, Essom al-A'rian parlamentga saylovlarda g'olib bo'lgandan so'ng "Birodar-musulmonlar" jamiyatni bosqichma-bosqich shariatga qaytarishga harakat qilajagini ta'kidlab o'tdi. U "amerika jamiyati har qanday vakili" bilan ochiq muloqotga kirishishini bildirib o'tdi. "Birodar-musulmonlar" tashkiloti a'zolari amerika Kongressi vakillari bilan bir qator uchrashuvlarda ishtirok etishdi va ularning rahbarlari ta'kidlaganidek ushbu amaliyot davomiy bo'ladi. Al-A'riananing so'zlariga ko'raagar muzokaralar ana shunday ochiq

suratda davom etadigan bo'lsa Misr tashqi ishlari vazirligi doirasida AQSH boshqaruvi rasmiy vakillari bilan ham uchrashuvlar tashkil etiladi va bularning barchasi "arab dunyosi hamda Misr manfaatlariga" xizmat qiladi.

Shu bilan birga al-A'rian amerika hukumatining mintaqadagi manfaatlari muammosini ham ko'rib chiqadi va AQSH boshqaruvining Misr hamda musulmon davlatlariga nisbatan olib borayotgan siyosati ularning manfaatlariga to'g'ri kelmasligini ham ta'kidlab o'tadi. U AQSH oldiga quyidagicha savolni qo'yadi: hattoki hokimiyat Vashingtonga qarshi kuchlar qo'liga o'tib ketgan taqdirda ham AQSH har doim demokratiyani qo'llab-quvvatlash qobiliyatiga egami? U, shuningdek, quyidagicha savollarni ham berib o'tadi: Amerika uchun nima muhimroq – madaniy plyuralizmni qo'llabquvvatlashmi yoki globalizatsiya niqobi ostida amerika madaniyati va "g'arb tsivilizatsiyasini" tarqatish muhimroqmi? Amerika elitasi

AQSHning dunyodagi gegemoniyasini mustahkamlashga harakat qilayotganligi rostmi degan savollarni ham berishda davom etadi al'A'rin. "Birodar-musulmonlar" yetakchisi AQSHning global boshqaruvlikni saqlab qolishga intilishini "amerika imperialistik g'oyasi" deb aytib o'tdi va bu holatni "halifalikni" vujudga keltirishga qarshi qaratilgan harakat deb atadi. Al-A'rianning so'ngi so'zi musulmon yerlarini harbiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatdan xorijliklar qo'llaridan ozod etishga va islom dunyosi davlatlarining hukumatlarini qayta qurishga qaratildi. Uning fikricha, faqat shu yo'l bilan "haqiqiy arab birligini va xalqaro islom hamjamiyatini" shakllantirish mumkin bo'ladi.

G'arb gegmonligi bilan kurashgan holda "Birodar-musulmonlar" 2006-2007-yillarda "karitakular jangi" davrida qarshilik ko'rsatish kampaniyasida faol ishtirok etdi. Payg'ambarimiz karikaturasining chizilgani va uning pressalarga joylashtirilganligi dinlararo konflikt keltirib chiqardi hamda bir qator davlatlarda g'arbga nisbatan nafrat uyg'ona boshlandi. Ushbu mojaro o'zida sun'iy xarakterni kasb etsada "Birodar-musulmonlar" ushbu mojaroli vaziyatni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotining asosiy sahnasiga chiqarib qo'ydi. Ular o'z navbatida har qanday daniyalik mahsulotni boykot qilishni talab etishdi va shuning bilan birga ular o'z veb-saytlarida boykot qilish kerak

bo'lgan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar belgisi va nomlarini ham keng ommaga taqdim etishdi, sababi payg'ambarimiz karikaturasi aynan Daniya gazetalarida chop etilgan edi.

2006-yilning yanvar-fevral oylarida islom dunyosida "antiislom maqolalariga" qarshi turi xilchiqishlar bo'lib o'tdi¹. Lekin ko'plab musulmon olami liderlari, shu qatorda, H.Muborak va boshqa ko'plab yetakchilar "Birodar-musulmonlar" hamda boshqa tashkiltolar (masalan, falastinning "al-Aqsa" va "Milliy qarshilik qo'mitasi") liderlaridan farqli o'laroq ular payg'ambar karikaturasiga nisbatan boshqacharoq, puxta o'ylangan va aqlli pozitsiyani tanlashdi, ular musulmonlarni boykot qilishga chaqirmasdan balki muzokaralar va tiyib turish pozitsiyasini tanlashdi.

"Birodar-musulmonlar" bilan G'arb mavqeyidagi tafovut asosan misrlik islomiylarning falastin-isroil muammosiga nisbatan mavqelarida yaqqol namoyon bo'lib qoladi. "Birodar-musulmonlar"ning

fikriga ko'ra "G'arb arab davlatlarini boshqarib turish" va "arab hamda islom birligini yo'qotish" maqsadida mintaqaga Isroil davlatini "joylab" qo'ydi. Ushbu yondashuvga asosan va bu xulosaning mantiqqa zidligini hisobga olgan holda "Isroil g'arb davlati hisoblanib, uning madaniyati va tarixi Yaqin Sharqdan uzoq, ya'ni unga begona" deb qaraydilar. Shunday qilib, ular Isroil davlati hech qanday xalqaro huquq normalariga asoslanmagan holda mavjud bo'lishga haqli emas va Isroil davlat sifatida yo'q bo'lishi kerak deb hisoblashadi hamda shuning bilan birga Isroil xalqi Falastin fuqarolari bo'lib yashashlari kerak deb bilishadi.

2005-yilgi saylovlardan so'ng Muhammad A'kif OAVga bergan intervyusida misrlik islomchilar Isroilni tan olishmasligini va unga qarshu kurashishini ta'kidlab o'tdi. U yana quyidagilar haqida so'z yuritdi: "Birodar-musulmonlar" Isroilni tan olishmaydi. Uni shuningdek, Misrning 94 mln. aholisi, 300 mln. arablar va 1,5 mlrd.

¹ Tamam Ahmed Jama. A delicate balancing act // Al-Ahram. – Cairo.–2006. – 16 - 22 Feb.–Issue № 782.

musulmonlar ham tan olishmaydi. Bu muqaddas zamin faqat arablarga va musulmonlarga tegishli va hech kim bu qonunni buza olmaydi”¹.

Ta’kidlab o’tish kerakki, “Birodar-musulmonlar” “Hammas”ning Falastindagi g’alabasini huddi o’zlariniki qabul qilib nishonlashdi. Rafiq Habibaning so’zlariga ko’ra “Birodar-musulmonlar” Falastindagi hokimiyatdan nimani xohlashgan bo’lsa, shuni qo’lga kiritishdi”.

U shuningdek quyidagilarni ham ta’kidlab o’tdi: “Hammas”ning siyosatdagi ishtiroki falastincha qarshi turish va qurolli urushga aslo halaqit qilmaydi. Undan tashqari al-A’rian quyidagi fikrlarni bildirib o’tdi: falastinliklar o’zlarining hudularini ozod etish uchun yangi strategiyani rivojlantirmoqda va keyinchalik “Buyuk Suriya”(bilad ash-sham al-vasi’a) tarkibiga kirib ketadigan “yagona demokratik davlat”ni shakllantirishmoqda. Uning ichiga yana Suriya, Livan va Iordaniya davlatlari ham kirib ketadi. Yaqqol ko’rinadiki “Buyuk Suriya” atamasini tilga olish islomchilarning aytib o’tilgan 4 ta mamlakatdagi “shahobchalari”ni birlashtirish demakdir va “Birodarmusulmonlar” tashkiloti yangi katta vujudga kelgan hudud ustidan o’z nazoratini o’rnatadi.

‘Essom a’l-A’rian “Hammas”ga Isroil sionistik harakatidan andoza olishni maslahat berdi, ya’ni “o’z asl maqsadingizni yashirgan holda tinchlik muzokaralarini qo’llash kerak”. Uning fikricha, “Hammas”

“Isroil davlatini yo’qotib o’rniga Falastin davlatini qayta vujudga keltirish” maqsadida kuchli yagona Falastin jamiyatini shakllantirishi kerak. Undan tashqari u “Hammas”ga ushbu maqsadni amalga oshirishda qattiq qo’llik bilan ishlashi kerak deb maslahat berib o’tadi. Uning fikriga ko’ra falastinliklar tinchlik istab Isroil, Yevropa va AQSHning eshigini taqillatishi kerak emas, balki ularning o’zlari Falastindan tinchlik istab kelishlari kerak deydi. Yaqqol ko’rinadiki, ushbu “Birodar-musulmonlar”ning “tavsiyalari” ularning o’zlarining xalqaro hamjamiyatga nisbatan taktikasini ko’rsatib beradi.

Undan tashqari yuqorida keltirib o’tilganidek jihodchi va islomchilar “al-Qoida” va “Birodar-musulmonlar”ning ichida ham

¹ Куделев В. Ситуация в Египте: декабрь 2005 г. – 2006.– 11 января.– http://www.iimes.ru/rus/frame_stat.html..

demokratik saylovlarda ishtirok etishgani uchun ham tanqidlar mavjud. Shunday qilib “anti Amerikanizm” misrlik islomchilar uchun terrosritik faoliyatga aralashtirilgan boshqa islom harkatlari bilan, ya’ni “nodavlat transnatsional kompaniyalar” bilan aloqalar o’rnatish uchun juda ham zarurdir.

Ko‘plab amerikalik siyosatshunoslar shu qatorda AQSHning ta’sirli neokonservatizm doirasiga kiruvchilar “Birodar-musulmonlar”ni g‘arbning xavfiszligiga salbiy ta’sir qiluvchi kuch sifatida qarashadi. Jumladan, “Birodar-musulmonlar” bu haqida AQSH prezidenti J.Bush 2006-yil 28-oktabrda quyidagicha fikrlarni keltirgan: “ushbu harakat terrorizmga chorlash orqali vujudga kelgan va ular hokimiyatni ag’darganlar hamda siyosiy va diniy erkinlikka qarshi chiqadilar ¹. Ushbu tashkilotni siyosiy revolutsion harakat sifatida faoliyat yuritadi deyishmoqda, ularning 70 dan ortiq davlatda hamtavoqlari bor va ular “global islom tartibini” o’rnatishmoqchi. Undan tashqari mutaxassislar “Birodar-musulmonlar” AQSH jamiyatida ham bor va ular “amerika kollejlari eng katta talabalar guruhini” tashkil etishadi, deb ta’kidlashmoqda². AQSH prezidenti yordamchisining o’rinbosari va AQSH milliy xavfsizligining terrorizmga qarshi kurashish bo’yicha maslahatchisining o’rinbosari X.Zaratening fikricha, “Birodar-musulmonlar” o’zlarining mafkuraviy

va falsafiy qarashlari bilan emas, balki ularning tinch aholiga nisbatan zo‘ravonlikni qo‘llashi bilan bizga xavf solmoqda” ³. Boshqa amerikalik mutaxassislar esa “ushbu harakat vakillari o’zlarining a’zolariga o‘z g‘oyalarini boshqalarga singdirishga va islom davlatini tuzishga harakat qilmoqdalar” deb ta’kidlashmoqda².

¹ Ehrenfeld R. and Lappen A.A. The Truth about the Muslim Brotherhood.— June 16, 2006. — Front Page Magazine.com.

² Mintz J. and Farah D. The World After 9/11: The Muslim Brotherhood In America. In Search Of Friends Among The Foes. U.S. Hopes to Work With Diverse Group // Washington Post. —September 11, 2004. — P. A01.

³ Guitta O. The Cartoon Jihad. *The Muslim Brotherhood's project for dominating the West.* // The Weekly Standard. — 2006, 20Feb. — Vol. 011. —Issue 22. ² Poole P. The Muslim Brotherhood Project.—May 11, 2006.—FrontPage Magazine.com.

M.A'kif 2005-yilning 11-dekabrida Londonning "ash-Sharq alAusat" nashriga bergan intervyusida quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: "Birodar-musulmonlar" – dunyoning har bir yerida o'z a'zolari bor va ular hamkorlik qilayotir, bizning yagona maqsadimiz – islomni hamda uning tamoyillarini butun dunyoga yoyish... xalqaro arenadagi barcha do'stlarimiz o'zlarining nizomlari doirasida faoliyat yuritishmoqda, jihod – bu o'z maqsadlarimizga erishishning yagona yo'lidir"¹.

Undan oldinroq bergan intervyularida esa u AQSHni "dinni haqorat qiluvchi iblis" deb atadi. Shuning bilan birga A'kif – "AQSH boshchiligidagi antiterroristik koalitsiya "Tolibon"ni mag'lub etgunga qadar "Birodar-musulmonlar"ning Afg'onistonda, haqiqatan ham, mashg'ulot o'tkazuvchi lageri mavjud bo'lganini va ular kashmirlik jangarilar bilan hamkorlik qilganini hamda butun Markaziy Osiyoda ayniqsa Tojikistonda o'zlarining ta'sirlarini o'tkazishga harakat qilishganini" aytib o'tgan edi².

Lekin keyinchalik "Birodar-musulmonlar" o'zlarining nutqida ehtiyotkorroq bo'lishni va terroristlarni qo'llab-quvvatlayotganliklarini inkor qila boshlashdi. Ularning ko'pchiligi 1982 yil e'lon qilingan tezisga qaytishni boshlashdi, "asosiy islom tamoyillarini buzmasdan o'z sabrini mustahkamlash... global hamda local darajadagi raqiblar bilan adovatga bormaslik"ga bo'ysunish³.

Amerikalik mutaxassislarning fikriga ko'ra "Birodar-musulmonlar"ning "diniy mafkura" niqobi ostida faoliyat yuritishi jiddiy tahdid solayapdi. Bundan tashqari, ushbu mafkura uning tarafdorlaridan haqiqiy maqsadlarini (**kitman**-"maxfiylik", "berkitish") yashirishni talab etmoqda, bu esa o'z navbatida liderlarga o'zlariga

¹ Asharq Awsat newspaper. –2005. –11 декабря. –<http://www.aawsat/english>.

² New Muslim Brotherhood Leaders: Resistance in Iraq and Palestine is Legitimate; America is Satan; Islam Will Invade America and Europe. - MEMRI Special Dispatch Series. -No. 655. -February 4, 2004; British Intelligence document //Jacquard R. In the Name of Osama Bin Laden/ - Durham: Duke University Press, 2002. –P.263-267.; -<http://www.jcpa.org/brief/brief005-22.htm>.

³ Poole P. The Muslim Brotherhood Project.– May 11, 2006. – FrontPageMagazine.com.

ishonuvchilar ustidan nazoratni o'rnatishga imkoniyat beradi. Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, "Birodar-musulmonlar" barcha dunyoviy hukumat va tuzumni ag'darishga, qolaversa, o'zlarining ongli harakatlarini amalga oshirishga harakat qilishmoqda. Ushbu fikrni ko'plab boshqa arab davlati mutaxassislari, siyosatchilari va jamiyat arboblari qo'llab-quvvatlashmoqda. 2005 yil iyuloyida Quvaytning sobiq ta'lim vaziri Ahmad ar-Rabi Londonning "ashSharq al-Ausat" nashriga bergan intervyusida quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: "biz harqanday "diniy" terrorizmning boshlanishini "Birodarmusulmonlar"ning mafkurasida ko'rmoqdamiz¹.

Islomiylarning o'zlari ta'kidlaganlaridek, ushbu mafkura "islom davlati" va "halifachilikni qurish"ga bog'liqdir². Ushbu munosabat bilan g'arblik ekspertlar, mazkur g'oyalarning G'arbdagi ayniqsa AQSHdagi musulmonlar o'rtasida tarqalishi inson huquqlariga xavf tug'dirishi va qolaversa AQSH Konstitutsiyasiga birinchi o'zgartirish kiritishni ham to'xtatib qo'yishi mumkin, sababi islomiylar boshqa erkinliklar bilan birga din erkinligini ham targ'ib qilishlari mumkin deb ta'kidlashmoqda³.

Ko'plab tahlilchilar tomonidan "Birodar-musulmonlar"ning arabisroil urushi davridagi "namunali jasurliklari" ta'kidlab o'tilmoqda, "Birodar-musulmonlar"ning ko'ngilli ravishda 1948-yildagi falastin urushi davrida ishtirok etganlarining soni 10 mingdan oshgan edi. "Birodar-musulmonlar" Falastinni ozod etish urushida ishtirok etishdan tashqari islom olamida musulmonlarning o'zlarini anglashida va "kurashish hamda qarshilik ko'rsatish ruhini" shakllanirishda faol ishlarni amalga oshirishdi. "Birodar-musulmonlar" o'zlari ta'kidlashaganlaridek 1970-yillardan boshlab Markaziy Osiyo davlatlarida targ'ibot ishlarini amalga oshirishgan, keyinchalik esa "Afg'oniston

¹ Gold D. Middle East: the Terror Trail // TheJerusalem Post. – 2006. – Feb 2.

² Muslim Brotherhood Movement Homepage.– <http://www.ummah.net/ikhwan/>.

³Ehrenfeld R. and Lappen A.A.The Truth about the Muslim Brotherhood. – June 16, 2006. – FrontPageMagazine.com.

va Kashmir uchun bo'lgan janglarda" asosiy ishlarni amalga oshirishgan. Amerikalik tahlilchilarning fikriga ko'ra "Birodarmusulmonlar"ning o'z maqsadlariga erishish yo'lida zo'ravonlikni qo'llashlariga yaqqol tayyor ekanliklarini 1993-yilda AQSHning NyuYork shahridagi Xalqaro savdo markazini portlatib yuborganlarida ko'rish mumkin. Islomchilarning yetakchisi bo'lmish Umar Abd arRahmon ushbu teraktni amalga oshirganlikda ayblanib hibsga olingan edi, u shuningdek Manxettendagi yerosti va usti yo'llarini portlatmoqchi ham bo'lgan¹. Amerikalik tahlilchilar doirasi vakillarining tahminlariga ko'ra aynan o'sha vaqtdan boshlab "Birodarmusulmonlar" amerikalik musulmonlar orasida mafkuraviy va psixologik ta'sir o'tkazishga katta e'tibor bera boshlashgan.

Amerikalik tahlilchilarning xavotirlari asosli edi. 2004-yil M.A'kif "falastinlik va iroqlik terroistlarni" ochiqchasiga himoyalab chiqdi va ularni Isroilni yo'q qilishga chaqiridi hamda AQSHning 2001-yil sentabr voqealarida "al-Qoida" javobgar ekanligiga hech qanday isboti yo'qligini aytib o'tdi.

"Arab bahori" siyosiy voqealari ortidan 2012-yilgi prezidentlik saylovlarida hokimiyatga kelgan "Birodar-musulmonlar" vakili Muhammad Mursiy hokimiyatda bor-yo'g'i bir yildan sal ko'proq vaqtni egalladi. Davlat boshqaruvida tajriba yo'qligi, mutanosib ichki va tashqi siyosatning yo'qligi sababli "Birodar-musulmonlar" ham aholining aksariyat qismiga, ham ko'plab davlatlarga qarshi qurol ko'tardi. Misr sayyohlik, iqtisod va eng muhimi, Eron bilan yaqinlashish hamda Hamas va Hizbullo radikal harakatlarini qo'llabquvvatlash tufayli ko'plab arab davlatlari undan uzoqlasha boshladi. Shunday qilib, 2013 yilning yozida harbiylar davlat to'ntarishini amalga oshirib, M.Mursiyni hokimiyatdan ag'darishdi. Tashkilotning ko'plab a'zolari hibsga olinib, o'lim va uzoq muddatga qamoq jazosiga hukm qilindi, jumladan 2019-yilda qamoqda vafot etgan Muhammad Mursiy ham. Hozirda tashkilotga Muhammad al-Badi' rahbarlik (2014- x/k) qilmoqda.

¹ In the Spotlight: Al-Gama'a al-Islamiyya. – Terrorism Project.<http://www.cdi.org/terrorism/algamaa.cfm>. – 2002.– December 2.

Yaqqol ko‘rinadiki “Birodar-musulmonlar”ning ko‘plab davlatlarda shohobchalari mavjud va ular “egiluvchan s Birodar-musulmonlar strategiya”ni amalga oshirishmoqda. Ular islom guruhlarini targ‘ibot

ishlarini amalga oshirishga va “legal” usullardan foydalangan holda boshqa ko‘plab kengroq bo‘lgan musulmon jamiyatlariga kirib borishga undamoqda.

Seminar savollari:

1. Misr ichki siyosatini belgilab beruvchi ichki omillarga nimalar kiradi?
2. Misr siyosiy jihatdan qanday davlat hisoblanadi?
3. Misr parlamenti qanday nomalanadi va uning tarkibiy tuzilishi?
4. “Birodar-musulmonlar” tashkiloti vujudga kelish tarixi.
5. So‘ngi yillarda Misr parlamentida eng ko‘p ovoz to‘plab kelayotgan partiya qaysi va ularning yetakchilari?
6. Xalqaro hamjamiyatning “Birodar-musulmonlar” faoliyatiga nisbatan bildirayotgan munosabatlari.
7. AQSHlik mutaxassislar va siyosatchilarning Misr ichki siyosatidagi o‘zgarishlarga nisbatan munosabatlari.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Misrning bugungi kundagi ichki va tashqi siyosati.
2. Misr Yaqin Sharqda yetakchi davlat sifatida.
3. “Birodar-musulmonlar” tashkilotining paydo bo‘lish tarixi va bugungi kundagi ahvoli.
4. G‘arb mutaxassislarining “Birodar-musulmonlar” faoliyatiga nisbatan bildirayotgan fikrlari.
5. Yaqin Sharq davlatlarida “Birodar-musulmonlar”ning faoliyati.
6. Misrda saylovlar o‘tkazish tartibi va qonuniy asosi.

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. ‘Azzam, Maha. Islamism revisited // International Affairs.—N.Y., 2006. —Vol.82.— № 6.—P 1129.

2. Baylouny, Anne-Marie. Emotions, Poverty, or Politics: Misconceptions About Islamic Movements // Connections 3. №.3 – September 2004. – Partnership for Peace Consortium of Defence Academies and security Studies Institutes, Garmische-Partenkirchen (Germany), 2004. – P.69-77: Baylouny A.-M. Democratic Inclusion: A Solution to Militancy in Islamists Movements? // *Strategic Insights*. Center for Contemporary Conflict (CCC), Monterey (US), 2004. – Vol. III. – Issue 4. – 7p.

3. Gold D. Middle East: the Terror Trail // The Jerusalem Post. – 2006. – Feb 2

4. Pollack K. The Seven Deadly Sins of Failure in Iraq: a Retrospective Analysis of the Reconstruction // The Middle East Review of International Affairs. – December 2006. – Volume 10, No. 4. – Article 1/7.

5. Rubin B. Islamic Fundamentalism in Egyptian Politics. – Sec. edit. – Palgrave Macmillan, 2002. – 240 p.; Rubin B. and Rubin J.C. Anti-American Terrorism and the Middle East. Understanding the Violence. – L.: Oxford University Press, 2002.

6. Should the United States Support Islamists? A Debate with R.M.Gerecht and D.Pipes // Program Brief. A Publication of the Nixon Center. – The Nixon Center, – Washington D.C., 2005. – October 24. – P. 1-2.

7. Shanahan R. Hizballah Rising: The Political Battle for the Loyalty of the Shi'a of Lebanon// The Middle East Review of International Affairs. – March 2005. – Vol. 9. – № 1.–Article 1.

8. Tamam Ahmed Jama. A delicate balancing act // Al-Ahram. – Cairo.–2006. –16 - 22 Feb.–Issue № 782.

9. Yom S.L. Civil Society and Democratization in the Arab World // The Middle East Review of International Affairs. – Dec. 2005. – Vol. 9.–No. 4.– Article 2.

10. Morrison M. Talk to the Brotherhood. - <http://www.nationalinterest.org> . – 2006. –29Nov-www.sabeelnet.com. – 2006. – 7 January.

11. Ш.Ёвқочев. Сиёсат ва дин: Ўқув қўлланма. –Т.:ТИУ, 2010.

12. Ш.Ёвкочев. К вопросу о нынешней ситуации на Ближнем Востоке// XXI асрда жаҳон сиёсати ва Ўзбекистон тажрибаси: сиёсий, ҳукукий ва ижтимоий жихатлари” мавзусидаги илмий – амалий конференцияси тўплами (Тошкент, 2016 йил 7 апрель). – Т.:ТошДШИ, 2016. – Б. 190-195.

2.5. ARAB-MUSULMON OLAMIDA DEMOKRATIYA MASALASI

O‘quv maqsadi: o‘quv fani haqida umumiy tasavvurni shakllantirish, islom dinida demokratiya masalalarining mohiyati haqida tushuncha hosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: islom mafkurasi, demokratiya, «Birodar-musulmonlar», monarxiya, ijmo, teokratiya, xalifa, siyosiy islom, ideal jamiyat.

Reja:

1. Islom dinida demokratiya masalalari
2. XX asrning oxirida islom dini
3. «Birodar- musulmonlar» tashkilotining qarashlari

Musulmon olamidagi siyosiy jarayonlar XX asrning so‘nggi choragida islomning siyosiy va ijtimoiy keskinlashtiruvchi omiliga diqqat-e’tibor qaratilishiga olib keldi. Siyosiy rivojlanishning barcha tomonidan qabul qilingan me’yorlari va ularning dunyoviy tayanchlari ega bo‘lishiga hamda tahlilchilarning kutganliklariga qarama-qarshi o‘laroq, din musulmon mamlakatlarida o‘zining mavqeini yo‘qotmadi. Balki Eron, Pokiston, Misr, Afg‘oniston, Saudiya Arabistoni, Suriya va boshqa ko‘plab davlatlarda u «qaytadan uyg‘ondi». Amerikalik siyosatshunos J.Espozitoning qayd etishicha: «islom mafkurasi, timsollari, shiorlari» «musulmonlar siyosatida»¹ mustahkam o‘rnashib olgan.

Islomning ijtimoiy-siyosiy hayotga doimiy ta’sir ko‘rsatishi islom e’tiqodini o‘ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi bilan izohlanadi.

¹ Qarang: Esposito J.L. Islam and Politics. – Third edition. – N.Y.: Syracuse University Press, 1984. – P. 153.

Unga ko‘ra, diniylik va dunyoviylikka aniq bo‘linish yo‘q. Islomni, yuqorida aytilganidek, tizim sifatida qabul qilsa bo‘ladi, u insonning tug‘ilganidan boshlab to vafot etgunicha bo‘lgan odam hayotining barcha sohalarini, yo‘nalishlarini boshqarib, tartibga solib turuvchi dindir. Islomiy mafkurachilar dinning paydo bo‘lganligi va tarqalganligi tarixiga tayangan holda din va siyosatning yagona ekanligiga ishora qilishadi. Bunday talqin etish orqali islomni

faqatgina diniy tizim deb emas, balki jamiyatni tashkil etishning modeli sifatida taklif etishmoqda.

Buning ustiga-ustak, ko‘plab musulmon olimlari islomdagi ijtimoiy-siyosiy faoliyatni diniy farz deb hisoblashadi. Xususan, pokistonlik muallif Shavkat Alining fikrlariga ko‘ra, «Qur‘on va Sunna din va siyosatning yagonaligini aniq atamalar bilan qayd qiladi.

Ummat – bu siyosiy jamoa bo‘lib, imomat yoki xalifat sanaladi, ya‘ni yagona boshqaruv instituti hamda diniy zaruriyatdir. Musulmonning diniy majburiyati uning atrofidagi siyosiy voqelikni tushinishi hisoblanadi»¹. Pokistonlik olim Shavkat Alining fikricha, islomning «mafkuraviy ahamiyati» kuchayishining boshqa omili bo‘lib, u «har bir musulmonning diniy farzni tushunishi va o‘tmishni hurmat qilishi»² hisoblanadi. Shavkat Ali va boshqa zamonaviy islomiy vakillarining, «o‘tmish» bo‘yicha aytgan fikrlarida faqatgina musulmon jamiyatlari tarixi nazarda tutilibgina qolmaydi. «O‘tmish» islom mafkurachilari nuqtayi nazarlariga ko‘ra, Muhammad payg‘ambar hamda to‘rt nafar sahiih xalifalar hayotlari paytidagi «mukammal davrni» anglatadi. «Nazariy bilimlarning butun bir to‘plami Qur‘on, payg‘ambar sunnasi hamda to‘rt nafar sahiih xalifalar: Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali amaliyoti bilan bog‘liq. Islom tarixi hayot voqeligi bo‘lib bormoqda, ya‘ni u dindagi integratsiya qilish jarayoni bilan bog‘liq. Hatto ijmo huquqning asosiy manbalardan biriga aylanayotganligiga qaramay, odamlar insoniyatning har qanday sohasiga haqqoniy rahbarlik qilishi

¹ Qarang: Shaukat Ali. Islam and Politics.– Southeastern Massachussets University, USA.– Aziz Publishers, Urdu Bazaar, Lahore, 1990. – P. 2.

² Qarang: Shaukat Ali. Islam and Politics. – P. 3.

uchun Payg‘ambar Muhammadning ko‘rsatmalariga murojaat qilishmoqda»¹. «Shunday tarzda, «mukammal o‘tmish» musulmonlar mafkurachilari uchun takomilga yetgan insoniyat jamiyati modeli sanaladi, «to‘g‘ri yo‘ldan» adashmaslik maqsadida e‘tiqod qiluvchilar unga intilishlari lozim deb qarashadi.

Ushbu bosqichni ko‘pchilik islom mafkurachilari talab etishmoqda. «Birodar-musulmonlar» tashkilotining asoschisi va asosiy mafkurachisi Hasan al-Banna (1906-1949) ning ta’kidlashicha, islomda «Yevropaga xos bo‘lgan diniylik va dunyoviylikning boshlanishi o‘rtasidagi, din va davlat o‘rtasidagi ziddiyat yo‘q...

xudoga-xudoni haqqini, podshoga – podshoni haqqini ber degan xristianlik g‘oyasi» bu yerda mavjud emas, chunki hammasi qudratli Ollohga tegishli»². Hasan al-Bannaning umuman olganda, an’anaviy islom doirasidan chiqib ketmagan holda, bir qator konsepsiyalarga asoslangan. Islom nafaqat din, balki u «Turmush tarzi» hamdir, unda ijtimoiy, siyosiy hamda boshqa hayotiy, dunyoviy masalalarning yechimi mavjud³ degan konsepsiya ularning orasida markaziy ahamiyat kasb etadi. Islom hamda siyosat o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi masalalarni ishlab chiqish Al-Banna doktrinasida hal qiluvchi o‘rinni egallagan edi. Mazkur masala bo‘yicha «Birodar- musulmonlar» qarashlari to‘g‘risida, xususan, al-Banna quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tishadi: «Hayotimizni faqatgina iymonga hamda dunyoviy, kundalik tashvishlarga va siyosatda hech narsani eplay olmaydigan arboblarga va gunohkorlarga bag‘ishlashimizni hohlovchilarni musulmon deb atash muinmi? Yo‘q, u musulmon emas, yokida haqiqiy islom – bu jihod, harakat, iymon-e‘tiqod va davlatdir»⁴. «Agar u o‘zining millatiga

¹ Qarang: Shaukat Ali. Islam and Politics. – P. 3.

² Qarang: Mitchell R.P. The Society of Muslim Brothers. – London, 1969. – P.244; Степанянц М.Т. Мусульманские концепции в философии и политике (XIX-XX вв.). – С. 110.

³ Shu yerda – Birodar-musulmonlarning shiori: «Islom – bu (barcha muamollarning) yechimi».

⁴ Милославская Т.П. Деятельность «Братьев-мусульман» в странах Востока // Ислам в странах Ближнего и Среднего Востока. – М.: Наука, 1982. – С. 13.

taalluqli ishlarda uzoqni ko‘ra olmaydigan siyosatchi bo‘lsa, musulmon islom oldidagi burchlarini, farzlarini bajarmaydi»⁴.

Yuqoridagi qarashlar orqali tarixni ko‘rib chiqish asosida siyosat va din o‘rtasidagi aloqaning bunday izohlanishi islom tamoyillariga asoslangan holda insoniyat jamiyatining mukammal shaklini izchil qidirish bilan bog‘liq. Tarixni bunday shaklda ko‘rish «siyosiy islom tilshunosligi» da «islohot» atamasiga alohida ma’no beradi. Musulmon fundamentalistlarining fikriga muvofiq, islomda islohot turmush tarzi va fikrlashni boshqa shaklga ko‘chirish yokida o‘zgartirish hisoblanmaydi. Islohot o‘tkazish «begona, yot» elementlardan «islomni tozalash» ma’nosini anglatadi, ular kirib kelib xuddiki dastlabki islomni paytdagi tushunarliklikdan, oddiylikdan va

kuch-qudratdan mahrum etgan. Sh.Alining so‘zlariga ko‘ra, «islohotlar mafkuralashmagan Islomni, uning ilk asosiga, ko‘rinishiga qaytishi», «o‘tmishga qaytishga da’vat qilish» yangi jamiyatni yaratish emas, balki «Payg‘ambar Muhammad davridagi mukammal jamoani qayta tiklashdir»¹. Bundan kelib chiqadigan bo‘lsak, islohot diniy doktrina ..tozalash» ma’nosini anglatadigan bo‘lsa, fundamentalistlarning fikriga ko‘ra, boshqaruvni mazkur doktrinani «toza shaklda, holda» uni tushunadiganlarga, ya’ni ulamolarga – shariatni talqin etuvchi nufuzli shaxslarga. Bu narsa «teokratiya»ni davlat boshqaruvining mukammal shakli ekanligini tasdiqlovchi nazariyaga olib boradi. Hasan al-Banna va Abul Ala Maududiy bunday yondoshuv tarafdori bo‘lishgan². Oxirgisi, xususan, islomning dastlabki holatini ideallashtiradi hamda quyidagilarni yozib o‘tadi: «Hozirga kelib islom jamoasi mudhish ahvolga kelib qolganligiga qaramay, u o‘zining tarixining dastlabki bosqichidagi izlarini hozirda ham kuzatishingiz mumkin. Agar siz hohlagan musulmonning qalbiga nazar solsangiz, mustahkam va

⁴ al-Banna, Hasan. Al-Islam siyosiya va hukm // «Al-Ixvan al-Muslimun». – alQohira, 1946. – 16 aprel.

¹ Qarang: Shaukat Ali. Islam and Politics. – P. 4.

² Маудуди, Абу ал-Ааля. Принципы Ислама. – М.: Захра. 1993. – 126 с.

³ Маудуди, Абу ал-Ааля. Образ жизни в исламе - М.: Захра, 1998. – С. 44.

⁴Qarang: Amin O. Moslem Philosophy. – Cairo, 1958. – P. 138.

me'yorlarsiz bo'lishiga qaramay, yuragiga kirib borsangiz Muhammad va uning sahii xalifalari asos solishgan ideal jamiyatni qo'msashayotganligini anglab yetasiz. Har bir musulmon ushbu oltin bosqichni namuna sifatida ko'radi, uni hohlaydi hamda hayotda yana bir marotaba ko'rishni orzu qiladi»³.

Biroq islohotchilik vakillarining fikrlari islomdagi teokratiyani qat'iy rad qilishadi, u islom bilan nomuvofiq bo'lib, bu yerda ruhoniyyat institute mavjud bo'lmaydi. Muhammad Abdo, islom xudo bilan insonning yuzini-yuziga qo'yishini qayd etgan va uni har qanday aralashishsiz bo'lishni o'rgatgan ⁴ . Radikalroq islohotchilar izchil «sekulyarist» bo'lishgan. M.Stepanyantsning qayd qilishicha, Ali Abd ar-Roziq, «u davlatdan dinni ajratish kerakligini ta'kidlab o'tib, mafkuraviy jihatdan ustozidan anchayin oldinga ilgariladi, Muhammad faqatgina payg'ambar sanalib, uning da'vatlari siyosiy yo'nalish ahamiyat kasb etmagan»¹. Ar-Roziqning qarashiga ko'ra,

Payg'ambar o'zidan keyin islom davlati shaklini qoldirmagan, chunki uning o'zi ham davlat tashkil qilmagan ² . Muhammaddan so'ng, ommani o'zlariga bo'ysundirishni maqsadida diniy unvonga ega bo'lgan shaxslar boshqarishgan. Shuning uchun zamonaviy musulmonlar xalifalik zarurligi to'g'risidagi ishonchdan voz kechishlari lozim, chunki u hech qachon mavjud bo'lmagan, ular o'zlarining aqlari va kuchlariga tayanganlari holda ijtimoiy va siyosiy muammolarning yechimlarini qidirishlari darkor deb ta'kidlagan.

Shu munosabat bilan islom va davlat masalasini millatchilik nuqtayi nazari orqali ko'rib chiqishga to'xtalib o'tamiz. Ummat konsepsiyasiga muvofiq, islomda davlatchilik g'oyasi xuddi diniy jamoa tarzida

¹ Степанянц М.Т. Мусульманские концепции в философии и политике (XIXXX вв.). – С. 112.

² Qarang: Делану Ж. Некоторые аспекты возрождения ислама в России. Мусульманский реформизм в арабоязычных странах (1800-1940) / Пер. с франц. // Ислам в татарском мире: история и современность. Материалы международного симпозиума. – Казань, 29 апреля – 1 мая 1996 г. (специальный выпуск). – № 12. – М., 1997. - <http://www.idmedina.ru/books/islamic/?417>.

qo'yilgan. Millatchilik g'oya sifatida millat jamoasining eng yuqori bosqichi, turi hisoblanib, islom e'tiqodini o'rgatishda islom bilan aloqaga kirishmasligini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan islomdagi islohotchilari millatchilikni g'arb tushunchasi bilan anglanishini rad qilishdi. Hasan al-Bannaning so'zlaricha, islom - «vatan va fuqarolik» bo'lib, u milliy jamo shaklidir. Mazkur g'oya u tarafidan ishlab chiqilgan «islom millatchiligi nazariyasi» (al-qovmiya alislomiya) da, ko'p jihatdan panislomizm g'oyalariga asoslanuvchi J.al-Afg'oni, M.Abdo, R.Rida asarlarida o'z aksini topgan. Shu bilan birga g'arbcha «millatchilik» va «kosmopolitizm» tushunchalarini qabul qilib bo'lmasligi qayd etib o'tilgan, al-Banna ushbu qarashlarga musulmonlarning e'tiqodlarini o'rgatilishidagi tushunchalarni - «vatanparvarlik» (vataniya) ni, «islom millatchiligi» (qavmiya) ni, «yer kurrasi bo'ylab (kosmopolitizm) islom» (alamiya) ni qaramaqarshi qo'yadi. «Islom millatchiligi» konsepsiyasi xudoga ishonch, insonparvarlik va alamiya tamoyillariga asoslanadi, ularda islomning hammaga mosligi g'oyasi o'z aksini topadi. Hasan al-Bannaning panislomiylik g'oyasi «islom millatchiligi» nazariyasida o'z ifodasini topdi, u barcha musulmonlarni birlashishga chaqirgan. Buning

oqibatida musulmon mamlakatlarida «rivojlanishning uchinchi yo'li» konsepsiyasi kelib chiqqan.

Islomchilarning katta qismining millatchilik bo'yicha qarashlari Maududiyning munosabatida yaxshi ifodalangan. Uning fikricha, millatchilikning «irratsional» konsepsiyasi odamlar o'rtasidagi chuqur munosabatlarni «buzib tashlaydi» tilda, ya'ni so'zlashishlarida va hududiy chegaralarda to'siqlar hosil qiladi. Uning nuqtayi nazariga ko'ra, millatchilik urushga va tajovuzkorlikka olib boradi; islom odamlar orasidagi farqlarni «bartaraf qiladi», ularni birlashishiga ko'maklashadi¹. Lekin 1960-yillarda Maududiy musulmon davlatlari ittifoqini tuzishga chaqiradi. Yevropa mamlakatlari birgalikdagi,

¹ Мирский Г.И. Ислам и нация: Ближний Восток и Центральная Азия // Полис. – Москва, 1998. – № 2. – С.79-81.

hamkorlikdagi iqtisodiy hamda siyosiy institutlarni rivojlantirib Yevropani birlashishi yo‘nalishida harakat qilishmoqda, shu sababli ham Maudidiyning fikricha, musulmon mamlakatlari ham umumiy muammolar qarshisida birlashishlari lozimdir. Shu bilan birga, Maududiy musulmon mamlakatlari islom asosida birlashish o‘rniga G‘arbdan o‘zlashtirgan islom millatchiligi doktrinasiga ergashganliklaridan afsusdaligini ta’kidlab o‘tgan¹.

Musulmon mamlakatlarida islom milliy o‘ziga xoslik, mafkura va qadryatlar manbasi bo‘lib qolmoqda. Bunga misol sifatida Sudan tarixini keltirib o‘tsa bo‘ladi. Bu yerda mamlakat 1956-yilda mustaqillikni qo‘lga kiritganligidan oradan birmuncha muddat o‘tgach, islom faqatgina islomiy tashkilotlarni va partiyalarni («Ansor», «Xatmiya», «Birodar-musulmonlar») ruhlantiribgina qolmadi, balki birinchi Sudan hukumati tomonidan mavqeyini mustahkamlashda foydalanildi. Ismoil al-Azhariyning (195-1959) dunyoviy hukumati islomni davlat dini deb» shariatni esa huquqning asosiy manbayi deb e’lon qildi.

Boshqa misol – o‘z vaqtida modernizatsiyaning «sotsialistik turini» tanlagan arab-musulmon mamlakatlari (Suriya, Misr, Iroq, Jazoir). Ular buning oqibatida anchgina qiyinchiliklarga uchrashdi. Mahalliy xususiy sector milliy iqtisodiyotga sarmoya sarflashga intilmadi, qayta tashkillashtirish va boshqaruv kadrlari va texnologiyalarga ko‘p miqdordagi sarf-xarajatlar tufayli ishlab

chiqarish hajmlari qisqardi, mablag‘lar yetishmovchiligi sababli agrar islohotlarni o‘tkazishda qiyinchiliklar kuchaydi. Umumiy siyosiy vaziyat inqirozli holatda bo‘ldi. Davlat tarafidan o‘tkazilgan choratadbirlar (milliylashtirish, sanoatlashtirish, diniy tashkilotlar ustidan davlat nazoratining o‘rnatilishi) an’anaviy tizimni izdan chiqardi. Harbiy tizimlar hukumat tuzulmasining beqarorligi muammosi bilan to‘qnashdi, bunga sabab iqtisodiyotning taraqqiyoti

¹ Qarang: Maududi S.A.A. Unity of the muslim world. – Lahore, 1982. – P. 1934.

aholining ijtimoiy faolligidan ortda qolib ketdi ¹. Qonuniyligini mustahkamlash va ommaning qo‘llabquvvatlashiga erishish maqsadida milliy yetakchilar diniy timsollarga murojaat qilishga majbur bo‘lishgan. Bu hukumat hamda muxolifat kuchlar o‘rtasida islomga va musulmon turmush tarziga sodiqligi bo‘yicha o‘ziga xos tarzda «musobaqalashishi»dir.

Bunga yorqin misollar sifatida misrlik rahbarlar J.A.Nosir, A.Sadat, H.Muboraklar hamda ularning mamlakat ichidagi ichki siyosiy muxoliflarini ko‘rsatish mumkin. qadimiy xususiyatlariga ega bo‘lgan holda Misrda islomning siyosiylashish jarayoni bo‘lib o‘tdi, bu turli musulmon mamlakatlarida qo‘llanilganligini xususida Rossiyalik tadqiqotchi A.Ignatenko aniq xulosa berdi². J.A.Nosir arab olamida yetakchiligini kuchaytirishga intildi hamda shu bilan bir vaqtda ichki muxolif kuchlar qarshisida mustahkamlash maqsadida, Misr millatchiligini doirasini umumarab miqyosida kengaytirdi, uni yagona arab-islom merosi deya asosladi. Al-Azhar Islom universitetini hamda Islom ishlari bo‘yicha Oliy Kengash ustidan davlat nazoratini o‘rnatgan holda arab sotsialistik mafkurasini va siyosatini yoyishda ulardan foydalandi.

Sotsialstlarning «Islom yo‘nalishi» boshqa arab mamlakatlarida, ayniqsa, monarxiya tuzumidagi arab davlatlari hamda mahalliy islom muxoliflari tarafidan keskin noxush holat sifatida qabul qilindi Sayyid Qutb (1906-1966) sotsializm va millatchilikni qo‘shilib ketishiga qarshi chiqdi va siyosiy hokimiyat ustidan davlat monopoliyasini inkor qilish kerak deb hisoblagan. Agar u 1950-yillara asosan «islom

tartiblari» asosida ijtimoiy adolat va iqtisodiy rivojlanishga erishish masalalari bilan shug‘ullangan. 1960-yillarning boshlaridan esa S.Qutb

¹ See: Rustow D. A world of nations. – Wash., Brookings Institution, 1967.–306 p.; Huntington S. Political Order in Changing Societies. – New Haven: Yale University Press, 1970. – 488 p.

² Игнатенко А. Исламский радикализм как побочный эффект «холодной войны» // Центральная Азия и Кавказ. – Лулео (Швеция), 2001. – № 1(13).– С.114-131.

bir qator konsepsiyalarga, xususan, hokimiyi va jihodga tayangan holda, radikal fundamentalistik doktrinasini shakllantirdi.

J.A.Nosir vafotidan so'ng, 1970-yilda hokimiyat Anvar Sadatga (1918-1981) o'tdi. Iqtisodiy muammolar va bozor mehanizmlarni joriy etilishiga qarshi chiqishayotgan nosirchilar va markistlar tomonidagi muxolifatchilar uni islomga suyanishga majbur qilishdi. Prezident Anvar Sadat o'zini odil diniy hukmdor sifatida ko'rsatish uchun faol intildi. U prezident J.A.Nosirning sotsialistik yo'nalishidan keyin davlatning islomlashishi hamda har xil guruhlar, shu jumladan, «At-Takfir val-Xijra» («Ollohga ishonmasizlikda ayblash va xijrat qilish»), «Jihod» va boshqalar paydo bo'lgan paytida hokimiyat tepasiga keldi. 1971-yilda A.Sadat «Birodar-musulmonlar» bilan uchrashdi, u «ateizm va kommunizmga qarshi kurashish umumiy maqsad»ligi haqida bayonot berdi. 1973-yili esa Misrdagi universitetlarida islom to'garaklar tashkil etila boshlandi. A.Sadat

1973-yilgi Misr-Isroil urushiga «alohida diniy ma'no» berishga intildi.

Isroil bilan bo'lgan urushdan so'ng, u tarafidan «iymon uchun muqaddas urush» e'lon qilingach, Misr prezidenti masjidlar qurilishni jadallashtirib yubordi, maktablarda islomiy dasturlar kengaydi. U ommaviy chiqishlarida islomiy nutqlarini keng miqyosda foydalandi, «Birodar- musulmonlar» hamda tasavvuf tashkilotlarining faoliyat ko'rsatishiga qarshilik qilmadi, talabalarning islomiy tashkilotlarini qo'llab-quvvatladi. 1974-yildan e'tiboran SSSR bilan bo'lgan aloqalardan yuz o'gira boshladi hamda AQSH bilan diplomatic munosabatlarni qayta tikladi, iqtisodiyotni erkinlashtirishga va xususiy sektorni kengaytirishga kirishdi hamda ko'p partiyaviylikka ruxsat berdi. 1977-yili A.Sadat Quddusga tashrif buyurdi hamda u yerda tinchlik to'g'risida so'zladi, 1979-yilda esa Kemp-Devidda separate tinchlik bitimi tuzildi. 1981-yilga kelib prezidentlik, bosh vazir, qurolli kuchlarning oily bosh qo'mondoni, politsiya boshlig'i, Adliya vaziri vakolatlari A.Sadatning qo'lida jamlandi hamda harbiy va iqtisodiy masalalar hamda milliy xavfsizlik ishi rahbari bo'lib oldi¹.

¹ Qarang: Умеров М.Ш. Формирование политической модели Арабской Республики Египет (последняя четверть XX в.): Автореф. дис....канд. полит. наук. – Москва, 2001.– С.17.

Avtoritarlikning kuchayishi, o'zgacha fikrlovchilarning bostirilishi, ziyolilarga qarshi kurash, shuningdek, G'arb bilan hamkorlik hamda shu bilan bir vaqtda islomning mavqeining mustahkamlanishi, misrlik fundamentalistlarning kuchaytirdi. Ijtimoiy-madaniy keskin o'zgarishlar siyosiy islomchilarning g'azablanishiga sabab bo'ldi. Buning ustiga-ustak, iqtisodiy muammolar chuqurlashib bordi, A.Sadat milliy taraqqiyotga mahalliy burjuaziyani jalb eta olmadi. Mahalliy sarmoyadorlr o'z mablag'larini sarmoyaning tezda almashadigan tarmoqlariga (savdo, xizmat ko'rsatish va boshqalarga) tikishni afzal ko'rganlar. Tashqi savdoning erkinlashtirilishi arzon eksport mahsulotlarining ko'plab kirib kelishiga olib kelgan, bu esa o'z navbatida yengil sanoatga kuchli zarba berdi hamda tashqi savdo saldosiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Misr moliyaviy inqiroz holatiga tushib qoldi ¹. Oziq-ovqat mahsulotlariga va boshqa tovarlarning narxlariga nisbatan davlat subsidiyalarining ataylab bekor qilinishi aholining anchagina qismini yashash uchun eng zarur bo'lgan mahsulotlarsiz qoldirdi, bu esa ommaviy chiqishlarning boshlanib ketishiga sabab bo'ldi, natijada davlat bunday tadbirni bekor qildi. Ijtimoiy jihatdan tabaqalanish kuchayib ketdi, 1975-yilda Misr aholisining 90 % qashshoq bo'lib qoldi².

Prezident A.Sadat o'rniga kelgan Husni Muborak (1928-yilda tug'ilgan) 1980-1990-yillarda tuzulmaviy islohotlar (infrastrukturani rivojlantirish, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, davlat sektorini nomilliyashtirish, xorijiy sarmoyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va boshqalar.) o'tkazish dasturini amalga oshirdi. Iqtisodiy vaziyatni birmuncha yaxshilashga erishdi³. Siyosiy sohada H.Muborak erkinlashtirish jarayonlarini qayta tikladi, shu bilan

¹ Дефицит платежного баланса возрос с 68 млн.долл. в 1970 г. до 1360 млн.долл. в 1975 г., бюджетный дефицит достиг в 1976 г. 2840 млн. долл. ² Борисов А.В. Арабский мир: прошлое и настоящее. – М.: ИВ РАН, 2002. – С.147. ³ В 1990-х г.г. экономическое развитие Египта приобрело устойчивый характер. Рост ВВП увеличился с 1,9% в 1990 г. до 5,7% в 1998 г., обогнав прирост населения (1,6 % в год), а темпы роста сельскохозяйственного производства достигли 3,2 %.

bir paytda ekstremistlarni shafqatsizlik bilan bostirdi, 1992-yilda Afg'onistondan jangarilar qaytib kelishgach, ular keskin kuchaygan edi. Qonunchilik organlariga bo'ladigan saylovlarni nazorat qilish orqali murosasoz muxolif kuchlarning faoliyati ham chegaralandi.

Mazkur siyosat prezident tarafdori bo'lgan siyosiy kuchlarning hukmron mavqeni egallashiga olib keldi. Biroq 1987-yilgi saylovlarda «Birodar-musulmonlar», Sotsialistik mehnat partiyasi va Liberal sotsialistik partiyalari birlashmasi Xalq majlisida 453 nafar o'rindan 60 nafarini qo'lga kiritdi hamda eng yirik muxolifatchi guruhga aylandi. 1990-yilda parlament muddatidan oldin tarqatib yuborildi va saylovlar to'g'risida yangi qonun qabul qilindi. Shunga muvofiq tarzda, 8% ortiq ovoz olgan partiyagina parlamentga o'ta oladigan bo'ldi hamda mustaqil nomzodlarning parlament saylovlrida ishtirok etishlarini cheklashlar hamda Ichki ishlar idoralari trafidan saylovlar o'tkazilishini nazorat qilinishi bekor qilindi. Shu tufayli H.Muborakning MDP 1990-yilgi saylovda 348 o'rinni, 1995-yili 417, 2000-yilda esa 388 nafar o'rinni egalladi. 2012 yilda esa o'zining birinchi prezidentini sayladi. Ammo u uzining boshqarish tajribasi yoqligi hamda odamlarning xohishlarini oqlamaganligi sabablarga qo'ra 2013-yili harbiy tontarishdan keyin iste'foga ketishga majbur bo'ldi.

Seminar savollari:

1. Demokratiya o'zi nima?
2. Arab musulmon olamida demokratiyaning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Qadimgi demokratiyalar haqida nimalarni bilasiz?

Mustaqil ish savollari:

- 1.Musulmon olami va demokratiya masaslarari
- 2.Arab bohori va AQSHning demokratlashtirish siyosati
- 3.Birodar- musulmonlar va demokratiya

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. Ланда Р.Г. Демократия и права человека в арабском мире. 2012. <http://www.iimes.ru/?p=14143>

2. Esposito J.L. Islam and Politics. – Fourth edition. – N.Y.: Syracuse University Press, 1996.
3. Shaukat Ali. Islam and Politics.– Southeastern Massachusetts University, USA.– Aziz Publishers, Urdu Bazaar, Lahore, 1990.
4. Mitchell R.P. The Society of Muslim Brothers. – London, 1969.
5. Маудуди, Абу ал-Аалй. Принципы Ислама. – М.: Захра. 1993.

3. HOZIRGI ZAMON OSIYO, YEVIROPA VA AMERIKADA ISLOMNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

3.1. MARKAZIY OSIYODA ISLOM OMILI

Dars o'quv maqsadi: Magistratura talabalariga Markaziy Osiyoda islom omilining asosiy mazmun mohiyati, islom omilining tarqalish sabablari, islom omilining siyosiy tizimlarga bo'lgan ta'siri to'g'risida ma'lumotlar berish va tushuntirish.

Tayanch iboralar: Markaziy Osiyoda islom omili, islom omili, siyosiy islom, islom fundamentalizmi, ekstremizm, islamizm.

Reja:

1. Islom omilining Markaziy Osiyo jamiyatiga bo'lgan ta'siri.
2. Markaziy Osiyodagi diniy harakatlar paydo bo'lishi va faoliyati.
3. Islom omilining siyosiy tizimlarga bo'lgan ta'siri.
4. Markaziy Osiyoda davlatlarining diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashi.

Markaziy Osiyo davlatlarida tarixan aholi hayotining katta qismi islom dini bilan mashg'ul bo'lgan. Islom dini Markaziy Osiyo davlatlarida inson hayotiy faoliyatining barcha sohalarida va ayniqsa, siyosatida mavjud bo'lgan omildir. MDHning Markaziy Osiyo davlatlarida islomning siyosiylashuvi haqida gapirishimiz mumkin. Bugungi kunda, islom omili jiddiy siyosiy kuchga aylangan. Islom tashkilotlari har xil yo'llar bilan hukumatga ta'ziq o'tkazish, tashviqot-targ'ibot (agitatsiya) qilish, shuningdek terror usulida kurash olib borishni boshlashgan.

Ko'p hollarda islom omili MDHning Markaziy Osiyo respublikalarida islom ekstremizmi ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Oxirgi vaqtlarda ommaviy axborot vositalari orqali "Yevropa" dunyosi "islom" dunyosi bilan to'qnashayotganligini ta'kidlayotgan nashrlarni uchratish mumkin. Bu zamonaviy inson ongida "islom" tushunchasi "oxirgi din" bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan "ekstremizm", "terrorizm" tushunchalari bilan sinonimlashtirilmoqda. Sodir bo'layotgan voqealarni tahlil qilish jarayonida, o'zing xohlamagan holda shunday fikrga kelish mumkinki, hayotning o'zi musulmonlarni fundamentalizmga to'qnashtirmoqda. Zamonaviy fanda mavjud bo'lgan "islom fundamentalizmi" va "islom ekstremizmi" kabi tushunchalar bir-biri bilan aralashtirilmoqda. Fundamentalizm – bu faqat islom dini bilan bog'liq emas, balki boshqa konfessiyalarga va shu bilan birgalikda o'zida konservativ xarakterdagi omma ongi o'rtasida qarama-qarshiliklarni va vaqe'likning juda tez sur'atlarda o'zgarishini o'zida namoyon qilmoqda. Islomdan ko'pchilik odamlar hozirgi hayotda muqobillikni topishni xohlamoqdalar.

Siyosatchilarning "adolatlilik g'oyasini" yaratish urinishlari ularning boshqa qonun qoidalarga ko'ra yashashi sababli zoyi ketdi. Sobiq Ittifoq davridan keyingi sovet o'tmishidan qochadigan, bozor va g'arb qadriyatlari yo'naltirilgan modernizatsiya to'lqini Markaziy Osiyoda rollarning an'anaviy taqsimlanishiga qiziqishlar bo'yicha yangi tuzilma va guruhlarini qo'shdi, siyosiy tizimning mutlaqo yangi subyektlarni paydo bo'lishiga, asosiysi esa turli xil diniy oqimlar, avvalambor islom ta'limotlari bilan to'ldirilgan g'oyaviy vakuumni yaratdi. Jadal sur'atlar bilan masjidlar qurildi, hozirgacha hech kimga ma'lum bo'lmagan partiya va oqimlar (Hizbut Tahrir, salafiylik va boshqalar) va diniy bayramlar ko'rina boshladi.

Markaziy Osiyodagi islom siyosiy lashuvining sabablaridan biri, bu respublikalarda aholi strukturasi ko'p millatliligiga qaramay sobiq SSSRdagi birgina millatning manfaatlarini himoya qilinishi va bu Kommunistik mafkuraning barbod bo'lishidan so'ng, bu muhim jamiyat boshqaruvida musulmonlarni qayta jonlanishiga olib keldi. Bunday holatda, insonlarni etnik kelib chiqishi bo'yicha bo'lmaydigan islom mafkurasi, Markaziy Osiyo respublikalaridagi musulmonlarda muvofiqlashtiruvchi kuchlarni birlashtirishga harakat qilishdi. Shu

jihatdan, islom millatlar o'rtasidagi munosabatlarini tartibga soluvchi vosita sifatida harakat qila boshladi. Islom mintaqada muvofiqlashtiruvchi vazifani hozircha bajarmayotgan va davlat qurilishida biror omil (o'rin) sifatida bo'lmasada, lekin uni siyosatda foydalanishga (misol uchun, O'zbekiston Islom Harakati tashkilotiga o'xshab) urunmoqda.

Mintaqaviy-urug' va aymoqchilik ko'rinishiga ko'proq Tojikistonda 1990-yillarda ro'y bergan voqe'lar misol bo'la oladi. Respublika o'z mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng, bir qancha aholining hududiy elitalari hukumatda yetarlicha bir-biri bilan yaqinlashmadi. Qiyin vaziyatlarda ular mamlakatdagi jiddiy siyosiy kuchga ega islom manaviyatidan madad qidira boshladi. Shuningdek, hududiy guruhlar o'z manfaatlari yo'lida islom targ'ibotidan foydalana boshladi. Islom harakatchilari islomning jiddiy siyosiy kuch sifatida yoyish uchun barcha vositalar bilan ta'minlashga qodir bo'lgan rahnamo-avtoritet liderlarni yetarlicha topishdi. Natijada, jamiyatda o'ta xavfli qaramaqarshilik vujudga keldi, ichki etnik mojarolar va fuqarolar urushiga olib keldi.

Islom omilining hukumatga qarshi ko'rinishi O'zbekiston Islom Harakati uchun harakterlidir. Bu ko'rinish tuzumga qarshi kayfiyatda bo'lib, ularning asosiy maqsadi-respublikada hukumatni qulatib, o'z hukumatini o'rnatishdan iboratdir. Bu uchun islom g'oyalarini siyosiy kurash sifatida ilgari surdi.

Islom siyosiylavushi uchun yetarlicha shart-sharoit bo'lmagan sobiq Sovet davlatlaridagi mavjud majarolar tashqaridan ekstremistlar uchun "jalb qilish" ko'rinishida edi. Lekin ekstremistik kuchlarning bevosita u yoki bu "qaynoq nuqtalarga" yaqinligi aniq xavf-xatarga olib kelardi. Bu "jalb etish" ko'rinishi Qirg'izistonda amalga oshirildi. 1999-2000 yillarda Botken va Jalolobod viloyatlarida sodir bo'lgan voqealar buni isbotladi. Unga ko'ra Markziy Osiyoning birgina beqaror hududidan, boshqa mintaqalarga tarqala boshladi.

Ekstremistlar diniy qadriyat va tartiblarga amal qilish talabi ostida niqoblangan siyosiy intilishlarini ko'rishimiz mumkin. Agar siyosiy ekstremistlar o'zlarining aniq maqsadlarini qo'llabquvvatlovchi kuch topmagan bo'lsa, diniy ekstremistlar esa keng qatlamli e'tiqod qiluvchilarning qo'llab-quvvatlashinishiga erishishi mumkin.

Shuningdek, MDHning Markaziy Osiyo Respublikalaridagi islom ekstremistlarining butunlay qonunga hilof ravishda faoliyat ko'rsatayotganini ko'rishimiz mumkin.

Hizbut Tahrir. “Hizbut Tahrir al-Islami” (“Islom ozodlik partiyasi”) sunniy mazhabiga mansub diniy-siyosiy tashkilot bo'lib, 1953 yil shariat apellyatsiya sudining sudyasi Taqiuddin anNabaxoniy boshchiligida Ierusalimda¹ tashkil topgan. Nabaxoniyning o'limidan so'ng (1977 yil dekabr), partiya amiri (lider) Abdul Qadim Zallum (1925-2003), keyinchalikda esa Ata Abu Rashta (1943 y.

Falastinda tug'ilgan) bo'ldi. Tashkilotning asosiy maqsadi g'ayridinlarga qarshi kurash va keyinchalik butun musulmon davlatlarini qamrab oladigan Xalifalikni tashkil qilishdan iborat.

Tashkilot ishi islom jamiyatiga yoyilish uchun jamiyatdagi buzuvchiliklarga qarshi chiqish va islomiy hayot shaklini ko'tarishga yo'naltirilgan. “Hizbut Tahrir” birinchidan, jamiyatdagi mavjud g'oyalarni o'zgartirish yo'li orqali, islom g'oyalariga, ya'ni odamlarning turmush-tarziga butunlay singadigan va islom g'oyalari asosida yashadigan tuzumni yaratishga yo'naltirilgan.

Partiya barcha Yaqin Sharq davlatlarida, shuningdek, Germaniya, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlarida rasmiy taqiqlangan. Hizbut Tahrir Shimoliy Afrika, Yaqin va O'rta Sharq, Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlarida faoliyatini yuritmoqda.

Hizbut Tahrir vakillari Markaziy Osiyo davlatlarining hokimiyatini qo'lga olishda va diniy davlat “Islom xalifaligi”ni tashkil qilishda zo'ravonlik yo'llarisiz amalga oshirmoqda. Ammo shuni ham bilish kerakki, 11-sentabr voqealaridan so'ng va terrorizmga qarshi kurashni boshlanishi bilan Hizbut Tahrir agressiv holatga o'tdi. Bu xolatni shunda ko'rish mumkinki, bu tashkilot Tojikiston hukumatini tanqid qilgan holda har xil varaqalar orqali Amerikaga qarshi kayfiyatdagi belgilar, so'zlar bilan g'arbga qarshi muqaddas urushga chaqirgan.

Oxirgi paytlarda bu ko'rinishdagi varaqalar Qozog'istonning janubiy shaharlariga va Qirg'izistonnig shimoliy o'lkalariga yoyilgan. “Interfaks-Qozog'iston” agentligining xabarlariga qaraganda 2003-yil

¹ Qarang: https://ru.wikipedia.org/wiki/Хизб_ут-Тахрир_аль-Ислами

15-oktabrda “Chimkent shaharida varaqa tarqatuvchilarni va “Hizbut Tahrir”ga a’zo uch kishini “din va millatlararo nifoq” soluvchi aybi bilan qo’lga olgan”.

“Vatan deyli” gazetasida jurnalist Rusen Jakir yozishicha, bu partiyaning yetarlicha kecha Turkiya, bugun esa O‘zbekiston ta’qiqlamoqda: bu partiyaning hamma harakatlari taqiqlangan va ularning liderlari qamalmoqda. Lekin, islom taradorlarining turk parlamentidagi g‘alabalarning asosiy sababi, ularning xoxishi bilan Yevropa Hamjamiyatiga kirishni rad etishini boshlanishi va “Hizbut Tahrir”ni qonuniylashtirganligi edi. Lekin, tashkilot oddiy islom tashkilotiga aylanganidan so‘ng, uning sirli harakatlari va intilishlari, obro‘yi tusha boshladi. Natijada, bu partiya nafaqat yangi a’zo jalb qilish balki, eskilarini ham ushlab qolish muammoga aylandi.

Boshqa kuzatuvchilar yoki ekspertlar “Hizbut Tahrir”ni qonuniylashtirish, uni mo‘tadil bo‘lishligiga ikkilanishmoqda. Ularning ta’kidlashicha, bu norasmiy partiya hech qachon hukumat bilan ochiq muloqat qilish istagini bildirmagan. Har qanday holatda ham, O‘zbekiston hukumati va boshqa mintaqa davlatlari “Hizbut Tahrir”ga bo‘lgan jiddiy munosabatlarini o‘zgartirmaydi.

Markaziy Osiyo davlatlarining har qaysi rasmiy ko‘rinishlarida bir xil fikrga: Hizbut Tahrir – bu mintaqa tinchligiga xavf soluvchi. Bu bir xil fikrlilikdan tashqari, bir qancha chiqish qilishlar ham bir biridan oz miqdorda farq qiladi.

O‘zbekiston Islom Harakati. O‘zbekiston mustaqillikka erishish jarayonida, boshqa markaziy Osiyo davlatlaridagidek oldingi tizimdan meros qolgan turli soqalardagi muammolarga duch kelmoqda. Xalqning bir asr davomida cheklanishlarga uchragan tarixini tiklashga bo‘lgan intilishlari, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va odamlarning o‘zligini anglashning tarkibiy qismi bo‘lgan dinga qiziqishni ham ortirdi. Bu davrda mafkuraviy bo‘shliq turli diniy qarashlar musulmon dindorlari tomonidan rasmiy va norasmiy jarajada to‘ldirib borildi. Dindorlarning bunday ta’limotlari ko‘p hollarda dinga qarshi yoki umuman dinning mohiyatini o‘zgartirgan. Hayotiy tarjibaga ega bo‘lmagan yoshlar, tabiiyki, turli g‘oyalarning ta’siri ostiga tushgan.

Buning oqibatida mamlakatda turli nomdagi ammo bir xil mazmundagi siyosiylashgan diniy tashkilotlar vujudga keldi –

“Adolat”, “Tovba”, “Islom lashkarlari” va boshqalar. Ularning asosiy maqsadlari teokratik davlat qurish hisoblangan. Mazkur jaryonlar har qanday hokimiyat va huquq-tartibot organlari yuqoridagi guruhlarining faoliyatiga qiziqishlari ayrim huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar tomonidan vijdon erkinligi huquqining buzilishi sifatida ta’riflangan. Turli “yaxshi niyatliklar”ning e’tibori bilan taqdirlangan jinoiy guruhlarining liderlari o‘zlarining jinoiy harakatlariga “O‘zbekiston tiklanish Islom partiyasi” “O‘zbekistonlik qochoqlar Islom harakati” va boshqa “jarangdor” nomlarni o‘ylab topishgan. 1996-yilda Toxir Yo‘ldosh o‘z tashkilotini “O‘zbekiston Islom harakati” deb nomlab o‘zini xudosisizlarga qarshi kurashuvchi “O‘IH”ning “Amiri” deb e’lon qilgan. “O‘zbekiston Islom harakati” kimlarning manfaatini namoyish etadi? Uning tarixi qanaqa, uning ildizi qaerda va yagona xalifat davlat qurish tarafdorlari paydo bo‘lishiga nima sabab bo‘lgan?

O‘zbekistonda “islom oppozitsiyasi” roliga nomzodlik qilayotgan islomchilar o‘zlarining tarixini 1991-yildan hisoblashadi.

1991-1992-yillarda Farg‘ona vodiysi xususan Namanganda bir qator musulmon davlatlari diniy tashkilotlarining moliyaviy yordami ortida “Tovba”, “Adolat”, “Islom lashkarlari” kabi norasmiy islomchilar uyushmalari tashkil etilgan.

Maqsadlari hokimiyatga kelish, mavjud tuzumni to‘ntarish va islom davlati qurish bo‘lgan “Adolat” guruhi 1991-yilda yanvarda Namanganda vujudga kelgan. A’zolari 500ga yetgan tashkilotni Sotimov Hakimjon boshqargan. Jamoat tartibotini qo‘riqlash va ko‘chadagi jinoyatlarga qarshi kurashuvchi niqobi ostida guruh turli reydlar, tekshiruvlar o‘tkazishgan va odamlarni tutib turishgan. “Tartibotchilar” nuqtai nazaridan aybdor deb topilganlar shariat qonunlari asosida xalq oldida turli usullarda jazolanganlar. Buning orqasida mahalliy hokimiyat va huquq-tartibot organlarining zaruriy xavfsizlik va tartibni ta’minlay olmayotganliklarida aylab obro‘sizlantirish maqsadi yotgan.

“Adolatchilar”ning ruhiyati va dasturlari o‘sha paytda Namanganda tashkil etilgan “Islom lashkarlari”ning g‘oyaviy qarashlariga yaqin bo‘lgan. Uning rahnamosi T.Yo‘ldosh bo‘lgan. Mazkur guruhning asosiy faoliyati ko‘rinishi ommaviy mitinglar,

namoyishlar va tartibsizliklar uyutirish va boshqaruv binolarini qo‘lga kiritish bo‘lgan.

Ammo bularning barchasi ancha avval boshlangan. Farg‘ona vodiysi hamma vaqt o‘zining diniy sohada rivojlanishi bilan ajralib turgan: respublikaning boshqa hududlaridan ko‘ra ko‘proq shariat normalariga qat’iy amal qilinib kelingan. Aynan shu yerda hali sovet davlaridayoq yarimyashirin “norasmiy” yoki “parallel” islom tuzilmalari paydo bo‘lgan. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida aynan shu yerda islomiy g‘oyalar va ritorikaga tayangan siyosiy tashkilotlar paydo bo‘lgan va faollashgan. Ularning paydo bo‘lishi va tiklanishiga tashqi omillar katta rol o‘ynagan: tashqi g‘oyalarning kirib kelishi va ularni amalga oshirish vositalari.

Masalan, 1987-yilda Namanganga noqonuniy tarzda Saudiya Arabistoni, Afg‘oniston va Pokistonlik emissarlar kelib ketishgan. Namangan mahalliy dindorlari bilan shaharning “Gumbaz” masjidida bo‘lgan yashirin uchrashuvda “Islomning tiklanishi” partiyasini tuzish masalalari muhokama qilingan. Partiyaning maqsadi butun Farg‘ona vodiysida islom respublikasini qurish bo‘lgan bo‘lar edi. Bu voqeadan biroz keyinroq bo‘lajak davlatning abbreviaturasi FANO‘ (mintaqadagi asosiy shaharlarning bosh harflari: Farg‘ona – Andijon – Namangan – O‘sh) o‘rnatildi.

90-yillarning boshlarida, hali SSSR da “qayta qurish” doirasida bu yerda 1990-yilda Astraxanda (Rossiya) tuzilgan islom tiklanishi partiyasining (ITP) bo‘linmalari paydo bo‘ldi. Partiya o‘zining eng asosiy vazifalaridan biri sifatida butun Sovet Ittifoqi bo‘ylab birlashgan islom oppozitsiyasini tuzishni hisoblagan. Mazkur bo‘linmalardan ayrimlari keyinchalik amalda tuzilmagan ammo ITPni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkaza olgan umumittifoq mintaqaviy guruhlar markazidan mustaqil ajralib chiqqan.

Taxminan shu davrlarda yuqorida aytilgan “Gumbaz” masjidida, bu safar Azerbayjondan kelgan yangi emissarlar bilan uchrashuv bo‘lib o‘tgan. Mazkur guruhning tarkibida Qirg‘izistonning Jalolobod viloyati Bozor-Qo‘rg‘on tumani imomi Tursunboyev ham bo‘lgan. Tursunboyev o‘zi bilan keyinchalik “Tovba” nomini olgan harbiy guruhni tuzish uchun tayyor dasturni ham olib kelgan. Mazkur guruhning tuzilgan vaqtdan boshlab uning maqsadi vodiya shariat

qonunlari asosida yashovchi islom davlatini qurish bo'lgan: Tursunboyev tuzilgan tashkilot a'zolarini jihod nazariyalariga tor ma'noda faqatgina "adashganlar" bilan harbiy kurash tushunchasi sifatida o'qitgan. 95 kishilik "Tovba" guruhining rahbarlaridan biri Abduvali Yo'ldoshev bo'lgan.

U hokimiyatning qonuniy organlarini almashtirish, ularga parallel sifatida o'z tomonidan boshqariladigan strukturalarni yaratishga uringan.

Tez orada "Tovba"ning asl maqsadlari namoyon bo'ldi, uning a'zolari tomonidan bir qator jinoyatlar sodir etildi. Xususan, tashkilotni moliyalashtirish, uni qurollantirish o'g'irlangan vositlar hisobiga ta'minlangan.

1992-yildayoq guruh yashirin faoliyatga o'tdi, uning faollari davlatni tark etib ma'lum hududlardan turib O'zbekistonga qarshi ishlarni olib borishni ma'qul ko'rishdi.

Avval Tojikistonga, keyinchalik 1993-yilda Afg'onistonga qochgan islomchilar guruhlari aktivistlar (tojik oppozitsiyasi tomonidan tuzilgan "quvg'indagi hukumat" bilan birga) o'zlari uchun qulay sharoitga tushgandan so'ng aktiv faoliyatni yo'lga qo'yganlar. Xususan, bir qator xorijiy mamlakatlar maxsus xizmatlari va g'oyaviy markazlari yordamida ular "Namangan sho'basini" tashkil etishgan. Shu davrda ular tomonidan markaziy osiyo respublikalari, birinchi o'rinda Farg'ona vodiysida yoshlarni jalb qilish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Jalb etilganlarning ko'plari o'sha paytga qadar jinoiy ish sodir etganliklari tufayli o'z yerlarini tark etishgan. Ular Afg'oniston va Pokistonda joylashgan o'quv harbiy lagerlariga jo'natilgan (keyinchalik ularga J.Namangoniyning Tojikistondagi, sharqiy Garmdagi lagerlar qo'shilgan).

Maxsus diversion tayyorgarlikdan o'tgan jangarilar O'zbekistonga u yerdagi vaziyatni beqarorlashtirish, aholi o'rtasida vahima uyg'otish va hukumatga ishonchsizlik uyg'otishga qaratilgan hujumlar va qotilliklarni amalga oshirish maqsadida jo'natilgan. Bunday jinoyatlarning cho'qqisi 1996-1998-yillarga to'g'ri keladi. Qotillik qurbonlari ichida nafaqat kattalar balki yosh bolalar ham bo'lgan. Masalan, 1996 yil dekabr oyida Bog'ishamol dahasida istiqomat qiluvchi viloyat DAN xodimi Mirzaevning uyiga o'g'irlikka

tushilganda oila a'zolarining hammasi – onasi, xotini, ikki farzandi oldin qattiq jarohatlar berib keyin otib tashlangan.

O'IH 1999-yilda yirik terroristik aktlarini amalga oshirgan: Toshkentdagi portlashlar, Batkentdagi voqealar, Yangioboddagi hujum.

1996-1999-yillarda "O'IH" rahbarlari Afg'oniston va Pokistonda o'tgan uchrashuvlarda faol qatnashganlar. Bu uchrashuvlarda boshqa muammolar bilan bir qatorda tashkilotning rejalari va O'zbekistonda yashirin faoliyat yuritish masalalari ham muhokama qilingan.

Berilgan rejalarni davlatning siyosiy hokimiyatini jismonan yo'q qilish hamda vaziyatni beqarorlashtirish maqsadida Qirg'izistonning janubiy viloyatlari va Yangiobod tumaniga qurolli ekstremistlarning kiritilishi orqali amalga oshirishga urinishlar bo'lgan.

Islomiyarga qarshi kurash. Kollektiv xavfsizlik haqidagi shartnoma Tashkiloti doirasidagi o'zaro munosabatlar mintaqadagi va dunyodagi geosiyosiy vaziyat o'ziga xos jihatlarini hisobga oladi. Bu vaziyat to'g'ridan to'g'ri harbiy agressiya o'rniga ochiq agressiya kelishi, xalqaro terrorizm tahdidi, narkobiznes, transhududiy uyushgan jinoyatchilik, siyosiy va diniy ekstremizm, separatizm bilan xarakterlanadi. Bu borada 2003-yil ODKB Kotibligi tuzumida terrorizm bilan kurashuvchi maxsus bo'lim tashkillashtirilgan – Tahdidlar va xavflarga qarshilik ko'rsatish boshqarmasi.

ODKB doirasida bu tashkilot kontrterroristik salohiyatini mustaxkamlash bo'yicha milliy umumlashgan va kollektiv choralar tashkillashtirilmoqda. Bu maqsadlarda Tashkilot a'zo davlatlarida terrorizm bilan kurashish uchun normativ-huquqiy baza yaratildi, qonunni himoya qiluvchi orgnalar faoliyati muvofiqlashtirildi, shuningdek moddiy-texnik va moliyaviy ta'minot kadrlari tayyorlash sohasida ham choralar amalga oshirildi. ODKB doirasida muvofiq infrastrukturallarni antiterroristik operatsiyalar o'tkazishda ham qo'llash haqidagi muzokaralar shu yo'nalishda ketmoqda.

Zamon kontrterroristik faoliyat samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. Va ODKBda a'zo-davlatlar hududidagi siyosiy va diniy ekstremistik tashkilotlar, hamda ular bilan aloqa extimoli mavjud bo'lgan xorijiy terroristik tashkilotlar, turli fondlar va moliyaviy tuzilmalar faolityati haqida ma'lumotlar almashinish mexanizmi ishlab

chiqilmoqda. Bu ODKB a'zo-davlatlari antiterroristik bo'limlari axborot almashunuv bankini tashkil etish va bunday axborotlarni almashinishni nazarda tutadi.

Shuningdek, ekstremistlar bilan kurash Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida ham olib borilmoqda. Bu tashkilot a'zo-davlatlari tomonidan imzolangan muhim hujjat – terrorizm, separatizm va ekstremizm qarshi kurash haqidagi Konvensiya. Bu Konvensiya asosida terrorizm, separatizm, ekstremizm, narkotik va qurol noqonuniy ayirboshlash, hamda noqonuniy migratsiya bilan kurashda o'zaro aloqalarni yaxshilash maqsadida Mintaqaviy antiterroristik tuzulma (RATS) tashkil etildi va bu tuzulma 2002-yil SHHTning doimiy organi maqomini oldi. Uning vazifalariga SHHT davlatlari maxsus xizmatlari va qonunni himoya qiluvchi organlari harakatlarini muvofiqlashtirish kiradi.

SHHT mintaqaviy antiterroristik tuzulmasini tashkil etish haqidagi qaror 2001-yil iyunda Shanxayda bo'lib o'tgan birinchi sammitda qabul qilingan. 2003-yil mayda Moskvada bo'lib o'tgan sammitda esa bu tuzulma shtab-kvartirasini Toshkentga joylashtirish haqida kelishuvga erishildi.

Shunisi e'tiborga molikki, mintaqaviy antiterroristik tuzulma ijroiya komitetini tashkil etish terrorizmga qarshi kurashda SHHT a'zo-davlatlari kuch va imkoniyatlarini, malaka va uslublarini birlashtirishga imkon beradi.

RATS axborot yig'ish, hamda SHHT a'zo-davlatlari vakillarining bir yerda ishlashiga sharoit yaratadi. Aynan shu maqsadlarda tuzulma tarkibida Kengash va ijroiya komiteti faoliyati yo'lga qo'yilgan. Kengash tarkibiga olti davlat maxsus xizmatlari boshliqlari vakillari kirgan. Ijroiya komitetida esa SHHT a'zo-davlatlari vakillari faoliyat ko'rsatadi. Bu tuzulmalarni a'zo-davlatlar ketma-ketlik bilan boshqaradi. Hozirda Kengashni Qirg'iziston, ijroiya komitetini esa O'zbekiston boshqaradi.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo davlatlarida turli islomiy tashkilotlar mavjud bo'lib, o'zining nolegalligiga qaramay ular siyosiy kuchga ega. Ularning barchasi bir omil – islom omili bilan birlashgan. Shuni ta'kidlash mumkinki, islom ularga asos yaratdi. Bu tashkilotlar liderlari va a'zolari ilk qarashda asl musulmon bo'lib ko'rinishi

mumkin, biroq e'tibor bilan qaraganda kim o'zidan kimni namoyon etishi yaqqol ayon bo'ladi. Ko'pgina islomiy tashkilotlarning asosiy maqsadi Xalifalik o'rnatish, nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoda. Aynan shuning uchun hukumatlar diniy ekstremizm noqonuniy faolityati bilan kurashmoqda.

Avval bunday islomiy tashkilotlar doirasida ham islom konsolidatsiya quroli sifatida qo'llangan. Islom odamlarni millatiga qarab ajratmaydi, islom jamiyatini adolat namunasi sifatida olish mumkin va islomning boshqa xususiyatlari ko'rsatilgan mintaqada muhim argumentlarga ega (kambag'allik, o'quvsizlik va maxalliy aholining boshqa kamchiliklari xisobiga). Islomiylarning intilishlari olijanob ko'rinishi mumkin, lekin ularning hukumatga intilishi, noinsoniy uslublarni qo'llashi ularning aslida siyosiy ekstremist ekanligidan dalolat beradi.

Hech bir davlat yakka xolda diniy ekstremizm kabi bunday uyushgan tahdidga qarshi tura olmaydi va Markaziy Osiyo davlatlari bundan mustasno emas. ushbu tahdid bilan samarali kurash uchun bu kurash barcha a'zolari kuchlarini jamlash lozim. Shuning uchun yangi davlatlararo tashkilotlar va mavjud tashkilotlar doirasida maxsuslashtirilgan tuzulmalar paydo bo'lmoqda va ularning asosiy maqsadi terrorizm, separatizm va ekstremizm bilan kurash. Bu asnoda hamkorlik bevosita boshqa sohalarda ham hamkorlikni keltirib chiqaradi, sababi odamlarni hech narsa umumiy tahdidga qarshi kurashdan yaxshiroq birlashtirmaydi.

Shu asnoda ta'kidlash mumkinki, islom omili, ya'ni aynan u bilan kurash MDH markaziy osiyo davlatlarini birlashtiruvchi asosiy kuch bo'lib kelmoqda va avtorga ko'ra, bugungi kunda postsovet hududi siyosiy maydonida uning o'rne muhim hisoblanadi.

Seminar savollari:

- 1.Markaziy Osiyoda islom tarqalishi
- 2.Turkiston o'lkasida diyniy mazgablarning orni
- 3.Markaziy Osiyoda islom omili
- 4.Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurash

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Mavorounnahr va islom ulamolari
- 2.Turkistonda so‘fiy tariqatlar
- 3.Turkiston o‘lkasida islomning orni
- 4.Markaziy Osiyo va Rossiya imperiyasi siyosatida islom omili.

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. Ёвқочев Ш.А. Жаҳон сиёсатида ислом омили. Маъруза матни.Т., ТДШИ, 2013.
2. Ёвқочев Ш.А. Марказий Осиё динлари тарихи. –Т.:ТошДШИ, 2006.
3. Ёвқочев Ш.А. Политизация ислама и проблема религиозного экстремизма в современном мире. –Т.:ТашГИВ, 2003.
4. Ислам на постсоветском пространстве: взгляд изнутри. Под ред. Малашенко А.В. и Олкотт Марты Брилл. – М., 2001.
5. Исламский фактор в международных отношениях в Азии. (70 – первая половина 80 –х годов). Сборник статей. – М., 1987.
6. Малашенко Л.М. Мусульманский мир СНГ. – М., 1996.
7. Малашенко А.В. Об исламе в Средней Азии, или Заметки на полях одной книги // Восток. 1991. № 2.
8. Esposito J.L. Islam and politics. – N.Y.: Syracuse University Press, 1987.
9. Esposito J.L. The Islamic threat: Myth or reality? – N.Y.: Oxford University Press, 1992.

3.2. ZAMONAVIY ERON IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTIDA ISLOMNING O‘RNI

Dars oq‘uv maqsadi: talabalariga Eron Islom Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotda islom roli, Eron siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy tendensiyalari, mamlakatdagi islomning g‘oyaviy-siyosiy tadrijiy rivojining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida kerakli ma’lumotlarni berish.

Tayanch iboralar: Eron Islom Respublikasi, 1978-1979 yildagi islom inqilobi, islomning g‘oyaviy-siyosiy tadrijiy rivoji, islom uyg‘onishi.

Reja:

1. Eron – islom davlati.
2. Islom diniga bo‘lgan ahamiyat.
3. Eronning diniy rahbari va ularning vakolatlari.
4. Islom Inqilobi Qo‘riqchilari Korpusi.

Eron – islomni davlat dini deb e‘lon qilgan o‘ziga xos mamlakat. 12 nafar imomni tan oluvchi islomning jafariya mazhabi, oqimi (shiayo‘nalishi) Eronning rasmiy dini hisoblanadi. Mazkur maqom Eron konstitutsiyasining 12-moddasida mustahkamlanib qo‘yilgan. Jamoat va iqtisodiyot tashkilotlarida islomiy me‘yorlar rasmiy jihatdan qabul qilingan hamda davlat huquqiy me‘yorlari sifatida amalga tatbiq etilmoqda.

Hukmron guruh tarafdorlari tomonidan Ali va uning o‘g‘illari Xasan va Husayn o‘ldirilganidan boshlab bir qator shia imomlarining taqdiri fojeali bo‘lganligi sababli shialikda azob-uqubatlarga duchor bo‘lganligi kulti keng tarqalgan. Shialik amaliyotida taqiya (arabchadan extiyotkorlik) tamoyili, ya‘ni e‘tiqodini yashirish, e‘tiqodga zid keladigan ishlarni qilmaslik hamda so‘zlarni so‘zlamaslik keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Bularning barchasini u shaxsiy xavfsizligi yokida e‘tiqoddoshlari jamoasining manfaatlari yo‘lida amalga oshiradi, lekin shu bilan birga qalbida, yuragida e‘tiqodiga sodiq qoladi.

Ashura. Ummaviylarning qo‘shinlari bilan 680-yilda yuz bergan Karbalo jangida Muhammad payg‘ambarning nabirasi shialarning uchinchi imomi hisoblangan Husaynning azob-uqubatda o‘ldirilganligini eslab shialar ashura paytida maxsus qamchi bilan badanlari qonab ketgunicha o‘zlarini uradilar.

Biroq so‘nggi yillarda o‘zini savalash vaqtida Iroq, Afg‘oniston, Pokiston va Hindistonda bo‘lganidek Eronda erkaklar bellarigacha yechinishmayapti. Erondagi tuzum har qanday yechinishni man etadi, ammo shu bilan birga diniy ekstazni kengaytirmoqda.

Shuningdek ashura vaqtida Imom Husayn hayoti bilan bog‘liq hodisalar teatrlashtirilgan holda namoyish etilmoqda. Shu tarzda, Eron Islom Respublikasi islom davlati sanaladi.

1978-1979-yillardagi Eron islom inqilobi chog‘ida Imom Homayniy Eron boshqaruvi amaliyotida viloyat-i faqih ta‘limotining asosiy tamoyilini joriy etishga erishdi.

Viloyat al-faqih (arabchadan soʻzma-soʻz tarjima qilsa - „maʼrifatlilar davlati“) – shialarning siyosiy-huquqiy taʼlimot hisoblanadi. Shialarga rahbarlik qiladigan oʻn ikkinchi imomi Muhammad al-Mahdiyning Katta yashirish davri bilimdon shia fakihlari va mujtahidlari bilan oʻtadi, Muhammad paygʻambar va ularning imomlariga Ahl al-Bayt hadislarini beriladi.

Imom Homayniy nazariyasi EIR konstitutsiyasida oʻz ifodasini topgan boʻlib, „islom boshqaruvi“ respublika sifatida amalga oshirilmoqda, „islom boshqaruvi“ islom qoidalari va viloyat-I faqihlar tamoyili koʻrinishida konstitutsiyada mustahkamlab qoʻyilgan faqihlar hokimiyatiga asoslanadi. Homaynining tasavvuriga koʻra, „valiy-i faqih“ – ilohiy qonunlarni oliy darajadagi izohlab beruvchisi, sharhlab beruvchisi dunyoviy davlat hokimiyati, armiya va xavfsizlik kuchlari ustidan nazoratni amalga oshiradi. U faqat Ollohgagina va Imom Mahdiyagagina boʻysunadi.

Mazkur taʼlimot oltinchi Imom Jafar as-Sodiq va oʻn ikkinchi Imom Muhammad al-Mahdiydan aytiluvchi ishonchli, yaʼni sahih hadislariga asoslanadi.

Mutlaq viloyati faqih konsepsiyasining oʻzi birinchi navbatda Islom inqilobi yetakchisi hamda Eron Islom Respublikasining asoschisi Ruhulloh Musavi Homayniy nomi bilan bogʻliqdir. U islom aqidalari asosida davlat boshqaruvi dasturini ishlab chiqqan. Uning taʼlimoti quyidagi bir qancha tezislarga asoslangan:

- Islomda siyosat va dinning boshlanishi bir-biri bilan uzviy bogʻliqlikni namoyon etadi. Islomda davlat boshqaruvi, iqtisod, urush va tinchlik, xalqaro munosabatlar masalalariga toʻgʻridan-toʻgʻri tegishli boʻlgan koʻplab siyosiy koʻrsatmalar bor.

- Ushbu koʻrsatmalarni hayotga tatbiq etish uchun islom boshqaruvi va hokimiyat tuzilmalari adolatli boʻlishi va shariat ilmi fiqh sohasidagi bilimlarga asoslanishi lozim.

- Imom al-Mahdiy davrida faqih mutlaq hokimiyatini taʼsis etish qonuniy sanaladi. Shunga muvofiq holda, faqihning davlat hokimiyati yashirin holdagi Imom Mahdiy hokimiyatining zoʻravonligini oʻzida namoyon etmasligi kerak, balki uning amalga oshirilish shakli – fiqh va oʻn toʻqqizta imomning yoʻl-yoʻriqlariga ogʻishmay amal qilish vaziyatida boʻlishi kerak.

Faqih viloyatining mutlaqligining boshqa maqsadi qo'llabquvvatlangan farmoyishlar hamda yovuzlikning ta'qiqlanishi (amr bil-maaruf va-n-naxi an-al-munkar) hisoblanadi. Uning tarkibiga islomning shia e'tiqodining 10 ta ustuni kiradi (sunnilikda e'tiqodning ustunlari 5 tani tashkil etadi). Zulmga qarshi kuchlarni rag'batlantirish maqsadida – „katta iblis” – deb Oyotullo Homayniy tomonidan AQSH va Isroil hisoblangan.

Imomdan farqli o'laroq, Qur'on oyatlarini (misol „Al-Ahzab” surasining 33-oyati) talqin qilinishiga asoslangan holda shialikda gunohsiz sanalgan faqih imomlikda mustahkamlikka ega bo'lmaydi. Lekin boshqarayotgan faqih adolatparvarlik, shariat intizomi sohasida bilimdonlik va e'tiqodda sodiqlik kabi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Aks holda, agar faqih o'zining boshqaruvida ishonchni yo'qotsa, nohaqlikka yo'l qo'ysa va shariatdan chekinsa, xalq va boshqa ruhoniylar uni vazifasidan tushirish huquqiga ega bo'lishadi.

Shialar ko'pchilikni tashkil etuvchi mamlakatda hokimiyatga faqihning kelishi usuli islom inqilobi hisoblanadi. Bu hujum qiluvchi jihod turiga kirmaydi, balki difa – mudofaa, himoya jihod bo'lib, poraxorlikka berilib ketgan hukumatning xatti-harakatlaridan xalqni o'z-o'zini himoya qilishiga qaratilgan.

Ko'pchilik ekspertlar EIR dagi davlat boshqaruvi haqidagi tasavvurlarini gapirar ekanlar, u „imomlik bo'yicha islom shialik konseptual tamoyilining“ amalda joriy etish sanalib, u diniy mazmunmohiyatda hokimiyatni talqin etish chog'idagina tushunarli bo'ladi.

Homayni „rahbare enqelobe eslome“ – „islom inqilobi yo'l boshchisi” tushunchasini amalga kiritdi. Faqih Vali-i sifatida faqatgina Homaynining huquqlari mamlakat konstitutsiyasining 5, 107, 112 va 110-moddalarida o'z aksini topgan hamda diniy va ijtimoiysiyosiy hayotning barcha sohalarida uning vakolatlari tasdiqlangan. Davlat oliy mansabdorlarini lavozimlarga tayinlash va ularni ishdan olish bo'yicha uning vakolatlari: prezidentni, majlis raisini, bosh vazirni, bosh prokurorni, qurolli kuchlarning bosh qo'mondonini.

1989-yilning 3-iyunida Oyotullo Homayniy vafotidan so'ng rahbarning vorisi ali Hameyining o'zi rahbarga aylandi.

Yetakchiga (rahbarga) qo'yilgan talablar:

8-bobning 109-moddasida fiqh sohasidagi bilimdonlik, fatvo chiqarishning zarurligi; adolatparvarlik va halollik; to'g'ri, sog'lom dunyoqarash; tartiblilik, boshqaraolish, jasurlik, tashkilotchilik qobiliyatlari singari qobiliyatlari ta'kidlab o'tiladi.

Yetakchining vakolatlari (rahbar, yo'lboshchisi)

8-bobning 110-moddasida boshqarayotgan faqihning quyidagi huquqlari va majburiyatlari yozib, belgilab qo'yilgan:

- Davlat maqsadlari bo'yicha Assambleya –yuqori malakali shia faqihlari va mujtahidlarida tashkil topgan organ bilan maslahatlashganidan keyin mamlakat siyosatini belgilaydi;

- Islom davlatining umumiy siyosiy yo'nalishlarining bajarilishi ustidan nazorat olib borish;

- Umumxalq so'rovi o'tkazilishi bo'yicha qaror qabul qilish;

- Urush e'lon qilish va sulh tuzish;

- Oliy bosh qo'mondonlik vazifalarini bajarish;

- Konstitutsiyani saqlash bo'yicha faqihlar Kengashini, sud hokimiyati raisini, „Eron Islom Respublikasining ovozi va timsoli“ teleradiouzatish kompaniyasining raisini, birlashgan shtab boshlig'ini, Islom inqilobi qo'riqchilari, himoyachilari Korpusining bosh qo'mondonini, qurolli kuchlar va ichki qo'shinlar bosh qo'mondonini tayinlash, o'zgartirish va olib tashlash;

- Hokimiyatning 3 ta tarmog'i (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;

- Faqatgina oliy darajadagina izga solish mumkin bo'lgan davlat muammolarini hal etish;

- Xalq tomonidan saylangan prezidentni tayinlash bo'yicha farmoyishga imzo chekish;

- Islom Kengashi Majlisi yoki Oliy sud qarori bo'yicha mamlakat manfaatlarini hisobga olgan holda uning egallab turgan lavozimiga mos emasligi haqida qaror chiqarish yo'li bilan Prezidentni hokimiyatdan chetlashtirish;

- Sud hokimiyati raisi taklifiga ko'ra, hukm chiqarilganlarga nisbatan jazoni yengillashtirish yokida amnistiya qilish, ya'ni jazodan butunlay ozod qilish;

Hokimiyatning mazkur boshqaruv tizimi va unda davlat tuzilmalarining oʻrnatilganligi xalqning oʻzi tarafidan amalga oshiriladi hamda shu bilan birga xalqning oʻzi uchun ham hokimiyat vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, diktatura va totalitar boshqaruv tartiblaridan qochish maqsadida EIR konstitutsiyasining 107 va 111-moddalarida mamlakat yetakchisini saylashda zarur darajada ehtiyotkorliklar mavjud. «...Mamlakat yetakchisi umumxalq tomonidan saylangan ekspertlar tarafidan tayinlanadi. Koʻrsatilgan ekspertlar 5 va 109-moddalarda keltirilgan talablarga javob berishlari yuzasidan barcha faqihlarning nomzodlari bilan maslahatlashishlar olib borishadi, suhbatlar oʻtkazishadi. Koʻrsatmalar hamda musulmon huquqi masalalarida yokida ijtimoiy va siyosiy muammolar boʻyicha ular faqihlar orasidan birortasini eng mukammali deb topishsa, shuningdek, u barcha xalq tarafidan tan olinsa yokida koʻzga koʻringan fazilatlarga ega boʻlsa uni mamlakat yetakchisi sifatida saylashadi.

Eron siyosiy tuzilmalarida ikki xillik kelib chiqayotganligini kuzatish mumkin: respublika hokimiyat organlari bilan bir paytda saylangan yuqori darajadagi ruhoniyyat vakillaridan iborat islomiy organlar ham mavjud, ular koʻproq vakolatlarga ega sanalaishadi.

Respublika hokimiyati organlari qarorlari diniy tuzilmalar tomonidan qoʻllab-quvvatlanmagunicha ular qonuniy kuchga ega boʻlmaydi. Misol uchun umumxalq tomonidan saylangan majlisni tarkibi ruhoniyyat vakillaridan iborat boʻlgan Kuzatuv Kengashi tasdiqlasagina u faoliyat yuritishni boshlaydi. Kuzatuv Kengashi islom meʼyorlariga zid deb topsa majlisning har qanday qaroriga veto qoʻyishi mumkin.

Ruhoniyyat vakolatlarini respublika hokimiyat organlari bilan solishtiradiga boʻlsak, ruhoniyyat vakolatlarining ustunligi yaqqol namoyon boʻladi, bu esa butun tizimning demokratik ekanligini shubha ostida qoldiradi hamda qisman Eron jamiyatida jiddiy ichki qarama-qarshiliklarni vujudga keltiradi.

Shunday qilib, Eronning diniy rahbari (hozirda Oyatullo Ali Hameni) mamlakatda mutlaq, oliy hokimiyat yetakchisi hisoblanadi. Keng doiradagi masalalar uning vakolatlari doirasiga kiradi. Ular davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi: EIR siyosatining asosiy yoʻnalishlarini belgilashda va uni amalga oshirishni nazorat

qilish, referendumlar o'tkazilishini belgilash, qurolli kuchlarning oliy bosh qo'mondoni, urush va tinchlik, shuningdek safarbarlik e'lon qiladi, oliy mansabdor shaxslarni lavozimlariga tayinlash va ularning iste'fosini qabul qilish, saylanganidan so'ng prezidentni lavozimiga tayinlanganligi to'g'risidagi farmonni imzolaydi, o'z vazifalarini uddalay olmasa hokimiyatdan mahrum etadi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari o'rtasida bahsli masalalarni hal qilish (hatto tarqatib yuborishgacha) va boshqa ko'plab masalalar.

Prezident o'z navbatida mamlakatdagi rasmiy jihatdan ikkinchi shaxs sanaladi. Uning qo'llarida butun hokimiyat mujassamlashadi, ammo u ijro etishni amalga oshiradi. Chunki islomiy hokimiyat tuzilmalari dunyoviyarlari ustidan hukmronlik qiladi, har qanday ijro etuvchi hokimiyat har qanday jiddiy qarorlari hokimiyatning diniy tuzilmalarining nazoratlari ostidan o'tishadi.

Erondagi qonun chiqaruvchi hokimiyat bir mandatli Milliy Maslahat Majlisiga tegishli. Unga 290 nafar deputat 4 yil muddatga saylanadi. Hukumat tomonidan taklif etilgan qonunchilik aktlarini ishlab chiqish, muhokama qilish hamda qabul qilish uning funksiyalari tarkibiga kiradi.

Majlis prezident taqdimiga ko'ra, vazirlar Kengashini tasdiqlaydi hamda kengash a'zolarini so'roq qilish huquqiga ega sanaladi. Ishonchsizlik bildirilgan taqdirda hukumat yoki alohida vazirlar iste'foga chiqishga majburdirlar.

Eronda shuningdek, Milliy Xavfsizlik Oliy Kengashi ham faoliyat yuritadi. Rahbar nazorati ostida davlat siyosatini belgilash ushbu Kengashga yuklatiladi. Prezident MXOK raisi hisoblanadi. Kengash majlislarida hokimiyatning 3 ta tarmog'ining rahbarlari, qurolli kuchlar bosh qo'mondonligi Kengashi rahbari, davlat budjeti va rejalashtirish uchun mas'ul bo'lgan rahbarning 2 nafar vakili, ichki ishlar vaziri, axborotlar vaziri, kun tartibiga ko'ra hukumat vaziri, hamda islom inqilobi qo'riqchilari, himoyachilari Korpusining qo'mondoni kabi mansabdor shaxslar uning majlisida a'zolar sifatida qatnashishadi.

Hududiy va mahalliy hokimiyat organlari. Mamlakat 28 ta ostonalarga (viloyatlar) bo'lingan. Ularni ichki ishlar vaziri tarafidan tayinlanadigan general-gubernatorlar idora qiladilar. Ostonalar

shahristonlarga – ma'muriy birliklarga bo'linadi, ular qishloq joylari bilan shaharlarni o'z ichiga qamrab olishadi. Shahristonlarni qisman tayinlanadigan va qisman saylanadigan amaldorlar boshqarishadi. Imom-jome' yoki besh mahal namozdagi bosh dindor shahristondagi eng ta'sirdor shaxs hisoblanadi. U rahbariyatning joydagi vakilirolini bajaradi.

Islom inqilobi Qo'riqchilari Korpusi (forschadan Sepaxe nasdarane engelabe eslami, qisqartirilgan shakli IIQK – eronlik shialarning buyuk yo'l boshchisi Oyatullo Homaynining tarafdorlari sanalishib, ular islom inqilobi qo'mitalarining harbiylashtirilgan otryadlaridan shakllantiriladigan Eronning sara harbiy-siyosiy tuzilmasi. Eron-Iroq urushida, shuningdek, "Hizbulloh" tashkilotining tuzilishida faol qatnashgan. Rasmiy jihatdan Eron harbiy kuchlari qismi hisoblanishadi. Islom inqilobi Qo'riqchilari Korpusi 1979-yilning 5-mayida tashkil qilingan. Dastlabki paytda inqilob qo'riqchilarining asosiy maqsadi armiyani oldingi shoh tuzumiga nisbatan hayrixoh bo'lgan harbiylardan tozalash, o'zgacha fikrlovchilarni va milliy chiqishlarni bostirish hisoblangan.

1979-yilning noyabrida qabul qilingan EIR konstitutsiyasida korpusning maqsadi va vazifalari aniq belgilab qo'yildi. Mamlakatning Asosiy qonunida butun bir bo'lim "Islom Armiyasiga" bag'ishlanadi va u shunday nomlanadi. Nasdaranning qo'mondoni shaxsan EIR prezidenti tarafidan tayinlanadi.

Dastlabki vaqtda IIQKning soni 30 ming atrofida bo'lgan. Ularning 4 ming nafari poytaxtdagi markaziy devonda, 20 ming nafari viloyatlardagi bo'linmalarda, 3 ming nafari chegara o'tish joylarini qo'riqlashda ishlashgan hamda yana 3 ming nafari Aliobodda mashq markazi shtatini tashkil etishgan. IIQK 1980-yilning sentabrida Eron Kurdistonida jang paytida birinchi jangovar tajribaga ega bo'ldi.

1980-yildan boshlab 13 yoshdan katta bo'lgan o'g'il bolalarni o'z ichiga qamrab oluvchi yarim harbiylashtirilgan "Basij" nomli tashkilot hamda armiya qismlaridagilar va korpus zahiralaridagilar pasdaran zahirasiga aylanishdi. Ba'zi bir ekspertlar "Basij" tarkibidagilarning sonini 11 mln nafar qilib belgilamoqdalar. Boshqalar mazkur tashkilotning safarbar qilingan jangchilarining miqdorini 1 mln nafar etib baholashmoqda. Mamlakat bosibolinadigan taqdirda muntazam

armiya mag'lubiyatga uchragan chog'ida aynan ulardan partizan guruhlari, shu jumladan xudkushlar bo'linmalari shakllantiriladi.

Ruhoniyat orasida oliy yetakchi Ali Humayni va parlament spikeri Ali Akbar Natek Nurieng ta'sirchan, ahamiyatli shaxslardan sanalishadi. Ruhoniyat faollari Birlashmasi ba'zibir ta'sirchan a'zolari ikkita asosiy kuch markazlaridan biriga tegishlidirlar: parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarning islom arkonlariga, aqidlariga muvofiqligini tekshirish bilan shug'ullanadigan Shura-ye Negahban (Vosiylar Kengashi), Majles-e Khodregan (Noiblar majlisi), oliy yetakchini saylash uchun mas'ul organ hisoblanadi. Ko'pchilik diniy nazariyotchilar Jamet-modarresin- e house-ye-elmiye-ye Qom (Diniy seminariya o'qituvchilari Assotsatsiyasi)ga tegishli bo'lganlar.

Ruhoniy faollari Mutavallilar Kengashiga tayangan holda shaxsiy mulkni va xususiy tadbirkorlik huquqini himoya qilishadi, ular so'l islomchilar va parlament tomonidan o'tkazilgan yer islohotlariga va mulkning musodara etilishiga qarshi chiqishadi. Ruhoniyat Assotsatsiyasi faollari Erondagi aholining kambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlash siyosatini olib borishdi, ya'ni davlatning yordamiga muhtoj bo'lgan quyi tabaqalarni iqtisodiy va madaniy jihatdan ko'mak berish maqsadlarida hukumat subsidiyalari, ya'ni yordam pullari ko'paytirildi.

Sud hokimiyatini va politsiyani nazorat qilayotgan konservativlar prezident Hotamiyning o'nlab hamkorlarini, islohot tarafdorlari hisoblanmish mafkuraviy mafkurachilarni va siyosatchilarni qamoqqa olishdi, Eron siyosatchilarning konservativ guruhining fikrlariga ko'ra, islom me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan 40 tadan ortiq nashr ta'qiqlandi. Yaqinda 400 tacha internet-kafe yopib qo'yildi. Kiyim kiyish qoidalarini buzayotganlarga, "g'arb musiqasi, madaniyati hamda umuman olganda g'arb turmush tarzi ta'siriga berilib ketayotganlarga nisbatan tezda politsiya tadbirlari faollashtirildi.

Konservatorlarni Eron jamiyatida ko'pchilik qo'llab-quvvatlamasligiga qaramay, islom fondlari nomli tashkilotlar orqali anchagina moliyaviy resurslarga egalik qilishmoqda hamda politsiyada, islom inqilobi qo'riqchilari korpusida, maxsus xizmatlarda, sudda, prokuraturada, davlat radio va televedineyasida va hokozolarda kuchli mavqega ega sanaladi.

Ruhoniylar A.Hameneyi boshchiligida Mashhad va Qum shaharlardagi nufuzli diniy markazlarda o'qiyotganlar orasida ko'p sonli tarafdorlarga ega. Eronda bo'lib o'tgan parlament va prezidentlik saylovlarining natijalari Eronda yuz berayotgan ichki siyosiy jarayonlarga so'nggi nuqtani qo'yilmaganligini ko'rsatib turibdi. Shu bilan birga ushbu holat hozirgi kunning o'zidayoq mazkur mamlakatda keyingi voqealarning rivojlanishini ma'lum darajada bashorat qilish imkoniyatini beradi. Hotami hukumati sekinlik bilan iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonini davom ettiradi, saqlanayotgan izolyatsionizm, ya'ni ajratib qo'yish siyosatidan asta-sekinlik bilan uzoqlashib, qutulib boradi hamda ijtimoiy va siyosiy erkinlik rivojlantirib boradi. Iqtisodiy va siyosiy rivojlanish global tendensiyasining ta'siri Erondagi jamiyatidagi kayfiyatga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi, bunday holat o'z navbatida konservatorlar mavqega salbiy ta'sir qiladi hamda islohotchilik kuchlari imkoniyatlarini va ularning tarafdorlarini kuchaytiradi.

Shu tarzda, Erondagi zamonaviy siyosiy hayot o'z rivojining hal qiluvchi bosqichida turibdi. Yaqin vaqtlar ichida sezilarli ichki siyosiy o'zgarishlarni kutish kerak emas. Xoy-nahoy, ikki hokimiyatchilik tamoyili, ya'ni islohotchilar va ruhoniyyat saqlanib qolsa kerak. Buning ustiga-ustak, aniq va tushunarli iqtisodiy va ijtimoiy dasturlar yo'q. Saylovchilar, ayniqsa, yoshlar prezidentga qonuniy talablarini ilgari surishmoqda: oliy ta'limga erkinlik berish, ish bilan ta'minlash, uy-joy va tibbiy xizmat bilan ta'minlash. Hozirda 2 mln. nafarga yaqin yoshlar butunlay ishsiz hisoblanadi, 1 mln. nafardan ko'prog'i ondasonda pul topib turadi. Birinchi navbatda amaldorlar o'rtasida poraxo'rlik kuchayib ketdi.

Seminar savollari:

- 1.Eronda islom revolyutsiyasi
- 2.Eron islom respublikasi va yangi jahon tartiboti
- 3.Eronda islomiy qonunlarni joriy etilishi

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Yakin sharq siyosatida Eronning orni
- 2.Eronda rahbar va shariyat
- 3.Eronda dunyoviy va diyniy hokimiyatlar

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. Ёвқочев Ш. К вопросу о нынешней ситуации на Ближнем Востоке.// XXI асрда жаҳон сиёсати ва Ўзбекистон тажрибаси: сиёсий. Ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатлари: конференция материаллари тўплами. –Т.:ТошДШИ, 2016.
2. Ислам и экстремизм на Ближнем Востоке. – М.: Институт изучения Израиля и Ближнего Востока, 2001.
3. Васильев Л. С. История Востока.– М.: Высш. шк., 1994. Т.2. С.355. 4. Чернова А.Ф. Влияние исламской революции на монархические режимы в Персидском заливе // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. - 2013. - № 161. - С. 25
5. Арабаджян А.З.– Иранская революция: причины и уроки. – М., 1989.–С. 253.
6. Мамедова Н.М. Иран в XX веке. Роль государства в экономическом развитии. –М.,1997.
7. Международные отношения на Ближнем и Среднем Востоке и политика России на рубеже XXI века. М., 2000.
8. Ends of British Imperialism: The Scramble for Empire, Suez, and Decolonization. I.B.Tauris. 2007. pp. 1082.
9. New York Times Special Report: The C.I.A. in Iran. Проверено 13 января 2013. Архивировано из первоисточника 20 января 2013.
10. Hiro, Dilip. Iran Under the Ayatollahs. London: Routledge & Kegan Paul. 1985. p. 57.
11. Robin Wright. The Last Great Revolution: Turmoil And Transformation In Iran.– New York, NY: Vintage, 2000. – С. 220.
12. Graham, Iran (1980) p. 94.
13. Roy O. The Failure of political Islam. – L.: Taurus, 1994.
14. Ахмедов В.М. Ближний Восток: проблема смены власти и осуществления реформ. Сирийский опыт. – Институт Ближнего Востока. – 16 января 2005 г. - http://www.iimes.ru/rus/frame_stat.html.
15. Институт перспективных российских исследований им. Кеннана. - <http://www.apn-nn.ru>

3.3. HOZIRGI ZAMON ROSSİYADA ISLOM OMILI

Dars o‘quv maqsadi: Magistratura talabalariga zamonaviy Rossiyada islom dininig paydo bo‘lishi, zamonaviy Rossiyada islom omilining o‘ziga xos jihatlari, Islom subyektlarining maqsadlari, islom omilining Rossiya Federatsiyasiga geopolitik ta’siri to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berish.

Tayanch iboralar: Rossiyada islom omili, islom subyektlari, siyosiy islom, islom fundamentalizmi, musulmon oqimlari, diniysiyosiy sektalar.

Reja:

1. Rossiyada islom dininig paydo bo‘lishi.
2. Rossiyada islom omilining o‘ziga xos jihatlari.
3. Islomning siyosat va davlat bilan bog‘liqligi va “siyosiy islom” tushunchasi.
4. “Islom fundamentalizmi”, uning asoslari, nazariy bazasi, siyosiy yo‘nalishi.
5. Islom omilining Rossiya Federatsiyasiga geopolitik ta’sirining.

Biror bir machitni qurush, diniy kitobni nashr etish, musulmonning shaxsiy namoz o‘qishi, xaj safari, diniy bayramlarning nishonlashi, maqaddas Ramazon oyida ro‘za tutishi, erkin vijdon masalalari islom omillariga kirmaydi. Islom omili, bu-turli islom subyektlari ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatining jamiyatga yoki uning ma’lum bir qismiga ta’sir ko‘rsatishidir. Subyekt tomonidan jamiyatga ta’sir o‘tkazilmasa yoki bu ta’sir e’tiborsiz bo‘lsa, demak islom omili yo‘q hisoblanadi.

Demak, musulmon oqimlarining faolligi va ularning jamiyatga (milliy, hududiy va xalqaro) o‘tkazmoqchi bo‘lgan ta’siri va shu orqali keng miqyosdagi manbalarni izlash, ularni targ‘ib qilish va o‘zlashtirish tahlil etiladi.

Islom dini, bir necha asrlar davomida (500 yil) Rossiya jamiyatining bir qismi bo‘lib kelgan. Bu davr mobaynida Rossiya jamiyatining o‘zi, musulmon jamiyatlarining soni va sifati o‘zgarib borgan. Vatan tarixining to‘rt davri mobaynida islom uning omili bo‘lgan: XVI asrda-(Qozon, Sibir, Astraxan xonligi, Nog‘ay o‘rdasi) musulmon tuzilmalarini bosib olinishida; XVIII – asr oxiridagi

musulmonlarning xristian urushlarida qatnashuvida; XIX-asrda O'rta Osiyo va Kavkazning qo'shilish davrida va XX asrda-Ulug' vatan urushi davridagi bosmachilar bilan kurash davrida.

Jamiyatda islom omili ma'lum bir sharoitlarni keltirib chiqarganda paydo bo'ladi, ya'ni jamiyat uni og'ir vaziyat ta'sirida, to'laligicha qabul qilishga majbur bo'ladi. Masalan, harbiy, harbiysiyosiy strukturalarning tezlik bilan jamiyatni islomiyashtirish, XX asrning 90 yillarida Afg'oniston va Chechenistondagidek uning tuzilmalarini va siyosatini o'zgartirishga keltiradi. Demak, omil uning jamiyatga (butun jamiyat yoki uning ko'pchilik qismi) ta'siri oqibatlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Bu bizga zamonaviy Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tushunishda oydinlik kiritadi.

Hozirgi kunda islomni Rossiya jamoatchilik hayotidagi ichki omillariga kiritish mumkin, chunki u Rossiya jamiyatining tashqi ta'sirlarga nisbatan bir qismi bo'lib, turli milliy, xalqaro, millatlararo xarakterdagi islom subyektlarining rossiya jamiyatiga aniq ta'sirini ko'rsata oladi.

Siyosiy sferadagi islom omili odatda islom davlati va islom siyosiy strukturalari tuzishda, islom davlatlari, xalqaro va milliy islom tashkilotlari tuzish, musulmonlarning shaxsiy harbiy kuchlarini tuzish va ekstremistik, terroristik va separatik yo'nalishdagi harakatlarning ommaviy prozelitizm bilan bog'langanligidir.

Islom omilining yana bir o'ziga xosligi uning keng qamrovligidadir: u o'zini hamma, musulmonlar yashaydigan va ularning tashkilotlari faoliyat ko'rsatadigan joyda, musulmon va nomusulmon mamlakatlarlarda, musulmon va nomusulmonlarning o'zaro munosabatlarida ko'rinadi. Ta'sir doirasiga ko'ra (davlat, jamiyat va uning guruhlar yoki shaxs) islom omilini davlat, jamiyat va shaxsning o'zo'zini boshqaruvchi alohida qismlari sifatida tafsiflash mumkin.

Shunga ko'ra, islom omili harakatining salbiy ta'siri bo'lmagan va jamoatchilik hayotiga alohida yo yakka bo'lagiga ta'sir qilmaydi. U jamiyat hayoti oqimlariga turlicha ta'sir etadigan bir-biriga bog'liq bo'lgan mazmunga ega. Bu islomning paydo bo'lish tarixi va uning turli milliy hududlarda tashkil topish jarayonlari, davlat tizimlari bilan

munosabat mazmuni, shu hududdagi qo‘li baland islom maktabining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

Birinchidan: siyosat jamiyatni idora qilish masalalarini hal qiladi, demak siyosatga ta’sirini o‘tkazish yo‘li bilan islom subyektlari jamoaga ta’sir o‘tkazishning imkoniyatlari va vositalarini qo‘lga kiritishga harakat qiladilar. Ikkinchidan islom subyektlarni siyosiylashtirish shaxslarning milliy xavfsizligiga ta’sir qilib ularning hayotiga xavf soladi. Bundan tashqari islom omilini siyosatda qo‘llash noto‘g‘ri va bizning nazarimizda bu omil siyosiy islom deb ataladi. Islom so‘zi avtomatik ravishda jahon dini tahlilini nazarda tutadi. Islom omilini haddan tashqari siyosiylashtirish uni noto‘g‘ri tushunishga va salbiylashtirishga olib keladi. Islom omilini “islom terrorizmi”, “islom ekstremizmi”, “islom separatizmi”, “islom fundamentalizmi”, “islomiylikka” tenglashtirish maqsadga muvofiq emas. Islom omilining mohiyati yuqorida keltirilgan tushunchalardan yanada kengroq ma’noga ega.

Islom omilini ko‘rib chiqish jahon islom dinini emas, balki uning o‘zgargan shakllarini, oldiga qo‘yilgan maqsadiga erishmoqchi bo‘lgan shaxslar tomonidan dinni o‘ziga qurol qilib olgan va bu bilan o‘zlarini oqlash maqsadida bo‘lganlarni nazarda tutadi va ijtimoiy tajovuz sifatida qo‘llaydi. Bu holda tahlilga siyosiy jarayonlarning, islom tuzilmalarining turli siyosiy subyektlar, ijtimoiy, ekonomik, informasion xarakterga ega bo‘lgan o‘zaro munosabatlarni aniqlaydi.

Islom omilining amaliy tahlil obyekti uning jamoa va tizimli xususiyatidir, bu islom subyektlari faoliyati va maqsadi, ular qo‘llagan vositalar, dogmatlar, qadriyatlar va musulmon dini an’analarini va musulmon huquqlari(shariat)ni qo‘llovchi jamoat hayotining faol qatnashchilari sifatida ajratadi. Islom omili ichki va tashqi o‘lchamga ega, aniq jamoaga nisbatan uning subyektlari ichki va tashqi holatda joylashishi mumkin. Butun jamiyat islom omilining obyekti hisoblanadi.

Islom omilini turli subyektlar tuzishadi. Bular qatoriga, birinchidan islom davlatlari, ularning ittifoqi, xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlari; ikkinchidan rasmiy islom tuzilmalari (musulmonlarning ruhoniylar boshqarmalari va muftiyatlar, musulmon jamoalari, turli siyosiy islom partiyalari, harakatlar va boshqarmalar); uchinchidan turli

islom tashkilotlari (masalan, noqonuniy qurollangan tuzilmalar va ularning sardorlari, xalqaro ta'qiqlangan terroristik va ekstremistik islom tashkilotlari, dunyoga taniqli islom terroristlari); to'rtinchidan islom ommaviy axborot vositalari, o'quv va ilmiy izlanish tizimlari.

Xalqaro bosqichda uchta asosiy musulmon birlashmasini ta'kidlash mumkin.

- Davlat miqyosidagi davlatlararo tashkilotlar, bunda ularning nomidan davlat yoki hukumat namoyondalari qatnashadi. Qaror davlat miqyosida qabul qilinib, davlat miqyosida hal etiladi va qatnashuvchi barcha davlatlar uchun majburiydir. Qabul qilingan farmoyishlar davlat hayotining barcha jabhalarida qo'llaniladi. Bunday tashkilotlarga Arab davlatlari ligasi, Islom konferensiyasi tashkilotlari, Afro-Osiyo Islom tashkiloti, Islom dunyosi Ligasi, Iqtisodiy hamjihatlik tashkiloti (Turkiya, Eron, Pokiston) kiradi.

- Nodavlat miqyosdagi xalqaro tashkilotlar nomidan alohida diniy oqim sardorlari, siyosiy va jamoatchilik arboblari qatnashadi. Qarorlar keng miqyosda qabul qilinib, ular tavsiyaviy xarakterga ega va siyosat, din va milliy diniy tashkilotlar miqyosida ijro etiladi. Bunday tashkilotlarga Yevropa islom jamiyati, Xalqaro Islom kongresi, Islom Taraqqiyoti banki, Xalqaro Islom yangiliklari agentligi, ta'lim, Fan va san'at islom tashkiloti, Islom banklari xalqaro assosiatsiyasi, Islom ta'limi xalqaro markazi va h.k.kiradi.

Alohida diniy jamoa va tashkilotlar nomidan qatnashuvchi xalqaro tashkilotlar. Bu tashkilotlar qarorlari tavsiyaviy xarakterga ega, ularning qaror qabul qilish darajasi qo'llanish miqyosidan ko'ra cheklangan. Bundan tashqari oxirgi yillarda bir qator islom tashkilotlarining rolining oshganligini belgilab o'tish mumkin. Bularning orasida: Birodar-musulmonlar, Hezbulloh, Islom yangilanish partiyasi, "Al-Jihad", "Jamoat-e islomi" va boshqalar kiradi.

Milliy islom subyektlariga musulmonlar tomonidan tuzilgan diniy va diniy-siyosiy strukturalar kiradi. Bizning davlatimizda bu musulmonlarning diniy boshqarmasi, bu tashkilotlar ijtimoiy-siyosiy harakterga ega. Bular "Refax" guruxi, Rossiya Islom partiyasi, Rossiya Islom ittifoqi. Ya'ni islom omili subyekti musulmonlar va ijtimoiy gurux qiziqishlarini ifoda etuvchi barcha jamiyat ishida faol qatnashuvchi shaxslardir.

Islom subyektlarinig maqsadlari o‘zaro farq qiladi. Ular uchun umumiy va maqsadlarini islomiy qiluvchi omil, birinchidan ularda musulmonlarning borligi, ikkinchidan faoliyatida islom ta’limiga tayanish, unda keyingi sotsial-siyosiy faoliyat uchun asos qidirish va musulmonlarning zamonaviy dunyo va zamonaviy jamoa tizimlariga moslashuvi. Masalan, 2001 yilda “Rossiya musulmonlari asosiy ijtimoiy programmasi” haqidagi hujjatni qabul qilib, Muftiylar kengashi “Haqiqiy hujjat yangi ming yillikda bir qator Rossiya Federatsiya hududidagi diniy tashkilotlarida, islom diniy dunyoqarashining boshqaruvchi prinsiplarini ishlab chiqarishda kerak. Hujjat xarakteri Rossiya jamiyatida islomni noto‘g‘ri talqin qilganda kelib chiqqan muammolarni hal qilishda aniqlik kiritadi”.

Islom diniy ta’limi plyuralistik hisoblanib unda turli oqim, yo‘nalish va diniy maktablar, sunniy islomida to‘rtta asosiy mazhab yetarli miqdorda tinchgina faoliyat yuritadi, bundan shunday xulosa qilish mumkin, islom subyektlarining maqsadlaridagi farq ularning tushunchalarining turtiligi va maqsadlarining turlicha jamoat tuzilmalari, dunyoqarashning shakllarini ko‘rishdadir. Hozirgi kunda islomda o‘zining kelajak musulmon jamoatchiligini tasavvur etuvchi uch asosiy yo‘nalish ajralib turadi: fundamentalistik, an’anaviy va zamonaviy.

“Fundamentalizm” termini fundamental ma’nosidan kelib chiqqan va negiz poydevor mustahkam ma’nosini bildiradi. Ya’ni, fundamental deb birinchi manbalarga qaytish, asosiy prinsiplarga tayanishni tushunamiz. Bu ma’noda fundamentalizm o‘zida boshqa ko‘pgina diniy oqimlar va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, muasasalar va harakatlarga xos salbiy ma’noni saqlamaydi. U pravoslav, islomiy, protestant, shuningdek kommunistik, demokratik va x.k bo‘lishi mumkin va bir qator olimlar tomonidan fundamentalizm to‘g‘risida madaniy taraqqiyot darajasining yashirin rivojlanish tendensiyasi degan gipoteza oldinga surilgan.

Rossiya institutining hisobotida islom fundamentalizmi deb musulmon davlatlarida o‘z amaliyotida Muhammad payg‘ambar davri va “hulafou rashidin” prinsiplari va shiorlariga da’vat etuvchi jamiyat hayotining jamiyat-siyosiy oqimlari, iqtisodiy-ijtimoiy, ma’naviy-

ma'rifiy va ko'zga ko'ringan guruhlar faoliyati bilan bog'liq fenomeni tushuniladi.

Ko'pincha vatan va chet el politologlari fundamentalizmni radikal islomiy tasavvurlarga bo'yalgan, musulmon dunyosining siyosiy, ijtimoiy, moliyaviy va boshqa xayot yo'nalishlarida islom dini mohiyatini targ'ib etuvchi diniy saxobalar boshqaradigan siyosiy yo'nalish sifatida qarashadi. Eron, Saudiya Arabistoni, Misr, Pokiston, Liviya va boshqa mamlakatlarda fundamentalistlar davlat boshqaruvini to'liq diniy sahobalar qo'lga topshirishni talab qilishadi. Pokistondagi "Jamoat-e islomi" fundamental harakat faollari islomni besh ustun e'tiqodi bilan cheklashdan bosh tortishadi. Ular islomning inson faoliyatining barcha jabhalarida, iqtisod, oilaviy munosabatlar va siyosatni qo'shgan holda ishtirok etishni shart qilib qo'yishgan. Qo'yilgan maqsadga yetish va siyosiy hukumatni tortib olish yo'lida radikal usullar tarafdoridirlar. Pokistonda fundamentalistlarning ideologik bazasi va ularning ijtimoiy va siyosiy yo'nalishini ta'minlashga, Al-Maududiyning ko'p qirrali "Jamoat-e islomi" va Hasan at-Turobiyning mehnat maxsullari xizmat qiladi.

An'anaviy islom tarafdorlari (ularni ortodokslar deb ham atashadi) Islomning ilk ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy ma'rifiy burjua oldi davri ko'rinishida saqlanishi tarafdorlari bo'lib, ular diniy va jamiyatchilik hayotiga yangiliklar kirishiga qarshi turishadi. An'anaviy oqim tarafdorlari rasmiy ruhoniylar vakillaridir. Rossiyaning zamonaviy musulmon sardorlari an'anaviy islom yo'nalishi vakillari hisoblanadilar.

Zamonaviy diniy oqim vakillari (ularni islohotchirlar deb atashadi) diniy oqimga yangiliklar kiritishga va islom dogmatikasini zamonaviy rivojlanish ehtiyojlariga bo'ysundirishga harakat qilishadi. Bu diniy oqim vakillariga "sotsialistik islom" XX –asr boshida rossiya jamiyatida jadidlar harakati vakillari kiradi.

Islom davlatlari va ularning koalisiyalari, xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlar, xalqaro huquq subyektlari bo'lib, Rossiya Federatsiyasi siyosatiga ta'sir etib, o'z oldilariga islom davlatlari maqsadlaridan farq qilmaydigan maqsadni qo'yadi. 50 dan ortiq musulmon davlatlarini birlashtirgan Islom Hamkorligi tashkiloti (2011 yilgacha Islom Konferensiya tashkiloti), o'z chiqishida 2001 yilda

AQSHda amalga oshirilgan terroristik aktlarga qarshi chiqib, shu terroristik aktlarni bajargan shaxslarni tugatishni qo'llab quvvatladi.

Yana 1991 yilda Islom Konferensiyasi Tashkiloti Dakar deklaratsiyasini qabul qilib, quyidagilarni qabul qildi: "Biz yana bir bor islom dini ta'limoti, qadriyatlari, normalari va bizning inson hayotiga hurmat va ehtirom bilan qarovchi mamlakat an'analari bilan qarama-qarshi bo'lgan terrorizm fenomeniga qarshi bizning hal qiluvchi hukmimizni ta'kidlaymiz. Biz jahon hamjihatligi bilan xalqaro terrorizmga va uning barcha ko'rinishlariga qarshi qonun doirasida va xalqaro prinsiplarni hurmat qilgan holda hamkorligimizni ta'kidlaymiz".

Ammo islom davlatlari faoliyatida ham tahlil uchun islom omili aniqlanishi mumkin. Bizning nazarimizda, ularda ham musulmon jamiyatiga ta'sirini o'tkazmoqchi bo'lgan turli xil islom subyektlari faoliyat ko'rsatadi. Bu ta'sir ko'pchilik hollarda ko'pgina musulmon mamlakatlari konstitusion prinsiplari, ularning tarixiy-ma'naviy va ijtimoiy xususiyatlari, milliy omillari, siyosiy va harbiy-siyosiy qiziqishlari va ularning geopolitik holatiga bog'liqdir.

Islom omili musulmon davlatlarida birinchidan, islom hamjihatligida, ya'ni islom davlati qiziqishlarini amalga oshirishda xalqaro siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy institutlarning tashkillashtirishda (tatiqodchilarning aytishicha, xalqaro islom strukturalari yo'nalishlar va vazifalari bo'yicha xalqaro huquq subyektlari tomonidan tuzilgan xalqaro tashkilotlar bilan bir yo'nalishda faoliyat ko'rsatadi) bo'yicha namoyon bo'ladi. Faqat 90-y. da Fors bo'g'ozi Arab davlatlari hamjihatligi ittifoqi, Arab Mag'ribi ittifoqi, Arab Hamjihatligi ittifoqi paydo bo'ldi. Bu uch guruh 80-90 yillarda o'z qatorlarida arab dunyosidan 15 mamlakat - 240mln yaqin insonni birlashtirdi. 1992 yilning noyabr oyida tarkibida Yaqin va O'rta Sharq va Markaziy Osiyoning 10 ta mamlakatini o'z ichiga olgan yana bir yirik integrasion tashkilot paydo bo'ldi. Uning tarkibiga umumiy aholisining soni 310 mln.dan ko'p bo'lgan Turkiya, Eron, Afg'oniston, Pokiston, Ozarbayjon, Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, va Qozog'iston davlatlari kirishdi.

Ikkinchidan, islom omili musulmon davlatlarida faoliyat ko'rsatuvchi qonun birinchi navbatda konstitutsiya bilan

mustahkamlangan. Masalan Suriya konstitutsiyasida, xalqining asosiy tarkibi islom dini vakillari bo'lganligi uchun, davlat o'zining islom diniga va uning oliy ideallariga sadoqatini bildirgan. Konstitutsiyaning 3-moddasida, respublika Prezidentining dini islom va musulmon huquqi asosiy qonunshunoslik manbaasidir. Iroq konstitutsiyasida davlatning rasmiy dini va shu dinning turli oqimlariga hurmat va daxlsizlik e'lon qilingan. Saudiya Arabistoni Konstitutsiyasida davlat musulmon davlati deb e'lon qilingan va sud qarorlari Olloh kitobiga to'g'ri kelishi kerak.

Uchinchi, musulmon mamlakatlarida ko'pchilik boshqa mamlakatlardak, oxirgi ikki o'n yillikda musulmon mamlakatlari (Afg'oniston, Jazoir, Liviya, Sudan va boshqa) hududida harakat qiluvchi turli xil ekstremistik guruhlar harakati faollashdi, bu guruxlar bu davlatlarning o'zaro va tashqi olam bilan munosabatlarida rol o'ynaydi va tinchlik o'rnatish va hududiy, milliy va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlashda to'sqinlik qiladi.

To'rtinchi, bir qator musulmon mamlakatlari, masalan Eron, Iroq, Turkiya, Saudiya Arabistoni, islom markazlari bo'lishni va o'z atrofida ularni qo'llab quvvatlovchi islomiy muhit o'rnatish uchun bor kuchini sarflamoqda. Ularning ko'pchiligi AQSH va g'arbiy mamlakatlarga qarshi, ammo amaliyotda ular bilan bog'langan holda hamkorlik qilmoqdalar. Noqonuniy islom tashkilotlarining maqsadi, haqiqatda terroristik va ekstremistik yo'nalishdagi qurolli kuchlar tashkil etish va qonun tartiblarini va barqarorlikni buzish orqali, xalqaro qonuniylik va yurisdiksiya panohidagi ma'lum bir hududlarni chiqarish, parallel hukumat organlarini tuzish va qurolli bosqinchilik yo'li bilan hukumatni egallab o'zlari tuzgan islom proektini amalga oshirishdan iboratdir.

Masalan, Dog'iston va Ichkeriya Kongress majlisi 1998 yil 10 - noyabrda o'z yig'ilishida quyidagi murojaatni qabul qildi: "Rossiya IIVning, uyushgan jinoyatchilik va yuqori davlat boshqaruvi qatlamlarida korrupsiyaga qarshi kurash munosabati bilan Dog'iston Respublikasi hududidagi musulmonlarni e'tiqodlari uchun ta'qib qila boshladi. Kongress Majlisi o'z a'zolariga nisbatan bunday aksiyalarning, kim tomonidan bo'lishidan qat'iy nazar, yo'l qo'yilmasligi to'g'risida qaror qabul qildi". Majlis Kongress Xavfsizlik

ittifoqiga ta'qibning shariat qonunlarini buzadigan qanday turi bo'lmasin yo'l qo'ymaslikni topshirgan.

Islom omilining keskinlashuv sabablari musulmonlarning modernizatorlik proektlari yo'nalishida amalga oshirilgan ijtimoiy yo'nalishlardan musulmonlarning bir qismi (odatda bu yoshlar) chekkada qolganligidir. Ko'rinishdan aynan yoshlar yangi qonunlarni qabul qilishda birinchilardan bo'lishi kerak bo'lsada, islom ummonida jarayonlar boshqacha o'tadi. Bu holatning asosiy sababi islom ta'limining o'z tarkibida yetarli bo'lgan radikal xarakterdagi farmoyishlarni borligida (jihod, yomon odatlarga qarshi kurash emas balki boshqa din vakillariga qarshi kurash yo'lidagi muqaddas jang). Bu holatda yoshlar islom haqida chuqur bilimga ega bo'lmagan holda oqimga kirib qolishlariga sabab bo'lmoqda.

Moskvadagi Karnegi markazida (Professor A.B.Yunusova va A.V.Malashenko redaktorligi ostida) chiqarilgan kitobida "musulmonlarning faolligi, ularning o'zlarining konfessional (cherkovga oid) mansubligini, ularning o'z qiziqishlarini e'lon qilish har doim ularning muqaddas kitoblar, islom tarixi va madhанийati bilan tanishuvidan oldinda yuradi. Bu bilan ma'lum bir darajada musulmonlarda birinchi navbatda konfessional va madhаний an'analar namoyandasini emas, diniy radikalizmga talpinuvchi, qanday bo'lmasin o'z siyosiy va boshqa e'tirozlarini bildiruvchi norozi shaxslarni ko'rishadi. Bu yo'nalish allaqachon musulmon mamlakatlarida va dunyo yetakchi musulmon o'quv yurtlarida qayd etilgan. Aynan shuning uchun rossiyada islom omilining paydo bo'lishi bilan islom dunyosining emissarlari bizning mamlakatga yoshlar bilan, shuningdek o'quv yurtlarida ishlashga kela boshladilar. Bu tashkilotlarda yoshlarga aniq ideologik tuzilmalarni taqdim qila boshladilar, chunki aynan yoshlar, o'rta qatlam yoshidagi insonlardan farqli o'laroq, oxirigacha ideologik nuqtai nazari umumiy, siyosiy madhанийati dunyoqarashi shakllanmagandir.

Bundan tashqari islom omilining ijtimoiy negizani islom ruhoniylari tashkil etgan. O'z tarixiy halokatini sezgan uning radikal qismi, siyosiy lashuvva talablar radikallashuvi va fundamentalizmga tayanib bu o'zgaruvchan dunyoda o'z o'rnini va o'ziga ergashgan musulmonlarnin go'rnini topishga harakat qilmoqda. Bu maqsadlarni

amalga oshirish uchun qoidaga ko'ra, turli yangi islom tashkilotlari, shuningdek siyosiy yo'nalishdagi, tuzishmoqda. Islom ruhoniylarining an'anaviy qismi huquqiy tizimning doirasidagi o'zgaruvchan qoidalar va islom institutlariga moslashib, unga musulmonlar hayotini moslashtiradilar.

Islom omilining kuchayishi natijasida jamiyatning u yoki bu darajada islomiylashishi kuzatiladi. Hozirgi paytda to'liq islomiylashtirishga erishish ma'lum miqdorda qiyin jarayon, va huquq fanlari doktori professor L.R.Syukiyaynenning hisoblashicha "qoldiq islom normalarini siyosat tizimiga kiritilishi jamoatchilikning ilgari yo'nalishida to'siq bo'lmoqda. Siyoysiy tizimni islomiylashtirishning asosiy negizi "maslahat", yoki "sho'ro". Biroq, XIX-asr oxirida Afg'oniston toliblar hukmronligi davri misolida jamiyatni to'liq islomiylashtirish harakatlari vaqti vaqti bilan qo'llanilgan va qo'llaniladi.

Tezkor islomiylashtirishga yo'naltirilgan islom omili, islom bilan bir qatorda noislomiy guruhlar bor davlatlardagi dinlararo qaramaqarshiliklarni keskinlashtiradi. Shuning bilan bir qatorda islomiylashtirish ma'lum bir muddatga aqidaparast jamoalararo urush va islomning o'z ichidagi turli yo'nalishlar orasidagi janjallarning kelib chiqishiga olib keladi.

Islom omilining Rossiya Federatsiyasida demografik ta'sirini ajratish mumkin. G'arbiy hisob jihatidan dunyoda hozirgi kunda bir yarim milliard musulmon yashaydi. 2075 yilda yer sharidagi har uchinchi inson musulmon bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Rossiya Federatsiyasida asosiy aholining o'sish ko'rsatgichlari oxirgi yillar davomida pasayib borishi hukumat tomonidan ta'n olinmoqda. Shu asnosida Rossiya aholining miqdori musulmonlar va migrantlar (asosan Kavkaz orti va Markaziy Osiyo) hamda Shimoliy Kavkaz regionini hisobidan ortmoqda. Bu jarayon esa yaqin 20-30 yil davomida rossiyalik demografik xaritasini keskin o'gartirishi mumkin.

Seminar savollari:

1. Rossiyada islomning tarqalishi.
2. Rossiyaning rivojida islom omili.
3. Rossiya federatsiyasi siyosatida islom omili.

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Yevropa davlatlarida islom omila.
- 2.Rossiya Federatsiyasi va islom
- 3.Hozirgi zamon Rossiya siyosatida diniy omil

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. Ислам в России: взгляд из регионов. – М.: Аспект-пресс, 2007.
2. Ислам на постсоветском пространстве: взгляд изнутри. Под ред. Малашенко А.В. и Олкотт Марты Брилл. – М., 2001.
3. Красиков А.А. Религиозный фактор в европейской политике. – М, 2000.
4. Ермаков И., Микульский Д. Ислам в России и Средней Азии. – М.,1983.
5. Ланда Р.Г. Ислам в истории России. – М.,1995.
6. Малашенко А.М. Исламское возрождение в современной России. – М.: Московский центр Карнеги, 1998.
7. Малашенко Л.М. Мусульманский мир СНГ. – М., 1996.
8. Малашенко А. В. Ислам в современной России // Ислам и мусульмане в России. М., 1999.
9. Малашенко А. В. Исламское возрождение в современной России. М., 1998.
10. Малашенко А. В. Исламские ориентиры Северного Кавказа /Малашенко А.В.; Моск.центр Карнеги.-М.: Гендальф, 2001.
11. Малашенко А.В. Ислам и политика в современной России // Мусульмане изменяющейся России. М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2002.
12. Мухаметшин Ф. М. Мусульмане России: судьбы, перспективы, надежды. М., 2001.
13. Мухаметшин Ф. М. Ислам в современном российском обществе // Мусульмане изменяющейся России. М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2002.

3.4. YEVROPADA ISLOM DINI

Dars oq'uv maqsadi: Magistratura talabalariga Yevropa davlatlarida islomning ta'siri, Yevropaning ilk musulmonlari, Yevropada musulmon aholisining o'sish omillari, to'g'risida batafsil ma'lumotlar berish.

Tayanch iboralar: Yevropa davlatlarida islom, zamonaviy Yevropada islom tarixi, Yevropalik musulmonlar soni, Yevropada musulmon aholisining o'sish omillari.

Reja:

1. Yevropa davlatlarida islomning o'rni.
2. Zamonaviy Yevropada islom tarixi.
3. Yevropalik musulmonlar soni.
4. Yevropada musulmon aholisining o'sish omillari

Hozirgi kunda islom dini Yevropada tabiiy holatga aylangan. Yevropaning yetakchi davlatlaridan biri hisoblanuvchi Fransiyada islom asosiy dinga aylanmoqda, bu yerda Yevropadagi eng ko'p sonli musulmon jamoasi joylashgan bo'lib, ularning miqdori 6 mln.dan ko'proqni tashkil qiladi (Germaniyada - 4,5 mln., Buyuk Britaniyada – taxminan 3 mln., Italiyada - 1,5 mln., Ispaniyada - 1mln. Niderlandiyada -1 mln. Avstriya, Shvetsiya va Norvegiyada 1 mln. dan ko'proq).

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, islom – oxirgi 100 yil ichida tarafdorlari 13 dan 19,5 foizga ko'paygan yagona dindir. Agar Yer sayyorasida dinga e'tiqod qilmaydiganlar soni oshib bormaganda edi, o'tgan yuz yillikni islom va musulmonlar asri deb yuritish mumkin. Islom o'sishining ko'p qismi Yevropa davlatlari va AQSHga to'g'ri keladi.

Taxminan XX asr o'rtalarigacha Yevropa va AQSH faqatgina xristian aholili davlatlar edi. Avval islom faqat Albaniya, Bosniya, Kosovo, Turkiyaning yevropa qismida, Bolgariyaning janubida va Qrimda o'rin egalladi. Yevropaning boshqa qismida va AQSHda musulmonlar kam sonli edi, islom esa noodatiy-ekzotik din sifatida qabul qilingan.

Bu davlatlarda musulmonlar sonining oshishiga ilk qadamlar Ikkinchi jahon urushidan shakllana boshlandi. Yevropa davlatlari va AQSH urushdan keyingi iqtisodiyoti tashqi ishchi kuchi oqimiga muxtoj edi. Buning yechimi islom diniga e'tiqod qiluvchi Osiyo va Afrika davlatlari emigrantlarida topildi.

Yangi kelgan musulmonlar, qoidaga ko'ra bir biriga yaqinroq yashashga va bu bilan kuchli, etnokonfessional jihatdan birlashgan jamoaga aylandi. Yangi davlatlar fuqaroligini olib ular AQSH va Yevropa kontinentiga kelgan vatandoshlarini unutmadilar. O'z o'rnini egallab bo'lgan musulmonlar o'z qarmdoshlari va vatandoshlarini taklif qilib, ularga uy-joy, fuqarolik va ish topishda yordam berdilar. Ilk emigrantlar notanish muxitga tushib, maxalliy an'analarni o'zlashtirib, qolgan aholi bilan birlashishga harakat qildilar. Biroq musulmon emigrantlar soni ortib borgan sari ular o'z madaniyati, tili va albatta dinini qo'llab quvvatlashga intila boshladilar. Yangi sharoitlarda musulmonlar demografik qadriyatlarni saqladilar va ularning oilalari ko'paya boshladi. Shimoliy Afrika davlatlarida masalan, tug'ilish fransuz yoki nemislarga qaraganda ko'proq. Fransiya yoki Germaniyada tug'ilgan har bir bola esa avtomatik tarzda shu davlat fuqarosiga aylanadi.

Oxirgi ming yillikda Fransiya respublikasida musulmonlar soni 1945-yilga nisbatan 4 milliondan oshib ketdi. XIX asr o'rtalarida Fransiyada birinchi masjid qurilgan bo'lsa, hozirda ularning soni 3 mingtaga yetgan. Yangi masjidlar qurilishiga Saudiya Arabistoni har yili millionlab franklar hayriya vositalari ajratadi.

Hisob-kitob ma'lumotlari bo'yicha: 150 dan ortiq masjidlar qurish dasturlari bugungi kunda amalga oshirishning har xil darajasida turibdi, anchagina qismi hozirgi kunda barpo etilayotgan bir paytda Fransiyada katolik cherkovi so'nggi 10 yil ichida atigi 20 ta ibodatxonani bunyod etdi. Buning ustiga-ustak shu davr ichida cherkov 60 ta ibodatxonani berkitishga majbur bo'ldi, ularning ko'pchiligi yaqin kelajakda masjidlarga aylanadi yoki shunday inshootlarga aylanib bo'lgan.

Fransiya musulmonlar majlisi, kengashi prezidenti Muhammad Mussaviy 2011-yilning avgust oyida RTL milliy radiostansiyasidagi intervyuda masjidlar bo'yicha ma'lumotlar berdi. Fransiyadagi

masjidlar soni oxirgi 10 yil ichida ikki barobarga ortdi hamda bugungi kunda 2 mingtadan oshdi. Ular ichidagi eng yangisi 2 ming nafar toatibodat qiliuvchilarga mo'ljallangani oldingi Ramazon oyida Strassburgda ochildi. 7 ming nafar odam sig'adigan masjid tez orada Marsel shaharida ochilishi kerak, mazkur shaharda aholining 25 % ini musulmonlar tashkil qiladi (250 ming nafar).

Hozirda o'ng siyosatchilar mamlakatga musulmonlarning emmigratijasini ta'qiqlash to'g'risida hamda Fransiya bo'ylab islomning tarqalishi yokida uning hududida masjidlar qurilishini cheklash bo'yicha gapirishlaridan ma'no-mantiq yo'q.

Hozirda Marin Le Pendan boshlab hamda sobiq prezident Sarkozigacha bo'lgan fransuz siyosatchilari prezidentlik saylovlari chog'ida "islom" mavzusidan foydalangan holda musulmonlarning ko'chalarda namoz o'qishlarini hazm qilib bo'lmaydi deya ta'kidlab, ovozlari to'plashga urinishmoqda. Yoki ularni iste'lochilar deb atashmoqda. Musulmonlarni bunday tarzda chiqishtirmaslik orqali siyosatchilar qandaydir ko'zga ko'rinarli natijaga erisha olishlari amrimaholdir. Bunday holat islomga e'tiqod qiluvchilarning alamzadaligini va qarshiligini keltirib chiqaradi hamda zamonaviy Yevropadagi o'zlarining ahvollaridan norozi bo'lgan musulmonlar o'rtasida islom mafkurachilarning ommalashuviga va ularning ta'sirlarining oshishiga olib keladi.

Shuningdek, Fransiyada hamda umuman olganda Yevropada vujudga kelgan vaziyatning teskari, aks tomoni ham bor. Yevropada yashovchi ko'plab musulmonlarga qit'aning demokratik qonunlari hamda undagi muhit manzur kelmoqda. Demokratik jamiyatning barcha imkoniyatlaridan foydalanishlari natijasida ular bunday qulay sharoitlarda hayot kechirishga o'rganib qolishdi. Bularga misol sifatida, ishsizlik bo'yicha yokida yolg'iz onalarga to'lanadigan nafaqalarni keltirish mumkin.

Shuning uchun radikal islomiy ruhoniya Yevropa mamlakatlarida hokimiyat tepasiga kelsa hamda musulmonlarning qulay shartsharoitlarga ega to'kin hayotlarini yangi Pokiston, Yaman yoki Eronga aylantiradigan bo'lsa, ular xursand bo'lmasliklari turgan gap. Shu sababli quyidagicha savol kelib chiqadi: Yevropa butunlay islomiy bo'lishidan yevropalik musulmonlar qanchalik manfaatdor bo'ladilar?

Germaniyada 4 millionga yaqin musulmonlar istiqomat qiladi. Ikkinchi jahon urushigacha, u davrda hali natsist davlatda o'ndan ortiq masjidlar bo'lgan, hozirda ularning soni 2 mingdan ortiq. Germaniyaning deyarli har bir shaharida musulmon jamoachiligi mavjud. Tarixan musulmonlarning ko'p sonli jamoalari davlatning harbiy shaharlarida shakllangan, u yerlarda xatto musulmon rayonlari ham bo'lgan.

Buyuk Britaniyada 3 milliondan ortiq musulmonlar, asosan sobiq ingliz mustamlakalaridan, hamda Britaniya Hamdo'stligidan istiqomat qiladi.

Shunisi e'tiborga molikki, xatto kichik Bel'giyada ham 1975-yil "Bryussel islom markazi" ochilgan. Bu markazning ilk faoliyati turk o'qituvchilari va vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Uning yaqinida Yevropadagi eng katta masjidlardan biri qurilishini Saudiya Arabistoni moliyalashtirgan.

1995-yil o'rtalarida Rimda Italiyadagi yirik masjid tantanali ochilishi bo'lib o'tdi. O'tgan yuz yillikning 30-yillarida italiyalik diktator Benito Mussolini bunday masjid qurilishiga faqat Makkada katolik xramining qurilishi sharti bilan rozi bo'lgan. Endilikda vaziyat butunlay o'zgargan va rim masjidi nafaqat Italiyadagi, balki butun dunyodagi musulmonlar va xristian-katoliklar o'rtasida dialog o'rnatilishi ilinjida qurildi.

XX asr tarixining murakkab chorahalarida Albaniya, Bosniya, Kosovo, Bolgariya, Qrim va Sobiq Sovet Ittifoqining Yevropa qismidagi musulmonlari qoldi. Yevropaning bu qismida o'tgan yuz yillik soxta ayblovlar bilan musulmonlarni ta'qib qilish, cheklash va diniy omilni qo'llashda aks etuvchi ko'pgina fojeali to'qnashuvlarga boy. Bularning barchasi ko'pgina qurbonliklarga olib keldi va natijada musulmonlar soni va islom chuqurligi va sofligiga putur yetdi. Yevropaning bu qismida islomni qayta uyg'otish uchun harakatlar qilingan va bu Qrim tatarlari misolidan ayon. Biroq kelajakda ham ko'pgina ishlar sodir etish lozim, masjid va madrasalar qurilishi, diniy va milliy da'vatlar o'tkazish, gumanitar yordam va iqtisodiy qo'llabquvvatlash davom etishi kerak.

Yevropaning ilk musulmonlari. Ilk musulmonlar Yevropa yerlariga 711-yillarda, zamonaviy Yevropa millati umuman shakllanmagan davrda qadam qo'yganlar. Ular general Torik ibn Ziyodning (uning

nomi Gibraltar, ya'ni Jabbal at-Torik ya'ni "Toriq tog'i" ma'nosini bildiradi) mavritaniyalik askarlari edi. Musulmon desanti noqonuni ravishda german-vestgotlar o'rdasi tomonidan okkupatsiya qilingan Rim Ispaniyasi hududida tushgan.

Mavrlar avval Rim imperiyasining (Rum) fuqarolari bo'lganlar, shuning uchun ular germanliklar qo'l ostidagi ispan vatandoshlari oldida javobgarlikni xis qilganlar. (Shu o'rinda ta'kidlash joizki zamonaviy ispan tili roman, ya'ni rim tillari guruxiga kiradi). Vestgotlar qiroli Roderik tor-mor etilgan va 718-yilga kelib Ispaniya ozod etilgan.

Taxminan 800 yil Ispaniya musulmon davlati bo'lgan, biroq Inkvizitsiyaning qonli terrori bilan XVII asrga kelib musulmon aholisi qirib tashlangan, surgun qilingan va zo'ravonlik bilan katolitsizmga o'tkazilgan. Biroq ispan madaniyati hozirda ham islom qadriyatlarini saqlab qolgan: Algambra arxitektura majmuasi dunyoga mashhur, ispan adabiyotining eng mashhur asari Servantesning "Don Kixot" asari, obro'li adabiyotshunoslarning fikriga qaraganda (Borxes bilan birga), arab-ispan avtori Said Axmad Ben-Inxali asarining badiiy qayta ishlanganidir. Ispan ritsarlik eposining eng mashhur qaxramoni esa arab ismiga ega, ya'ni Sid - Saidan (arabchadan -"janob").

Yevropada musulmon aholisining o'sish omillari. Hech qanday istisnosiz barcha analitiklar bir fikrni ta'kidlaydi, yevropa musulmonlari soni oshib bormoqda. Bugungi kunda 2000-yil ma'lumotlari eskirgan. Buni tushuntirish uchun quyidagi dalillar ilgari suriladi:

1. Musulmon oilalarida tug'ilishning balandligi. Farzandlarning o'rtacha soni to'rttadan kamga tushmaydi. Ko'p hollarda bu din bilan targ'ib etiladi.
2. "Asl" ateistik yoki xristian aholisining vafot etishi. Ko'p yevropaliklarning ta'kidlashicha, farzandlar ularni "normal" hayot kechirishiga xalaqit beradi. Bitta farzandi bo'lganlar esa, kam xollarda ikkinchisi tuqilishiga rozi bo'ladilar. Bunda farzandlar ayolni jamiyatda o'z o'rnini egallashiga xalaqit beradi deb ta'kidlovchi feministik targ'ibot ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.
3. Boy va kambag'al davlatlar o'rtasidagi bo'linish. Bu bo'linish negizlari ko'p asrlik Yevropa va Shimoliy Amerika tomonidan Uchinchi dunyo mamlakatlarini talon-tarajiga borib taqaladi. Shunisi

aniqki, yaxshi xayotni izlab odamlar boy Yevropaga intiladi. Biroq do'stlar yordamisiz yangi joyda joylashish qiyin. Xususan, afrikalik musulmolarda doim afrikalik boshqa din vakiliga qaraganda birodarlari ko'proq, sababi uning oilasi ko'p millionli ummat, ikkinchisiniki esa kambag'al klan.

4. Yevropa "asl" aholisining Islomga o'tishi. Nisbatan kichik Fransiya oq tanli fransuz-musulmonlari soni 50 mingga yetgan, bu esa rus musulmonlaridan ancha ko'p.

Yevropalik musulmonlar aksiyalari. Yevropalik musulmonlar - bu faol siyosiy kuch. 2001-yil bahor va yozida o'rta Angliyaning Bradford, Lids va Oldem kabi sanoat shaharlaridagi britaniyalik hind musulmonlar o'z huquqlari haqida gapira boshladilar.

2002 yil Fransiya o'tgan parlament saylovlarida eng ekstremistik Milliy Front "asl" aholi ichida obro'ga ega bo'la boshladi, aynan fransuz musulmonlari chiqishlari bu tashkilotni siyosiy hayotga qaytardi.

Aynan yevropalik musulmonlar ta'siri ostida 2003-yil Iroqdagi urush masalalariga Yevropaning shaxsiy fikri shakllandi.

Yevropalik musulmonlarning oxirgi keng ko'lamli aksiyalari 2003-2004-yil qishda o'tkazilgan. Ular fransuz ta'lim Vazirligi tomonidan maktablarda xijobni (bosh ro'mol) ta'qiqlashiga qaratilgan edi. Bu AQSH va "Isroil"ning imperialistik siyosatiga qarshi kurashayotgan Palestina xalqini qo'llab-quvvatlashni hisobga olmagan holda.

Toriq Ramadan – yevropalik musulmonlarning lideri. Yevropada Islom mafkurachisi va yevropalik musulmonlar ma'naviy lideri bo'lib Toriq Ramadan sanaladi. Uning hayoti unikal jihatlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda yevropalik musulmonlarga xos. U 1962yilda Jenevada (Shveysariya), ko'p farzandli misrlik emigrant oilasida tug'ilgan. Ona tomondan 1928-yil Britaniya Misrda "Birodar- musulmonlar" tashkilotiga asos solgan va 1949-yil ingliz yollanmalari tomonidan o'ldirilgan.

Bizning mavzuga ko'ra e'tiborli tomoni shundaki, aynan "Birodar-musulmonlar" ilk bor yevropaning demokratiya va parlamentarizm g'oyalari (arab-misr atamasi "Jumhuriya") Islomga zid emas, butunlay muvofiq deb ta'kidlay boshlaganlar.

Toriqning ona tili bo'lib fransuz tilidir. U G'arbda tahsil olgan. Yevropalik musulmonlarning kelasi mafkurachisi ma'lum vaqt Fridrix Nitsshe falsafasini o'rgangan va litseylarda dars bergan. Biroq u o'z ajdodlari vatani, ya'ni Misrga borib kelganidan keyingina o'zligini topdi. Toriq avvalgidek o'qimishli intellektual, lekin shu bilan bir qatorda ashaddiy musulmon. 1990 yildan boshlab u yirik Yevropa davlatlarida islomni targ'ib qiladi, teleko'rsatuvlarda chiqadi va o'z dini haqida kitoblar yozadi. Toriq "antiglobalistlar" harakatining asoschilaridan biri, ya'ni o'z traktorida McDonalds restoranini yer bilan bitta qilgan fermer Joze Bove, bilan do'stona munosabatlarda. Shuningdek Toriq Yevropaning yosh musulmonlari orasida ham obro'ga ega. Uning o'nta kitobidan uchtasining nomi quyidagicha: "Musulmonlar sekulyaristik muhitda" (The Muslims in a Secular Environment); "G'arb musulmonlari va Islom kelajagi" (Western Muslims and the Future of Islam); "Yevropalik musulmon bo'lish nimani anglatadi?" (To be a European Muslim).

Zamonaviy Yevropada Toriq Ramadanning asosiy tezisi shundaki, yevropalik musulmonlar o'z ko'lami bilan cheklanishlari kerak emas. Yevropada tug'ilgan musulmonlar yevropa ta'limini olib, Yevropa ommaviy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib, Islom tarqalishiga o'z xissalarini qo'shishlari lozim.

Bunday ochiqlik madaniyatlar aralashishiga olib kelishi mumkin. Bunga Toriq Ramadan tarixiy milliy madaniyatni abadiy dindan ajratib olish kerak deb javob beradi.

"Arab madaniyati – bu Islom madaniyati emas", - deb ta'kidlaydi u". Arab bo'lmay qolishdan qo'rqmanglar, musulmon bo'lmay qolishdan qo'rqinglar!", "Men – yevropalikman, biroq men musulmonman", – deydi Toriq.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, shuni ta'kidlash lozimki, musulmonlarning soni Yevropa mamlakatlarida tobora oshmoqda. Buning sabablari Afrika va Yaqin Sharq (Suriya va b.) mamlakatlarda yuzaga kelgan harbiy, iqtisodiy va siyosiy inqirozdir. Bularning oqibatida Yevropa mamlakatlariga 2015-2016-yillarda qochoqlarning noqonuniy migratsiyaning kuchayishi.

Shuningdek, Yevropa mamlakatlarida istiqomat etuvchi musulmonlarning keskin demografik o'sishidir. Shuningdek g'arbona

mentalitetni qabul qila olmaslik yevropalik musulmonlar ongini radikallasuviga olib kelmoqda.

Seminar savollari:

1. Islomning Yevropada tarqalishi
2. Hozirgi zamonda Yevropada islom omili
3. Yevropalik musulmonlar

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Yevropa davlatlarida islom omilining faollashuvi
2. Yevropada musulmon jamoalari
3. Yevropada islom dinni

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. Ёвқочев Ш.А. Жаҳон сиёсатида ислом омили. Маъруза матни.Т., ТДШИ, 2015.
- Красиков А.А. Религиозный фактор в европейской политике. – М, 2000.
2. Ланда Р.Г. Ислам в истории России. – М.,1995.
3. Малащенко А.М. Исламское возрождение в современной России. – М.: Московский центр Карнеги, 1998.
4. Бородай С.Ю. Ислам в современной Европе: демография, интеграция, перспективы
5. Максимов Юрий: мусульманская эмиграция в Европу как вызов христианскому миру
6. Четверикова О. Ислам в современной Европе // Россия XXI, – М., 2005, № 1-2.
7. Даниэль Пайпс: Не превратится ли Европа в Еврабию? – Москва, 2014.
8. Курбанов Р.В. Фикх мусульманских меньшинств. Мусульманское право в современном немусульманском мире.
9. Плещунов Ф. О. Ислам в Дании: от карикатур на пророка Мухаммеда до шариата.

10. Плещунов Ф.О. Ислам в Бельгии: демократия или халифат?
11. Плещунов Ф.О. Ислам в современной Испании: мечта о
возрождении Аль-Андалуса. –Москва, 2015.

3.5. AMERIKADA ISLOM DINI

Dars o'quv maqsadi: talabalarga AQSHda islom dininig tarqalishi, zamonaviy AQSHda islom omilining o'ziga xos jihatlari, Islom subyektlarining maqsadlari, islom omilining Amerikaga geopolitik ta'siri to'g'risida batafsil ma'lumotlar berish.

Tayanch iboralar: Amerikada islom omili, islom subyektlari, syosiy islom, islom fundamentalizmi, musulmon oqimlari, diniysiyosiy sektalar, Afroamerikalik musulmonlar.

Reja:

1. Amerikada musulmonlarning paydo bo'lishi.
2. AQSH ga musulmonlar oqimi kirib kelgan davrlar.
3. 1913-yilda AQSH da islom tashkiloti tuzildi.
4. Qo'shma Shtatlarda islomning o'rni.

O'tgan asrning oxirgi o'n yilligida AQSHda Sharqdan chiqqan ko'pgina islom tarafdorlari shakllandi. AQSH tomonidan ilgari surilgan model, ya'ni ko'pgina xalqlar, madaniyatlar va dinlarni yagona Amerika millatiga birlashtiruvchi "suzib yuruvchi o'choq" modeli o'zini oqlamadi. Va hozirda bu davlat o'zidan turli milliy-madaniy jamoachilikni namoyon etadi, unda musulmon dunyosi 5 foizdan ko'pini tashkil etadi.

Amerikada musulmonlar XVII asrning boshlaridayoq paydo bo'lishgan. Amerika islom oliy kengashi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kundagi musulmonlarning soni unchalik aniq emas hamda 3 mln bilan 15 mln. o'rtasida o'zgarib turibdi.

Diniy statistika sohasidagi amerikalik taniqli mutaxassis Devid Berretning ma'lumotlariga qaraganda, 1900-yilda AQSH da 10 ming nafar musulmon istiqomat qilgan, 1970-yilda 800 ming nafar (ularning 200 ming nafari afro-amerikaliklar), 2000-yili 4 mln. 100 ming nafar

(shulardan 1 mln 700 ming nafari afro-amerikaliklar). Eng katta va har tomonlama so‘rov – diniy identifikatsiya milliy so‘rovnoma (113 ming nafar so‘rovnoma ishtirokchilari) – Nyu-York Universiteti akademiyasining Barri Kosmin va Seymur Lachman boshchiligidagi olimlari tarafidan 1990-yilda o‘tkazildi: AQSH aholisining 0,30 %i musulmonlardan iboratligi aniqlandi. U juda ham faol jamoa sanaladi, uning tarkibiga umuman har xil insonlar – ishchilar, shifokorlar, multimillionerlar kiradi.

AQSH da islom dini 3 ta asosiy guruhlar orqali namoyon bo‘lmoqda. Birinchisi, afro-amerikaliklar, ular bu yerga birinchi bo‘lib kelishgan hamda AQSH da musulmon jamoasining o‘ziga xos asosini yaratishgan. So‘ngra ikkinchi jahon urushi vaqtida Amerikaga Yaqin va O‘rta Sharqdan musulmonlarning ikkinchi oqimi kirib kelgan.

AQSHda 1930-yillarda yangi immigratsiya qonuni qabul qilinib, ushbu mamlakatga musulmonlar qarindoshlari va oila a‘zolarini taklif qilishga imkon berganidan keyin AQSH ga musulmonlarning uchinchi oqimi kirib kelishi boshlandi. AQSH ga musulmonlar migratiasining tortinchi bosqichi ikkinchi jahon urushidan so‘ng boshlangan hamda 1960-yillargacha davom etgan. Aynan shu davrda AQSH ga ko‘chib kelgan musulmonlarning ko‘pchiligini tadbirkorlar, talabalar turli kasb egalari, xodimlari tashkil qilgan bo‘lib, ularning ko‘chib kelishining asosiy sababi: iqtisodiy, madaniy, ta‘lim va ijtimoiy nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda ro‘y bergan.

AQSHga musulmonlar joylashuvining beshinchi oqimi musulmon mintaqalardagi geosiyosiy jarayonlarning (arab-isroil urushi, Isroilning Livanni bosib olishi, Afg‘oniston, Iroqdagi urushlar, Kavkazorti va Markaziy Osiyodagi geosiyosiy o‘zgarishlar) transformatsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur davr hozirgi kunga kelib ham davom etmoqda hamda Pokistondan, Bangladeshdan, Afg‘onistondan, Erondan, Indoneziya, Malayziya, Hindistondan, Yaqin Sharq arab davlatlaridan, Falastin Turkiya, Shimoliy Afrika hamda MDH mamlakatlaridan musulmonlar ko‘chib kelishining eng yirik oqimi kuzatilmoqda. Umuman olganda, 1820-1997-yillarda Amerika ma‘muriyati statistikasi bo‘yicha, 3 mln 300 ming nafar inson islom mamlakatlaridan AQSH ga ko‘chib kelgan (ko‘rsatilgan davrdagi barcha migrantlarning 5 % i atrofida).

Oxirgi oqim 1960-1970-yillarda Janubiy Osiyodan –Pokiston, Hindiston va Bangladeshdan ko‘chib keldi.

2020-yilga borib AQSH ning har bitta katta shaharida musulmonlar soni xristianlardan ko‘p bo‘ladi. Mazkur hisob-kitob ma‘lumotlari 2003-yilning 15-avgustidan 17-avgustigacha bo‘lib o‘tgan islom bo‘yicha milliy konferensiya chog‘ida islom bo‘yicha ekspert hisoblanuvchi Karl Ellis tomonidan aniqlanib, e‘lon qilingan. Islom diniga e‘tiqod qiluvchilar soni har yili 6% o‘smoqda. Oq tanli amerikaliklar AQSH da islomga e‘tiqod qiluvchilarning tez osishi uchun eng asosiy omil hisoblanadilar hamda AQSH dagi barcha musulmonlarning 80 -85 % ilgari xristian bo‘lishgan. “Agar shunday holat davom etadigan bo‘lsa, 2020-yilga borganda AQSHning har bir katta shaharida musulmonlar ko‘pchilikni tashkil etishadi” – deya bayonat beradi Ellis.

1913-yilda birinchi “qora” masjid –Nyu-Jersi shtatida Murshiy ilmiy ibodatxonasi tashkil topdi.

1913-yilda AQSH da islom tashkiloti tuzildi. AQSHda shu yillarda AQSH va Kanada islom uyushmalari Federatsiyasi, musulmon olimlari va muhandislari Uyushmasi (AMSE), Shimoliy Amerika Islom jamiyati (ISNA), musulmon talabalari uyushmasi (MSA), kasbiy birlashma – Islom tibbiyot uyushmasi (IMA), Musulmon jamiyatshunoslari Uyushmasi (AMSS), Amerika –Islom munosabatlari bo‘yicha Kengash (CAIR), Islom o‘quv markazi va boshqa tashkilotlar vujudga keldi. Oxirgi 5 yil ichida Amerika Qo‘shma Shtatlarida masjidlar soni 25 % ga oshdi hamda bunday imoralar miqdori 1500 tagacha o‘sadi.

Vashingtonda joylashgan Amerika – islom munosabatlari bo‘yicha Kengashi Amerika Qo‘shma Shtatlarida musulmonlar va islom bo‘yicha to‘g‘ri tasavvur hosil qilishga qaratilgan, yo‘naltirilgan tadbirining muvaffaqiyatli bo‘lganligini e‘lon qildi. Tadbir doirasida, xususan, turli shtatlar kutubxonalariga Islom bo‘yicha 16 mingta kitoblar to‘plami berildi. Hozirgi paytda kutubxonalarda islom bo‘yicha 7 mingta adabiyotlar bor hamda ular birinchi navbatda, Alabama, Delaver, Missisipi, Tennisi, Luizana va Red-Aylend shtatlarining kutubxonalarida tarqalishda davom etmoqda.

Amerikada musulmon jamoasi to'xtamay o'sishda davom etmoqda, masjidlar va musulmon maktablari soni ko'payib bormoqda (AQSH da ular 550 tacha), bunday maktablar AQSHda so'nggi yillarda juda mashhur bo'ldi. Faqatgina 10 % amerikalik musulmonlar kam darajali daromadlilar sirasidan, 52% o'rta qatlamga mansubdirlar, 28 % o'zlarini boy insonlar deb hisoblashlari mumkin. Nisbatan yuqori toifaga mansublik tufayli Nyu-York, Kaliforniya, Nyu-Jersi, Vashington, Illinoys, Massachusets hamda Ogayo kabi shtatlarda Amerikadagi musulmon jamoasi siyosiy hamda ijtimoiy vaziyatga anchagina ta'sir ko'rsatadi.

Fors ko'rfazidagi urush vaqtida 3 ming nafardan ortiq amerikalik harbiylar islom dinini qabul qildilar.

Agar AQSHda musulmonlar sonining taxminan qanchaligini hisoblash uchun 3 ta omilni hisobga olish lozim bo'ladi: Birinchidan, hisob-kitob chog'ida musulmon migrantlarning sonini XX asrda „Islom millati“ ning faoliyati natijasida islom dinini qabul qilgan afro-amerikaliklarning miqdoridan farqlash zarur bo'ladi. Ikkinchidan, musulmon migrantlarning orasida ham, afro-amerikalik musulmon orasida ham an'anaviy tarzda tug'ilishning yuqori darajadaligini hisobga olish darkor. Uchinchidan, islomni yangi qabul qilganlar (2005-yilning o'zidayoq 20 ming nafardan ko'proq inson islom dinini qabul qildi) orasidan oq tanli amerikaliklarni hamda lotinamerikaliklarni chiqarib tashlash mumkin emas.

Tadbir o'tgan yilning sentabr oyida boshlandi. Hozirgi vaqtda islom bo'yicha adabiyotlar 7 mingta kutubxonalarda mavjud hamda ular tarqalishda davom etmoqda – Alabama, Delaver, Missisipi, Tennisi, Luizana va Red-Aylend shtatlarining kutubxonalari navbatda turishibdi.

Amerika jamiyatida islom katta tezlikda tarqalayotganligini Oq Uyning rahbari ham tan olmoqda. AQSH Prezidenti Bill Klinton ma'muriyatining davlat kotibi Madlen Olbrayt o'tgan asrdayoq Nyu Yorkda bo'lib o'tgan Osiyo forumida chiqish qilib, AQSH da mavjud bo'lgan dinlar orasida eng tez tarqalayotgani bu islom dini deya tan oldi.

Shu sababli agar XXI asrning boshida AQSH dagi musulmonlar soni taxminan 4 mln. nafarni (beshinchi oqimda ko'chib kelganlarning avlodlari + afro-amerikaliklar musulmonlar + islom dinini yangi qabul

qilganlar) tashkil qilgan bo'lsa, migratsion va tabiiy demografik jarayonlar hisobga olinishi bilan ushbu ko'rsatkich kamida 2 barobardan ko'proqqa ko'paysa kerak. Bu holar bugungi kunda AQSH da musulmonlar soni hisob-kitob uyushmasi hisobotida aytilganidek, 2 mln. 600 ming nafarni emas, balki 8 mln.dan kam emas deya ta'kidlashimizga imkon beradi.

AQSH da 4 mln nafar atrofida musulmon va 150 ta masjid mavjud. Chet ellardan kelgan musulmonlar hamda ularning avlodlari taxminan tub yerli amerikaliklar (Amerikada tug'ilgan) bular asosan afro-amerikaliklardir, qolganlari uchdan birini tashkil qilishadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarda islomning o'rni haddan tashqari murakkabdir. Bu murakkab voqelik Amerikada islom jarayoni hamdir. U yerda amerikacha islomning rivojlanishining bir necha bosqichlari yuz bergan hamda Amerika musulmonlarini tashkil qiluvchi bir qator har xil guruhlar va uslublar mavjud bo'lgan.

Amerikada islomning 3 ta asosiy tarkibiy qismi mavjud: Vatanlaridan islomni olib kelayotgan immigrantlar; islom diniga e'tiqod qiluvchi afro-amerikaliklar; islom dinidagi birodarlik, tasavvuf guruhlari.

Islom – bu Amerikada eng tez tarqalayotgan din hisoblanadi, unda haligacha „boshqa“ e'tiqod tarzi saqlanmoqda.

Bugungi kunda musulmonlarning 40% dan ko'prog'ini afro-amerikaliklarlar tashkil etadi, ularning soni hisob-kitoblarga ko'ra 6 mln. dan 8 mln. gacha boradi. Ular yirik irqiy guruh sanalishadi. Ushbu harakat islom tomonida hamda uning haqiqiy tushunilishi tarafdoridir, biroq uning a'zolari tomonidan butunlay, to'liq qabul qilinmagan.

Amerika 1948-yilgacha haqiqiy ma'nodagi musulmon immigrantlarning oqimini ko'rmagan. Isroil davlati tashkil topgach, bu yerga birinchi marotaba falastinlik qochoqlar kelishgan. 1952-yilda MakKaren-Uolter hamda 1965-yilda o'tkazilgan asosiy immigratsiya islohotlari tufayli musulmon-immigrantlarning soni oshib borishda davom etdi. Kelib chiqishiga ko'ra, Afrikadan, Yaqin Sharqdan va Janubiy Osiyodan bo'lgan amerikalik-musulmonlar butun mamlakat bo'yicha ancha-muncha jamiyatlar tashkil qilishdi, lekin 11-sentabr voqealaridan so'ng ushbu ijtimoiy tuzilma parchalanib ketishi xavfi ostida turibdi. Afro-amerikaliklar hamda arab mamlakatlari va Janubiy

Sharqiy Osiyo davlatlaridan kelgan immigrantlar tomonidan AQSHga olib kelingan islom dini rivojlanishda davom etayotgan bir paytda, islom oq tanli amerikaliklarning qalblariga kirib kelganligini aniqlab, hayron qoldik. 60-yillarda ko'pchilik g'arb madaniyatidan tashqariga chiqib, insoniyat mavjud bo'lishining ma'no-mazmunini qidirgan.

Guru, inson potentsiali harakati seminarlari hamda transsend meditatsiya bilan bir qatorda "haqiqat izlovchilarning" katta qismi tasavvufga, ya'ni Islomda ma'naviy-ruhiy mukammalashish amaliyotiga berila boshlashdi.

Tasavvuf jamiyatlari Amerikada 1910-yildan buyon mavjud, ammo ular 60-yillardan ko'zga tashlana boshlashdi. 70-yillar islomiy tasavvuf tariqatlarida bir qancha shayxlar (ustozlar) paydo bo'lishi bilan muhrlangan. Bu holat Amerikada tasavvufning mavjudligini mustahkamlagan. Tasavvufning tamoyillari va amaliyotga rioya qilinishi tufayli tasavvuf mashurligi o'sha paytda juda yuqori bo'lgan.

Amerikada tasavvuf vakillarining ko'pchiligi oq tanlilardir. Shayx Rashid Patchning tushuntirishi bo'yicha: „Amerikada tasavvufning paydo bo'lishi dastlab „akademik“ holda bo'lgan“. Yer sharning mazkur qismida tasavvuf rivojlanishining nisbatan oldingi bosqichida dinga e'tiqod qilganlar kollejga yoki islom mamlakatlariga borishlari hamda bu yerlarda amaliyot o'tashlari mumkin edi“.

Seminar savollari:

1. AQSH da musulmonlarning o'rni?
2. AQSH da islom diniga bo'lgan e'tibor?
3. AQSH da islom dini 3 ta asosiy guruhlar orqali namoyon bo'lmoqda.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. AQSH ga musulmonlarning kirib kelish sabablari?
2. Amerikada islomning 3 ta asosiy tarkibiy qismi mavjud?
3. Musulmon Olimlari va Muhandislari Uyushmasi (AMSE) kimlar o'rtasida tuzilgan?
4. Shimoliy Amerika Islom Jamiyati (ISNA) ?
5. Musulmon Talabalari Uyushmasi (MSA)?
6. Kasbiy birlashma –Islom Tibbiyot Uyushmasi (IMA)?

7. Musulmon Jamiyatshunoslari Uyushmasi (AMSS)

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. John Esposito. Islam: The Straight Path (New York: Oxford Press, 1991).
2. Fatima Mernissi. The Veil and the Male Elite (Reading, Mass.: Addison-Wesley Publishing Company, Inc., 1991)
3. Leila Ahmed. Women and Gender in Islam (New Haven: Yale University Press, 1992).
4. Fredrick Denny, An Introduction to Islam (New York: Macmillan Publishing, Co., 1985), 135-36.
5. Yvonne Haddad and Adair T. Lummis. Islamic Values in the United States (New York: Oxford Press, 1987), 3ff.
6. John Voll. "Islamic Issues for Muslims in the United States," in The Muslims of America, ed. Yvonne Haddad (New York: Oxford University Press, 1991), 205 ff.
7. Frederick Denny. "Emerging Forms of the Muslim Community' (paper delivered at the American Council for the Study of Islamic Societies Annual Meeting, 1992).
8. Frederick Denny. Islam (San Francisco Harper and Row, Publishers, 1987), 111 ff.
9. Frederick Denny. "Emerging Forms of Muslim Community" (paper delivered at the American Council for the Study of Islamic Societies Annual Meeting, 1992).
10. Gutbi Mahdi Ahmed. "Muslim Organizations in the United States," in The Muslims of America, 12.
11. Steven A. Johnson. "Political Activity in Muslims in America,' in The Muslims of America, 12. Abubaker al-Shingiety. "The Muslim as the 'Other': Representation and Self Image of the Muslims in America" in The Muslims of America.
12. Prince-a-Cuba. "Black Gods of the Inner City," Gnosis Magazine, no. 25, (Fall 1992): 56-63.
13. Ari Goldman. "Reading, Writing, Arithmetic, and Arabic," New York Times, 3 October 1992.

14. Kathleen Moore, "Muslims in Prisons: Claims to Constitutional Protection of Religious Liberty" in *The Muslims of America*, 150-51.

15. Denny, Frederick. *An Introduction to Islam*. New York: Macmillan Publishing Co., 1985.

16. Haddad, Yvonne, ed. *The Muslims of America*. New York: Oxford University Press, 1991.

17. Haddad, Yvonne, and Adair T. Lummis. *Islamic Values in the United States*. New York: Oxford Press, 1987.

18. Haddad, Yvonne, and Jane Smith, eds. *Muslim Communities in North America*. Albany: State University of New York Press, 1994.

19. Prince-A-Cuba. "Black Gods of the Inner City." *Gnosis Magazine*, no. 25 (Fall 1992): 56-63.

4. ISLOMDA ZAMONAVIY MEGATREND VA TAHDIDLAR

4.1. XALQARO ISLOM TASHKILOTLARI VA ULARNING JAHON SIYOSATIDA TUTGAN O‘RNI

Dars o‘quv maqsadi: Magistratura talabalariga Xalqaro islom tashkilotlari va ularning jahon siyosatida tutgan o‘rni va hozirgi zamon xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro islom tashkilotlarining roli hamda Islom Hamkorligi Tashkiloti va uning faoliyati to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berish.

Tayanch iboralar: Xalqaro islom tashkilotlari, jahon siyosati, musulmon dunyosi, integrasion jarayonlar, Islom Hamkorligi Tashkiloti, hozirgi zamon xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro islom tashkilotlari.

Reja:

1. Xalqaro islom tashkilotlari.
2. Xalqaro islom tashkilotlarining jahon siyosatida tutgan o‘rni.
3. Hozirgi zamon xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro islom tashkilotlarining roli.
4. Islom Hamkorligi Tashkiloti (IHT) va uning faoliyati.

Xalqaro tashkilot tuzish yo‘li orqali butun dunyo musulmonlarini birlashtirish g‘oyasi Birinchi jahon urushidan so‘ng falastindagi diniy arboblarda orasida vujudga kelgan. Bunday g‘oyani Quddus muftiysi shayx Muhammad Amin al-Husayniy birinchilar qatorida ilgari surgan.

1926-yilda Makka shahrida xalqaro islom konferencesiyasi bo‘lib o‘tgan. Unda 15 musulmon davlatlari vakillari Islom Dunyosi Kongressi (IDK) tuzilganini e‘lon qilishdi. 1931 yilda Quddusda bo‘lgan navbatdagi sessiyaga qadar IDK tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilmagan edi. Quddusdagi forumda IDKning doimiy organi – Ijro etuvchi qo‘mita saylangan.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng birlashgan islom harakatining markazi bir qancha muddatga yangi musulmon davlati – Pokistonga ko‘chirilgan. 1951-yilda Karachi shahrida IDKning navbatdagi sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda 32 nafar davlat va musulmon jamoalari ishtirok etishdi. Kongressning rahbar organi, har yili majlis o‘tkazuvchi va bosh kotibni tayinlovchi Oliy kengash tuzildi.

IDKning 1962-yil Bog‘doddagi sessiyasi katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Unda 40 davlatdan, shu jumladan, SSSRdan ham delegatlar ishtirok etishgan. Sessiyada musulmon davlatlarining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash va Izroilga qarshi hamkorlik harakatlarining umumiy strategiyasi ishlab chiqilgan. IDK faoliyatini faollashtirishga xususiy har oylik “Musulmon dunyosi” jurnali va turli tillardagi qator radio translyatsiyalari tashkilotlari yordam berdi.

IDK musulmon diniy oqimlaridan biri neosalafiylar tomonidan faol qarshilikka uchradi. Uning ichida “Musulmonlar birodarlar” assotsiatsiyasi alohida faollik qo‘rsatadi. Uning uchun islom dunyosining Kongressi faqatgina Pokiston, Misr va Indoneziyadagi milliy tuzumlar manfaatlarini nazarda tutadigan tashkilot sifatida qabul qilingan.

Iordaniya qiroli tomonidan qo‘llab quvvatlangan assotsiatsiya o‘z tomoniga 15 davlat musulmon jamolarini jalb etdi (ulardan Misr, Eron, Marokash, Jazoir, Suriya, Livan, Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Afg‘oniston, Indoneziya). 1953-yilda ular yangi xalqaro tashkilot – Quddus uchun Umumiy Islom Kongressi (QUIK)ni tuzishdi. Uning faoliyati avval boshidan Falastin muaamosini hal qilishga qaratilgan

edi. Ammo, Isroilga qarshi birlashgan islom frontini tuzishni tashkil etish haqidagi takliflar bir necha bor oldinga surilishiga qaramay ular amalga oshirilmadi.

Saudiya Arabistoni qirolining tashabbusiga ko'ra 1962-yilda Makka shahrida Umumiy islom konferensiyasi bo'lib o'tdi va unda 32 davlat vakillari, asosan turli islom oqim va mazxablari (salafiyalar, neosalafiyalar, neovaxobiylar, malikiylar, xanbaliylar, shafiiylar, xanafiylar) ulamolari ishtirok etishdi. Konferensiya yakunida Islom Dunyosi Ligasi (IDL) – xalqaro nodavlat islom tashkiloti tuzildi. Tashkilot tuzilgandan boshlab Ligadagi yetakchi o'rinni uning asosiy moliyaviy donori hisoblangan Saudiya Arabistoni egalladi (IDLning 1962 yildagi budjeti 1 million rialni tashkil etgan bo'lsa, 1975-yilda 46 million, hozirgi kunda esa 100 millionga yaqinlashadi).

IDLning rasmiy hujjatlarida u diniy va madaniy rivojlanish yo'nalishidagi xalqaro sunniylar tashkiloti sifatida namoyon bo'ladi, hamda uning maqsadi – islom davlatlari o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi hamkorlikni yo'lga qo'yish, jamiyatda diniy madaniyatni kuchaytirish, musulmon davlatlari konstitutsiyalariga islom tamoyillarini kiritish hisoblanadi. IDL faoliyati davomida ko'p hollarda o'zining diniy va madaniy-ma'rifiy harakatlari chegarasidan chiqqan holda siyosiy aksiyalarda ham ishtirok etadi. Masalan, Chechenistondagi birinchi urush vaqtida u harbiylarga qarshi kampaniyalarni uyushtirgan. IDLning bosh kotibiyati Saudiya Arabistoni ulamolari bosh qo'mitasining rahbari shay Abd al-Aziz ibn Abdulloh ibn Bazning butun dunyo musulmonlariga "chechen xalqiga agressiyaga qarshiligiga yordam berish uchun" qurbonlik qilishga da'vat etganini qo'llab quvvatlagan.

IDL an'anaviy islom davlatlari bo'lmagan davlatlarda ham Liganing byurolarini ochish orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga harakat qilmoqda. Ularning faoliyati koordinatsiyasi maqsadida islom kengashlari tashkil etilgan edi: Yevropada (1973, shtab-kvartirasi Londonda), afrikada (1976, shtab-kvartirasi Dakarda), Shimoliy va Janubiy Amerika va Karib havzasi uchun (1970, shtab-kvartirasi NyuYorkda), Osiyoda (1978, shtab-kvartirasi Karachida).

IDL boshqa xalqaro nodavlat islom tashkilotlari – IDK, QUIK va 1965-yilda tuzilgan Afro-Osiyo Islom Kongressi faoliyatining

koordinatsiyasini boshqarish uchun ko‘plab sa‘y-harakatlarni amalga oshirishdi. Shu maqsadda 1964-yilda IDL boshchiligida IDK va QUIK o‘rtasida faoliyat sohasini taqsimlash bo‘yicha kelishuvga erishildi: birinchi tashkilotga diniy va madaniy-ma‘rifiy masalalar o‘tsa, ikkinchisi e‘tiborni Falastin muammosini yechishga qaratishi kerak edi. Biroq, mazkur sa‘y-harakatlar umumiy olganda kutilgan natijalarni bermadi. Faoliyat koordinatsiyasi hanuz sust hisoblanadi, IDK esa islom nodavlat tashkilotlari o‘rtasidagi yetakchi rolga da‘vosidan vos kechgani yo‘q.

1967-yildagi arab-izroil urushi va 1969-yil Quddusdagi Al-Aksa masjidining yoqib yuborilishi oliy darajadagi musulmon davlatlari konferensiyasi chaqirilishini tezlashtirdi. Konferensiya 1969-yil sentabrda Marokashning poytaxti Rabotda bo‘lib o‘tdi. Aynan shu yerda Islom Konferensiyasi Tashkiloti (IKT)¹ nomi ostida birinchi davlatlararo musulmon tashkiloti tashkil etildi.

IHTning Nizomida tashkilotning asosiy maqsadlari belgilangan: a‘zo davlatlar birdamligini ta‘minlash, ular o‘rtasida BMT Ustaviga amal qilgan holda iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, va boshqa hayotiy muhim

¹ 2011-yildan boshlab Islom Hamkorligi Tashkiloti deb nomlangan.

sohalarda hamkorlikni rivojlantirish va inson huquqlarini himoya qilish tamoyiliga amal qilish.

Nomzod davlatlar IHTga kirishda uch asosiy mezonning biriga javob berishi lozim: 1) aholining asosiy qismini musulmonlar tashkil etadi; 2) konstitutsiya davlatni islomiy sifatda ixtisoslashtiradi; 3) davlat rahbari musulmon hisoblanadi. Mazkur mezonlar 1987-yilda to‘liq ishlab chiqilgan. 1970-yilning boshlaridan buyon IHT a‘zo davlatlar soni 24 dan 57 taga yetgan (2000 yil).

IHTning rasmiy hujjatlarida xalqaro huquqning umumjahon qabul qilingan normalari musulmon huquqiy tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilinadi. IHT tomonidan ishlab chiqilgan “Inson huquqlari umum islom deklaratsiyasi” suveren davlatlar ichki ishlariga aralashmaslikni e‘lon qiladi, ammo shu bilan birga u yerda ayrim davlatlar, masalan Hindiston, Bolgariya, Filippinda kamchilik musulmonlarni himoya qilish haqida gap boradi. Buning asosi sifatida

u yerdagi musulmonlar butun dunyo musulmonlari jamoasi – ummatning ajralmas qismi hisoblani ta’kidlanadi.

IHT – xalqaro huquqning subyekti. 1975-yilda u BMT kuzatuvchisi maqomini oldi. IHTning asosiy forumlari majlislari kun tartibida asosiy o’rinni yaqin sharq muammosini hal qilish masalasi egallaydi. IHT a’zo davlatlari tashqi ishlar vazirlarining 1980-yilgi konferensiyasida musulmon dunyosidagi har qanday favqulotda vaziyatlarni ko’rib chiqish va IHT a’zo davlatlari o’rtasidagi mojarolarni hal qilish uchun a’zo davlatlarning 11 vaziri va IHT Bosh kotibiyati a’zolidagi doimiy qo’mita tashkil etildi.

IHTning barcha qarorlari tavsiyaviy xarakterga ega. BMTdan farqli o’laroq unda qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish mexanizmi mavjud emas. Shuning uchun uning faoliyati Iroq, Liviya va Sudan tomonidan asosan yaqin sharq muammosi bo’yicha natijalarga erisha olmaganligi uchun doimiy tanqidga uchraydi. IHTning samarasizligi, a’zo davlatlarning pozitsiyalaridagi qarama-qarshiliklar tufaylidir.

Nohukumat va hukumatlararo islomiy tashkilotlardan tashqari boshqa bir qator musulmon xayriya tashkilot va jamg’armalari mavjud. Ularning ba’zilari Rossiyada ham o’z bo’linmalarga ega 2000 yilda RF adliya vazirligi tomonidan turli yo’nalishdagi 6 nafar xalqaro islom tashkilotlari ro’yxatdan o’tkazilgan:

- Islom Dunyosi Ligasining bo’linmasi – Islom Yoshlari Umumjahon Assambleyasining mintaqaviy byurosi;
- “Ibrohim ben Abd al-Aziz al-Ibrohim” Rossiyadagi fondi (Saudiya Arabistoni);
- “Xalqaro Gumanitar Chaqiruv” xayriya tashkilotining bo’linmasi (Birlashgan Arab Amirliklari);
- Yordam va Qutqaruv Islom Agentligining bo’limi;
- “Islamik Relif” (“Islom yordami”) xayriya tashkilotining bo’linmasi;

Mazkur tashkilotlar faoliyatining maqsadi ularning rasmiy hujjatlarida ko’rsatilganlaridan deyarli farq qilmaydi – alohida shaxslar va diniy uyushmalarga moddiy yordam berish, diniy ma’rifatni rivojlantirish chegaralaridan chiqishmaydi.

Rossiya matbuoti va ilmiy adabiyotida bunday bo‘linma va fondlarning RF hududida faoliyati salbiy baholashlarni ko‘plab uchratish mumkin. Xususan, ular tomonidan gumanitar yordam bilan birga Saudiya Arabistoni tomonidan moliyalashtirilgan tashkilotlar tizimi tashkil etilgan va bu tashkilotlar postsovet hududida jamiyat hayatida islomning rolini oshirishga harakat qilgani va buning bilan u yerda bevosita yoki bilvosita ta’sir dorasini shakllantirishga harakat qilinganligi ta’kidlangan. Ammo Saudiya Arabistonining Umumjahon Islom Ligasi (UIL), Umumjahon Islom Yoshlari Assambleyasi, Xalqaro Islom Yordami Tashkiloti (XIYT – “Al-Igasa”), Masjidlar Ishlari bo‘yicha Umumjahon Islom Tashkiloti (MIUIT), Xalqaro “Tayba” xayriya yordami assotsiatsiyasi kabi tashkilotlardagi sezilarli ta’siriga qaramasdan ularning vakillari RF hududida deyarli nazoratsiz faoliyat yuritishgan va Shimoliy Kavkaz, xususan Chechenistondagi islom tashkilotlariga moliyaviy yordam ko‘rsatib kelishgan. Buning bilan Saudiya Arabistoni hukumati tomonidan rasman e’lon qilingan boshqa davlatlar ichki ishlariga aralashmaslik tamoyilini buzishgan. Bundan tashqari, barcha bu tashkilotlar Rossiyadagi rasmiy musulmon tashkilotlaridan alohida harakat qilishga intilishgan (moliyaviy yordam, Qur’on bepul tarqatish, masjidlar qurish, Makkaga haj qilishni tashkillashtirish, Rossiyadagi musulmonlarni arab davlatlaridagi diniy muassasalarida o‘qitish va Checheniston, KabardinoBalkariya, Karachevo Cherkesiya, Dog‘iston va Boshqirtistonning bolalari uchun o‘quv oromgohlarini tashkil etish).

1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Saudiya Arabistoni bir qator xalqaro islomiy tashkilotlarning xorijiy, shu jumladan Rossiyadagi bo‘linmalari faoliyatiga bo‘lgan munosabatini qayta ko‘rib chiqdi. Bu ko‘p hollarda Misr, Jazoir, Tunis va Hindistonning bosimi natijasida bo‘ldi. Mazkur davlatlar 1994-yilda undan alohida radikal islom guruhlari bilan yashirin aloqalarini va ularga moliyaviy yordam ko‘rsatishni to‘xtatishni talab qilishdi. Rossiyada 1995-yilda Adliya vazirligi o‘tkazgan tekshiruv natijasida XIYT bo‘linmasi, “Tayba” assotsiatsiyasi, gumanitar yordam Agentligi, mintaqalararo “Ma’lumot va tinchlik” jamoalari, Islom konressi, Musulmon yoshlari kengashi va boshqa tashkilotlar bo‘linmalari tomonidan jamoat uyushmalari to‘g‘risidagi qonunni buzish holatlari aniqlangan. Nihoyat,

1998-yildan boshlab Rossiya OAVda Saudiya Arabistoni xayriya fondlaridan yordam olgan Rossiya va MDX davlatlarida vaxxobiylar faoliyati to'g'risidagi maqolalar chiqa boshladi.

E'tirozlar ta'sir ko'rsatdi: 1998-yilning oxiridan boshlab xalqaro xayriya fondlarini moliyalashtirish miqdori sezilarli qisqartirildi. UIL, XIYT va Umumjahon Islom yoshlari ligasining Rossiyadagi bo'linmalarining rahbar kadrlari tarkibiga o'zgartirishlar kiritildi, mazkur tashkilotlarning asosiy hamkorlari sifatida Rossiyadagi rasmiy musulmon tashkilotlari belgilandi.

Seminar savollari:

- 1.Hozirgi zamon jahon siyosatida xalqaro islom tashkilotlari.
- 2.Xalqaro islom tashkilotlari va uning oziga xos jihatlari.
- 3.Islom Hamqorlik Tashkiloti va uning faoliyati.

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Xalqaro islom tashkilotlari
- 2.Xalqaro islom tashkilotlarning jahon siyosatida tutgan orni
- 3.Islom Hamkorlik Tahkiloti va jahon siyosati

Tavsiya etilgan adabiyot:

1. Ёвқочев Ш.А. Жаҳон сиёсатида ислом омили: Ўқув методик мажмуа. –Т.:ТошДШИ, 2015.
2. Ёвқочев Ш.А. Исламский фактор в политической системе современного Египта. –Т.:ТИУ, 2008.
3. Александров И.А. Монархии Персидского залива: этап модернизации. – М., 2000.
4. Исламская декларация прав человека // Хасанов Р. К. Организация исламская конференция (ОИК) в новой системе международных отношений. Дисс. ...доктора политических наук. - М., 1997. – с.325-337.
5. Косач Г.Г., Мелкумян Е.С. Внешняя политика Саудовской Аравии. Приоритеты, направления, процесс принятия политического решения. М., 2003. С. 105-130.

6. Конвенция об иммунитетах и привилегиях ОИК. – Сборник документов ОИК. // Исламское государственное право. - <http://constitutions.ru/archives/2792>.
 7. Конвенция ОИК по борьбе с международным терроризмом. – Сборник документов ОИК. // Исламское государственное право. - <http://constitutions.ru/archives/2792>.
 8. Мелкумян Е.С. Персидский залив: региональный баланс сил // МЭ и МО, 2000, №9.
 9. Жданов Н. Исламская концепция миропорядка. – М.: Международные отношения, 2003. – 586 с.
 10. Попов. В.В. Исламский фактор в мировой политике // Азия и Африка сегодня. – М., 2004. – № 1. – С. 8-11.
 11. Прохоренко И. Национальный интерес во внешней политике: проблемы концепции // Международная жизнь. – М., 1991. - № 12. - С. 126.
 12. Сидорова, Е.В. Основные тенденции развития региональных направлений политики Организации Исламская Конференция. // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. Серия Международные отношения. Политология. Регионоведение. – Вып. 2 (5). - Н.Новгород: ННГУ им. Н.И.Лобачевского, 2006. - С.374-380.
 13. Хасанов Р. Организация исламская конференция и мусульманские государства СНГ. - http://www.cas.org/journal/11-1997/st_03_hasanov.shtml. – 02.01.2008 г. 14.
- Шеръязданова К. От Организации Исламской Конференции к Организации Исламского сотрудничества // Credo New. Теоретический журнал. - №2, 2013 г. - Институт дипломатии Академии государственного управления при Президенте Республики Казахстан. <http://credonew.ru/content/view/1227/68/>.

4.2. SIVILIZATSIYALAR TO‘QNASHUVI:

AFSONA VA HAQIQAT

Dars o‘quv maqsadi: o‘quv fani haqida umumiy tasavvurni shakllantirish, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi: afsona va haqiqat tushunchalarining mohiyati haqida tushuncha hosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: sivilizatsiya, kanglomerat, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi, g‘arb sivilizatsiyasini (vesternizatsiya), texnologik taraqqiyot (modernizatsiya), Core states, Islom sivilizatsiyasi, Hind sivilizatsiyasi, Xitoy sivilizatsiyasi, Yapon sivilizatsiyasi, Lotin Amerika sivilizatsiyasi, Pravoslov sivilizatsiyasi, Afrika sivilizatsiyasi, Buddaviylik sivilizatsiyasi.

Reja:

1. Olimlarning sivilizatsiyalar to‘qnashuvi haqida fikrlari
2. Hantingtonning sivilizatsiyalarga tasnifi
3. M.Hotamiyning «sivilizatsiyalar muloqoti» konsepsiyasi

Amerikalik taniqli olim Frensis Fukuyama 1993-yili “Foreign affairs» jurnalining sahifalarida o‘zining “tarixning tugashi” g‘oyasini aytib o‘tgan, uning fikriga nisbatan Garvard professori Samuel Hantingtonning «Sivilizatsiyalar to‘qnashuvimi?» maqolasi o‘ziga xos javob sifatida yangradi. S. Hantingtonning maqolasi quyidagi jumlani keltirib o‘tish bilan boshlanadi: “Mening taxminimcha, mafkuralar ham iqtisodiyot ham dunyodagi ziddiyatlarning yuzaga kelishining asosiy manbasi hisoblanmaydi. Insoniyatni ajratib turuvchi muhim chegaralar hamda nizolar manbayi madaniyat bilan belgilanadi. Milliy davlatlar xalqaro munosabatlarda qatnashuvchi asosiy shaxs bo‘lib qolmoqda. Global siyosatda ziddiyatlar turli sivilizatsiyalarga taalluqli millatlar va guruhlar o‘rtasida avj oladi. Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi jahon siyosatida asosiy omil sanaladi. Sivilizatsiyalar o‘rtasidagi bo‘linish chizig‘i – kelajakdagi frontlar chiziqlaridir.

Kitobning asosiy g‘oyalari

- sivilizatsiyalar – bu har qanday umumiy belgilarga ega:a (madaniyat, til, din va boshqalar) mamlakatlarning katta kanglomeratlaridir. Qoidaga ko‘ra, asosiy belgilab beruvchi belgi ko‘pincha dinning umumiyligidir;
- sivilizatsiyalar davlatlardan farqli o‘laroq, odatda uzoq davr hukm suradi – qoida bo‘yicha, ming yildan oshiqroq;
- dastlabki sivilizatsiyalar vujudga kelgach, (Qadimgi Misr, Qadimgi Shumer, Bobil, Qadimgi Xitoy, Qadimgi Hind) 3 ming

yil mobaynida ular o'rtasida hech qanday aloqalar bo'lmagan yoki bu aloqalar juda kam va cheklangan holda bo'lgan;

- har bir sivilizatsiya o'zini dunyoning eng muhim markazi sifatida ko'radi hamda ushbu tushunchaga muvofiq tarzda insoniyat tarixini taqdim etadi;

- G'arb sivilizatsiyasi VIII– IX arslarda paydo bo'lgan. U XX asrning boshida o'z taraqqiyotining cho'qqisiga yetgan. G'arb sivilizatsiyasi qolgan boshqa sivilizatsiyalarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi;

- G'arb sivilizatsiyasini qabul qilish (vesternizatsiya) va texnologik taraqqiyot (modernizatsiya) bir–biridan ayro holda yoki bir-biri bilan mos tushgan (qisman yoki butunlay) holda ro'y berishi mumkin;

- diniy xurofotchilik modernizatsiya, vesternizatsiyaga nisbatan kaltafahm kishining reaksiyasi hisoblanadi;

- bir qancha sivilizatsiyalar (g'arb, hind, xitoy, pravoslav, yapon va buddaviylik) o'zining mustahkam asosiga, ya'ni tayanch mamlakatlarga (core states) boshqa sivilizatsiyalar esa (islom, lotinamerikasi, afrika) tayanch davlatlarga ega emas. Core statesga ega bo'lgan sivilizatsiyalar odatda ancha barqaror bo'ladi;

- global o'zgarishlar jarayonida, Ikkinchi jahon urushidan so'ng yuzaga kelgan xalqaro tashkilotlar (BMT va hokazolar) ham barcha mamlakatlarning manfaatlarini haqqoniyroq ravishda hisobga olgan holda bosqichma-bosqich o'zgarishlari lozim bo'ladi. Misol uchun, BMT Xavfsizlik Kengashida har bitta sivilizatsiya namoyish etilishi kerak.

(Hantingtonning tasnifiga muvofiq):

1. G'arb sivilizatsiyasi
2. Islom sivilizatsiyasi
3. Hind sivilizatsiyasi
4. Xitoy sivilizatsiyasi
5. Yapon sivilizatsiyasi
6. Lotinamerika sivilizatsiyasi
7. Pravoslov sivilizatsiyasi

8. Afrika sivilizatsiyasi

9. Buddaviylik sivilizatsiyasi Baʼzilar Samuel Hantingtonning “islom olamining chegaralari qon bilan botirilgan” degan mashhur soʻzlarini eslaydi. 2006–yilda bestsellerga aylangan ...Xudo xuddi illyuziya kabidir” kitobi muallifi, angliyalik etolog va ateist Richard Dokins (Richard Dawkins) twitterda quyidagi jumlanı yozadi: «Ular Paygʻambar Muhammad uchun qasos oldik deya qichqirishardi»...Foydali telbalar, albatta, bu yerda dinning hech qanday aloqasi yoʻq deb aytishadi. Keyinchalik u: «Barcha dinlar ham zoʻravonlikka bir xilda moyil emas. Baʼzi birlari uni hech qachon yoqtirishmagan, bir nechtasi bir necha asr oldin undan voz kechishgan. Birorta ham din buni sodir etmaganligi aniq» – deya qoʻshimcha qildi. Somaliylik Ayaan Xirsi Ali “Wall Street Journal”da: «Balki, mazkur dahshatli jangdan soʻng...Va nihoyat, Gʻarbda, zoʻravonlik va radikal islom oʻrtasida aloqasi borligini rad qilayotgan samarasiz urinishlarnı yoʻqqa chiqardi» deb yozgan.

Qaysidir uzoq maʼnoda, Dokinz va Ali ochiq-oydin dalillarga eʼtiborlarini qaratmoqdalar. Albatta, jihodchilar, shu jumladan, Yevropadagi terrorchilik harakatlari ishtirokchilari islomning radikal oqimiga mansubdirlar. Shuningdek, shubhaga oʻrin yoʻqki, oʻzini “iymon uchun kurashuvchilar” deb atovchilar oʻzlarining qonli yurishlarini islom ruhoniylarining baʼzi radikal vakillarining nuqtayi–nazarlari bilan oqlashmoqda. Tarixda soxta salafiylik kabi bunday fundamentalistik harakatlarda oʻziga xos shaxslar boʻlgan, masjidlar va internet tarmogʻidagi radikal daʼvatchilar, targʻibotchilar koʻpincha ularning gʻoyalariga suyanishadi.

Maʼlumki Fransiyada 2015-2016-yillarda sodir boʻlgan qoʻporuvchilik harakati roʻy berganidan keyin Yevropa musulmonlari bu ishlarnı qoralab, «bu dahshatli va yovvoyi xatti-harakat – demokratiya va soʻz erkinligiga zarba hisoblanadi» – deya taʼkidladilar. Britaniya musulmonlari Kengashi: Hujum qilganlar kim boʻlishlaridan va qanday gʻoyaga ergashganliklaridan qatʼiy nazar, qotillikni hech narsa oqlay olmaydi»– deya qayd etib oʻtdi. Arab Davlatlari Ligasi terrorchilikni qoraladi, dunyodagi eng obroʻli diniy akademiya hisoblanmish Qohiraning Al-Azhar Universiteti, jurnalistlarning

o'ldirilishini «jinoiy xatti-harakat» deb atadi, «islom har qanday zo'ravonlikni qoralaydi» – deb qo'shimcha qildi.

Ko'pchilik musulmonlar jihodchilarga qurolli yo'l bilan qarshi chiqishmoqda. ISHIDga qarshi kurashayotgan suriyalik, iroqlik, kurd, eronlik askarlarning aksariyati musulmonlardir. Pokiston va Afg'onistonda ham jihodchilarga qarshi kurash olib borayotgan hukumat kuchlarining deyarli hammasi musulmonlardir.

Buning ustiga-ustak, jihodchilarning qonxo'rliklarining qurbonlarining ham katta qismi musulmonlardir. Iroqda o'tgan oylarda jihodchilar miglab odamlarni o'ldirishdi, ulardan ko'pchiligi tinch aholi vakillaridan edi. Ularning deyarli hammasi islom diniga e'tiqod qilgan deb ishonch bilan aytsak bo'ladi. Pokistonda toliblar tarafidan uyushtirilayotgan shafqatsiz qo'poruvchilik harakatlar tufayli yuzlab insonlar haloq bo'lmoqda. 2015-yilda “Charlie Hebdo” nashriyoti binosida o'ldirilganlardan biri Ahmed Merabe ismli fransuz politsiyasi xodimi musulmon bo'lganligini binoning ichkarisida o'ldirilganlar qatorida adabiyotshunos muharrir Mustafa Urrad (Mustapha Ourrad) kelib chiqishiga ko'ra jazoirlik ekanligini bilganligimizni ham yoddan chiqarmaslik kerak.

Ko'plab munosabatlarda «jihod»ning ko'tarilishi – bu G'arb va Sharq o'rtasida kelishmovchiliklar deb qaralmaydi, balki shu bilan birga musulmonlar o'rtasida urush deb qabul qilishadi. 2015-2016-yillar Yevropadagi fojealar asnosida bunday narsalar haqida eslash qiyinchilik tug'diradi, lekin shunday qilishimiz zarur. J.Kerri terrorchilik harakatidan so'ng Davlat kotibiyatida chiqish qilgan vaqtida to'g'ri uslubni tanladi: «Bugungi qotillik – bu sivilizatsiyalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar hisoblanmaydi, balki sivilizatsiyalar hamda butun sivilizatsiyaviy dunyoga qarshi bo'lganlar o'rtasidagi qarama-qarshilikdir,–deya bayonot berdi davlat kotibi. Qotillar Charlie Hebdo o'ldi deb e'lon qilishga haddilari sig'di. Shakshubhasiz, ular adashishdi».

Hantingtonning tasnifiga ko'ra sivilizatsiyalar ro'yxatiga quyidagilar kiradi:

- G'arb sivilizatsiyasiga – AQSH, Kanada, G'arbiy Yevropadagi davlatlar va Avstraliya.

- Islom sivilizatsiyasiga – Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari.
- Hind sivilizatsiyasiga – Hindiston.
- Xitoy sivilizatsiyasiga – Xitoy.
- Yapon sivilizatsiyasiga – Yaponiya.
- Lotin Amerikasi sivilizatsiyasiga – Janubiy Amerikaning deyarli barcha mamlakatlari. Provaslav sivilizatsiyasiga – Rossiya va Sharqiy Yevropa davlatlari.
- Afrika sivilizatsiyasiga – Afrikaning janubida joylashgan mamlakatlar.
- Buddaviylik sivilizatsiyasiga – Tibet va Mo‘g‘uliston kiradi.

Hantington sivilizatsiyalarning hududiy jihatdan qo‘shniligi ular o‘rtasida qarama–qarshiliklar va hatto ziddiyatlarga olib kelishini ta’kidlab o‘tdi. Shuningdek, u uzoq kelajakda islom va g‘arb olamlari o‘rtasida qarama–qarshiliklar bo‘lishidan qochib qutilib bo‘lmazligi to‘g‘risidagi fikrni ta’kidlab o‘tgan. Mazkur holat “Sovuq urush” davrida Sovet–Amerika o‘rtasidagi kurashni yodga solib o‘tadi.

Nima uchun sivilizatsiyalar to‘qnashuvi yuz berishi muqarrar deb garb olimlari o‘ylashadi? Ular fikricha sivilizatsiyalar o‘rtasida yaqqol farqlar mavjud. Ular anchayin ko‘zga ko‘rinarli. Sivilizatsiyalar tarixi, musiqasi, urf-odatlar, eng muhimi dini bo‘yicha o‘xshash emas deyishadi. Har xil sivilizatsiyalarga mansub odamlar Tangri va inson, individ hamda guruh, fuqaro bilan davlat, ota-onalar va farzandlar, er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarga nisbatan turlicha qarashlarga egadirlar, huquq hamda burchlarni, erkinlik va tiyilib turishni, tenglik hamda tabaqalanishni ham turlicha tushunishadi. Mazkur farqlar yuz yillar mobaynida shakllanib borgan. Ular kelajakda ham yo‘q bo‘lib ketmaydi. Ular mustahkamroq asosga ega, siyosiy mafkuralar hamda tuzumlar o‘rtasidagi farqlar qanchalik kuchayib borsa, dunyo shunchalik bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib boradi.

Bir tomondan G‘arb o‘zining rivojining cho‘qqisida turibdi, boshqa tarafdin esa boshqa g‘arb sivilizatsiyasiga aloqador bo‘lmagan boshqa sivilizatsiyalarning o‘zlarining ildizlariga, negizlariga qaytishlari jarayoni boshlandi. O‘zining qudratining cho‘qqisidagi G‘arb g‘arb bo‘lmagan davlatlar bilan to‘qnashmoqda, jahonga g‘arb

bo‘lmagan manzarani taqdim etishlari uchun, ushbu mamlakatlarda yetarli darajada intilishlar, iroda va resurslar mavjuddir.

G‘arbning boshqa sivilizatsiyalar bilan yanada ko‘proq va ko‘proq hisoblashishiga to‘g‘ri keladi, ular kuch-qudrati jihatidan unga yaqin turadi, ammo qardyatlari va qiziqishlari jihatidan undan ustun turadi. G‘arbdan boshqa sivilizatsiyalarning dinining negizlarini va falsafasining asoslarini yanada chuqurroq tushunishi talab etiladi. U mazkur sivilizatsiyalarning vakillari manfaatlarini qanday namoyon etishlarini anglashi darkor bo‘ladi. G‘arb hamda boshqa sivilizatsiyalar o‘rtasidagi o‘xshash tomonlarini topishi lozim bo‘ladi. Bunday qilinmas ekan, kelajakda hamma uchun mos keladigan yagona sivilizatsiyani shakllantirib bo‘lmaydi. Olam bir-biriga o‘xshamaydigan sivilizatsiyalardan tuzilgan bo‘ladi hamda ularning har biri qolganlaridan o‘rganishiga to‘g‘ri keladi.

M.Hotamiyning «sivilizatsiyalar muloqoti» konsepsiyasi. Sobiq Eron prezidenti Muhammad Hotamiy (Eronni 1997–2005– yillarda boshqargan) 2000-yilda BMTda amerikalik siyosatshunos

Hantingtonning «sivilizatsiyalar to‘qnashuvi» nazariyasiga javoban birinchi bo‘lib, «sivilizatsiyalar muloqoti» konsepsiyasini ilgari surdi. «Sivilizatsiyalar muloqoti» konsepsiyasiga muvofiq, har xil sivilizatsiyalar o‘rtasida konstruktiv muloqot orqali tushunmovchiliklarni bartaraf etish hamda yagona to‘xtamga, kelishuvga erishish imkonini beradi, shuningdek, tinchlik, barqarorlik o‘rnatish va turli sivilizatsiyalarning osoyishta hukm surishi uchun sharoit yaratiladi.

«Sivilizatsiyalar muloqoti» konsepsiyasi ko‘pchilik Yevropa mamlakatlari o‘rtasida ijobiy munosabatga erishdi. Professor A.G.Dugin ushbu konsepsiyaga quyidagicha izoh berib o‘tadi: «Eron Prezidentining mazkur tashabbusi (sivilizatsiyalar muloqoti) onglarni madaniyatlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar doktrinasidan xalos etdi».

M.Hotamiy ko‘plab chiqishlarini, ocherklarini, maqolalarini sivilizatsiyalar muloqoti masalasiga bag‘ishladi. Ular «Islom, muloqot va fuqarolik jamiyati», «Avtoritar hokimiyatning an‘analari va ma‘nomazmuni», «Bo‘ron oldidagi qo‘rquv» nomli nashrlarining asosida jamlandi.

Sivilizatsiyalararo muloqot tamoyilining asosiy xususiyati sifatida M.Hotamiy xalqlar va davlatlar o'rtasidagi tenglikni ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, uning har bir ishtirokchisi boshqasini hurmat qilganda hamda unga nisbatan teng munosabatda bo'lgandagina muloqot mavjud bo'lishi mumkin. Muloqotga kirishish uchun tomonlarning roziligining o'ziyoq «insoniyatning ulkan muvaffaqiyatidir».

Sivilizatsiyalararo muloqotda musulmonlarning samarali qatnashishlarining muhim sharti deb M.Hotamiy islom olamidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish lozimligini qayd qilib o'tadi. Uning fikricha, ular birinchi navbatda, diniy ahkomlarni, madaniy an'analarni turlicha talqin etishlaridan kelib chiqadi. Hotamiyning qarashlariga ko'ra mazkur to'siqlarni bartaraf etsa bo'ladi, bu esa tashqi kuchlarning ongli ravishda yoki bexosdan musulmonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklardan islom hamjamiyatining zarariga foydalanish imkoniyatlarini kamaytirgan bo'lar edi.

Shu bilan bir birga M.Hotamiy hamma insonlarning bir xilda fikrlamasliklari, buning ustiga-ustak har xil sivilizatsiyalarning vakillari ekanliklari sababli barcha turli-tumanliklarni butunlay chetga surib qo'yib bo'lmasligidan kelib chiqqan edi.

Biroq tiniq fikrlar antogonizmga, kelishmovchiliklarni, tajovuzkorlarni, urushlarga aylanib ketmasligi muhimdir. Agar haqiqatan ham muloqot olib borishga ehtiyoj bo'lsa, mulohazakorlik, oqilonalik bilan harakat qilishga to'g'ri keladi.

Insoniyat oldida turgan dunyo miqyosidagi muammolarni hal etishning alternative sifatida muloqotni taklif eta turib, M.Hotamiy uni amalga oshirilish imkoniyatlariga haddan oshiqcha ishonib yuborishni hamda haddan tashqari tushkun munosabatni ham ham rad qiladi hamda muloqot yo'lining qiyin bo'lishini tavsiflaydi, lekin shu bilan birga uni ro'yobga chiqarish mumkinligiga ishonadi. U muloqotni amalga oshirishning aniq bosqichlarini taklif etadi: islom dunyosining ichida, islom va g'arb sivilizatsiyalari hamda boshqa sivilizatsiyalar o'rtasida. Shu bilan birga, hozirgi vaqtdagi g'arb (xristian) sivilizatsiyasining salbiy jihatlarini tavsiflab, M.Hotamiy uning quyidagi salbiy xususiyatlarini: oiladagi inqirozni, odamlar va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlaridagi inqirozni, ilmiy tadqiqotlarda etik inqirozlar va

hakoziar. Islom sivilizatsiyasi bilan samarali muloqoti vaqtida mazkur inqirozlarni bartaraf qilsa bo‘ladi.

S.Hantington va uning hamfikrlarining ishonishlariga qaramay, prezident M.Hotami muloqot olib borish mumkinligiga hamda uning dolzarbligiga urg‘u beradi. Ammo buning uchun, uning qarashlariga ko‘ra, aniq shart-sharoitlar talab etiladi, shular qatoriga, dushmanlik va ishonchsizlikni yengib o‘tishlari uchun, dunyo xalqlari va hukumatlarining birgalikdagi intilishlari; militaristic tuzumlarga muloqot olib borish orqali taraqqiyparvar kuchlarning ta’sir qilishlari maqsadida bosim o‘tkazishlari hamda umumiy faol nuqtayi nazarlarni ishlab chiqishlari; ikki tomonlama, mintaqaviy hamda dunyo miqyosidagi og‘riqli muammolarni bartaraf etish uchun muloqotni amalga oshirish maqsadida demokratik muhit uchun sharoitlar yaratish kabilar kiradi.

Barcha sivilizatsiyalar va uning tarkibiy qismlari (xalqlar, mamlakatlar va tashkilotlar) muloqot ishtirokchisi bo‘lishlari mumkin va lozimdir. Ular butun insoniyatga tegishli muammolarni, sivilizatsiyalarning qarashlaridagi har xilliklar bo‘lishi mumkinligini hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunishadi hamda muloqot masalalariga nisbatan aqidaparatlilik qarashlardan qochishadi. Muloqotning afzalligi, insoniyat hayotida to‘planib qolgan moddiy va ma’naviy muammolarni bartaraf qilishning mukammal variantlarini birgalikda izlash uchun samarali yo‘llarini ochadi va shakllantiradi.

Sivilizatsiyalararo muloqot yangi hodisa emas. Bu jarayon madaniyatlar va sivilizatsiyalar o‘choqlarining shakllanishining ilk bosqichlarida boshlangan edi. Turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar har doim o‘zaro aloqada bo‘lishgan hamda o‘zlarining eng yaxshi ma’naviy va moddiy qadryatlarini berish yo‘li bilan bir-birlarini boyitganlar. Sivilizatsiyalar muloqoti nazariyasining o‘ziga xosligi tizimlilik, ilmiy va amaliy jihatdan asoslanganligi hamda tehnika, tehnologiyalar va kommunikatsiya vositalarining hozirgi zamondagi darajasini hamda insoniyatning mavjud bo‘lishiga tahdid solayotgan dunyo miqyosidagi muammolarni hisobga olgan holda jahon siyosatidagi turli ishtirokchilarning o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf qilish maqsadlarida sivilizatsiyalar o‘rtasida o‘zaro almashinuvlarini

maqsadga yo'naltirilgan holda foydalana olish mumkinligi bilan izohlanadi.

S.Hantingtonning nazariyasi «sovuq urushi» davridan so'ng dunyoda jahon sivilizatsiyalaridan birining dunyoda hukmron bo'lishini ta'minlashga intilayotgan, ya'ni aynan AQSH yetakchiligidagi g'arb sivilizatsiyasining hukmronligiga harakat qilayotgan kuchlarning manfaatlarining o'ziga xos tarzidagi ifodasi hisoblanadi. Lekin hozirgi paytda insoniyat oldida turgan ekologiya, demografiya, tabiiy boyliklardan foydalanish, yadroviy qurollar va ularni yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan dunyo miqyosidagi muammolarni hisobga olgan holda hamma xalqlarning hamda mamlakatlarning birgalikda, jipslikda, yakdillikda harakat qilishlariga dunyo har qachongidan ham ko'proq muhtoj bo'lmoqda. Ushbu holatda bir qancha mamlakatlar va olingan alohida sivilizatsiyaning jahonda yetakchilikka erishishi hamda dunyo tizimiga bir qutblilikni tiqishtirish fojeali oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, islom olamidagi integratsiya musulmon mamlakatlarining o'zlarida ham butun dunyoda ham barqaror taraqqiyotni ta'minlashga imkon beradi. Musulmon mamlakatlarida mavjud diniy umumiylik, ma'naviy yaqinlik hamda umumiy madaniyat meroslariga ilmiy, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohalaridagi hamkorliklarni va o'zaro almashinuvlarni qo'shsa, bularning hammasi, shubhasiz, taraqqiyot, mustahkam rivojlanish va barqaror jamiyat yaratish uchun kerakli moddiy va ma'naviy vositalarni va tayanchlarni taqdim etadi hamda musulmon mamlakatlarining rivojlanishi va barqarorligini ta'minlaydi.

Sivilizatsiyalararo muloqot – bu qisqa paytli kampaniya emas, balki aniq ishlar va dasturlardir amalga oshirishdir, – deya hisoblaydi «Sivilizatsiyalar muloqoti» Jahon Jamoatchilik Forumi rahbari Vladimir Yakunin. Shuningdek muloqot – bu magistral yo'l bo'lib, XXI asrning boshlaridagi muloqotlarda dunyo tuzilishining mustahkam turishi, butun insoniyatning manfaatlar uchun sivilizatsiyalararo va xalqlararo hamkorlik qilishdir. Shuning uchun, mamlakatlarning madaniy, ilmiy, iqtisodiy, ekologik hamkorligi bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlarga, muloqot g'oyalarining ro'yobga chiqarilishiga hamda sivilizatsiyalarning hamkorligiga e'tibor qaratish

lozim. Sivilizatsiyalar muloqoti – bu ko‘p madaniyatli va ko‘p qutbljahon hamjamiyatini me‘yoriy shakllantirish uchun xalqaro siyosiy nazariyasidir.

O‘z paytida 2001-yilni Birlashgan Millatlar Tashkiloti turli sivilizatsiyalararo muloqot yili deb e‘lon qilgan. Mazkur yilda va keying yillarda bir qator uchrashuvlar, konferensiyalar, «doira stollari» o‘tkazildi, ularda turli mamlakatlarning olimlari, jamoat, diniy va siyosiy doiralarining vakillari sivilizatsiyalarning munosabatlari va o‘zaro ta’sirlari muammolari bo‘yicha fikr almashdilar. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning holatining o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq holda, shartli gapirganda, g‘arb va islom sivilizatsiyalari, xristianlik va islom o‘rtasida muloqot bo‘lishi lozimligiga urg‘u berilgan.

Seminar savollari:

1. Sivilizatsiya o‘zi nima?
2. Afsonalarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Qadimgi sivilizatsiyalar haqida nimalarni bilasiz?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Samuel Hantingtonning «Sivilizatsiyalar to‘qnashuvimi?» maqolasi haqida (esse).
2. M.Hotamiyning «sivilizatsiyalar muloqoti» konsepsiyasi to‘g‘risida referat

Tavsiya etilgan abiyotlar ro‘yxati:

1. Амири М. Теория столкновения цивилизаций: Хантингтон и его критики. –Тегеран, 2002.
- 2.Бажанов Е.П. Актуальные проблемы международных отношений. Избранные труды. Т. 1. –Москва: Научная книга, 2002.
- 3.Вагин М.В. Президент М. Хатами и его концепции исламского гражданского общества и диалога цивилизации/ Иран: ислам и власть. Москва, Институт Востоковедения РАН, Изд–во Крафт, 2002.
- 4.Кузык Б.Н., Яковец Ю.В. Цивилизации: теория, история, диалог, будущее. Т. 5. –Москва, 2008.

- 5.Международное обозрение: насколько велика жизнеспособность концепции «диалог цивилизаций»/ Газета «Женьминьжибао», 07.04.05.
- 6.Мелихов И.А. М. Хатами: межкультурный диалог и мусульманское сообщество/ «Дипломатический вестник», серия «Дипломатия, наука и общественность». –№ 9. 2001.
- 7.Петито Ф. Диалог цивилизаций как предмет для глобальных политических дискуссий: некоторые теоретические размышления/ Диалог цивилизаций и международные отношения в условиях глобализации: монография. Москва – Нижний Новгород – Бейрут, 2008.
- 8.Степанянц М. Десять лет диалога между цивилизациями/ World Public Forum Dialogue of Civilizations, 9 September 2010.
- 9.Тойнби А. Дж. Мир и Запад. –Москва, 2003.
- 10.Тойнби А. Дж. Постигание истории. –Москва, 1991.
- 11.Тойнби А. Дж. Цивилизация перед судом истории. –Москва, 2003.
- 12.Фукуяма Ф. Конец истории?/ Вопросы философии. –№ 3, 1990. С. 84–118.
- 13.Хантингтон С. Столкновение цивилизаций?/ Полис. –№1, 1994. С. 33–48.
- 14.Хатами М. В человеке сосредоточены душа Востока и разум Запада/ Сборники статей и выступлений. –Москва, 2001.
- 15.Якунин В.И. «Диалог цивилизаций» во времена глобальных трансформаций / Независимая газета, –28.12.2011.
- 16.Huntington P. Samuel. The Clash of Civilizations. Remaking of World Order. Simon and Schuster, New York, 1997.
- 17.Huntington S. P. The Third Wave. Democratization in the Late Twentieth Century. – University of Oklahoma Press, 1993.

4.3. ISHID: HAQIQAT VA IDDAO

Dars o‘quv maqsadi: ILID guruhi aslida qanday tashkilot, ushbu guruh qanaqagi siyosiy maqsadlarni ko‘zlamoda, islom shiorlari orqasiga berkingan holda qanday jinoyatlarni sodir etmoqda.

Tayanch so‘zlar va atamalar: ILID, ID, ISHID, sunniy fundamentalizmi, islom radikalizmi, harbiy jinoyatlar, genotsid, sunniylik, yazidchilik, shialik.

Reja:

1. Iroq va Levanta Islom davlati: yuzaga kelishi, maqsadlari, tavsifi va boshqaruvining o‘ziga xosliklari.
2. Guruhni moliyalashtirish.
3. Targ‘iboti va tashviqoti.
4. ISHIDning jinoyatlari.

Iroq va Levant Islom davlati¹ (ILID, ID, DAISH – arabchadan *al-Dawla al-Islamiya al-Iraq al-Sham*, ISHID- o‘zbechadan *Iroq va Shom Islom davlati*) – Amalda 2013-yildan buyon Suriya va Iroq hududida harakat qilayotgan, shariat boshqaruvi shakliga asoslanadigan, tan olinmagan kvazidavlat (2014-yilning 29-iyunida o‘zini butun yer yuzi xalifaligi sifatida e‘lon qilgan) sanalib,, uning qarorgohi (poytaxti) Suriyaning El-Raqqa shahrida joylashgan bo‘lib, u radikal islomiy terrorchi tashkilot hisoblanadi. Suriya va Iroqdan tashqari, ISHID hamda uning nazorati ostidagi guruhlar Livan, Afg‘oniston, Jazoir, Pokiston, Liviya, Misr, Yaman, Nigeriya hududlarida jangovar harakatlarda ishtirok etishmoqda hamda bir qator boshqa davlatlarda terrorchilik faoliyatini olib borishmoqda.

ISHID ko‘pchilik mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan terrorchilik tashkiloti sifatida tan olingan.

¹ Bundan keyin matnda o‘zbekcha varianti ISHID deb beriladi.

U 2003-yilda Iroq hududida “Iroqdagi Al-Qoida” (uning asoschisi iordaniyalik Ahmad Fadl Xaleyla bo‘lib, u Abu Musab azZarqavi sifatida ma’lum bo‘lgan) terrorchilik tashkiloti tarzida paydo bo‘lgan.

Saddam Husayn ag‘darilganidan keyin harbiy xizmatni tark etgan Iroq qurolli kuchlarining sobiq xodimlari, harbiy xizmatchilari tashkilotning negizini tashkil etishadi. Ular „Arab Qayta tiklash Partiyasi” Iroq siyosiy partiyasining a‘zolari bo‘lishgan. Shuningdek, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya, Rossiya, Osiyoning va boshqa mamlakatlardan kelib chiqqanlar ham mazkur guruhning shakllanishining o‘zagini tashkil qilishgan.

2006-yilning oktabrida boshqa islom radikal guruhlar bilan birlashganlaridan so‘ng, u “Iroq Islom davlati” sifatida e‘lon qilindi. Usmonlilar saltanati bo‘lib olinishi natijasida o‘rnatilgan chegaralarni yo‘q qilish hamda kamida Iroq va Shom (Levanta), ya’ni Suriya, Livan, Isroil, Falastin Iordaniya, Turkiya, Kipr, Misrning Sinay yarimoroli hududlarida, imkon bo‘lsa butun islom dunyosida ortodoksal sunniy islom davlatini yaratish tashkilotning maqsadi hisoblanadi.

Guruhning maqsadlari orasida shuningdek quyidagilari ham e‘lon qilindi:

- HAMAS tashkilotini yo‘q qilish;
- Isroil davlatini yo‘q qilish;
- Markaziy Osiyodagi vaziyatni beqarorlashtirish.

Ushbu harakat birinchi navbatda Iroqdagi shia hokimiyatiga qarshi bo‘lganlarning, islomiylarni hamda Saddam Husayn tuzumi davridagi sobiq zobitlarni ham o‘zining tarkibiga qamrab olgan.

2014-yilda ISHID tomonidan nazorat qilinayotgan hududning hajmi 40-90 ming kv.km.dan iborat bo‘lgan, mazkur hududda yashayotgan aholi soni 8 mln kishini tashkil etadi hamda ular asosan sunniylardan iborat bo‘lishgan. ISHID Iroqda dastlabki paytlarda qo‘lga kiritilgan hududlarning bir qismini jangovar harakatlar natijasida yo‘qotganligi sababli 2015-yilning 14-apreliga kelib uning hududi 25-30 % (8-10 ming km. kv.) ga qisqargan.

Tashkilotning nomi ham bir necha marotaba o‘zgargan. 2006yilda „Iroq Islom davlati” nomi ostida tuzilgan. Tashkilot amalda ham,

faoliyat doirasi ham kengayib borganligi sababli “Iroq va Shom Islom davlati” deb qayta nomlandi. 2014-yilning yozidan esa o‘zini “Islom davlati” deb nomladi.

Guruhning tashkil etilishida “Al-Qoida” terrorchilik tashkiloti ishtirok etdi, u xalqaro terrorchi Abu Musab Zarqavi yordamida dastlab “Mujohidlarning yig‘ilishini” tashkil etdi (2006), unga keyinchalik “Jaysh at Toifa al-Mansura”, “Jaysh Ahlu-s-Sunna va-l-Jamaa”, “Jaysh al-Fotihin” va “Jund as-Sahoba” guruhlari qo‘shilishgan, shundan so‘ng 2006-yilning 15-oktabrida “Iroq Islom davlati” (IID) ni tashkil etish to‘g‘risida e‘lon qilindi. Shundan so‘ng ushbu tashkilotga “Ansor at-Tavhid”, “Al-G‘urobo”, “Islom Jihodi”, “Asoib al-Ahvol”, “Jamoal-Murabitin”, “Ansor at-Tavhid va-sSunna”, “Fursan at Tavhid”, “Jund Milliyat al-Ibrohim” singari mayda islomiy terrorchi guruhlar qo‘shilishgan. Abu Umar al-Bag‘dodiy Iroq Islom davlatining birinchi yetakchisiga bo‘ldi.

2010-yilning iyunida AQSH va Iroq harbiylari Tikritda birgalikda reydlar o‘tkazishdi. Shundan so‘ng amerikalik general Raymond Odierno matbuot anjumanida “Islom davlati” tashkiloti mag‘lub etildi deya ma‘lumot berdi. ISHID yetakchilari Abu Ayub alMasri va Abu Umar al-Bag‘dodiy o‘ldirildilar. 2010-yilning ikkinchi yarmida Abu Bakr al-Bag‘dodiy ISHID, yanada aniqroq “Iroq Islom davlati” ining yetakchisiga aylandi.

2013-yilning 9-aprelida mazkur tashkilot “Iroq va Suriya Islom davlati” deb atala boshlandi, chunki tashkilot jangarilari mustaqil kuch sifatida Suriyadagi fuqarolar urushiga qo‘shilishdi. Buning oqibatida ushbu holat “ISHID” va “Al-Qoida” tashkilotlari o‘rtasida kelishmovchilik kelib chiqdi. Ayman az-Zavaxiri yetakchiligida “AlQoida” tashkiloti jangarilarni Iroq hududiga qaytishga chaqirdi. Natijada “Al-Qoida” tashkilotining “qonuniy vakillari” “Jabhat anNusra” tashkilotini tuzganliklarini e‘lon qilishdi.

Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri Toni Bleyer „SNN“ kanaliga bergan intervyusida AQSH va uning ittifoqchilari 2003yilda Iroqqa bostirib kirganlaridan so‘ng ISHID paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lganliklarini qisman tan oldi.

2013-yilning oxirida Iroqning Anbar viloyatida Bag‘doddagi shia hukumatiga qarshi sunniylar isyon ko‘tarishganida ISHID jangarilari

bizning unda qo‘limiz bor deb e‘lon qilishdi. 2014-yilning 3-yanvarida ISHID jangarilari Idlib va Aleppo shaharlarida Suriya Ozodlik Armiyasi bilan ziddiyatga borishdi.

2014-yilning fevral oyining boshlarida “Al-Qoida” tashkilotining bosh qo‘mondonligi ISHID ni qo‘llab-quvvatlashdan voz kechishini ma‘lum qildi. “Al-Qoida” nashr etgan bayonotida quyidagi jumlar ta‘kidlab o‘tiladi: “ISHID Al-Qoidaning alohida harakati hisoblanmaydi. Biz ular bilan hech qanday aloqaga kirishmaymiz hamda ularning xatti-harakatlari uchun hech qanday javobgarlikni o‘z bo‘ynimizga olmaymiz”. ISHID va boshqa muxolifatchi guruhlar o‘rtasidagi kurash Suriyadagi fuqarolar urushining omillaridan biriga aylandi. ISHID va “Al-Qoida” tashkilotining Suriyadagi rasmiy bo‘limi sanalmish “Jabhat an-Nusra” o‘rtasida urush boshlanib ketdi. 2013-yilda ISHID jangarilari Bashar Asad tuzumiga qarshi hukumatga muxolifatda turgan kuchlar tarafida turib Suriyadagi fuqarolar urushiga kirishdi.

Iroqning shimoliy va g‘arbiy tumanlarida shuningdek, Shimoliy Suriyada (Kurdistonda) jangarilar 2014-yilning yozida keng miqyosda hujumni boshlaganidan so‘ng mazkur guruh mashhur bo‘lib ketdi. 2014-yilning 29-iyunida terrorchilar o‘zlarining xalifaligini tashkil etganliklarini e‘lon qilishdi. 2014-yilning 3-avgustiga kelib esa, terrorchilar 2 ta yirik neft konini o‘zlarining nazoratlari ostiga olishga muvaffaq bo‘lishdi.

ISHID Suriyaning El-Raqqa viloyatida o‘z hokimiyatlarini o‘rnatganlaridan keyin, guruhning bir qancha xorijlik vakillari fuqarolikka muhtoj emasliklarini e‘lon qilishdi hamda hammaning ko‘z o‘ngida pasportlarini yertib tashlashdi yokida yoqib yuborishdi.

2015-yilning 15-mayida ISHID Ramadi shahrini egalladi, biroq 28-dekabrda Bag‘doddagi hokimiyat shaharni ustidan nazoratni o‘rnatdi. 2015-yilning 20-mayida jangarilar Palmira shahrini bosib olishdi, faqatgina 2016-yilning 27-martidagina Suriya hukumatining harbiy kuchlari Rossiya HHKning ko‘magida shaharni ozod qilishga erishishdi.

2015-yilning sentabr oyidan Rossiya HHKning ISHID bergan zarbalari Suriya armiyasining qarshi hujumga o‘tishiga imkon berdi. Latakiya viloyatining deyarli barcha hududini jangarilardan ozod

qilishga erishildi. Mart oyida Suriya qo'shinlarining Xalab shahriga yurishi boshlandi. 2016-yilning 6-7-mart kunlari ISHID poytaxti ElRaqqa shahrida aholi isyon ko'tardi. Mahalliy aholi qurol-yarog'lar omborini egallashdi, Suriyaning davlat bayrog'ini ilishdi. Qo'zg'olonga mahalliy qabilalarning qo'mitasi boshchilik qildi. 200 tacha islomiy jangarilar isyonchilar tomoniga o'tib ketishdi. ISHID ning sobiq poytaxtini isyonlar qoplab oldi.

2014-yilning aprelida ISHID ning jangarilari otryadi Liviyaga bostirib kirishdi, sohilga yaqin joylashgan Derna shahrining nazoratini qo'lga kiritishdi. 2015-yilning fevraliga kelib jangarilar Livianing yirik bandargohi hisoblangan Sirtni qamal qilishdi hamda uning yaqinida joylashgan Nofaliya shahrini, shuningdek, Sirtning janubida joylashgan al-Mabruk neft konini o'z nazoratlari ostiga olishdi.

2015-yilning dekabri oyi o'rtalaridagi holatga ko'ra, neft konlariga ega bo'lish hamda g'arb davlatlari va Rossiyaning harbiy havo kuchlarining zarbalari nishoniga aylanib qolgan El-Raqqa joylashgan avval mustahkam bo'lgan tumanning o'rniga yangi tayanch punktlarini yaratish maqsadida mazkur guruh Livianing sohilbo'yi hududlarining anchagina qismini egallab oldi. Egallab olingan hududlarda shariat sudlari yaratilmoqda. ISHID ning yetakchisi Abu Bakr al-Bag'dodiy Turkiyada davolanganidan so'ng yashirincha Liviyaga kelganligi haqida 2015-yilning dekabrda xabarlar paydo bo'ldi.

2015-yilning oxiridan ISHID Afg'onistondagi harakatlarini faollashtirganligi to'g'risida ma'lumot paydo bo'ldi. Mahalliy Tolibon tashkilotining jangarilarining ma'lum bir qismi uning saflariga kelib qo'shilgan.

Suriya, Iroq, Liviya va boshqa davlatlardagi ular tarafidan nazorat qilinayotgan hududlarda viloyatlar tuzilmoqda:

Xalif davlat boshlig'I sanaladi, u cheklanmagan hokimiyatga ega. Uning huzurida maslahat organi – Sho'ro faoliyat yuritadi, uning a'zolari xalifa tomonidan tayinlanadi. Nazorat ostidagi hududlarni boshqarish bilan Iroqdagi hamda Suriyadagi o'rinbosarlar shug'ullanishadi, ularning qo'l ostidagilari viloyatlarning hokimlari hisoblanishadi.

Harbiy boshqaruvni Harbiy Kengash amalga oshiradi. Maxsus xizmatlarga esa Razvedka Kengashi boshchilik qiladi. Ularning tarkibi ham xalif tarafidan tayinlanadi, Iroq armiyasining sobiq zobitlari hamda maxsus xizmat xodimlari ISHID da muhim rol o'ynashadi.

Shariat me'yorlariga hamda islom axloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishni Huquq Kengashi amalga oshiradi. Xorijda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boorish va chet ellardan jangarilarni yollash ham mazkur kengashning vazifalariga kiradi. Bundan tashqari, jamoat ma'lumotlari Islom boshqaruvi ham mavjud bo'lib, u targ'ibot-tashviqot olib borishga, boshqacha ruhdagi targ'ibot-tashviqotlarga qarshi kurashishga hamda yoshlar bilan ishlashga javob beradi.

Xo'jalik masalalari bilan xalifning alohida vazifalarni bajaruvchi maslahatchilari shug'ullanishadi. Ular fuqarolik hukumati hisoblanishadi. Soliq yig'ish shaharga bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Yirik shaharlarda aholining hayot kechirishini ta'minlaydigan asosiy tizimlar ishlaydi, ular qatoriga elektr quvvati va toza ichimlik suvini, shuningdek, uyali aloqani kiritish mumkin.

Asosiy qonun quyidagicha izohlanadi, ya'ni musulmonlar shariatning barcha qonunlariga amal qilishlari lozim, e'tiqodsizlarkofirlar shaytonga sig'inuvchilar sanalishadi hamda ularni yo o'ldirish kerak, yoki qul qilish darkor. Musulmon shialar, alavitlar, yazidlar, so'fiylar, "musulmon birodarlari" Suriya, Iroq, Saudiya Arabistoni hokimiyatining tarafdorlari, shuningdek, "islomni va musulmonlarni hurmat qilmaydiganlar" xristianlar va yahudiylar kofirlar hisoblanishadi. ISHIDga qarshi aholi o'rtasida norozilik kayfiyatlarda bo'lganlarga tashkilot o'lim jazosini qo'laydi.

Jangarilarning soni. Aniq miqdori ma'lum emas. Turli ma'lumotlarga ko'ra, ularning miqdori 12 ming nafardan 60 ming nafargacha etib belgilanmoqda. Iroq va Suriya aholisidan ularning saflariga qo'shilyotganlardan tashqari, 2014-yilning oktabrida AQSH maxsus xizmati ma'lumotlariga qaraganda, mazkur tashkilotga har oy kamida 1000 nafar chet ellik ko'ngillilar kelib qo'shilishmoqda.

2015-yilning dekabrda e'lon qilingan "Soufan Group" tahlil markazining hisob-kitoblari bo'yicha, Iroq va Suriyada ushbu tashkilot tarafida 86 ta mamlakatdan bo'lgan 27 ming nafardan 31 ming

nafargacha bo'lgan yo'llanma jangchilar jang qilishmoqda. 2014-yilning iyunida birlashma saflarida xorijlik jangarilar sonining o'zi 12 ming nafar qilib belgilangan. Markaz mutaxassislarning tasdiqlashlaricha, "islomiy jangarilarning aksariyat qismi Suriya hamda Iroqqa tayyorgarlik o'tash hamda shundan so'ng, qo'poruvchilik harakatlarini sodir etish vatanlariga qaytib qo'poruvchilik harakatlarini sodir etish uchun bu yerlarga kelishmagan, balki bevosita jangovar harakatlarda qatnashish maqsadida Suriya va Iroqqa borishmoqda. Shunga qaramay, taxminan 2700 nafar ekstremistlar mamlakatlariga qaytib kelishdi. Bundan tashqari qochoq terrorchining so'zlariga qaraganda, har bir g'arb davlatida ISHID tashkilotining yashirin yirik guruhlar mavjud, Yevropa mamlakatlaridagi vaziyatni beqarorlashtirish va terrorchilik harakatlarini uyushtirish ularning maqsadi hisoblanadi.

Tashkilotni moliyalashtirish. Mutaxassislarning so'zlariga qaraganda, tashkilotning a'zolari jinoiy faoliyatidan (asosan garovga ozod qilish evaziga to'lanadigan tovon puli, bosqinchilik va hakovolar) kelayotgan daromadlari, uning moliyaviy manbasi hisoblanadi. Iroqdagi yirik shaharlaridagi banklarni o'marishlaridan keyin ISHID ning moliyaviy imkoniyati anchagina o'sdi. Alohida ma'lumotlarga ko'ra, mazkur tashkilotning budjeti 7 mlrd. dollarga yetishi mumkin. Xususan, 2014-yilning iyunida Mosulda ISHID jangarilari Iroq Markaziy bankining bo'limini talashlari natijasida turli ma'lumotlarga ko'ra, 900 mln.dan 2 mlrd. dollargacha bo'lgan pulni o'zlashtirganlar.

Forbs jurnali Isroil nashrining bergan bahosi bo'yicha, mazkur tashkilotning umumiy budjeti yirik korporatsiyaning budjeti bilan tenglashadi hamda taxminan 2 mlrd. dollarni tashkil etadi. Neft sotishdan keladigan daromadlar (Suriya va Iroqdagi bir qancha yirik neft konlari va neftni qayta ishlovchi korxonalar mazkur tashkilotning nazorati ostida turibdi) ushbu terrorchi tashkilotning budjetiga kelib tushadigan tushumlarning asosiy manbasiga aylandi, shuningdek, terrorchilar o'zlari egallagan shaharlardagi banklardagi yuz millionlab dollarni qo'lga kiritishdi.

2015-yilning dekabrda e'lon qilingan AQSH moliya vazirligi hisob-kitobiga ko'ra, mazkur tashkilot neftni noqonuniy sotishdan har oy 40 mln. dollarga ega bo'lmoqda. Ushbu tashkilot foliyat

yuritayotgan paytda buyon undan 500 mln. dollarga ega bo'ldi, banklarni o'marish esa unga 05 -1 mlrd. dollar olib keldi.

2015-yilning 18-fevralida Iroqning BMT dagi vakili Muhammad al-Hakimning bayonot berishicha, ISHID odamlarning ichki a'zolarini sotish maqsadida ularni o'ldirmoqda., "Islom davlati" qurbonlarining qabrlari o'rganilganda ularning tanalarda jarrohlik amaliyoti izlari aniqlandi. Shuningdek, u "Islom davlati" tarafdorlari Mosulda navbatdagi oldi-sotdini amalga oshirish maqsadida insonlarning ichki a'zolarini olish bo'yicha jarrohlik amaliyotida ishtirok etishdan bosh tortganliklari uchun bir necha o'nlab shifokorlarni qatil etishgan. 2015-yilning 17-dekabrida Rossiya Federatsiyasining BMTdagi doimiy vakili Vitaliy Churkin terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish mavzusi bo'yicha BMT Xavfsizlik Kengashining yig'ilishida so'zga chiqib, ISHIDning fosfat o'tkazishdan olayotgan daromadi 250 mln. dollarga yetmoqda, arpa va javdar sotishdan - 200 mln., sement sotishdan 100 mln. dollar foyda ko'rmoqda, shuningdek, u ISHIDning Oliy harbiy Kengasi ushbu daromadlardan qurolyarog'lar, o'q-dorilar sotib olishda foydalanmmoqda hamda ushbu maqsadlar yo'lida har oy 30 mln. dollar ajratmoqda. Har yili ISHID 950 mln. dollar miqdorgacha neft va gaz, 20 mln. dollarlik paxta sotadi, shuningdek, u fosfat, sulfat (oltingugurt) va fosfor kislotalar bilan faol savdo qiladi.

Ushbu tashkilot giyohvand moddalarni sotishdan ham daromad ko'rmoqda. Afg'on heroinini Yevropaga tranzit qilishdan har yili 200500 mln. dollarga ega bo'lmoqda.

ISHID xalifaligi Iroq va Suriya neftini qora bozorda (arzonlashtirilgan narxda) sotmoqda, har bir barreldan 25 dan 60 dollargacha ishlaymoqda, kuniga esa 1 mlndan 3 mln.gacha dollarga ega bo'lmoqda. Umumiy hajmi bir sutkada 350 ming barrel qilib belgilanmoqda. Turkiya asosiy o'tadigan joy deb ta'kidlanmoqda. Resurslar bu yerga vositachilar orqali yetkaziladi.

Qul oldi-sotdisi. ISHID da qulchilik rasman joriy etilgan. Qul bozorlari ochiqdan-ochiq faoliyat ko'rsatmoqda. Ziddiyatlarda shahvoniy zo'ravonlik masalalari bo'yicha, BMT Bosh kotibining maxsus vakili Zaynab Banguraning ma'lumotlariga ko'ra, jangarilar asirga olingan qul ayollar va bolalarning varaqalarini tarqatishdi. 1 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar va qiz bolalar 165 dollar

turishadi, 11 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar esa 124 dollardan sotiladilar. 20 yoshdan katta bo‘lgan ayollarning narxлари esa yanada arzonroq 80 dollarga yaqin.

ISHIDdan qochishga muvaffaq bo‘lgan ayollar u yerda qullikka mahkum etilgan minglab ayollar va bolalar mavjudligini, shu bilan birga ularning oqsochlari ham mavjudligini ta’kidlashmoqda. ISHID tomonidan qullar uchun qoidalar to‘plami ham chiqarilgan. BMTning bayonoti ham shunday ma’lumotlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Yoshi, jinsi, millati, dinidan qat’iy nazar ISHIDni kimda-kim qo‘llabquvvatlamasa ular qullarga aylantirilgan.

Targ‘ibot-tashviqot va yollash. ISHID vujudga kelishi bilanoq, kuchli targ‘ibot-tashviqot strukturasini yaratdi. “Al-Furqon” (“Ezgulik va yovuzlikni farqlash”) agentligi ISHID ning media bo‘linmasi sanaladi. Mazkur studiyaning o‘zi asosan chet el va o‘zga tillarda so‘zlashadigan ommaga mo‘ljallangan, u o‘zining filmlarini ham ishlab chiqaradi, shuningdek, “Al-I’tisom” va “Al-Hayat” kabi ISHID ning boshqa media bo‘linmalari filmlariga subtitrlilik qiladi. “AlHayat” media-markazi diqqatini qaratgan asosiy tillari quyidagilar: arab, ingliz, nemis, fransuz, rus, hind, urdu, Bengal, turk, kurd va boshqalar.

ISHID har kuni “Radio al-Bayon (Yangiliklar)” nomli doiralarda 5 ta tilda (arab, ingliz, rus, fransuz, kurd) yangiliklar haqida matnli audio-hisobotlar chiqarardi. Bundan tashqari, ISHID hayotining turli lahzalarini yoritadigan “Dabik” nomli internetjurnalidan foydalangan.

Targ‘ibot-tashviqot obyektlari bir xil tez-tez har ikkala jins vakillari ham ularning ta’siriga tushib qolishmoqda. Da’vatchilarning, yollovchilarning nigohi qaratilgan omma – bu yosh insonlar, ularning o‘rtacha yoshi 23 ni tashkil etadi. Ushbu tashkilot harbiy mutaxassislarni, tilshunoslarni va tarjimonlarni faol yollamoqda. Yollovchilar ijtimoiy tarmoqlardan keng miqyosda foydalanishmoqda, foydalanuvchilarning profillarini diqqat bilan o‘rganishib, ularga suratlar va izohlar, videotasvirlar joylashtirmoqdalar va ular bilan yozishmalar olib borishib ularning barchasi asosida odamlarga psixologik ta’sir ko‘rsatmoqdalar. Xususan, WhatsApp messenjerida muloqot qilishda ko‘pincha yopiq guruhları foydalaniladi.

Ular ijtimoiy tarmoqlarda sen bilan Viber, Whatsapp orqali aloqaga chiqishadi. Ularning hammasida bir xil syujet, ya’ni Suriyada

ayollarni, bolalarni o'ldirishayapti. Hamma video tasvirlarda bir xil mazmundagi da'vat: "Qayerdasizlar haqiqiy musulmonlar, sizlar e'tiqoddoshlaringizni himoya qilishingiz kerak...". G'oyaviy rahnamalar tomonidan yollanganlar, moddiyat uchun ularning saflariga qo'shilmaganlar. "Da'vat qiluvchilar har bir insonda yashayotgan haqiqat, adolat his-tuyg'ularidan ustalik bilan foydalanib, ularni qo'zg'aydilar",— hamda ISHID saflariga kelib qo'shilishi u uchun "radikalizm" va diniy fanatizm ahamiyat kasb etmaydi deb qo'shimcha qilib qo'yishadi.

Biroq da'vat qiluvchilarning o'zlari kuchli moddiy manfaatdorlikka egadirlar: har bir yollangan shaxs uchun yaxshigina, mo'maygina pul to'lashadi. Beshta, oltita raqamlar haqida so'z bormoqda. Agar qiz oq badanli bo'lib, qizlik pardasi bo'lsa, birqancha tillarni bilsa, u uchun da'vatchiga yanada ko'proq pul to'lanadi. Ekstremistik tashkilotlar saflariga yoshlarni da'vat qilish butun jahon miqyosida olib borilmoqda.

Agar bir nafar odamni yollash uchun bir nafar da'vatchi va bir qancha axborot resursi kerak bo'lsa, uni orqaga qaytarish uchun esa oltiyetti nafar mutaxassis 2-3 yil mobaynida ishlashlariga to'g'ri keladi.

ISHID ning jinoyatlari. 2014-yilning iyuni bilan 2015-yilning fevrali oralig'ida Iroqda bo'lgan BMT ekspertlarining olib borgan tadqiqotlari asosida 2015-yilning martida BMT ning bayonotnomasi e'lon qilindi. Ekspertlarning so'zlariga ko'ra, ISHID tashkiloti Iroqdagi birorta ham jamoaga rahmi kelmagan. Yazidlar, xristianlar, turkmanlar, kurdlar, shialar hamda boshqa jamoa vakillari, shu jumladan, sunniylar ham zo'rlikka, zulmga, zo'ravonlikka uchrashgan.

ISHID tarafidan yazidlar hammadan ham ko'p qatag'onlar va ta'qiblariga uchradilar. Bayonotnomaga ko'ra, yazidlarga qarshi harakatlar ularni guruh sifatida yo'q qilib tashlashga qaratilgan hamda bu holatni genotsid tarzida taniflash mumkin bo'ladi.

Bayonotnomada takidlanishicha, Iroq hududida jangarilar quyidagi jinoyatlarni sodir etishmoqda: ommaviy qatl qilishlar, etnik tozalashlar, voyaga yetmaganlardan jangovar harakatlarda foydalanish, islomni majburan qabul qildirish. Shuningdek, ISHID jangarilari o'zga dindagi ayollarni va qizlarni fohishalik qilishga majburlashmoqda, tarixiy yodgorliklarni va diniy muqaddas qadamjolarini buzib, vayron

qilib tashlashmoqda, infratuzilma obyektlariga hujumlarni amalga oshirishmoqda. Bayonotnoma mualliflarining fikrlariga ko'ra, ISHIDning harakatlarini genotsid, harbiy jinoyatlar hamda insoniyatga qarshi jinoyatlar sifatida tasniflash mumkin bo'ladi.

Terrorchilik harakatlari. 2009-yildan boshlab mazkur tashkilot Yaqin Sharqdagi va butun Yevropadagi portlatishlar, hujumlar va boshqa jinoyatlar aloqadorligini domiy ravishda e'lon qilib kelmoqda.

2009-yilning 25-oktabrida Bag'dod markazida avtomobilga o'rnatilgan ikkita portlovchi qurilmaning harakatga kelishi, ya'ni portlashi: 155 nafar inson halok bo'ldi. 2010-yilning 31-oktabrida 2010 – Suriya katolik cherkoviga tegishli Bag'doddagi kafedral ibodatxonasidagilarni garovga olinishi: 58 nafar odam halok bo'ldi.

2015-yilning 10-yanvarida Parijdagi do'konida odamlarning garovga olinishi.

2015-yilning 18-martda 18 марта 2015 года – Tunisda terrorchilik harakati.

2015-yilning 20-martida Sanoda qo'poruvchilik harakati, unda 137 nafar inson o'ldi.

2015-yilning 26-iyunida islomchilar Tunisda, Fransiyada va Quvaytda terrorchilik harakatlarini sodir etishdi. Mazkur qo'poruvchilik harakatlarda – hammasi bo'lib 66 nafar odam halok bo'ldi.

2015-yilning 31-oktabrida Sinay yarimorolida Rossiya samalyotining portlatib yuborilishi.

2015-yilning 13-noyabrida Parijda ketma-ket qo'poruvchilik harakatlari sodir etildi, shu jumladan Batakland teatrida odamlar garovga olinishdi. Terrorchilik harakatlari chog'ida 130 nafar inson halok bo'ldi, 350 nafardan ortig'i yaralandi.

2016-yilning 12-yanvari Istambulda portlash yuz berdi. 10 nafar inson qo'poruvchilik harakati qurboniga aylandi,

2016-yilning 14-yanvari terrorchilar Jakartada ketma-ket portlatishlarni uyushtirishdi. 7 nafar odam halok bo'ldi.

2016-yilning 22-martida terrorchilar Bryusselda terrorchilik harakatlarini sodir etishdi. 34 nafar odam halok bo'ldi, 230 nafardan ko'prog'i jarohatlandi.

2015-yilda ISHID tomonidan qatl etilganlarni nashr etilgan videotasvirlarda namoyish etildi. O'ldirilganlarning soni 5000 nafar insonga yetadi.

Harbiy jinoyatlari. The Wall Street Journal ma'lumotlariga ko'ra, 2014-yilda ISHID Iroq armiyasiga hamda tinch aholiga qarshi xlor qo'lladi. 2015-yilning iyulida ISHID janglarda iroqlik kurdarga qarshi zaharlovchi ashyo ipritni ishlatdi. O'sha paytda tadqiqot olib borayotgan Conflict Armament Research va Sahan Research, guruhining ekspertlari ISHID kimyoviy quroldan foydalanganligini tasdiqlashdi. 2015-yilning 22-avgustida ISHID jangarilari taxminlarga qaraganda zaharlovchi moddasi bo'lgan snaryadlar bilan Suriyaning Mari shahriga hujum uyushtirishdi.

Shunday qilib, ISHID diniy-ekstremistik terrorchi tuzilma sanalib, go'yoki "toza, sof islom haqiqatiga va e'tiqodiga egaligini" da'vo qilmoqda. Terrorchilarning ko'p sonli jinoyatlari huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarning xalqaro organlar tomonidan qattiq tanqidga uchramoqda hamda bu bu uning jinoiyligidan va be'mani g'oya ekanligidan guvohlik beradi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, tashkilot jangarilari 2014-yilning boshidan buyon 700 nafargacha bolani o'ldirishdi. "Al-Qoida" va u bilan bog'liq tashkilotlarga qarshi BMT Xavfsizlik Kengashi tarafidan qabul qilingan rezolyutsiyalariga muvofiq tarzda xalqaro sanksiyalar ISHIDga nisbatan ham qo'llanilmoqda.

Bir qancha sunniy-arab davlatlarida (Tunis, Misr, Falastin, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Livan va Iroq) o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, unda qatnashganlarning asosiy qismi (85 % dan ko'prog'i) ISHIDning xatti-harakatlariga nisbatan salbiy munosabatda ekanliklarini hamda ularni qoralashlarini ma'lum qilishgan.

Bir qancha musulmon ruhoniylari ISHIDni tan olmasliklari to'g'risida bayonot berishdi hamda musulmonlar „Xalifa Abu Bakr alBag'dodiyga“ sodiqliklarini ifodalashga majbur emaslar deb hisoblashmoqda. Misol uchun, mashhur marokashlik ruhoniyy Umar Xaddushiy tashkilot yetakchisini e'tiqoddan chekingan deya atagan. O'z navbatida, misrlik ruhoniyy Xoni as-Sibai "Twitter" orqali ISHID jangari a'zolariga mo'ljallangan jumlaning e'lon qildi: "Oллоh faqat to'g'ri e'tiqod qiluvchilar bilan birgalikdadir".

Seminar savollari:

1. ISHID tashkiloti, uning paydo bo'lishi, oxirgi maqsadi va da'volari.
2. ISHID moliyalashtirilishining shakllari va usullari.
3. ISHID tashkilotining jinoyatlari.
4. Tashkilotning kelib chiqish sabablari va uning ta'sirlarining o'sib, kengayib borishi.

Mustaqil ish mavzulari:

1. ISHIDning vujudga kelishi tarixi
2. ISHID: islomiy tashkilotmi yoki jinoiy to'dami.
3. ISHID qanday davlatni barpo etishni xohlamoqda.
4. ISHID faoliyatining moliyalashtirilis yo'llari.
5. ISHIDning jinoiy faoliyati.

Tavsiya etilgan abiyotlar ro'yxati:

1. Кемаль А. ИГИЛ. Зловещая тень халифата.— М.: Алгоритм, 2015.
2. “ИГИЛ” – это не ислам! (сборник материалов в помощь имамам и государственным служащим) / Сост. Старостин А. Н., отв. ред. А. Ашарин.— Екатеринбург: ЦРО "Духовное управление мусульман Свердловской области", 2015.
3. Старостин А. Н. Идеологические истоки ИГИЛ, практики агитации и методы информационного противодействия радикалам// Мусульманский мир.— 2015.— № 4.— С. 55–66.
4. Федорченко А. В., Крылов А.В. Феномен «Исламского государства»// Вестник МГИМО-Университета.— М.: МГИМО (У), 2015.— № 2 (41).— С. 174—183.
5. Alexander Y., Alexander D. The Islamic State: Combating The Caliphate Without Borders.— Lexington Books, 2015.
6. Azoulay R. Islamic State franchising: Tribes, transnational jihadi networks and generational shifts (CRU report).— Wassenaar: Netherlands Institute of International Relations Clingendael, 2015.
7. Julie V.G. Al Qaeda's Global Crisis: The Islamic State, Takfir and the Genocide of Muslims.— Routledge, 2015.

8. Pierpaoli-Jr.P. Islamic State of Iraq and the Levant // U.S. Conflicts in the 21st Century: Afghanistan War, Iraq War, and the War on Terror (3 volumes): Afghanistan War, Iraq War, and the War on Terror / Ed. Spencer C. Tucker.– ABC-CLIO, 2015.– P.454-457.
9. Sekulow J., Sekulow J., Ash R.W., French D. Rise of ISIS: A Threat We Can't Ignore.– Simon and Schuster, 2014.
10. Weiss M., Hassan H. ISIS: Inside the Army of Terror.– Simon & Schuster, 2015.

GLOSSARIY

AVESTO – zardushtiylik dinini muqaddas kitobi.

AGREGATSIYA – siyosiy tizim funksiyasi bo‘lib, u xilma-xil talablar va manfaatlarni umumlashtirish, umumiy talablarni ishlab chiqish va ularning dolzarbligi, muhimligi nuqtai nazaridan pog‘onalashtirish bilan bog‘liq.

AQIDAPARASTLIK – dindorlar uchun bajarishi majburiy bo‘lgan urf-odatlar. Ularning ayrimlari ko‘r-ko‘rona, tushunmasdan e‘tiqod va amal qilishni o‘zida aks ettiradi.

AKROMIYLIK – 1996-yilda Andijonda Akrom Yo‘ldoshev boshchiligida tashkil topgan diniy ekstremistik tashkilot nomi. **AKT** (lotin.actus – “harakat”; actum – “hujjat”) – 1) qilmish, harakat; 2) rasmiy hujjat. Yuridik akt davlat organi mansabdor shaxsi tomonidan qonun shaklida (qonun, farmon, qaror va hokazo) musahkamlangan vakolatlari doirasida qabul qilinadi va majburiy kuchga ega bo‘ladi.

AKTOR – siyosiy hayotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita ishtirok etuvchi siyosiy subyekt.

AL-QOIDA – XX asr ohirlarida shakllangan va hozirgi davrda insoniyat taraqqiyotiga havf solayotgan xalqaro terroristik tashkilot.

AMIRUL-A‘ZAM – ekstremistik tashkilot bo‘lgan «Hizbut Tahrir» ning dunyo bo‘yicha eng yuqori rahbari, eng katta hokimining nomlanishi.

ANALOGIYA – (“o‘xshash”, “monand”) umuman, turli-tuman predmet va hodisalarning muayyan ma’noda o‘xshashligi, bir-biriga monandligi.

ANNEKSIYA (lotin. annexio – “birlashtirish”, “qo‘shib olish”) – bir davlat hududini (yoki uning bir qismini) boshqa davlat tomonidan

zo‘ravonlik bilan egallab olish yoki o‘z davlatiga qo‘shib olish siyosati, agressiya ko‘rinishlaridan biri.

ANTINOMIYA – (fr. “qonunga qarshi”) bir xil darajadagi to‘g‘ri deb e’tirof etilgan, lekin bir-biriga qarama-qarshi hukmlar to‘qnashuvi.

ARTIKULYATSIYA – (lot. “bo‘g‘in-bo‘g‘in, tushunarli so‘zlash”) siyosiy tizim funksiyasi bo‘lib, u qaror qabul qiluvchi tashkilotlarga talablarni bayon etish vazifasini bajaradi. Demokratik siyosiy tizimlarda bu vazifani manfaat guruhleri, siyosiy partiyalar, parlament, avtoritar siyosiy tizimlarda esa korporativ institutlar bajaradi.

ASSIMILYATSIYA – (lot. “o‘xshab ketmoq”) singib ketish, qo‘shilib ketish.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI (BMT) – tinchlik va xavfsizlikni saqlash bo‘yicha, 1945-yilda davlatlar tomonidan (SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoy, Fransiya) tuzilgan millatlarning birgalikda harakat qilish markazi. BMTning maqsadi: xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, buning uchun tinchlikni buzuvchilarga qarshi birgalikda choralar ko‘rish; xalqlarning teng huquqligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash tamoyili asosida barcha millatlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish; iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va insoniy harakterdagi xalqaro muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish. BMT qarorgohi – Nyu-Yorkda, Jenevada esa BMTning Yevropa bo‘limi joylashgan.

BIRODAR-MUSULMONLAR TASHKILOTI – (al-Ixvan al-Muslimun) diniy-siyosiy tashkilot bo‘lib, Misrda Hasan al-Banna tomonidan 1928-yilda tashkil qilingan. Barcha islomiy diniy ekstremistik guruhlar “ona-tashkiloti”. Asosiy maqsad islom davlatini barpo etish va barcha musulmonlarni shu davlat ichida birlashtirish (panislamizm).

BIXEVIORIZM – insonning xulq-atvor motivlarini, javob reaksiyalarini o‘rganish zarurligi, shu tariqa ijtimoiy fanlar o‘zlarining “gumanitar cheklanganligini” yengib o‘tishi, hamda isbotlanganligi va aniqlik darajasiga ko‘ra tabiiy fanlarga yaqinlashuvini asoslaydigan hozirgi zamon ijtimoiy fani yo‘nalishi.

BREYN STORMING – biror muammoni yechishda ekspertlar guruhining aqliy hujumini tashkil etish.

BLOKADA (harbiy) (ingl. – xalqaro huquq nuqtai nazaridan harbiy harakatlarni amalga oshirishning alohida shakli bo‘lib, blokada qilinuvchi obyekt tashki aloqalarga kirishining oldini olish maqsadida ajratib qo‘yilishi tushuniladi. Blokadalar: quruqlik blokadası, dengiz blokadası va havo blokadasiga ajratilishi mumkin. Dengiz blokadasini qo‘llash keng tarqalgan. Blokada davrida neytral davlatlarning urushayotgan davlatlar bilan erkin savdo aloqalarini olib borishi qiyinlashadi. Blokada qilinayotgan obyekt chegaralari, qirg‘oklari, portlariga qarshi qaratilgan bo‘lishi shart, aks holda, u yuridik jihatdan haqiqiy hisoblanmaydi. Hozirgi xalqaro huquq fanida blokada agressiyaning ko‘rinishi sifatida qaraladi.

BOSHPANA HUQUQI – siyosiy, milliy ozodlik va ilmiy faoliyati uchun quvg‘inga uchragan ajnabiy fuqarolarga biron-bir mamlakatga kelish va unda yashash uchun davlat tomonidan ruxsat berish, quvg‘inga uchragan qochoqlarni qidirayotgan davlatga tutib bermaslik huquqi.

VAHIY – xudo (“yaratuvchi iloh”) bilan insonlarni Payg‘ambar orqali muloqat yo‘li – farishta Jabroil olib kelgan habar.

VAHHOBIYLIK – XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan islomdagi fundamentalistik radikal oqim.

VERBAL NOTASI – xalqaro amaliyotda diplomatik yozishmalarning keng tarqalgan usuli. Unda turli-tuman joriy masalalar ko‘tariladi. U elchixona yoki tashqi ishlar vazirligi nomidan yoziladi.

VERBAL – lot. “og‘zaki”, so‘zda ifodalangan.

VERIFIKATSIYA – respondent xabar beradigan ma‘lumotlarning aniqligini o‘lchash uchun zarur dalillarni to‘plash jarayoni

VIJDON ERKINLIGI – jamiyat konstitutsiyasi va qonunlarida berilgan diniy e‘tiqod erkinligi.

DAVLAT – Xalqaro huquqning suveren subyekti sifatida davlat xalqaro munosabatlarning asosiy ishtirokchisidir. Xalqaro huquqning subyekti hisoblangan davlat o‘z hududida siyosiy hokimiyatni amalga oshiradi. Xalqaro huquq subyekti sifatida davlat xalqaro doirada siyosiy hokimiyatning rasmiy vakili sifatida barcha huquqlarga va bu huquqlarni amalga oshirish yuridik qobiliyatiga ega. Davlat suvereniteti o‘z hududida mazkur davlat hokimiyati barqarorligi va xalqaro munosabatlar doirasidagi mustaqilligi bilan bog‘lanadi. Chunki, davlat

aynan o‘zi xalqaro huquq normalarini ishlab chiqadi, uni buzganlik uchun javobgarlikni belgilaydi, xalqaro tashkilotlar faoliyatini va xalqaro huquqiy tartibni o‘rnatadi. Davlatning bu huquq va imkoniyatlari davlatning o‘zidan tashkari hech kim tomonidan chegaralanmaydi. Davlatlarning asosiy huquqlari va majburiyatlari xalqaro huquqning asosiy tamoyillari, xususan, BMT Ustaviga asosan belgilanadi. Barcha davlatlar iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa xarakterdagi tafovutlarga qaramay, bir xil asosiy huquq va majburiyatlarga egadir. Shu bilan birga, davlatlarning suveren tengligi tamoyili ular tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarga binoan egallangan yoki zimmasiga olgan xususiy huquqlar va majburiyatlar hajmi va mazmunidan farqli bo‘lishi mumkinligini inkor etmaydi.

DAVLATLAR YURISDIKSIYASI – davlatning m‘muriy va hududiy organlarining ishlarni o‘z vakolatlari doirasida ko‘rib chiqishi. Xalqaro huquqda hududiy va shaxsiy (milliy) yurisdiksiya turlari mavjud. Hududiy yurisdiksiyada davlatlar yurisdiksiyasi belgilangan hudud chegarasida amalga oshirilishi tushuniladi. Davlatlar o‘z hududida to‘liq yurisdiksiyani amalga oshirishga haqli, agar bunda xalqaro shartnoma va kelishuvlarda boshqa holatlar belgilanmagan bo‘lsa. Cheklangan maqsadli yurisdiksiya davlatlar tomonidan uning zonalarida amalga oshiriladi, masalan, ochiq dengizda, Antraktida va hokazo. Milliy qonunlarda nazarda tutilgan hollarda davlatlar yurisdiksiyasi shu davlatning chet eldagi fuqarolariga ham qo‘llaniladi, agar boshqa holatlar xalqaro kelishuv va qolipi shartnomada belgilanmagan bo‘lsa. U yoki bu yurisdiksiyani qo‘llash xususida raqobatli yurisdiksiyalar mavjud holatlarda u yoki bu davlatning yurisdiksiyasini qo‘llash to‘g‘risidagi masala xalqaro shartnoma yoki xalqaro - huquqiy odatlarga ko‘ra hal etiladi.

DA‘VAT – (arab «chaqirish») islom diniga targ‘ib qilish.

DEMARKATSIYA (frans. demarcation) — chegara belgilari yordami bilan chegara chizig‘ining muayyan joylaridan o‘tish yo‘nalishining belgilanishi. Demarkatsiya chegaradosh davlatlar vakillaridan iborat aralash komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Havo va yer osti chegaralarini joyga nisbatan belgilash imkoniyati yo‘q.

DEPOZITARIY - ko‘p taraflama xalqaro shartnomaning va unga tegishli bo‘lgan barcha hujjatlarning asl matnini saqlovchi davlat yoki

xalqaro tashkilot. Depozitariyni davlatlarning o‘zlari belgilaydi. Odatda hududida shartnoma imzolangan davlat depozitariy sifatida belgilanadi. Xalqaro shartnomalarning depozitariysi vazifasini ko‘pincha BMT Bosh kotibi bajaradi. Depozitariyning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: shartnoma nusxalarini ishtirokchi davlatlarga yuborish; shartnoma ishtirokchilariga unga yangi davlatlar qo‘shilgani yoki shartnomadan ayrim davlatlar chiqqani, shartnomaga kiritilgan eslatmalar haqida ma‘lumot berish. Depozitariy shartnomani BMT Kotibiyatida ro‘yxatdan o‘tkazadi. Agar davlat xalqaro shartnomani ishlab chiqishda boshdan ishtirok etmagan bo‘lsa, u shartnomaga unda nazarda tutilgan shartlarda qo‘shilishi (uni qabul qilishi) mumkin.

DIVERSIFIKATSIYA – (lot. “teng qilmoq”) yalpi ko‘p tarmoqli rivojlanishga qaratilgan davlat siyosati.

DISPERSIYA – (lot. “tarqalgan, yoyilgan”) siyosatda hokimiyatning bir markazda to‘planmay, butun jamiyatga yoyilishi ko‘plab o‘zaro bog‘liq, uyg‘un, hokimiyat markazlarining mavjudligi.

DISPUT – (lot. “fikrlash, tahlil qilish, bahslashish”) og‘zaki ilmiy bahs, ommaviy ma‘ruzadan so‘ng avvaldan belgilangan opponentlar ishtirokidagi munozara.

DINIY BAG‘RIKENGLIK – Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lib, turli diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir vatanda kelajak maqsadi uchun ezgu orzu-umidlar yo‘lida birlashib, hamjihat bo‘lib yashashni anglatadi.

DINIY JAMOA – diniy tashkilotning boshlang‘ich shakli.

DINIY TASHKILOT – diniy jamoalarning eng yuqori rasmiy uyushmasi.

DIPLOMATIK VAKOLATXONA – Muayyan bir davlatning ikkinchi davlat hududida joylashgan, uning manfaatlarini ifodalaydigan va ularni himoya qiladigan alohida diplomatik bo‘linmasi.

DIPLOMATIK PROTOKOL – xalqaro munosabatlarda davlat rahbarlari, hukumatlar, tashqi ishlar idoralari va diplomatik vakolatxonalar hamda rasmiy shaxslar tomonidan amal qilinadigan qoidalar, an‘analalar va shartliklar majmuasi

DIPLOMATIK ETIKET – diplomatlar, rasmiy shaxslar tomonidan turli xalqaro tadbirlar chog‘ida, xususan, muzokaralar, uchrashuvlar, suxbatlar, hamda qabul marosimlarini o‘tkazish vaqtida amal

qilinadigan odob qoidalar, an'analar va shartliklar majmuasini bildiradi.

DIPLOMATIYA (frans. diplomatie) - davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish asosiy vositalaridan biri. Diplomatiya faoliyat davlat boshliqlari, tashqi ishlar vazirligi, diplomatlar tomonidan, o'z davlati hamda chet eldagi fuqarolar manfaatini ko'zlab tashki siyosiy maqsadlar rasmiy shaklda amalga oshirilishidir.

IDENTIFIKATSIYA – u yoki bu siyosiy guruhga o'zini-o'zi boshqarishdan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi.

INSTITUSIONALLASHUV – rasmiylashgan, barcha e'tirof etgan qoidalar, qonunlar, an'ana va marosimlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlar barqaror namunalarning shakllanishi.

INTERPRETASIYA – talqin qilish, sharhlash. Biror voqea yoki hodisani muayyan nuqtai nazardan talqin qilish, tushuntirish, qarab chiqish. **JANNAT** – narigi dunyoda taqvodor, savobi ko'p, gunohi kam kishilar kiritilib, rohat-farog'atda yashaydigan joy.

JAHOLOTGA QARSHI MA'RIFAT – O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimovning begona, yovuz, terroristik g'oyalarga ma'naviy-ma'rifiy yo'l, yoshlarga ilm berish, tarbiyalash bilan qarshi kurashishga da'vati.

JAMOAT – O'zbekiston Islom harakatining joylardagi boshlang'ich yacheykalari yoki tizimlari «jamoat» deb yuritiladi.

JOHILIYA – (arab. "johillik, bilmaslik") Arabiston yarim orolining islom dinidan oldingi davri shunday atalgan. Bu davrda insonlar ma'naviy-ahloqiy buzilish davri bo'lgan.

JIHOD – musulmonchilikka qarshi kurashuvchi g'ayridinlarga qarshi g'azovat «muqaddas urush» qilish g'oyasi.

ZARDUSHT – Milloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan ilohiyotchi faylasuf, shoir Zardushtiylik dinining asoschisi.

YEVROPA HAMJAMIYATI – Fransiya, Gollandiya, Lyuksemburg, Buyuk Britaniya, Belgiya (1948-yil) davlatlari Bryusselda birgalikda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hamkorlik yuritish yuzasidan shartnoma tuzishgan. Shu shartnomaga asosan Parij bitimiga (1954 yili imzolangan, 1955-yili kuchga kirgan (ratifikatsiya qilingan) o'zgartirish kiritgan holda G'arbiy Yevropa uyushmasi tashkil etildi.

Keyinchalik Bryussel paktiga Germaniya va Italiya davlatlari ham qo'shildi. G'arbiy Yevropa uyushmasining asosiy maqsadi – BMT Ustaviga asosan Yevropada birdamlikni mustahkamlash, xalqaro tinchlikni qo'llab-quvvatlash, har qanday agressiyaga qarshilik ko'rsatish, himoyalash, harbiy va boshqa o'zaro yordam berishdan iboratdir. A'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash, qonunni hurmat qilish, konstitutsiyaviy me'yorlarni, shaxsiy va siyosiy ozodlikni, demokratiya bilan ta'minlash va mustahkamlashdir. G'arbiy Yevropa Hamjamiyatiga 10 davlat a'zo: Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gollandiya, Gresiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Portugaliya, Fransiya.

Assotsiasitiv a'zolari: Norvegiya, Turkiya. Bundan tashqari, 9 davlat assotsiatsiya sheriklik maqomiga ega: Bolgariya, Vengriya, Latviya, Litva, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Chexiya, Estoniya davlatlaridir. G'arbiy Yevropa Hamjamiyati tarkibi quyidagicha: 1) G'arbiy Yevropa Hamjamiyati Kengashi; 2) Doimiy Kengash; Kengashning ishchi guruhi; 3) shtab boshliqlari; 4) Rejalashtirish shtabi; 5) ishchi guruhlar. Maxsus ishchi guruh, mudofaa vazirliklarining guruh vakillari; 6) G'arbiy Yevropa Hamjamiyati Assambleyasi; 7) Kotibiyat. Bir yilda ikki marotaba yig'iladigan mudofaa va tashqi ishlar vazirlari va ularga tenglashtirilgan vazirlar raisligida o'tkaziladigan Kengash. Kengash a'zo davlatlarning xohishiga asosan istalgan paytda chaqirilishi mumkin. Yig'ilishlarda Bosh kotib raislik qiladi. Kengashga yordamchi etib ishchi guruhi tuzilgan: 1) tashqi ishlar vazirliklaridan iborat maxsus ishchi guruhi (Yevropa xavfsizligi va siyosiy masalalar bo'yicha); 2) mudofaa vazirliklarining vakillaridan iborat guruh (Yevropa xavfsizligi bo'yicha harbiy masalalar); 3) "Ochiq osmon" shartnomasiga asosan, verifikatsiya, kosmik huquq masalalari yuzasidan ishchi qo'mitasi. G'arbiy Yevropa Hamjamiyati Assambleyasi 108 deputatdan iborat (o'rinbosarlari bilan). Yevrodeputatlar yilda ikki marotaba yig'ilib, G'arbiy Yevropa Hamjamiyati faoliyatiga taalluqli bo'lgan barcha masalalarni muhokama etadi. Assambleya rais va sakkiz o'rinbosaridan iborat tarkibda byuro saylaydi. Bundan tashqari, doimiy harakatdagi qo'mita, raislar qo'mitasi (byuro a'zolari va Assambleyaning sobiq raisi) va oltita doimiy qo'mitalar (mudofaa, siyosat, texnika va kosmos, byudjet va ma'muriyatlar, jamoat va milliy parlamentlar ishiga doir

masalalar bo'yicha faoliyat ko'rsatadi. Kotibiyat ishiga Bosh kotib rahbarlik qiladi. G'arbiy Yevropa Hamjamiyatining ish yuritadigan tili ingliz va fransuz tilidir.

ISLOM FUNDAMENTALIZMI – sof va ilk islom asoslariga qaytish va an'anaviy islom aqidalariga rioya qilish demakdir.

IJTIHOD – islomda yangi paydo bo'lgan diniy muammolarni hal qilishning o'ziga xos yo'li.

IMMIGRANTLAR (lotin. immigrans – “ko'chib keluvchi”, joylashuvchi) – muayyan bir davlat hududiga umrbod yoki uzoq davrga kelib joylashuvchi boshqa davlatlar fuqarolari.

IMMIGRATSIYA – bir davlat fuqarolarining boshqa davlatga vaqtincha yoki umrbod yashash uchun ko'chib o'tishi.

KLASSIFIKATSIYA – predmet, hodisa va tushunchalarni sinflar, bo'limlar, darajalar bo'yicha, ularning umumiy belgilari, xususiyatlari, yagona asosiga ko'ra taqsimlash (tur, bo'limlarga kiritmoq). Klassifikatsiya bir xillik va o'xshashlikka quriladi.

KONSEPTUALLASHTIRISH – ma'lumotlarni, har bir alohida holat, g'oya, voqea va hodisaning uning orqasida turgan narsani, mazmunini nomlash.

KORPORATIVLIK – jamiyatni tashkil etishning o'ziga xos modeli bo'lib, uning birlamchi elementlari sifatida individlar emas, iqtisodiy va funksional guruhlar turadi. Markaziy hokimiyat korporatsiyalarga birlashgan ana shu guruhlar vakillaridan tuziladi.

KORRELYASIYA – faqat bir-biri bilan o'zaro taqqoslaganda biror mazmunga ega bo'lgan narsa va tushunchalar.

KOFIR - islom diniga ishonmaydigan, diniy e'tiqodga rioya qilmaydigan odamlarga nisbatan ishlatiladi.

KONFESSIYA – (lot.-“e'tiqod”, “e'tirof”) muayyan yo'nalishdagi diniy e'tiqod.

KONFERENSIYA (o'rt. asr. lotin. canferentia, confere – “bir joyda to'planish”) – biron bir davlat, tashkilot, guruh va vakillarning majlisga, kengashga, shuningdek, ayrim shaxslar, olimlarning ma'lum bir masalalar, muammolar muhokamasiga to'planishi.

KONSULLIK HUQUQI – konsullik muassasalarining huquqiy holati va faoliyatini tartibga soluvchi hamda konsullik mansabdor shaxslarni tayinlash (chaqirib olish), ularning funksiyalari, huquq va

majburiyatlarini belgilovchi xalqaro huquqiy prinsip va normalar yig'indisidir. Xalqaro shartnomalar, xalqaro odat va davlatning qonunlari konsullik huquq manbalari hisoblanadi.

KO'P MILLATLI DAVLAT – har bir qavm, xalqlarning millati, jinsi, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, ularning ixtiyoriyligi, teng huquqligi, erkin irodasi tamoyillarining tan olinishi va hurmat qilishi zahiriga qurilgan davlat. Ko'p millatli davlat bo'lmish O'zbekistonda ham 130 dan ortiq millat va elat yashaydi.

KONFEDERASIYA – (lotincha confederatio — ittifoq, birlashma so'zidan) – davlatlar ittifoqining shakli bo'lib, unda a'zo davlatlar o'z suverenitetini to'liq saqlab qoladi. Konfederatsiya asosan ittifoq har bir a'zosining siyosiy mavjudligini va hududiy yaxlitligini saqlash bilan bog'liq bo'lib, unda tashqi siyosiy hamda harbiy-mudofaa maqsadlari ko'zda tutiladi. Ichki muammolarga kelganda esa, konfederatsiya, odatda, bojxona tariflarini belgilash, yagona pochta aloqasini va boshqa ikkinchi darajali tuzilmalarini qaror toptirish bilan cheklanadi.

KONFLIKT SUBYEKTLARI – yoki tomonlar tashkilotlar, partiyalar va hokazo shunga o'xshash siyosiy tuzilmalardan iborat bo'lishi mumkin.

KONSULLIK MUASSASASI – O'zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonasining konsullik bo'limi, O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatda ta'sis etiladigan bosh konsulxonasi, konsulxonasi, vitse-konsulxonasi va konsullik agentligi;

LEGALLASHTIRISH (ingl. legalization) – rasmiy ravishda oshkor etish, qonunlashtirish, qonuniy tan olish, qonun kuchini berish, legal (ochiq) holatga o'tish; muayyan tashkilot, korxonaning faoliyatiga ruxsat berish; hujjatlardagi imzolarni haqiqiy nusxasi ekanligini tasdiqlash. Qoidaga binoan legallashtirish chet elda tuzilgan yoki ajnabiy davlatda amalda bo'lishiga tegishli hujjatlarga nisbatan qo'llaniladi. Konsulning hujjatlardagi ustxatini guvoxlantirish shaklida amalga oshiriladi. Legallashtirish, qoidaga binoan, davlat tashqi ishlar idorasining konsullik boshqarmasi va xorijiy davlatlarda joylashgan diplomatik vakolatxonaning konsullik bo'limi va alohida faoliyat olib boradigan konsulxonalar tomonidan amalga oshiriladi. **LEGITIMLIK** – muayyan davlat hokimiyatining qonuniyligi a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishini anglatuvchi

qadriyatiy tushuncha. U tarixan an'anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda namoyon bo'ladi.

LOKALLASHTIRISH – biror voqea, hodisa va harakatlarni ma'lum joy bilan cheklash, uning muayyan hududdan, chetga chiqishiga yo'l qo'ymaslik.

LIBERTARIZM – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga aralashmasligi. Bu bozor munosabatlari sohasi ekanligi to'g'risidagi g'oyani targ'ib qiluvchi konsepsiya ("Chikago maktabi"- O.Fridman, G.Bekker, A.Laffer).

LIDERLIK – bu etakchilik maqomi, qarorlar qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy pozisiyadir.

MAZHAB – (arab.«yo'l», «oqim») islomdagi shariat qonunlari tizimi va yo'nalishi.

MAFKURA – ma'lum bir jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh, partiya yoki millatning tub manfaati, maqsad va vazifalarini nazariy asoslab himoya qiluvchi, shu maqsad yo'lida ularni birlashtiruvchi, safarbar qiluvchi falsafiy, siyosiy, axloqiy, diniy, huquqiy qarashlarning sistemalashtirilgan ilmiy bilimlar majmuasidan iboratdir.

MAFKURAVIY TUZOQ – diniy ekstremistlar o'zining g'oyalariga kishilarni ishontirib, ergashtirib olish usuli.

MAFKURAVIY IMMUNITET – shaxs, ijtimoiy guruh, jamiyat, millatni turli g'arazli vayronkor, eksteremistik va terroristik g'oyaviy ta'sirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tarbiyaviy tizim asosida mustahkam g'oyaviy dunyoqarashning shakllanishi.

MAFKURAVIY PROFILAKTIKA – tushunchasi begona, zararli ekstremistik g'oyalar kirib kelishining oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan turli shakldagi g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy ishlar majmuini aks ettiradi.

MANFAAT GURUHLARI – fuqarolarning davlat bilan munosabatlarida o'zgarishning hokimiyatga doir manfaatlarini bayon etish yoki himoya qilishlari uchun ixtiyoriy tarzda birlashgan maxsus yoki moslashtirilgan tashkilotlar. Ular o'z oldilarga qo'ygan maqsadlari, faoliyat usullari, hokimiyatga ta'sir resurslari va boshqa belgilariga ko'ra siyosiy partiyalardan siyosiy partiyalardan farq qiladi.

MATEMATIK MODELASHTIRISH – ijtimoiy borliq xususiyatlarini matematik tilda bayon etish imkonini beruvchi

empirik tadqiqot usullaridan biri. Borliqning tadqiqoti uchun ahamiyatli tomonlarini lo‘nda va abstrakt shaklda aks ettiradi, tadqiq qilinayotgan masalaning asosiy muammolarini aniq tassavur etish; sifatiy usullar yordamida olib bo‘lmaydigan xulosalarga kelish imkonini beradi; tahlil uchun kompyuter texnologiyalaridan faol foydalanishga asoslanadi.

MILLIY OZCHILIKNI tashkil etuvchi xalqlarning submadaniyati qandaydir etnik ozchilik kamsitishga duchor bo‘lgan holatlarda yaqqol ifodalangan xususiyat kasb etadi.

MISSIONERLIK – (prozelitizm) bir diniy e’tiqoddan boshqa dinga o‘tishga targ‘ib qiluvchi hatti-harakat bo‘lgan faoliyat.

MILLIY KONSOLIDASIYA – demokratik, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurilishida umummilliy, umumxalq manfaati yo‘qlida mamlakatda yashayotgan hamma xalqarni milliy jipslashtirishi, safarbar qilinishi tushuniladi.

MODERNIZM – dinda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalanib, davrga moslashish, yangilanish oqimi.

MOLIKIYLIK – islomning sunniylik yo‘nalishdagi huquqiy mazhablardan biri.

MUSULMON – islom diniga e’tiqod qiluvchi kishi.

MUTAASSIBLIK – (fanatizm) o‘z g‘oyasini o‘ta «to‘g‘ri» deb boshqacha fikr egalarini tan olmaslik va ularni buzg‘unchilikda ayblash.

MUTLAQ MONARXIYA– boshqaruvning shunday shakli, unda oliy davlat hokimiyati qonun bo‘yicha to‘laligicha bitta shaxsga bo‘ysunadi. Bunday boshqaruv shakli Saudiya Arabistoni, Qatar, Ummon, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa mamlakatlarda amalga oshiriladi.

NATURALLASHISH – tug‘ilgandan keyin (shaxsning iltimosiga ko‘ra, nikoh yoki bolani asrab olish holatlarida) biron-bir davlatning fuqaroligini qabul qilinishini bildiradi. Shaxsning iltimosiga ko‘ra, naturallashish (fuqaroligi bo‘lgan yoki chet el fuqarosi bo‘lgan holatlar) eng ko‘p tarqalgan. Arizalarni ko‘rib chiqish tartibi va fuqarolikka qabul qilish shartlari davlat qonunlari bilan belgilanadi. Ko‘pchilik mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, ma’lum davlatda muayyan vaqt mobaynida (Angliyada 70 yil), AQSH va Fransiyada 54 yil,

O'zbekistonda 5 yil va boshqalar) yashab turish zarati, mazkur mamlakat tilini bilish, "yaxshi xulq va yaxshi axloq", muayyan yoshga yetish, mazkur davlatda muqim yashash uchun joylashish istagi va boshqa shartlar xosdir. Bu talablarda rivojlangan mamlakatlar fuqaroligini qabul qilishga siyosiy, ijtimoiy, milliy va boshqa sabablarga ko'ra keraksiz topilgan shaxslarning naturallashuviga rad javobi berish uchun asos va sabablar vujudga keltirishga intilish o'z ifodasini topgan. Nikoh holatida naturallashish ham asosan davlatlarning ichki qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Natijada ko'pchilik holatlarda turmushga chiqqan ayol fuqarolikdan maxrum bo'lgan shaxs yoki fuqarolikka ega bo'lgan shaxs holatiga tushib qolishi mumkin.

NORMATIV BASHORAT – cheklangan resurslar aniqlanganligi asosida kutilgan natijalarga erishish uslublari haqidagi prognoz

NOTA – diplomatik yozishmalarni aks ettiruvchi hujjat. Xalqaro amaliyotda shaxsiy va verbal notani farqlash mumkin. Shaxsiy nota yozma shaklda bo'lib, unga imzo chekuvchi shaxs tomonidan yoziladi. U nota yuborilayotgan shaxsga murojaatdan boshlanadi va bu shaxsga bildirilgan hurmat bilan tugallanadi. Shaxsiy nota maxsus blankada yoziladi, yuqori o'ng chetida yuborilayotgan vaqt va joy, birinchi betining pastki o'ng burchagida manzilgoh, nota yuborilayotgan mansabdor shaxs ismi-sharifi to'liq keltiriladi. Notaning keng tarqalgan turlaridan biri verbal nota bo'lib, unda diplomatik faoliyat mazmunini tashqil etuvchi turli masalalar yoritiladi. Verbal nota nota blankida bosiladi, hurmat bilan boshlanib, hurmat bilan tugatiladi, uchinchi shaxs tomonidan tuziladi, lekin imzolanmaydi. Notaning yuqori chap tarafida ruyxatdan o'tkazilgan chiqish soni va pastki chap burchagida manzilgoh yoziladi. Nota matni ostida yuborilgan vaqti, joyi ko'rsatiladi. Verbal notaga tashqi ishlar vazirligi yoki diplomatik vakillikning muxri bosiladi. Hozirgi davrda xalqaro amaliyotda hokimiyatlar o'rtasida bevosita nota yozishmalari keng qo'llanilmokda.

NOTIFIKASIYA – xalqaro huquqda tashqi ishlar vazirligi diplomatik (konsullik) vakolatxonasi, xalqaro tashqilotlar yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan davlatning ma'lum bir masala yuzasidan nuktai nazari yoki siyosiy va huquqiy faktlar va voqealar bayon qilingan rasmiy bildirishidir. Notifikasiya xalqaro va diplomatik amaliyotda

keng tarkalgan. Baʼzi hollarda u xalqaro huquqiy okibatni keltirib chikaradi va xalqaro huquq subyektlarining huquq va majburiyatlarining vujudga kelishi yoki tugatilishiga sabab boʻladi. Ayrim hollarda notifikatsiyadagi holatlar notifikatsiya shartnomasida nazarda tutilgan boʻladi va xalqaro shartnomani qabul qilish, ratifikatsiya, unga qoʻshilish yoki rad etish va hokazolarda zaruriy holatlardan hisoblanadi.

NUNSIY – Vatikanning xorijiy davlatlardagi rasmiy diplomatik vakolatxonalarining elchi klassiga mansub rahbari. Nunsiiy mezbondavlat rahbari huzurida akkreditatsiya qilinadi. Koʻpgina katolik davlatlarda mavjud odatga koʻra, ishonch yorliqlarini topshirish sanasidan qatʼiy nazar, nunsiiy shu mamlakatda mavjud diplomatik korpus duayeni deb tan olinadi.

NURCHILAR – Oʻzbekistonga 1990-yillarda Turkiyadan kirib kelgan diniy-ekstremistik tashkilot. Uning asoschisi Turkiyalik Said Nurchi boʻlib, Qurʼon oyatlarini, islom qonunlarini zamonga moslashtirishga urinuvchi oqimdir. Ular hozir Oʻzbekistonda faoliyat koʻrsatmaydi.

OMMAVIY SIYOSIY ONG – jamiyat ehtiyojlarining mazmuni va darajasini bilvosita ifodalaydi. Shuningdek, u jamiyatning siyosiy voqelik toʻgʻrisidagi bilimlariga xos xususiyatni ham aks ettiradi.

PAUPERIZM – ommaviy qashshoqlanish, aholining qambagʻallashuvi; yashash uchun zaruriy vositalardan mahrumlik

PAYGʻAMBAR – farishta jabroil orqali Ollohdan kelgan koʻrsatma vahiyini qabul qilib olib, xalqqa yetkazuvchi Ollohning Rasulielchisidir.

PANISLOMIZM – XIX asrning oxirlarida oʻrta Sharqda vujudga kelgan boʻlib, musulmon mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirish gʻoyasini koʻtarib chiqqan siyosiy oqim.

PARTIYA – soʻzi lotincha «partio» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, «ish», «qism» degan maʼnolarni anglatadi. Siyosiy partiya – aholining, sinfnings, ijtimoiy qatlam yoki qatlamlarning bir qismi. Uning paydo boʻlishini siyosatshunoslar burjua demokratiyasining vujudga kelish davriga nisbat beradilar. Biroq davlatlarning konstitutsiyalarida partiya haqidagi moddalar faqat XX asrga kelib paydo boʻldi.

PERMANENT – doimiy, uzluksiz davom etadigan.

PILOTAJ USLUBI – muayyan metodikalarning (anketalar, rejalar, intervyu va h.k.) validligini aniqlash, tadqiqot tadbirlarini tekshirib olish maqsadida o‘tkaziladigan sinov tadqiqoti.

RATIFIKASIYA (lotin. ratus – “tasdiqlangan” va facere – “etmoq”) – 1) xalqaro shartnomada axdlashuvning davlat oliy organlaridan biri tomonidan tasdiqlanish akti bo‘lib, bu shartnomaning majburiyligiga rozilikni bildiradi. Ratifikatsiyalash huquqiga ega bo‘lgan organ (organlar) davlatning konstitutsiyaviy qonunlari bilan belgilanadi. Ratifikatsiyalash to‘g‘risidagi qaror farmon sifatida qabul qilinadi. Bu farmon asosida ratifikatsiyalash yorlig‘i imzolanadi. Ikki tomonlama shartnoma imzolanadi. Ikki tomonlama shartnomani ratifikatsiyalash yorliqlari shartnoma imzolangan davlat poytaxtida almashtiriladi. Agar shartnoma ko‘p tomonlama bo‘lsa, yorliqlar saqlash uchun depozitariy davlatga topshiriladi. Tomonlar tasdiqlash, qabul qilishni ko‘zda tutgan shartnomalar ratifikatsiya qilinmaydi. Tasdiqlash ratifikatsiyadan farqli xolda davlat organining ancha keng doirasi tomonidan amalga oshiriladi; 2) federatsiya subyektlari tomonidan referendum yoki maxsus organlarni chaqirish yo‘li bilan davlat parlamenti tomonidan qabul qilingan konstitutsiyaga to‘ldirishlar va tuzatishlar kiritish. Ratifikatsiya o‘tkazish tartibi Konstitutsiya bilan belgilanadi. Masalan, AQSH Konstitutsiyasiga to‘zatislar kiritish AQSH Kongressi tomonidan qabul qilinganidan so‘ng qonunchilik majlislari va maxsus konventlari tomonidan shtatlardan 3/4 qismi bilan tasdiqlanishi lozim. Avstraliyada parlament tomonidan Konstitutsiyaga to‘zatislar kiritish loyixasi ishlab chiqilganidan keyin, shtatlararo saylovchilar referendumida ko‘pchilik ovozni olganidan so‘ng tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi jami deputatlarining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchiligi tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan kiritiladi.

RELYATIV – muayyan munosabatlardagina ahamiyatga ega, shu munosabatlar bilan belgilanuvchi, nisbiy.

REPREZENTATIVLIK – tadqiq qilinyotgan birlikning xususiyatlarini aks ettiruvchi tanlov belgisi. (Reprezentatsiya – fr. “vakillik”).

RUHIY PARADIGMA – siyosatni tushuntirishdagi tabiiy paradigmalarning bir turi. U siyosat tabiatini ruhiy omillar orqali tushuntiradi, ya’ni inson ruhiyati motivlar, dunyoni qabul qilish usuli va h.k. orqali.

SEKULYARIZM – diniy-ekstremistik-g‘oyaviy manbaalaridan biri bo‘lib, islom siyosiylashuviga qarshi, dinning davlatdan ajralishini qo‘llab-quvvatlovchi oqim.

SIYOSIY ADAPTASIYA – (lat. “moslashish”) siyosiy tizim, siyosiy tuzilmalarning atrof-muhit talablariga moslashish jarayoni. U siyosiy tizim oldida turgan vazifalarning o‘zgarishi, yangi maqsadlar aniqlanishi, muammolarni hal qilish uchun yangicha yondoshuvlarning ishlab chiqilishida namoyon bo‘ladi.

SIYOSIY BASHORAT – 1) siyosiy jarayon kelajagi va oqibatlari to‘g‘risidagi siyosiy fikrlarning ishlab chiqilishi; 2) siyosiy hayot, uning jarayonlari, hodisalari rivojlanishining istiqbollari to‘g‘risidagi maxsus tadqiqot.

SIYOSIY

JARAYON – jamiyat siyosiy tizimining shakllanishi, o‘zgarishi va faoliyat ko‘rsatishiga bevosita ta’sir etuvchi ijtimoiy subyektlar faoliyatining uyg‘unligi

SIYOSIY VAZIYAT – siyosiy tizimning ma’lum bir davrdagi holati.

SIYOSIY VAZIYAT TAHLILI – jamiyat siyosiy tizimini tashkil qiluvchi barcha siyosiy aktorlarning hozirgi vaqtdagi o‘zaro harakatini aniqlash va o‘rganish.

SIYOSIY VAZIYATNING VERTIKAL TAHLILI – siyosiy tizim ayrim institutlarining holati va o‘zaro harakatini o‘rganish.

SIYOSIY VAZIYATNING GORIZONTAL TAHLILI – siyosiy jarayonlarda yaxlit aktor sifatida harakatlanuvchi noinstitutlarning jamoalar va guruhlarining hozirgi holatini aniqlash va o‘rganish.

SIYOSIY VAZIYATNING DIAGNOSTIK TAHLILI – har xil muammoli vaziyatlar chiqish ehtimollarini o‘rganish maqsadida siyosiy tizimning yoki uning ayrim tarkibiy qismlarining hozirgi holatini aniqlash va o‘rganish.

SIFAT USULLARI – tadqiqotda individual tajriba, kuzatish, intuisiya, tushunchalarining an’anaviy falsafiy va mantiqiy tahlili usullari, tarixiy qiyoslash, shaxsiy va rasmiy hujjatlardan foydalanish, qaydlar, xulosa va tavsiyalarni publisistik asoslash usullaridan foydalanishga e’tibor qaratadi. Sifat usullari siyosiy hodisalar va jarayonlar, tizimlarning sifat jihatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, sifat usullari miqdor usullari bilan birgalikda qo‘llanishi ham mumkin.

STATISTIK USULLAR – tatbiqiy matematik statistikaga oid modellar va usullar birligi. Shartli ravishda ular ikkiga bo‘linadi 1-guruhga, terma (tanlash) usuli, tavsiflovchi (ta’riflovchi) statistika, bog‘liqlik va aloqalar tahlili, statistik xulosalar, baholar va mezonlar nazariyasi, tajribali rejalashtirish usullari kiradi. 2-guruhga darajalash, taksonomik tadbirlar, korrelyatsion, faktorli, sababiy tahlil va bir guruh statistik modellar kabi ko‘p o‘zgaruvchi usullar kiradi.

SIYOSIY MARKETING – siyosatni siyosatchi va xalq, nomzod va saylovchi o‘rtasidagi rasional munosabatlar tarzida tushunishdan kelib chiqib, yetakchilikka da’vogar shaxsning sifatleri va fazilatlarini saylovchilarga (fuqarolarga) ma’qul tarzda ko‘rsatish.

SIYOSIY

SIYOSIY MODEL – siyosiy tizim yoki uning tarkibiy qismining ma'lum shakldagi originaldan farq etadigan siyosiy tasviri.

MENEJMENT – davlat siyosatini samarali tashkil etish va samarali boshqaruvga oid fan.

SIYOSIY ME'YOR – siyosat subyekti e'tirof etgan va amalda rioya qiluvchi na'muna, qoida, faoliyat tamoyili. Ular: rasmiy-norasmiy, og'zaki-yozma, oshkora-yashirin; universal-xususiy bo'lishi mumkin. Belgilangan tartibda qabul qilingan, qog'ozda qayd etilgan va siyosiy subyektlar uchun majburiy bo'lgan siyosiy me'yorlar ayni vaqtda huquqiy me'yorlar hamdir.

SIYOSIY SUBMADANIYATLAR – siyosatning muayyan subyektlariga xosdir. Ular siyosat sohasida tegishli guruhlariga mansub kishilarning o'ziga xos qarashlari, xayrixohliklari va xulq-atvori bilan ajralib turadi. Ularning eng muhimlari va yaqqol namoyon bo'lib turuvchilari jumlasiga quyidagilar kiradi:

SIYOSIY TERRORIZM – siyosiy maqsadlarni ko'zda tutib, ta'qib qilish, zo'ravonlik, qo'poruvchilik, qotillik, qo'rqitish usullari bilan hokimiyatni qo'lga olish yoki uni saqlab turishni ifodalaydi. (Masalan XX asrdagi sobiq SSSRda bolshevizm yoki Gitler Germaniyasi va Italiyada fashizm terrori).

SIYOSIY-DINIY SUBMADANIYATLAR – ijtimoiy hayotning diniy va siyosiy sohalarining chambarchas bog'lanib ketganligi hamda diniy aqidalarning siyosat subyektlarining siyosiy yo'naltirilganligiga va xulq-atvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi.

SIYOSIY MAFKURA – u yoki bu ijtimoiy guruhning manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi hamda ko'proq miqdordagi kishilarning individual o'y-fikrlari va xatti-harakatlarini hokimiyatdan foydalanishning muayyan maqsad va vazifalariga bo'ysundirishni talab qiluvchi tizimlashgan g'oyalar va qarashlarning yig'indisidir. Qisqacha qilib aytganda, siyosiy mafkura – muayyan ijtimoiy guruhning hokimiyatga intilishini, yoki undan foydalanishini asoslovchi va siyosiy harakatning u yoki bu strategiyasini ko'zda tutuvchi g'oyaviy tizimdir.

SIYOSIY

SIYOSIY ONG – siyosat sohasining ijtimoiy subyektlar (individlari, guruhlar va boshqalar) tomonidan idrok etilishidir. Siyosiy ong kishilarning davlatga va partiyalarga, siyosiy qadriyatlar va rivojlanish maqsadlariga, siyosiy hayotning an'ana va me'yorlariga munosabatini ifoda etuvchi qarashlar va qoidalar yig'indisidan iboratdir.

KONFLIKT – davlat, ijtimoiy va etnik guruhlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, ma'lum shaxslarning siyosiy manfaatlari, maqsadlari va qarashlarining to'qnashuvidan iboratdir.

SIYOSIY LIDERLIK – bu siyosat bozorida amalga oshiriladigan maxsus tadbirkorlik shaklidir. Bunday raqobatchilik kurashuvida tomonlar ijtimoiy vazifalarni yechish bo'yicha dasturlar bilan almashinadilar.

SIYOSIY ELITA – bu hokimiyatga erishgan, jamiyat hayotining turli sohalarida buyruq beruvchi o'rinlarni egallagan odamlar to'dasi emas, balki barcha siyosiy tizimlarda bo'ladigan, mukammal tashkil etilgan hamkorlik asosidagi ijtimoiy guruhlardir. Shu o'rinda, u guruhlarining vujudga kelishi uchun ma'lum bir obyektiv shart-sharoit va imkoniyatlar bo'lishi lozim va ularni quyidagi uch darajaga bo'lish mumkin. Birinchi darajali imkoniyatlar ijtimoiy sabablar tufayli yuzaga keladi va umumiy mehnat taqsimoti hamda jamiyatni ijtimoiy yo'naltirishdan iborat.

SUNNAT – Islomda Payg'ambar o'zlari qilgan amallari va musulmonlarga qilishni buyurgan amallar.

SU'FIY – Islomdagi mistik oqim – so'fiylikning vakili, toat-ibodat bilan yashovchi musulmon kishi.

SUNNIYLIK – ("ahli sunna val-jamoa") islomdagi yirik yo'nalishi, jahon musulmon aholisining 92,5 foizini tashkil qiladi.

TASHQI ALOQALAR – mamlakatning davlat organlari, yuridik hamda jismoniy shaxslarning chet davlatlar, ularning yuridik shaxslari, fuqarolari va xalqaro tashqilotlar bilan hamkorlik o'rnatishga va uni rivojlantirishga qaratilgan harakatlar yig'indisi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati deganda, O'zbekiston Respublikasi davlat idoralarining, yuridik va jismoniy

SIYOSIY

shaxslarning xorijiy davlatlar, ularning yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlar bilan tashqi iqtisodiy hamkorlik oʻrnatishga, bunday hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jami amaliy harakatlari tushuniladi.

TASHQI SIYOSATNING ASOSIY TAMOYILLARI – davlatning xalqaro munosabatlaridagi asosiy yunalishini qamrab oluvchi tashqi siyosiy tushuncha. Oʻzbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari mamlakat Konstitutsiyasining 17-moddasida qayd qilingan. Tashqi siyosat davlatning boshqa davlat va xalqlar bilan munosabatlari

sohasidagi faoliyatining maqsad va tadbirlari majmuini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tamoyillari va normalariga, "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi, "Mudofaa to'g'risida"gi qonunlari, "O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasi" va BMT hamda Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti faoliyatining asosiy tamoyillari va maqsadlariga asoslanadi.

TRADISIONALISTLAR – (an'anachilar) o'rta asrlarda qaror topgan diniy tartib-qoidalarni har qanday sharoitda ham saqlab qolishga chaqiruvchi, har qanday yangiliklarni dinga kiritishga qarshi chiqib, sabr-toqat asosida ish ko'radigan oqimdir.

TRANSFORMASIYA – siyosiy tizimlarning o'zgarish jarayoni

TERRORIZM – (lot. "qo'rquv", "dahshat") yovuz maqsadlar yo'lida, siyosiy kurashning jamiyatda beqarorlik o'rnatishga hamda aholida vahima va dahshat o'yg'otishga qaratilgan usul bo'lib, qo'rqitish yo'li bilan o'z hukmini o'tkazib, davlatni qo'latuvchi, hokimiyatga erishishda parokandalikka olib boruvchi usuldir. Bu yo'lda suiqasd, ko'poruvchilik, portlatish usullaridan foydalaniladi.

TURKISTON ISLOMIY HARAKATI – 1990-yillarda Farg'ona vodiysida tashkil topgan O'zbekiston islom harakati nomli diniy ekstremistik guruhlar. Hozirgi vaqtda bu tashkilotni Turkiston islomiy harakati deb nomi o'zgartirildi. Ular butun Markaziy Osiyoda islom «xalifalik» davlatini qayta tiklashni maqsad qilib qo'ygan.

TOLERANTLIK – (lot. "chidamoq", "bag'rikenglik" ma'nosida) mamlakatda, jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalish bo'lib, tinchlik, barqarorlik muhitini yaratish maqsadida boshqa dinlarga bag'rikenglik bilan do'stona munosabatda bo'lishni anglatadi.

TOLIBON – Afg'onistonda hokimiyat uchun qurolli kurashgan diniy ekstremistik va terroristik harakat.

UNITAR DAVLAT – unitarizm (fr.unitarizm, lotincha – unitas "birlik" so'zidan) – markaziy hokimiyat organlariga bo'ysunuvchi va davlat mustaqilligi belgilariga ega bo'lmagan ma'muriy-hududiy birliklardan iborat yagona davlat birlashmasi. Odatda, unitar davlatda

faqat bitta konstitutsiya, bitta fuqarolik, oliy davlat organlarining yagona tizimi bo'ladi; u faqat suverenitetning hech qanday belgilariga ega bo'lmagan ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linadi. Unitar davlatning tarkibiy qismlari (viloyatlar, tumanlar) markaziy organlar tomonidan qabul qilinadigan qonunlar asosida boshqariladi, ularning hududi mahalliy aholi va mahalliy organlarning roziligisiz umumdavlat qonuni bilan o'zgartirilishi mumkin.

UNITARIZM – davlat tuzilishining hozirgi dunyoda eng ko'p tarqalgan shakli.

FANATIZM – (mutaassiblik) o'zining e'tiqodiga o'ta berilib ishonish.

FEDERATSIYA (lot. federatio – “ittifoq”, “birlashuv”) – 1) davlat tuzilishi shakllaridan biridir. Federatsiya bir necha davlatlar ittifoqdosh respublikalar yoki muxtoriyat – davlat tuzilmalarining birlashgan ittifoqidir. Bunday davlat tarkibiga kiruvchi federativ birliklar federatsiya a'zolari (masalan, hududiy yerlar, shtatlar) muayyan mustakillikka, o'z suverenitetiga ega bo'lib, bu holat ularning konstitutsiyalarida mustaxkamlangan bo'ladi, ya'ni o'z konstitutsiyasi, qonunchiligi, ijro organlari, sud organlariga ega bo'ladi. Binobarin, yagona ittifoq federal davlat xokimiyati organlari, yagona fuqarolik, pul birligi va xokazo o'rnatiladi. AQSH, Hindiston, Germaniya kabi davlatlar ana shunday federatsiya davlatlaridir. Demak, federatsiya unitar davlatlardan farkli o'laroq, davlat hokimiyati oliy organlarining ikki bosqichli bo'g'iniga - federativ (ittifoq) oliy hokimiyat hamda federatsiya a'zolari (subyektlari) hokimiyat organlariga ega bo'ladi. 2) “Federatsiya” iborasi turli tashkilot nomida ham keng qo'llaniladi (masalan, Xalqaro xotin-qizlar demokratik Federatsiyasi, Sport federatsiyasi kabilar).

FEDERATIV DAVLAT – federatsiya (fr. federatio, lotincha federatio – birlashma, ittifoq so'zidan) – davlat tuzilishining yuridik jihatdan belgilab qo'yilgan siyosiy mustaqillikka ega bo'lgan davlat birlashmalaridan tuzilgan, murakkab (ittifoq) davlatdan iborat shakli.

FUQARO – huquqiy asosda muayyan davlatga mansub bo'lgan shaxs.

1) Fuqaro tegishli huquq va muomala layokatiga ega, uning huquq va erkinliklari, shuningdek, burchlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan. Muayyan davlat fuqarosining huquqiy holati ushbu davlat hududida yashab turgan boshqa davlat fuqarolari va

fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan farq qiladi. Masalan, siyosiy huquq va erkinliklar faqat ushbu davlat fuqarolariga tegishlidir. 2) Fuqarolik huquqiga binoan, fuqaro fuqarolik munosabatlarida ishtirok etuvchi fuqarolik huquqi subyektlarining bir turi hisoblanadi. Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lishi layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi. Fuqaro huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

FUNDAMENTALIZM – muayyan dinning vujudga kelishdagi ilk davriga qaytish va shu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suradi.

FUTUROLOGIYA – (lat. kelajak to'g'risidagi ta'limot) ijtimoiy jarayonlar, insoniyat tahlil qiluvchi ilmiy nazariyalar.

XALQARO MUNOSABATLAR – davlatlar, davlatlararo tashkilotlar va partiyalar o'rtasidagi integratsiya aloqalarning yig'indisi sifatida tashqi va xalqaro siyosatning tamoyillari amalga oshiriladigan muhitni tashkil etadi.

XALQARO SIYOSAT – xalqaro huquq subyektlarini ularning manfaatlarini muvofiqlashtirish, urush va tinchlik masalalarini hal etish, butun insoniyatning yashab qolishi, yalpi xavfsizlik va qurolsizlanishni ta'minlash, global, mintaqaviy va milliy nizolarni hal etish va ularning oldini olish, atrof-muhitni muhofaza qilish, qoloklik va qashshoqlikka, ochlik va kasalliklarga barham berish, insoniyatning boshqa global muammolarini hal etish, dunyoda adolatli tartib o'rnatish bilan bog'liq bir maqsadga yo'naltirilgan siyosiy faoliyatidan iboratdir.

XALQARO SANKSIYA – xalqaro huquq normalarining tarkibiy elementi bo'lib, bunda ayrim davlatlar tomonidan xalqaro huquq normalariga rioya etilmasligi oqibatida unga nisbatan xalqaro tashkilotlar, asosan BMT tomonidan siyosiy, iqtisodiy va xokazo majburlov choralarini qo'llash hisoblanadi. BMT Ustavining VII bulimida xalqaro sanksiya sifatida, basharti, tinchlikka xavf solish holatlari bo'lganda jamoa choralarini qo'llash kiritilgan. Amaliyotda BMT tomonidan BMT Ustavining 41-moddasiga asosan 1966 va 1968yillarda xalqaro sanksiya Janubiy Rodeziya davlatining rejimiga

nisbatan qo'llanilgan. Xalqaro sanksiya Eron, Liviya, sobiq Yugoslaviya, Iroq va hozirgi kunda Afg'onistonga nisbatan qo'llanildi.

XALQARO TASHKILOTLAR – hukumatlararo va nohukumat xususiyatidagi birlashgan tashkilotlar xalqaro bitimlar asosida tuziladi. Xalqaro tashkilotlar davlatlar hamkorligini har tomonlama rivojlantirishga va ta'sis hujjatlariga asoslangan xolda xalqaro muammolarni hal qilishga, aniqlashga xizmat qiladi. Xalqaro tashkilotlarning asosan Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'la boshladi. Bunga misol qilib BMT tashkil etilishini keltirish mumkin. Xalqaro tashkilot, o'z mazmuniga ko'ra, bir qator alohida xususiyatlarga ega bo'lib bu institut xalqaro munosabatlarning muhim sohalarida faoliyat yuritadi. Xalqaro tashkilotlar faoliyati yo'nalish va asosiy maqsadi – muzokaralarda qatnashish huquqidan samarali foydalanish va muammolarni muxokama tariqasidagi kuchga ega bo'lgan qarorlar qabul qilishdan iborat.

XALQARO XARAKTERDAGI JINOYATLAR – bir necha yoki barcha davlatlar manfaatlariga daxldor bo'lgan, ular natijasida ijtimoiy xavf to'g'dirgan qilmish, og'ir jinoyat, xalqaro huquqga zid harakat. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlar mavjud davlat va millatlar havfsizligiga tahdid uyg'otuvchi, tinchlik va havfsizlikka raxna soluvchi qilmishlardir. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlar obyekti davlatlar tinchligi va xalqaro havfsizlik, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlari, barcha millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlar va xalqaro huquqda zid harakatlar subyekti davlatlar, xalqaro tashkilotlar va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

XALQARO TERRORIZM – tushunchasida turli davlatlar, xalqaro tashkilotlar siyosiy partiyalarni beqarorlashtirish, xalqaro nufuz, obro'ga ega bo'lgan arboblarni qotil qilishga yo'naltirilgan buzg'unchi siyosiy harakat bo'lib, hozirgi vaqtda alohida bir davlat yoki mintaqada doirasidan chiqib, xalqaro miqyosdagi uyushgan qo'poruvchi, jinoyatchi tashkilot darajasiga ko'tarilgan. (Masalan, «Al-Qoida» xalqaro terroristik tashkiloti).

XALQARO HUQUQNING ASOSIY TAMOIYILLARI – ma'lum tarixiy davrda xalqaro hayotning asosiy va muhim masalalari bo'yicha xalqaro munosabat subyektlarining xatti-harakatlari aks ettirilgan,

umume'tirof etilgan qoidalardan iborat. Xalqaro huquqning har qanday subyekti bu tamoyillarni e'tirof etganligini e'lon qilganidan qat'iy nazar, ularga rioya qilishi lozim. Asosiy tamoyillarning majburiy xarakteri shuni bildiradiki, davlat o'zining tashqi siyosatida ularga nafaqat qattiq rioya etishi, balki xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan munosabatda bo'lganda, bevosita o'zining ichki qonunlarini ham yanada takomillashtirishi lozim. BMT Ustavida va xalqaro huquqning tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiyada quyidagi yettita asosiy tamoyillar belgilangan: xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish yoki qo'llash, qo'rkitishni rad qilish; xalqaro nizolarni tinchlik yo'li bilan hal etish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; BMT Ustaviga asosan boshqa davlatlar bilan hamkorlikda bo'lish; davlatlarning suverenitetiga hurmat bilan qarash; xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashi; BTM Ustaviga asosan a'zolikka qabul qilingan davlatlar o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishlari zarurligi. 1966-yili Inson huquqlari to'g'risidagi Paktning kuchga kirishi munosabati bilan asosiy tamoyil ruyxatiga sakkizinchi tamoyil – Inson huquqiga hurmat qo'shildi.

XALIFA – Payg'ambardan keyingi davrda hokimiyatni boshqaruvchi musulmon jamoasining (davlati) boshqaruvchisi.

XALIFALIK DAVLAT – musulmonchilikka xos hokimiyatni boshqarish tartibi. Bunda jamiyatning dunyoviy va diniy hayotiga Xalifa boshchilik qiladi. Islom diniy ekstremizmini ham maqsadi islom mamlakatlarida xalifalik davlatini qayta qurishdir.

XIJRAT– Muhammad Payg'ambar va uning tarafdorlari bo'lgan sahobalarni 622-yilda Makkadan Madinaga ko'chishni bildiradigan tushuncha. Shu yildan boshlab musulmonlarning hijriy yili hisobi boshlangan.

SHARQ SIYOSIY SUBMADANIYATI – tarixiy-diniy an'analarga yo'naltirilgan. Cheklangan siyosiy tanlov sharoitlarida faoliyat ko'rsatadi. Ushbu submadaniyat aniq-ravshan ifodalangan siyosiy subordinatsiya, ma'muriy hokimiyatning vakolati va sud hokimiyatlaridan ustunligi bilan ajralib turadi. Hokimiyatning meros bo'lib o'tishi va elitarligi keng tarqalgan. Mintaqaviy siyosiy

submadaniyatlar mintaqaviy va davlat belgilariga ko‘ra ajralib turadi. Ana shu belgilar bo‘yicha siyosiy tafakkur va xulq-atvor uslublarida farqlar ko‘zga tashlanadi. Mintaqaviy omilni hisobga olgan holda shahar va qishloq submadaniyatlarini ham farqlash mumkin.

SHARIAT – islomda to‘g‘ri va ilohiy yo‘l ma‘nosida bo‘lib, islom diniy tizimni anglatuvchi tushuncha. Musulmonlar hayotining iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va ma‘naviy faoliyatlarining huquqiy boshqarish tizimini o‘zida jamlagan qonunlar majmuasi.

SHAHID – Islomda din yo‘lida chinakam, chuqur e‘tiqodi asosida jangda halok bo‘lganlarga yoki savob ishi jarayonida fojeali halok bo‘lganlarga nisbatan ishlatiladi. «Shahidlar» hech qanday to‘siqsiz, so‘roqsiz jannatga kiradi. degan tushuncha mavjud. Diniy ekstremistik maqsadida jamiyatga zarar keltirish asosida o‘zini o‘zi portlatib, qurbon qilib o‘lishni islomda «Shahid» emas, balki harom o‘lim deb hisoblanadi. **CHEGARALAR DAXLSIZLIGI** – davlat mustaqilligi amal qiluvchi hudud davlat chegarasi bilan belgilanganini va unga tajovuz qilish taqiqlanganini bildiruvchi xalqaro huquq tamoyili. Chegaralarni buzish davlat mustaqilligiga hiyonat qilishni anglatadi. Davlat chegaralarini majburan o‘zgartirish xalqaro huquq tomonidan taqiqlangan anneksiyadir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida qayd qilingan chegaralarning daxlsizligi mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy tamoyilidir.

CHET EL FUQAROLIGI VA FUQAROLIK – O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansub bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan, chet mamlakatlarning fuqaroligiga ega bo‘lgan shaxslar chet el fuqarosi hisoblanadi. Ular shartnoma asosida O‘zbekistonda ishlashi, o‘qishi, sayyohlik yo‘llanmasi bilan kelishi va hokazolar. Ularning huquqlari xalqaro huquq me‘yorlari va xalqaro shartnomalar bilan belgilanadi. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar biron-bir mamlakatga huquqiy mansub bo‘lmagan shaxslardir. Bunday shaxslar har qanday mamlakatda uchraydi. Ular siyosiy huquqlardan foydalanmaydi, o‘zlarining xohishi bilan O‘zbekiston fuqaroligiga o‘tishi mumkin. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning manfaati, huquq va erkinliklari qonun bilan himoya qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1169-moddasining 2-qismiga binoan chet el fuqarolari va fuqaroligi

bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layokatidan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda foydalanadilar, (O‘zbekiston Respublikasi qonunlari yoki xalqaro shartnomalarida belgilangan hollar bundan mustasno).

ETNO-SIYOSIY SUBMADANIYATLAR – milliy tarkibi bir xil bo‘lmagan davlatlarga xosdir. Ozchilikni tashkil etuvchi millatlarning siyosiy submadaniyatlari keng tarqalgan. Masalan, Turkiyadagi greklar, Fransiyadagi jazoirliklar, Ispaniyadagi basklar, AQSHdagi hindular va boshqalar ana shunday submadaniyat egalaridir.

EKSTERRITORIAL HUQUQ – ("eksterritorial" – "yerdan tashqarida" degan ma'noni bildiradi) – to‘liq immunitet, ya’ni bironbir davlat yurisdiksiyasiga qarab ozod etishdagi asos bo‘lib, agarda so‘z jismoniy shaxs to‘g‘risida bormasa, bunday holda taalluqli shaxs (yoki idora) davlat hududida joylashgan bo‘lib hisoblanadi. Oldinlari ekterritorial huquq diplomatik immunitet va imtiyozlarga asoslangan edi, ammo keyinchalik bundan voz kechildi. Chunki, bunday hollarda yuridik funksiyalarga asoslanish hamda immunitet va imtiyozlarning tiyiqsiz kengayishiga sabab qilishi mumkin. Eksterritorial huquq xalqaro huquqning ayrim boshqa tarmoklarida o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Masalan, xalqaro dengiz huquqida chet el portidagi harbiy kemalarning tavsifnoma statusini saqlash uchun qo‘llaniladi. Mazkur kemalar bunday hollarda davlatning bayrog‘i bilan o‘z hududida suzuvchi deb qaraladi. Eksterritorial huquqdan harbiy uchish kemalari ham foydalanadi, agarda ular chet el hududida suveren hududdagilar roziligi bilan bo‘lsa, bunday hududlar o‘sha davlatning bir qismi hisoblanadi, ularda tanib olinadigan belgilar mavjud bo‘ladi.

EKSTREMIZM – tushunchasi (lot. "o‘ta" degan mazmunda). Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy harakterdagi muammolarni hal etishda o‘ta keskin chora-tadbirlar, fikr va qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotdir. Ekstremizm mazmuni va yo‘nalishiga ko‘ra diniy yoki dunyoviy bo‘lishi mumkin.

ELCHI – chet davlatdagi (ba‘zan o‘rindoshlik bilan bir qancha davlatlarda) va xalqaro tashkilotdagi mazkur davlatning oliy martabali diplomatiya vakili. "Elchi" atamasi, eng avvalo, diplomatik

vakolatxona boshligining eng yuksak martabasini anglatadi, mazkur martaba diplomatiya vakolatxonalari ochayotgan davlatlar o'rtasidagi bitimlar bilan belgilanadi. Buning uchun xalqaro urf-odatda e'tirof etilgan va 1961-yildagi diplomatiya aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasida o'z tasdig'ini topgan qoidalariga ko'ra, diplomatiya vakolatxonasi rahbari diplomatik toifalar orasidan tanlab olinadi. Elchi davlat boshlig'i tomonidan tayinlanadi va o'zi tayinlangan davlat boshlig'i tomonidan e'tirof etiladi. Elchi deganda, shuningdek tegishli vakolatxona rahbari lavozimi ham tushuniladi, aksariyat mamlakatlarda bu oliy diplomatiya martabasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'zda tutilganidek, chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlardagi elchilarni va boshqa diplomatiya vakillarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tayinlaydi va chaqirib oladi (93modda, 6-band). Prezident, shuningdek, chet el diplomatiya vakillaridan ishonch yorliqlarini qabul qilib oladi (93-modda, 5-band), ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti chet el davlati rahbaridan O'zbekiston Respublikasi rahbariga yozilgan rasmiy maktublarni qabul qilib oladi, (ushbu maktublarda diplomatiya vakilini tayinlash yoki chaqirib olish qoidalari bayon etiladi). O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining chet el davlatlaridagi diplomatiya vakillarini tayinlash va ularni chaqirib olish tartibi to'g'risida"ga qonunida 1961-yildagi diplomatiyaaloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi hamda xalqaro huquqning umum e'tirof etgan tamoyillari va normalariga binoan O'zbekiston Respublikasining elchisini tayinlash va chaqirib olish tartibi belgilangan.

ELITA – fransuzcha «elite» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u eng yaxshi, tanlangan degan ma'noni bildiradi. «Tanlangan bug'doy», «tanlangan poda» va h.k. deyiladi. Buni eng yaxshiligini, oliy navligini, tanlanganligini ko'rsatish uchun aytiladi. Siyosiy leksikada ham avvaldan ushbu termin xuddi shunday ma'noni anglatgan

ELCHIXONA – bir davlatning boshqa davlatdagi doimiy diplo-
matiya vakolatxonasi, unga elchi boshchilik qiladi; elchi oliy toifadagi diplomatiya vakilidir. Doimiy elchixonalar XVII-XVIII asrlarda tashkil topgan. Elchixonaning maqomini belgilab beradigan xalqaro huquqiy normalar 1961-yildagi "Diplomatiya aloqalari to'g'risida"gi Vena

konvensiyasida aks etgan. O‘zbekiston mazkur konvensiyaga 1992-yilning 15-yanvarida qo‘shilgan.

E’TIQOD – dunyoqarash shaxs, jamoa, guruh va jamiyat a’zolarini ma’lum bir g‘oya, ta’limot, yoki dinga qat’iy ishonish asosida uni haq deb bilib, shu ta’limot to‘g‘risidagi tasavvur va bilimlarini tashkil qiladi. Inson shu g‘oyani yoki dinni o‘zining faoliyat dasturi deb hisoblaydi.

EKSPERT BAHOLASHNING BILVOSITA USLUBLARI – bilvosita, noverbal o‘zaro harakat asosida tashkil etilgan ekspert guruhlarining tahliliy faoliyati.

EKSPERT BAHOLASHNING BEVOSITA USLUBLARI – shaxsiy muloqot asosida tashkil etilgan ekspert guruxlarining taxliliy faoliyati

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SIYOSATI – davlatning jahon hamjamiyati tizimida hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirishga, hayotiy muhim manfaatlarni amalga oshirishga, milliy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan faoliyati. Konstitutsiyaning 17-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning keng huquqli subyektidir, uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning boshqa umume’tirof etilgan tamoyillari va me’yorlariga asoslanadi. Respublika davlatning va xalqning oliy manfaatlari, uning farovonligi va xavfsizligi nuktai nazaridan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stlik va boshqa xalqaro tuzilmalarga kirishi, shuningdek ulardan chiqishi mumkin.

O‘ZBEKISTON ISLOM HARAKATI – 1996-yilda tashkil topgan bo‘lib, keyinchalik «O‘zbekiston islom partiyasi» ham deb atashdi. Hozir esa Turkiston Islom harakati (TIH) deb nomiga o‘zgartirishgan. Bu tashkilot diniy ekstremistik va terrorchilik yo‘nalish bo‘lib, asosiy maqsadi Markaziy Osiyo hududida «Buyuk Islom halifaligi»ni tiklashni ko‘zda tutadi. Asosiy kurash usuli terrorchilik, zo‘rovonlik.

QUR’ON – (arab. «o‘qish», «muqaddas yozuv») islom dinining muqaddas kitobi.

HADIS – (arab. “yangi so‘z”) Payg‘ambar Muhammadning kishilarga nisbatan aytgan so‘zlari, nasihatlar, qilgan amaliy ishlari haqidagi rivoyatlar.

HANBALIY MAZHABI – islomning sunniylik yo‘nalishdagi diniy huquq, qonun qoidalarini belgilovchi to‘rtta mazhablardan biri.

HANAFIYLIK – islomdagi eng ko‘p tarqalgan mo‘tadil huquqiy mazhab. Uning asoschisi Imom A‘zam Abu Xanifa. O‘zbekiston musulmonlari ham xanafiylik qonunchiligiga asoslanadi.

«**HIZBUT TAHRIR AL-ISLAMI**» – (Islom ozodlik partiyasi) diniy ekstremistik tashkilot bo‘lib, islom dunyosiga keng tarqalgan partiyadir. Jumladan, O‘zbekistonda ham maxfiy tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi.

HUDUDIIY YAXLITLIK – zo‘rlilik bilan hududning bir qismini bosib olishni taqiqlovchi xalqaro huquqiy tamoyillardan biri. Shunga o‘xshash harakatlar agressiya sifatida qabul qilinadi. Har bir davlat o‘z hududi yaxlitligini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida davlat yaxlitligiga qarshi chiquvchi siyosiy partiya va jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlangan.

HUKUMAT VA UNING BOSHLIG‘I – davlatning tashqi siyosat kursini amalga oshiradi, davlat rahbari va parlament tasdig‘i uchun tashqi aloqalar bilan bog‘liq takliflarni kiritadi, xalqaro shartnomalarni bajarilishini tashkil etadi. Uch idoraning o‘zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati tashqi siyosat, xususan, diplomatiya sohasida yutuqlarga erishishda muhim o‘rin tutadi.

G‘ARB SIYOSIY SUBMADANIYATI – liberal-demokratik qadriyatlar va me‘yorlarga yo‘naltirilgan. Siyosiy tanlov va siyosiy intilishlar doirasining kengligi bilan ajralib turadi. Uning hududlarida fuqaroning siyosat subyekti sifatidagi maqomi nisbatan yuqori. Siyosiy hayot huquq tomonidan boshqarib turiladi va o‘zining xilmaxilligi bilan ajralib turadi. Bu siyosiy submadaniyat siyosiy madaniyat liberal-demokratik modelining asosiy negizi hisoblanadi.

ҚАЙДЛАР УЧУН:

ҚАЙДЛАР УЧУН:

SHUXRAT YOVQOCHEV

JAHON SIYOSATIDA ISLOM OMILI

Yovqochev Shuhrat Akmalevich

Jahon siyosatida islom omili

Taqrizchilar:

siyosiy fanlar doktori, professor **Jumayev R.Z.**

siyosiy fanlari nomzodi, dotsent **Bahadirov M.**

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrug'iga
asosan nashrga tavsiya etilgan.

Bosishga ruxsat etildi:06.06.2022
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 15 b.t.
50 nusxada bosildi. Buyurtma№
Toshkent davlat sharqshunoslik
universitetining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20 uy.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022.